O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O’RTA-MAXSUS VAZIRLIGI

NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI

“TRANSPORT VOSITALARI MUHANDISLIGI” KAFEDRASI

# YO`L HARAKATI QOIDALARI VA XAVFSIZ HARAKATLANISH ASOSLARI

**fanidan**

# OOQUV-USLUBIY MAJMUA




Namangan

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN MUXANDISLIK-QURILISh INSTITUTI

Ro'yxatga olindi:
№ 317
"04" 07 2022 y

"TASDIQLAYMAN"
O'quv ishlari bo'yicha prorektor
_________ t.f.d.Q.Inoyatov
"04" 07 2022 yil

**"TRANSPORT VOSITALARI MUHANDISLIGI " KAFEDRASI**

# YO`L HARAKATI QOIDALARI VA XAVFSIZ HARAKATLANISH ASOSLARI

**fanidan**

# O`QUV-USLUBIY MAJMUA

Namangan – 2022

«Yo’l harakati qoidalari va xavfsiz harakatlanish asoslari» fanidan tayyorlangan o’quv-uslubiy majmua oliy o’quv yurtininig 3-bosqich 5310600-Yer usti transport tizimlari va ularning ekspluatatsiyasi (avtomobil transporti), 5610100-Xizmatlar sohasi (avtotransport) ta’lim yonalishlari talabalari uchun mo’ljallangan.


Tuzuvchilar — **TRANSPORT VOSITALARI MUHANDISLIGI** kafedrasi katta o’qituvchisi A.Madraximov

Taqrizchi — **TRANSPORT VOSITALARI MUHANDISLIGI** kafedrasi dotsenti A.S.Polvonov


O’quv-uslubiy majmua Namangan muhandislik-qurulish instituti ilmiy-uslubiy kengashining __________2022__-yil yig’ilishida (_-sonli majlis bayoni) ko’rib chiqildi va foydalanishga tavsiya etildi. (ruyhat raqami №_____)

## MUNDARIJA


| | | |
|---|---|---|
| **I.** | **SILLABUS** | |
| **II.** | **FANNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI** | |
| **III.** | **NAZARIY MATERIALLAR** | |
| **1** | Умумий қоидалар. Ҳайдовчиларнинг умумий мажбуриятлари | |
| **2** | Йўл белгилари | |
| **5** | Йўл белги чизиқлари | |
| **6** | Пиёдалар ва йўловчиларнинг вазифалари. Махсус транспорт воситаларининг имтиёзлари. Ҳаракатни тартибга солиш | |
| **7** | Огоҳлантирувчи ва фалокат ишоралари. Ҳаракатни бошлаш | |
| **8** | Ҳаракатланиш тартиби | |
| **9** | Чорраҳаларда ҳаракатланиш | |
| **10** | Мураккаб шароитларда ҳаракатланиш тартиби | |
| **11** | Транспорт воситаларидан фойдаланиш тартиби | |
| **12** | Транспорт воситаларидан фойдаланишни таъқиқловчи шартлар | |
| **13** | Йўлларда ҳаракат хавфсизлигини таъминлашнинг давлат бошқаруви тизими | |
| **14** | Ҳаракат хавфсизлигини ташкил этиш асослари | |
| **15** | Йўл ҳаракатининг асосий тавсифлари | |
| **16** | ЙТҲ ва уларнинг кўрсаткичлари | |
| **17** | Пиёдаларнинг ҳаракат хавфсизлигини ошириш йўллари | |
| **18** | Автомобилнинг ҳаракати назарияси. | |
| **19** | Автомобил транспортининг эксплуатацион кўрсаткичлари. | |
| **20** | Хавфли юкларни ташиш. | |
| **21** | ЙТҲда жароҳатланганларга биринчи тиббий ёрдам кўрсатиш. | |
| **22** | Ҳайдовчи ва мансабдор шахсларнинг "Йўл ҳаракати қоидалари"ни бузганлиги учун жавобгарлиги. | |
| **IV** | **TAJRIBA VA AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI** | |
| **V** | **KEYSLAR BANKI** | |
| **VI** | **MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI** | |
| **VII** | **GLOSSARIY** | |
| **VIII** | **ADABIETLAR RO'YXATI** | |

# I. SILLABUS

| Fanning qisqacha tavsifi | | | |
|---|---|---|---|
| **OTM ning nomi va joylashgan manzili:** | Namangan muhandislik-qurulish instituti | | I.Karimov shox ko'chasi 12-uy |
| **Kafedra:** | **TRANSPORT VOSITALARI MUHANDISLIGI** | Transport fakulteti tarkibida | |
| **Ta'lim soxasi va yo'nalishi:** | 300000 – Ishlab chiqarish va texnik sohasi<br>600000- Xizmatlar sohasi<br>110000 - Pedagogika | 5310600-Yer usti transport tizimlari va ularning ekspluatatsiyasi (avtomobil transporti), 5111000 - Касб таълими: (қишлоқ хўжалигини механизациялаш), 5610100-Xizmatlar sohasi (avtotransport) ta'lim yonalishlari talabalari uchun mo'ljallangan. 5310600-Yer usti transport tizimlari va ularning ekspluatatsiyasi (avtomobil transporti), 5111000 - Касб таълими: (қишлоқ хўжалигини механизациялаш), 5610100-Xizmatlar sohasi (avtotransport) ta'lim yonalishlari talabalari uchun mo'ljallangan. | |
| **Fanni olib boradigan o'qituvchilar to'g'risida ma'lumot** | k.o'q Eshanbabayev Abror Arslanovich<br>ass. Nasritdinov Aziz | abror-2066@umail.uz | |
| **Dars mashg'uloti o'tkazishning vaqti va joyi:** | O'quv-uslubiy bo'lim tomonidan ishlab chiqilgandars jadvali asosida 2-bino 101, 312, 313, 309 auditoriyalarda | Kursning boshlanish va davom etish muddati 7 va 8 semestrlar davomida | Ta'lim yo'nalishlari o'quv rejasiga muvofiq 3 kurs 5 va 6-semestrlarda |
| **Individual grafik asosida professor-o'qituvchining** | Xaftaning Seshanba,chorshanba kunlari | | |

| **talabalar bilan ishlash vaqti:** | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **Fanga ajratilgan o'quv soatlarning o'quv turlari bo'yicha taqsimoti** | Auditoriya soatlari | | | Mustaqil ta'lim |
| | **ma'ruza** | **Amaliy** | **tajriba** | |
| **5 semestr KT(YeUTTUE), XS(AT)** | **18** | **36** | **-** | **34** |
| **6-semestr KT(YeUTTUE), XS(AT)** | **-** | **34** | **-** | **26** |
| **5-semestr KT(QXM)** | **24** | **36** | **-** | **40** |
| **6-semestr KT(QXM)** | **10** | **28** | **-** | **34** |
| **Fanni boshqa fanlar bilan uzviy aloqasi (prorekvizitlari)** | Oliy matematika, fizika, materiallar qarshiligi, mashina va mexanizmlar nazariyasi, mashina detallari va nazariy mexanika kabi fanlar bilan uzviy bogliqdir | | | |
| **Fanning mazmuni** | | | | |
| **Fanni dolzarbligi va qisqacha mazmuni** | Fanni o`qitishdan maqsad talabalarda transport vositalarining tasnifi, tuzilishi,ishlash jarayoni hamda muayyan ekspluatatsion sharoitda effektiv darajada ishlash imkoniyatini aniqlash va uning konstruktsiyasini berilgan sharoitga qay darajada moslashganligini baholash usullari bo`yicha yo`nalish profiliga mos bilim, ko`nikma va malaka shakllantirishdir.<br>Fanning asosiy vazifalari quydagilardan iborat: ***yo'l harakatini tashkil qilishning asosiy maqsadi*** deb har xil transport vositalarini yuqori tezlik bilan yo'lning turli bo'lagidan yilning har qanday ob-havo sharoitlarida xavfsiz o'tkazish tushuniladi. Harakatni tashkil etishning ***asosiy vazifalari*** quyidagilardan iborat:<br>transport vositalarining harakat tartibini belgilash va ta'minlash;<br>avtomobillarning yuqori samaradorlik bilan ishlashini har qanday ob-havo sharoitida ta'minlash va eng yaxshi yo'l sharoitlarini vujudga keltirish;<br>harakat xavfsizligini yo'lning har qanday bo'lagida va turli ob-havo sharoitlarida ta'minlash;<br>atrof - muhitni bulg'atmaslik;<br>transport vositalarining va yo'l inshootlarining tez ishdan chiqmasligini ta'minlash.<br>Ushbu fan ma`ruza, laborotoriya mashgulotlarini o'qitish turlaridan iborat.<br>Fanni o`qitish jarayonida zamonaviy yangi pedagogik | | | |

| | |
|---|---|
| | texnologiyalar, zamonaviy chet el texnik adabiyotlari darslik va o`quv qo`llanmalardan foydalanish ko`zda tutilgan. |
| **Talabalar uchun talablar** | -xalq xo`jaligida HXTEAning ahamiyati haqida;<br>- Tvni harakat oqimining tasniflanishi haqida;<br>- HXTEAni tavsiflovchi ko'rsatkichlar haqida;<br>- HXni takomillashtirish yo`nalishlari haqida;<br>- Avtamobilning konstruktiv turlari haydovch va yo'l sharoitining HX ta'minlashdagi o'ni hamda YX tartibga soluvch texnik vositalarni qo'llash;<br>- ilmiy-texnik adabiyotlardan foydalanish;<br>- ko'cha yo'l sharoitida transport vositalar oqimi, harakat miqdorini va tarkibini hamda tezligini, texnik vositalar joylashuvini, QTH tahlilini, haydovchini diqqatini o'rganish;<br>- HX ning asosiy ilmiy-texnikaviy muammolari va taraqqiyot istiqbollari;<br>- HXga asosiy texnik-iqtisodiy talablar;<br>- HXni samaradorligi mezonlarini bilish va ulardan foydalana olish;<br>- HXni hisoblash va muayyan ishlatish sharoitlari uchun ularni komplektlash;<br>- HX ning muayyan foydalanish sharoitlariga moslashuvini va samaradorligini oshirish bo`yicha tavsiyalarni ishlab chiqish;<br>- Muayyan ishlatish sharoitlari uchun HXini tanlash va komplektlash;<br>- QTH ning foydalanish xususiyatlari ko`rsatkichlarini hisoblash;<br>- Avtomobilning konstruktiv xavfsizlik turlarini baholash |
| **Elektron pochta orqali munosabatlar tartibi** | Professor-o'qituvchi va talaba o'rtasidagi aloqa elektron pochta orqali ham amalga oshirilishi mumkin, telefon orqali baho masalasi muxokama qilinmaydi, lekin oraliq, joriy va yakuniy nazoratlar institut xududida belgilangan auditoriyalarda dars davomida amalga oshiriladi. |

# II. FANNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI

## "YO'L HARAKATI QOIDALARI VA XAVFSIZ HARAKATLANISH ASOSLARI" FANIDAN TA'LIM TEXNOLOGIYaSINING KONTSEPTUAL ASOSLARI

### 1. "Yo'l harakati qoidalari va xavfsiz harakatlanish asoslari" fanining dolzarbligi va ahamiyati.

Yo'l harakatini tashkil etishda bakalavr faoliyatining asosiy maqsadi yo'l harakatini muntazzam ravishda xavfsiz, qulay va samarali bo'lishini ta'minlash hamda tashkiliy tadbirlarni tuza bilish va ularni amalga oshirishdan iboratdir. «Yo'l harakati qoidalari va xavfsiz harakatlanish asoslari» fanini o'qitish jarayonida talabalarga Harakat ishtirokchisi(haydovchi, yo'lovchi, piyoda)sifatida avtomobil yo'llarida faoliyat ko'rsatishlari uchun zarur nazariy bilimlar hamda amaliy ko'nikmalar o'rgatiladi.

Ushbu fanni o'rganayotgan talabalar quyidagi fanlarni chuqur o'zlashtirgan bo'lishlari kerak: «Oliy matematika», «Fizika», «Informatika», «CHizma geometriya», «Nazariy mexanika», «Materiallar qarshiligi», «Transport vositalarining tuzilishi», «Elektr texnikasi va elektronika», «Issiqlik texnikasi», «Ichki yonuv dvigatellari» va h.k.

«Yo'l harakati qoidalari va xavfsiz harakatlanish asoslari» fanini o'qitish jarayonida kompyuter va zamonaviy elektron o'quv texnologiyalarini qo'llash, amaliy mashg'ulotlarda talabalar ko'cha yo'l sharoitlarida yo'l harakati qoidalarining bandlari bo'yicha berilgan masalalarni yecha olishga o'rganadilar.

«Yo'l harakati qoidalari va xavfsiz harakatlanish asoslari» fani hisoblanib, 6-7-semestrlarda o'qitiladi. Dasturni amalga oshirish o'quv rejasida rejalashtirilgan matematik va tabiiy (oliy matematika, fizika, nazariy mexanika), umumkasbiy (mashina detallari; mashina va mexanizmlar nazariyasi; metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlash; gidravlika va gidromashinalar; kon ishlari asoslari; elektr yuritma, elektr mashinalar; elektr apparatlar va avtomatlashtirish vositalari va h.k.) va ixtisoslik (kon mashinalari; kon korxonalari yuklari va yuk oqimlari va h.k.) fanlaridan yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlik talab etiladi.

Avtomobilь yo'llarida va shahar ko'chalarida harakat xavfsizligini ta'minlashda, yo'l harakati qoidalarini va xavfsiz harakatlanish asoslarini bilish katta ahamiyatga ega.

Zamonaviy avtomagistrallarda va tezyurar shahar ko'chalarida yo'l harakati qoidalariga rioya qilishni ta'minlash bilan yo'l-transport hodisalarini kamaytirishga erishish mumkin. Yo'l harakatini tashkil etishda yo'l belgilarini, yo'l belgi chiziqlarini Davlat namunalari talablariga asosan bajarish muhim ahamiyatga ega bo'lib, harakatni boshqarishni avtomatik ravishda ijro etishning asosi hisoblanadi.

«Yo'l harakati qoidalari va xavfsiz harakatlanish asoslari» fanini o'zlashtirish uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar hamda real holatdagi transport oqimlarining video yozuvlari va foliyalardan foydalaniladi.

Davlat ta'lim standartida bakalavrning tayyorgarlik darajasiga quyidagi talablar qo'yilgan.

**Bakalavr:**

- dunyoqarash tavsifidagi bilimlar tizimini egallagan bo'lishi; gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar asosini, davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi; ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

- Vatan tarixini bilishi; milliy va umuminsoniy qadriyatlar bo'yicha o'z nuqtai nazarini bayon etishi va ilmiy asoslay olishi, milliy g'oya asosida faol hayotiy o'rinni egallashi;

- tabiat va jamiyatda yuz berayotgan jarayonlar va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lishi, tabiat va jamiyat rivojlanishi haqida bilimlarga ega bo'lishi, ulardan hayotda va kasbiy faoliyatda zamonaviy ilmiy asoslarda foydalana olishi;

- insonlar orasidagi jamiyatga, atrof-muhitga bo'lgan munosabatini tartibga soluvchi huquqiy va axloqiy me'yorlarni kasbiy faoliyatda hisobga ola bilishi;

- axborotni to'plash, tahlil qilish, saqlash, ularga ishlov berish va unumli foydalanish metodlarini egallash; o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil fikrlash va kerakli qarorlar qabul qila olishi;

- bakalavriatning mos yo'nalishi bo'yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi;

- yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtira olishi, o'zini takomillashtirish va o'z mehnatini ilmiy asosda tashkil qila bilishi;

- sog'lom turmush tarzini shakllantirish, jismonan baquvvat va sport bilan shug'ullanib borish zarurati haqida ilmiy tasavvurga va e'tiqodga ega bo'lishi;

- kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimida qo'shimcha kasbiy ta'lim olishi kerak.

"«Yo'l harakati qoidalari va xavfsiz harakatlanish asoslari» fani o'qituvchisi doimo o'z pedagogik mahoratini oshirib, uni san'at darajasiga yetkazib borishi kerak. O'z fikrini tushunarli, ko'rgazmali ifodalay bilishi, jahon va mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi voqealarga o'z munosabatini bildirishi, ta'lim berishga ijodiy yondoshuvni rivojlantirib borishi kerak.

O'qituvchining ijodiy yondoshuvi talaba tomonidan yo'l harakati qoidalari va xavfsiz harakatlanish asoslarini o'rganishga ijodiy yondoshuvining bevosita shartidir.

Odatdagi ma'ruza darslarining an'anaviy tarzda, ilg'or pedagogik usullarsiz olib borilishi talabadan faollik talab qilmaydi. Darsni o'zlashtirish ham osonday tuyuladi, fanga nisbatan qiziqish uyg'onmaydi. Muammoli holatlarning yaratilishi, aniq misollar yordamida masalalarning yechilishi, talabani fanga qiziqtirish, uning faolligini oshirib, kengroq fikrlashga, maqsadga qarab intilishga, kerakli bilim va ko'nikmalar hosil qilishga yordam beradi.

Respublikamizda yetakchi olimlar tomonidan bu sohada munosib ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Toshkent avtomobil-yo'llar institutida chop etilayotgan yangi darsliklar, o'quv qo'llanmalar talaba va o'qituvchilarning bu boradagi ehtiyojlariga qaratilgan.

«Yo'l harakati qoidalari va xavfsiz harakatlanish asoslari» fanidan ma'ruza va seminar mashg'ulotlari mavzularining soatlar bo'yicha taqsimoti
jadvali

| № | Mavzularning nomi | Auditoriya soatlari | |
|---|---|---|---|
| | | Ma'ru-za | Amaliy mashg'u-lotlar |
| I mavzu. O'zbekiston Respublikasida yo'l harakatining yagona tartibi. Umumiy qoidalar. | | | |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 1 | Kirish. Umumiy qoidalar. Qoidalarda qo'llanilgan asosiy tushuncha va atamalar. Haydovchilarning umumiy majburiyatlari. YTH sodir etgan haydovchilarning vazifalari. Piyodalarning vazifalari. Yo'lovchilarning vazifalari. | 2 | 1 |
| II mavzu. Yo'l belgilari | | | |
| 2 | Yo'l belgilari. Ogohlantiruvchi belgilar. Imtiyoz belgilari. Taqiqlovchi belgilar. Buyuruvchi belgilar. Axborot-ishora belgilari. Servis belgilari. Qo'shimcha axborot belgilari. Belgilarni o'rnatishga qo'yiladigan talablar. Yo'l belgilarini ko'cha-yo'l sharoitida qo'llash | 4 | 2 |
| III mavzu. Yo'l belgi chiziqlari | | | |
| 3 | Yo'l belgi chiziqlari. Yo'l belgi chiziqlarining guruxlari. Yo'l belgi chiziqlarini qo'llash sharoitlari. Yotiq yo'l belgi chiziqlari. Tik yo'l belgi chiziqlari. | 2 | 2 |
| IV mavzu. Maxsus transport vositalarining imtiyozlari. Harakatni boshqarish. | | | |
| 4 | Maxsus transport vositalarining imtiyozlari. Svetofor-larning ishoralari. Tartibga soluvchining ishoralari | 2 | 2 |
| V mavzu. Ogohlantiruvchi va falokat ishoralari. Harakatni boshlash. Yo'nalishni o'zgartirish. | | | |
| 5 | Ogohlantiruvchi va falokat ishoralari. Falokatda to'xtash belgisi. Harakatni boshlash. Yo'nalishni o'zgartirish. | 2 | 1 |
| VI mavzu. Yo'lning qatnov qismida transport vositalarining joylashishi. Harakat tezligi. Quvib o'tish. To'xtash. To'xtab turish. | | | |
| 6 | Yo'lning qatnov qismida transport vositalarining joylashishi. Harakat tezligi.. Quvib o'tish. To'xtash. To'xtab turish. | 2 | 2 |
| VII mavzu. CHorraxalarda harakatlanish | | | |
| 7 | Tartibga solingan chorrahalar. Tartibga solinmagan chorrahalar. Piyodalarning o'tish joylari va belgilangan yo'nalishdagi transport vositalarining bekatlari. | 2 | 2 |
| VIII mavzu. Murakkab sharoitlarda harakatlanish | | | |
| 8 | Temir yo'l kesishmalari orqali harakatlanish. Avtomagistrallarda harakatlanish . Turar joy dahalarida harakatlanish. Tik nishablik va tik balandliklarda hara-katlanish. Belgilangan yo'nalishdagi transport vosita-larining imtiyozlari. Tashqi yoritish asboblaridan foyda-lanish. Mexanik transport vositalarini shatakka olish. | 2 | 2 |
| IX mavzu. Transport vositalaridan foydalanish | | | |
| 9 | Transport vositalarini boshqarishni o'rgatish. Odam tashish. Yuk tashish. Velosiped va aravalar harakatlanishi, hayvonlarni haydab o'tishga doir qo'shimcha talablar. Mansabdor shaxslar va fuqorolarning yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash bo'yicha vazifalari. | 2 | 2 |
| X mavzu. Transport vositalaridan foydalanishni taqiqlovchi shartlar | | | |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 10 | Tormoz tizimi nosozliklari bo'yicha taqiqlovchi shartlar. Boshqaruv qurilmasi va tashqi yoritgichlar bo'yicha taqiq-lovchi shartlar. Oyna tozalagich, shinalar, dvigatel bo'yicha va boshqa taqiqlovchi shartlar. | 2 | 1 |
| XI mavzu. Yo'llarda harakat xavfsizligini ta'minlashning davlat boshqaruvi tizimi. | | | |
| 11 | O'zbekiston Respublikasining harakat xavfsizligi to'g'-risidagi Qonun. Davlat vakolatli organlari. Vazirlar Mahkamasining vakolatlari, IIV YHXB vakolatlari. O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi. «O'zavtoyo'l» DAK. vakolatlari. Mahalliy Davlat hokimiyat organlarining vakolatlari. | 2 | - |
| XII mavzu. Harakat xavfsizligini tashkil etish asoslari | | | |
| 12 | Yo'l harakatini tashkil etishda «Avtomobil-haydovchi-yo'l-piyoda-muhit» tizimining o'zaro bog'liqligi, O'zbekiston Respublikasida avtomobillashtirish va yo'l tarmoqlari-ning o'sish ko'rsatkichlari. | 2 | - |
| XIII mavzu. Yo'l harakatining asosiy tavsiflari | | | |
| 13 | Transport va piyodalar harakatini tavsiflovchi ko'rsatkichlar. Harakat miqdori. Harakat tarkibi. Transport va piyodalar oqimining tezligi va zichligi. | 2 | - |
| XIV mavzu. Yo'l-transport hodisalari va ularning ko'rsatkichlari | | | |
| 14 | YTH ta'rifi, turlari, miqdori haqidagi ma'lumotlar. YTHni hisobga olish. YTHni tahlil qilishning vazifa-lari va usullari. YTH vujudga kelishida yo'l sharoiti-ning roli. YTHni vujudga kelishida transport vositala-rini texnik holatini ta'siri. YTH vujudga kelishida haydovchilarning o'rni. YTH natijasida vujudga keluvchi zararni baholash. | 2 | - |
| XV mavzu. Piyodalar harakati xavfsizligini ta'minlash | | | |
| 15 | Piyodalar harakat xafvsizligini oshirish yo'llari. Piyodalar harakatini tashkil etish tamoyillari. Piyodalar o'tish joylarida ziddiyatsiz harakatni tashkil etish. | 2 | - |
| XVI mavzu. Birinchi tibbiy yordam ko'rsatish | | | |
| 16 | YTHda jarohatlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish. Tibbiy yordam ko'rsatish bosqichlari. Jarohatlarda va qon oqishda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish. Nafas olish va yurak urishi to'xtaganda birinchi yordam ko'rsatish.YHQB sodir etganlarning administrativ, jinoiy javobgarligi. | 4 | - |
| | JAMI | 36 | 17 |

## 2. “Yo’l harakati qoidalari va xavfsiz harakatlanish asoslari” fanining mazmuni va mohiyati

### 1-mavzu. O’zbekiston Respublikasida yo’l harakatining yagona tartibi. Umumiy qoidalar.

Kirish. Umumiy qoidalar. Qoidalarda qo’llanilgan asosiy tushuncha va atamalar. Haydovchilarning umumiy majburiyatlari. YTH sodir etgan haydovchilarning vazifalari. Piyodalarning vazifalari. Yo’lovchilarning vazifalari.

### 2 -mavzu. Yo’l belgilari

Yo’l belgilari. Ogohlantiruvchi belgilar. Imtiyoz belgilari. Taqiqlovchi belgilar. Buyuruvchi belgilar. Axborot-ishora belgilari. Servis belgilari. Qo’shimcha axborot belgilari. Belgilarni o’rnatishga qo’yiladigan talablar. Yo’l belgilarini ko’cha-yo’l sharoitida qo’llash.

### 3 -mavzu. Yo’l belgi chiziqlari

Yo’l belgi chiziqlari. Yo’l belgi chiziqlarining guruxlari. Yo’l belgi chiziqlarini qo’llash sharoitlari. Yotiq yo’l belgi chiziqlari. Tik yo’l belgi chiziqlari.

### 4 -mavzu. Maxsus transport vositalarining imtiyozlari. Harakatni boshqarish

Maxsus transport vositalarining imtiyozlari. Svetoforlarning ishoralari. Tartibga soluvchining ishoralari.

### 5 -mavzu. Ogohlantiruvchi va falokat ishoralari. Harakatni boshlash. Yo’nalishni o’zgartirish.

Ogohlantiruvchi va falokat ishoralari. Falokatda to’xtash belgisi. Harakatni boshlash. Yo’nalishni o’zgartirish.

### 6 -mavzu. Yo’lning qatnov qismida transport vositalarining joylashishi. Harakat tezligi. Quvib o’tish. To’xtash. To’xtab turish.

Yo’lning qatnov qismida transport vositalarining joylashishi. Harakat tezligi.. Quvib o’tish. To’xtash. To’xtab turish.

**7 -mavzu.** CHorraxalarda harakatlanish

Tartibga solingan chorrahalar. Tartibga solinmagan chorrahalar. Piyodalarning o’tish joylari va belgilangan yo’nalishdagi transport vositalarining bekatlari.

### 8 -mavzu. Murakkab sharoitlarda harakatlanish

Temir yo’l kesishmalari orqali harakatlanish. Avtomagistrallarda harakatlanish . Turar joy dahalarida harakatlanish. Tik nishablik va tik balandliklarda harakatlanish.

Belgilangan yo'nalishdagi transport vosita-larining imtiyozlari. Tashqi yoritish asboblaridan foydalanish. Mexanik transport vositalarini shatakka olish.

**9 -mavzu. Transport vositalaridan foydalanish**

Transport vositalarini boshqarishni o'rgatish. Odam tashish. Yuk tashish. Velosiped va aravalar harakatlanishi, hayvonlarni haydab o'tishga doir qo'shimcha talablar. Mansabdor shaxslar va fuqorolarning yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash bo'yicha vazifalari.

**10 -mavzu. Transport vositalaridan foydalanishni taqiqlovchi shartlar**

Tormoz tizimi nosozliklari bo'yicha taqiqlovchi shartlar. Boshqaruv qurilmasi va tashqi yoritgichlar bo'yicha taqiq-lovchi shartlar. Oyna tozalagich, shinalar, dvigatel bo'yicha va boshqa taqiqlovchi shartlar.

**11 -mavzu. Yo'llarda harakat xavfsizligini ta'minlashning davlat boshqaruvi tizimi**

O'zbekiston Respublikasining harakat xavfsizligi to'g'-risidagi Qonun. Davlat vakolatli organlari. Vazirlar Mahkamasining vakolatlari, IIV YHXB vakolatlari. O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi. «O'zavtoyo'l» DAK. vakolatlari. Mahalliy Davlat hokimiyat organlarining vakolatlari.

**12 -mavzu. Harakat xavfsizligini tashkil etish asoslari**

Yo'l harakatini tashkil etishda «Avtomobil-haydovchi-yo'l-piyoda-muhit» tizimining o'zaro bog'liqligi, O'zbekiston Respublikasida avtomobillashtirish va yo'l tarmoqlari-ning o'sish ko'rsatkichlari.

**13 -mavzu. Yo'l harakatining asosiy tavsiflari**

Transport va piyodalar harakatini tavsiflovchi ko'rsatkichlar. Harakat miqdori. Harakat tarkibi. Transport va piyodalar oqimining tezligi va zichligi.

**14 -mavzu. Yo'l-transport hodisalari va ularning ko'rsatkichlari**

YTH ta'rifi, turlari, miqdori haqidagi ma'lumotlar. YTHni hisobga olish. YTHni tahlil qilishning vazifalari va usullari. YTH vujudga kelishida yo'l sharoitining roli. YTHni vujudga kelishida transport vositala-rini texnik holatini ta'siri. YTH vujudga kelishida haydovchilarning o'rni. YTH natijasida vujudga keluvchi zararni baholash.

**15 -mavzu. Piyodalar harakati xavfsizligini ta'minlash**

Piyodalar harakat xafvsizligini oshirish yo'llari. Piyodalar harakatini tashkil etish tamoyillari. Piyodalar o'tish joylarida ziddiyatsiz harakatni tashkil etish.

**16 -mavzu. Birinchi tibbiy yordam ko'rsatish**

YTHda jarohatlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish. Tibbiy yordam ko'rsatish bosqichlari. Jarohatlarda va qon oqishda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish. Nafas olish va yurak urishi to'xtaganda birinchi yordam ko'rsatish.YHQB sodir etganlarning administrativ, jinoiy javobgarligi.

## 3. "Yo'l harakati qoidalari va xavfsiz harakatlanish asoslari" fani bo'yicha ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarida ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqishning kontseptual asoslari

Ta'lim texnologiyasi insoniylik tamoyillariga tayanadi. Falsafa, pedagogika va psixologiyada bu yo'nalishning o'ziga xosligi talabaning individualligiga alohida e'tibor berish orqali namoyon bo'ladi.

SHulardan kelib chiqqan holda "Yo'l harakati qoidalari va xavfsiz harakatlanish asoslari" kursining ta'lim texnologiyalarini loyihalashtirishda quyidagi asosiy kontseptual yondashuvlarga e'tibor berish kerak.

**Ta'limning shaxsga yo'naltirilganligi.** O'z mohiyatiga ko'ra bu yo'nalish ta'lim jarayonidagi barcha ishtirokchilarning to'laqonli rivojlanishini ko'zda tutadi. Bu esa Davlat ta'lim standarti talablariga rioya qilgan holda talabaning intellektual rivojlanishi darajasiga yo'naltirilib qolmay, uning ruhiy-kasbiy va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishni ham anglatadi.

- **Tizimli yondashuv**. Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam qilishi zarur: jarayonning mantiqiyligi, undagi qismlarning o'zaro aloqadorligi, yaxlitligi.
- **Amaliy yondashuv**. SHaxsda ish yuritish xususiyatlarini shakllantirishga ta'lim jarayonini yo'naltirish; o'quvchi faoliyatini faollashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha layoqati va imkoniyatlarini, sinchkovligi va tashabbuskorligini ishga solishni shart qilib qo'yadi.
- **Dialogik yondashuv.** Ta'lim jarayonidagi ishtirokchi sub'ektlarning psixologik birligi va o'zaro hamkorligini yaratish zaruratini belgilaydi. Natijada esa, shaxsning ijodiy faolligi va taqdimot kuchayadi.
- **Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish.** Demokratiya, tenglik, sub'ektlar munosabatida o'qituvchi va o'quvchining tengligi, maqsadini va faoliyat mazmunini birgalikda aniqlashni ko'zda tutadi.
- **Muammoli yondashuv.** Ta'lim jarayonini muammoli holatlar orqali namoyish qilish asosida o'quvchi bilan birgalikdagi hamkorlikni faollashtirish usullaridan biridir. Bu jarayonda ilmiy bilishning ob'ektiv ziddiyatlarini aniqlash va ularni hal qilishning dialektik tafakkurni rivojlantirish va ularni amaliy faoliyatda ijodiy ravishda qo'llash ta'minlanadi.
- **Axborot berishning eng yangi vosita va usullaridan foydalanish,** ya'ni o'quv jarayoniga kompьyuter va axborot texnologiyalarini jalb qilish.

Yuqoridagi kontseptual yondashuv va "Harakat xavfsizligini tashkil etish asoslari" fanining tarkibi, mazmuni, o'quv axborot hajmidan kelib chiqqan holda o'qitishning quyidagi usul va vositalari tanlab olindi.

- **O'qitish usullari va texnikasi**: muloqot, keys stadi, muammoli usul, o'rgatuvchi o'yinlar, "aqliy hujum", insert, "Birgalikda o'rganamiz", pinbord, ma'ruza (kirish ma'ruzasi, vizual ma'ruza, tematik, ma'ruza-konferentsiya, aniq holatlarni yechish, avvaldan rejalashtirilgan xatoli, sharhlovchi, yakuniy).
- **O'qitishni tashkil qilish shakllari**: frontal, kollektiv, guruhiy, dialog, polilog va o'zaro hamkorlikka asoslangan.
- **O'qitish vositalari**: odatdagi o'qitish vositalari (darslik, ma'ruza matni, tayanch konspekti, kodoskop)dan tashqari grafik organayzerlar, kompьyuter va axborot

texnologiyalari.

• **O’zaro aloqa vositalari**: nazorat natijalarining tahlili asosida o’qitishning diagnostikasi (tashxisi).

• **Boshqarishning usuli va vositalari.** O’quv mashg’ulotini texnologik karta ko’rinishida rejalashtirish o’quv mashg’ulotining bosqichlarini belgilab, qo’yilgan maqsadga erishishda o’quvchi va o’qituvchining hamkorlikdagi faoliyatini talabalarning auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarini aniqlab beradi.

**Monitoring va baholash.** O’quv mashg’uloti va butun kurs davomida o’qitish natijalarini kuzatib borish, o’quvchi faoliyatini har bir mashg’ulot va yil davomida reyting asosida baholash.

**Ma’ruza mashg’ulotini tashkil etishning shakl va xususiyatlari:**

| № | Ma’ruza shakllari | O’ziga xos tavsiflovchi xususiyatlari |
|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 |
| 1 | Kirish ma’ruzasi | Fan to’g’risida yaxlit tasavvur hamda ma’lum yo’nalishlar beradi.<br>Pedagogik vazifasi: talabani ushbu fanning vazifalari va maqsadi bilan tanishtirish, kasbiy tayyorgarlik tizimida uning o’rni va rolini belgilash, kursning qisqacha sharhini berish, fanning yutuqlari va taniqli olimlar nomlari bilan tanishtirib, kelajakdagi izlanishlarning yo’nalishini belgilash, tavsiya qilingan o’quv-uslubiy adabiyotlar tahlilini berish, hisobot va baholashning muddatlari va shakllarini belgilash |
| 2 | Ma’ruza axborot | Ma’ruzaning odatdagi an’anaviy turi. Pedagogik vazifasi: o’quv ma’lumotlarini bayon qilish va tushuntirish. |
| 3 | SHarhlovchi ma’ruza | Bayon qilinayotgan nazariy fikrlarning o’zagini, ilmiy tushunchalar va butun kurs yoki bo’limlarining kontseptual asosini tashkil etadi.<br>Pedagogik vazifasi: ilmiy bilimlarni tizimlashtirishni amalga oshirish, fanlarning o’zaro aloqadorligini ochish. |
| 4 | Muammoli ma’ruza | Yangi bilimlar qo’yilgan savol, masala, holatning muammoliligi orqali beriladi. Bunda o’quvchining o’qituvchi bilan birgalikdagi bilish jarayoni ilmiy izlanishga yaqinlashdi.<br>Pedagogik vazifasi: yangi o’quv axborotining mazmunini ochish, muammoni qo’yish va uni yechimini topishni tashkil qilish, hozirgi zamon nuqtai nazarlarini tahlil qilish. |
| 5 | Vizual ma’ruza | Ma’ruzaning mazkur shakli vizual materiallarni namoyish etish hamda ularga aniq va qisqa sharhlar berishga qaratilgan. Pedagogik vazifasi: yangi o’quv ma’lumotlarini o’qitishning texnik vositalari va audio, videotexnika yordamida berish. |
| 6 | Binar (ikki kishilik) ma’ruza | Bu ma’ruza ikki o’qituvchining yoki ikkita ilmiy maktab namoyondasining, o’qituvchi-talabaning dialogidan iborat. |

| | | |
|---|---|---|
| | | Pedagogik vazifasi: yangi o'quv ma'lumotlarining mazmunini yoritish. |
| 7 | Avvaldan rejalashtiril-gan xatoli ma'ruza | Xatolarni izlashga mo'ljallangan mazmuni va uslubiyatida, ma'ruza oxirida tinglovchilar tashxisi o'tkaziladi va qilingan xatolar tekshiriladi.<br>Pedagogik vazifasi: yangi materiallar mazmunini yoritish, berilgan ma'lumotni doimiy nazorat qilishga talabalarni rag'batlantirish. |
| 8 | Ma'ruza konferentsiya | Avvaldan qo'yilgan muammo va dokladlar tizimi (5-10 minut)dan iborat ilmiy-amaliy dars sifatida o'quv dasturi chegarasida o'tiladi. Dokladlar birgalikda muammoni har tomonlama yoritishga qaratilishi kerak. Mashg'ulot oxirida o'qituvchi mustaqil ishlar va talabalarning ma'ruzalarga yakun yasab, to'ldirib, aniqlashtirib xulosa qiladi.<br>Pedagogik vazifasi: yangi o'quv ma'lumotning mazmunini yoritish. |
| 9 | Maslahat ma'ruza | Turli stsenariylar yordamida o'tishi mumkin. Masalan, 1) «Savol-javob» - ma'ruzachi tomonidan butun kurs bo'yicha yoki alohida bo'lim bo'yicha savollarga javob beriladi. 2) «Savol-javob-diskussiya» - izlanishga imkon beradi.<br>Pedagogik vazifasi: yangi o'quv ma'lumotni o'zlashtirishga qaratilgan. |

# “YO’L HARAKATI QOIDALARI VA XAVFSIZ HARAKATLANISH ASOSLARI” FANIDAN MA’RUZA VA LABORATORIYa MASHG’ULOTLARINI O’QITISH TEXNOLOGIYaSI

## 1-mavzu. O’zbekiston Respublikasida yo’l harakatining yagona tartibi. Umumiy qoidalar.

### Ma’ruza mashg’ulotining o’qitish texnologiyasi

| | |
|---|---|
| Vaqti – 2 soat | Talabalar soni: 45-50 nafar |
| 1.1. Ma’ruza mashg’ulotining o’qitish texnologiyasi.<br>O’quv mashg’ulotining shakli | Kirish, vizual ma’ruza |
| Ma’ruza mashg’ulotining rejasi | 1.Yo’l harakati qoidalari o’qitishning maqsadi va vazifalari.<br>2. Umumiy qoidalar.<br>3. Qoidalarda qo’llanilgan asosiy tushuncha va atamalar.<br>4. Haydovchining umumiy majburiyatlari.<br>5. Yo’l-transport xodisasi sodir etgan haydovchilar-ning vazifalari. |
| ***O’quv mashg’ulotining maqsadi:*** “Yo’l harakati qoidalari va xavfsiz harakatlanish asoslari” fanining predmeti va bilish usullari, boshqa fanlar bilan aloqasi to’g’risida bilimlarni hamda to’liq tasavvurni shakllantirish. | |
| ***Pedagogik vazifalar:***<br>-fanning predmetini tushuntirish;<br>-asosiy atama va tushunchalar bilan tanishtirish;<br>-haydovchilarning vazifalarini tushun-tirish;<br>- YTH sodir etgan haydovchilarning vazifalarini o’rga-tish. | ***O’quv faoliyatining natijalari:*** Talaba:<br>-fanning predmetini izohlaydi;<br>-asosiy tushunchalar va atamalarga ta’rif beradi;<br>- haydovchining vazifalarini tavsiflaydi;<br>-harakat xavfsizligiga ta’sir etuvchi asosiy omillarga ta’rif beradi;<br>-ilmiy bilishning asosiy usullarini sanab beradi va izohlaydi;<br>-“Yo’l harakati qoidalari va xavfsiz harakatlanish asoslari” fanining boshqa fanlar bilan o’zaro aloqasini va uni fanlar ichida tutgan o’rnini tushuntirib beradi. |
| O’qitish uslubi va texnikasi | Vizual ma’ruza, blits-so’rov, bayon qilish, klaster, “ha-yo’q” texnikasi. |
| O’qitish vositalari | Ma’ruzalar matni, proektor, tarqatma materiallar, grafik organayzerlar. |
| O’qitish shakli | Jamoa, guruh va juftlikda ishlash. |
| O’qitish shart-sharoiti | Proektor, kompьyuter bilan jihozlangan auditoriya. |

### Ma’ruza mashg’ulotining texnologik kartasi (1-mashg’ulot)

| Bosqichlar, vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|---|
| | **O'qituvchi** | **Talaba** |
| 1-bosqich.<br>Kirish<br>(10 min.) | 1.1. Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar ma'lum qilinadi. | 1.1. Eshitadi, yozib oladi. |
| 2-bosqich.<br>Asosiy<br>(60 min.) | 2.1. Talabalar e'tiborini jalb etish va bilim darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javob o'tkazadi:<br>- Yo'l harakati qoidalari bo'yicha Vena shartnomasida qanday masalalar ko'rildi?<br>- Yo'l harakati qoidalarini o'qitishda atama va tushunchalar nima uchun kerak?<br>- Amaldagi Yo'l harakati qoidalari qachon va kim tomonidan qabul qilingan?<br>2.2. O'qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma'ruzani bayon etishda davom etadi. Yo'l harakati qoidalarida qabul qilingan asosiy atama va tushunchalarni tushuntiradi.<br>2.3.Haydovchilarning vazifalarini, majburiyatlarini tushuntiradi.<br>YTH sodir etgan haydovchining vazifalarini tushuntiradi.<br>2.4. Haydovchilarga taqiqlangan shartlarni tushuntirib beradi. | 2.1. Eshitadi.<br>Navbat bilan savolarga ja-vob beradi.<br>O'ylaydi, javob beradi.<br>Javob beradi va to'g'ri javob-ni eshitadi.<br>2.2. Berilgan ma'lumotlarning mazmunini muho-kama qiladi.<br>Savollar berib, asosiy joylarini yozib oladi.<br>2.3. Eslab qoladi, yozadi.<br>Har bir savolga javob berishga harakat qiladi.<br>Ta'rifni yozib oladi, misollar keltiradi.<br>2.4. Eslab qoladi, yozadi.<br>Har bir savolga javob berishga harakat qiladi. |
| 3-bosqich.<br>Yakuniy<br>(10 min.) | 3.1. Mavzuga yakun yasaydi va talabalar e'tiborini asosiy masalalarga qaratadi. Faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi. Mustaqil ish uchun vazifa: "Qoidalarda qo'llanilgan asosiy tushuncha va atamalar"ga klaster tuzishni vazifa qilib beradi, baholaydi. | 3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi.<br>3.2. Topshiriqni yozib oladi. |

## Vizual materiallar

*1-ilova*

**1-savol: Yo'l harakati qoidalari va xavfsiz harakatlanish asoslarini o'qitishning maqsadi va vazifalari**

***Yo'l harakati*** - odamlar va yuklarning transport vositalari yordamida yoki bunday vositalarsiz yo'llar doirasida xarakatlanishi jarayonida yuzaga keluvchi munosabatlar majmui.

***Yo'l harakatini tashkil etish***- yo'llarda xarakatni boshqarish bo'yicha xuquqiy, tashkiliy-texnikaviy tadbirlar va boshqaruv xarakatlari majmui.

***Yo'l xarakati xavfsizligi*** - yo'l xarakati qatnashchilarining yo'l-transport hodisalari va ularning oqibatlaridan ximoyalanganlik darajasini aks ettiruvchi yo'l xarakati xolati.

Yuqorida berilgan tavsiflarga ko'ra «Yo'l harakati qoidalari va xavfsiz harakatlanish asoslari (YHQ va XHA) fanini o'qitishdan ***asosiy maqsad*** talabalarga yo'l harakati ishtirokchisi sifatida YHQ o'rgatish, yo'llarda xavfsiz harakatlanish asoslari va avtomobilni xavfsiz boshqarishni ta'minlash bo'yicha bilimlar berishdan iborat.

YHQ va XHA fanini o'qitishning ***vazifalari*** quyidagilardan iborat:
-O'zbekistan Respublikasi yo'l harakati xavfsizligi to'g'risidagi
Qonunini;

-yo'l harakatining asosiy tavsiflarini o'rgatish, YTH,
- piyodalar ishtirokidagi YTHni,
-YTHning kelib chikish sabablarini o'rgatish;
-piyodalarning xavfsiz harakatlanishini ta'minlash;
-yo'l harakati qoidalarini turli yo'l sharoitlarida qo'llashni bilishni;
-avtomobilni xavfsiz boshqarishni o'rgatish.

*2-ilova*

**2-savol: Umumiy qoidalar**

1.1. Ushbu Yo'l harakati qoidalari (keyingi o'rinlarda – "Qoidalar" deb ataladi)respublika hududidagi yo'llarda harakatlanishning yagona tartibini belgilaydi.

1.2. O'zbekiston Respublikasi yo'llarida transport vositalarining o'ng taraflama harakatlanish tartibi belgilangan.

1.3. Yo'l harakati qatnashchilari "Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, ushbu qoidalarni va unda keltirilgan svetofor ishoralari, yo'l belgilari (1 – ilova), qatnov qismidagi chiziqlar (2 – ilova)ning o'zlariga tegishli bo'lgan talablarni bilishlari, ularga amal qilishlari, shuningdek, o'zlariga berilgan huquq doirasida yo'llarda harakatni boshqarayotgan tartibga soluvchilarning ko'rsatmalarini so'zsiz bajarishlari shart.

1.4. Yo'l harakati qatnashchilari harakatlanish vaqtida boshqa qatnashchilarning harakatlanishiga xavf tug'dirmasliklari kerak. Vakolati bo'lmagan jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan yo'l qoplamasini buzish yoki ifloslantirish, yo'l belgilarini, svetoforlarni va harakatlanishni tashkil etishning boshqa texnik vositalarini o'zboshimchalik bilan olib tashlash, o'rnatish, to'sib qo'yish, shikastlantirish, yo'llarda harakatlanishga to'sqinlik qiluvchi narsalarni qoldirish taqiqlanadi.

Harakatga to'sqinlik tug'dirgan shaxs uni tezda bartaraf qilish uchun imkoniyati darajasida barcha choralarni ko'rishi, agarda buning iloji bo'lmasa, o'zida bo'lgan barcha vositalar bilan xavf – xatar haqida harakat qatnashchilarini ogohlantirishi va militsiyaga habar berishi shart.

1.5.Mazkur Qoidalarni buzgan shaxslar O’zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga binoan javobgarlikka tortiladilar.

***3-ilova***

**3-savol: Qoidalarda qo’llanilgan asosiy tushuncha va atamalar**

**Avtomagistralь -** 5.1 belgi bilan belgilangan yo’l.

**Ajratuvchi bo’lak -** yo’lning yonma-yon joylashgan qatnov ajratuvchi, relьssiz transport vositalari va piyodalarning xarakatlanishi yoki to’xtashi uchun mo’ljallagan aloxida qismi.

Ajratuvchi bo’lak yotiq chiziq, yo’l satxidan baland qurilma, ko’kalamzorlashtirilgan joylar ko’rinishida bo’lishi mumkin,

**Arava** – ot (yoki boqa xayvonlarga) qo’shib tortiladigan, yoki odam mushak kuchi bilan toritb (itarib) xarakatga keltiriladigan yurgizgichsiz (dvigatelьsiz), yuk tashishga mo’djallangan qurilma.

**Asosiy yo’l -** tuprqli yo’lga nisbatan qattiq qoplamali (asfalьt va tsement betonli, tosh yotqizilgan va shunga o’xshashlar), kesishaetgan yoki tutashgan yo’lga nibatan 2.1, 2.3.1-2.3.3 yoki 5.1 belgilari bilan belgilangan yo’l yoxud yondosh xududdan chiqadigan yo’dga nisbatan, har qanday yo’l. Ikkinchi darajali yo’lning bevosita chorraxaga tutush qismining qoplamali bo’lishi uni asosiy yo’l bilin teng xuquqli qilmaydi

**Axoli yashaydigan joy** - kirish va chiqish yo’llari 5.22-5.25 belgilari belgilangan xudud.

**Belgilangan yo’nalishli transport vositasi -** belgilangan yo’nalishi va bekatlari bo’lgan, yo’lovchi tashish uchun mo’ljallangan umumiy foydalanishdagi transport vositalari (trolleybus, avtobus, tramvay, yo’nalishli taksi).

**Velosiped -** odam kuchi bilan xarakatlantiriladigan ikki yoki undan ortiq, g’ildirakli transport vositasi (nogironlar aravachasidan tashqari).

**Etarli ko’rinmaslik** - yomg’ir, qor yog’ishi, tuman tushishi va shunga o’xshash sharoitlarda, shuningdek kunning g’ira- shira vaqtida yo’lning ko’rinishi 300 metrdan kam bo’lishi.

**Yondosh hudud** - bevosita yo’lga tutushgan va transport vositalari o’tib ketishi uchun mo’ljallanmagan hudud (xovlilar, turar joy daxalari, avtomobilь to’xtab turish joylari, yonilg’i quyish tarmoqlari, korxona va shunga o’xshashlar).

**Imtiyoz** - mo’ljallangan yo’nalishda boshqa yo’l harakati qatnashchilariga nisbatan oldin xarakatlanish xuquqi.

**Yo’l -** transport vositalari qatnovi uchun qurilgan yoki moslashtirilgan va xuddi shu maqsadda foydalaniladigan yer mintaqasi yoxud sun’iy inshoat yuzasi. Yo’l o’z ichiga avtomobilь yo’llarini (umumiy foydalanishdagi va idoraviy avtomobilь yo’llarini), shaharlar, shaharchalar va qishloq axoli yashash joylarining ko’chalari va yo’lkalarini, shuningdek, shahar elektr transporti yo’llarini oladi.

**Yo’l bering -** yo’l xarakati qatnashchichiga nisbatan imtiyozi bo’lgan boshqa yo’l xarakati qatnashchilarining xarakat yshnalishini yoki tezligini o’zgartirishga majbur etishi mumkin bo’lgan xollarda harakatni davom ettirmasligini yoki boshlamasligini, biron-bir manyovr bajarishi mumkin emasligini bildiruvchi talab.

**Yo’lovchi -** transport vositasidagi (xaydovchidan tashqari) shaxs.

**Yo’l-transport hodisasi -** transport vositasining yo’ldagi qatnovi jarayonida sodir bo’lib, odamlarning o’limi yoki ularning sog’lig’iga zarar yetishiga, transport vositalari, inshoatlar, yuklar shikastlanishiga yoki boshqa tarzda moddiy zarar yetkazilishiga sabab bo’lgan xodisa.

**Yo’l xarakati -** odamlar va yuklarning transport vositalari yordamida yoki bunday vositalarsiz yo’llar doirasida xarakatlanishi jarayonida yuzaga keluvchi munosabatlar majmui.

**Yo’l xarakatini tashkil etish -** yo’llarda xarakatni boshqarish bo’yicha xuquqiy, tashkiliy-texnikaviy tadbirlar va boshqaruv xarakatlari majmui

**Yo’l xarakati xavfsizligi -** yo’l xarakati qatnashchilarining yo’l-transport hodisalari va ularning oqibatlaridan ximoyalanganlik darajasini aks ettiruvchi yo’l xarakati xolati.

**Yo’l xarakati xavfsizligini ta’minlash -** yo’l transport xodisalarining yuzaga kelish sabablari oldini olishga, bunday xodisalar oqibatlarini yengillashtirishga qaratilgan faoliyat.

**Yo’l xarakati qatnashchisi -** yo’l xarakati jarayonida transport vositasi xaydovchisi, yo’dovchisi yoki piyoda tariqasida bevosita ishtirok etayotgan shaxs.

**Majburiy to’xtash -** texnik nuqson, tashilayotgan yuk, xaydovchi, yo’lovchining xolati, yo’ldagi biror to’siq tufayli xavf tug’ilganda yoki ob-xavo sharoitiga bog’liq  xolda transport vositasi xaraktlanishining to’xtatilishi.

**Mexanik transport vositasi -** yurgizgich (dvigatelь) bilan xarakatga keltiriladigan tranport vositasi (mopeddan tashqari). Bu atama barcha traktor va o’ziyurar moslamalarga ham taalluqlidir.

**Moped -** ish xajmi 50 santimetr kubgacha bo’lgan yurgizgich (dvigatelь) bilan xarakatga keltiriladigan, eng yuqori tezligi soatiga 50 kilometrdan oshiaydigan ikki yoki uch g’ildirakli transport vositasi.

Osma yurgizgichli velisopedlar va yuqoridagi ta’rifga ega bo’lgan boshqa transport vositalari ham mopedlarga tenglashtiriladi.

**Mototsikl -** kajavali yoki kajavasiz ikki g’ildirakli mexanik transport vositasi.

Yuklanmagan xolatdagi vazni 400 kilagrammdan oshmaydigan uch g’ildirakli mexanik transport vositalari ham mototsikllarga tenglashtiriladi.

**Ogoxlantiruvchi ishoralar -** falokatli holatlarning oldini olish maqsadida , xarakatlanish yo’nalishini o’zgartirishda qo’llaniladigan ishoralar.

**Piyoda -** yo’lda transport vositasidan tashqarida bo’lgan va ish bilan band bo’lmagan shaxs.

Velisoped, moped, mototsikl va chana yetaklagan, aravacha bolalar xamda nogironlar aravachasini tortib ketayotgan, nogironlarning yurgizgichsiz aravasida xarakatlanayotgan shaxslar ham piyoda xisoblanadilar.

**Piyodalar o’tish joyi -** yo’lning qatnov qismini piyodalar kesib o’tishi uchun mo’ljallangan 5.16.1 5.16.2 belgilari va 1.14.1-1.14.3 chiziqlari bilan ajratilgan qismi.

CHiziqlar bo’lmasa piyodalar o’tish joyining kengligi 5.16.1 va 5.16.2 belgilari orasidagi masofa bilan aniqlanadi.

**Piyodalar yo’lkasi -** yo’lning piyodalar xarakatlanishi uchun mo’ljallangan va transport vositalari harakati taqiqlangan qismi.

**Piyodalarning tashkiliy jamlanmasi -** qoidalarning 5.2 bandi talablariga muvofiq yo’lda bir yo’nalishda birgalikda  xarakatlanayotgan odamlar guruxi.

**Reversiv xarakat -** yo’l qatnov qismining maxsus ajratilgan 5.35-5.37 yo’l belgilari, 1.9 chiziqlar bilan belgilangan yoki ustida reversiv svetofor o’rnatilgan bo’lagida xarakat yo’nalishining qarama-qarshi tomonga o’zgarishi.

**Ruxsat etilgan to’la vazn -** aslaxalangan transport vositasining yuki, xaydovchi va yo’lovchilari bilan birga, ishlab chiqaruvchi korxona tomonidan belgilangan eng yuqori vazn(miqdori)

Bir tarkibda xarakatlanayotgan  (tikama va h.k.) transport vositalarining ruxsat etilgan to’la vazniga shu tarkibga kiruvchi transport vositalarining ruxsat etilgan to’la vaznlari yig’indisi kiradi.

**Tartibga soluvchi -** tegishli guvoxnomasi va belgisi (maxsus kiyimi yoki taniqlik belgilari: qo’l bog’ichi, jezl, qizil ishorali yorug’lik qaytargich yoki yorug’lik qaytargichsiz gardish, qizil chiroq yoki bayroqcha) bo’lgan militsiya, xarbiy avtonazorat xodimi, yo’ldan foydalanish idoralarining xizmatchisi, temir yo’l kesishmasi, sol kechuvlari (parom) navbatchisi, jamoatchi avtonazoratchi va militsiyaning shtatdan tashqari xodimi.

**Temir yo’l kesishmasi -** yo’lning temir yo’l bilan bir satxda kesishgash joyi.

**Transport vositasi -** odamlarni, yuklarni tashishga yoki maxsus ishlarni bajarishga mo’ljallangan qurilma.

**Transport vositasining egasi -** transport vositasiga mulk xuquqi yoki boshqa ashyoviy xuquqlarda egalik qiluvchi yuridik yoki jismoniy shaxs.

Transport vositalarining tashkiliy jametuvchi ko’k rangli yoki ko’k va qizil rangli chiroq mayoqchasi yoqilgan transport vositasi kuzatib borayotgan uch va undan ortiq mexanik transport vostilari guruxi.

**Trotuar -** yo’lning qatnov qismiga tutashgan yoki undan maysazor, ariq maxsus to’siqlar bilan ajratilgan va piyodalar xarakatlanishi uchun mo’ljallangan qismi.

**Tirkama -** mexanik transport vositasi tarkibida xarakatlanishga mo’ljallangan, yurgizgich bilan jixozlanmagan transport vositasi.

Bu atama yarim tirkama va uzaytiriladigan tirkamalarga ham taaluqlidir.

**To’xtash -** transport vositasining xarakatini 10 daqiqadan kam vaqtga to’xtatish (xarakatsiz xolatga keltirish)

**To’xtab turish -** transport vositasining, unga yo’lovchilarni chiqarish yoki tushirish, yuk ortish yoki tushirish bilan bog’liq bo’lmagan hollarda xarakatni 10 daqiqadan ko’proq vaqtga atayin to’xtatish.

**Qoring’i vaqt -** kechki g’irashiraning oxiridan tonggi g’irashira boshlanishi orasidagi vaqt.

**Qatnov qismi -** yo’lning relьssiz transport vositalari xarakati uchun mo’ljallangan qismi.

**Quvib o’tish -** egallagan xarakatlanish bo’lagidan chiqib oldinda ketayotgan transport vositasidan o’zib ketish.

**CHorraha -** yo’llarning o’zaro bir satxda kesishadigan, tutashadigan va ayriladigan joyi

CHorraxa chegarasi uning markazidan qatnov qismlari oxiridagi qarama-qarshi tomonlarniing eng uzoqroqdagi burila boshlagan joylarini tutashtiruvchi xayoliy chiziqlar bilan aniqlanadi.

Yondosh xudulardan chiqish joylari chorraxa xisoblanmaydi.

Yo’l xarakati svetafor yoki tartibga soluvchining ishoralari orqali boshqarilayotgan chorraxa tartibga solingan chorraxa deb xisoblanadi.

Miltillovchi sariq ishorada, svetaforlar ishlamayotgan yoki tartibga soluvchi bo’lmagan chorraxa tartibga solinmagan chorraxa deb xisoblanadi.

**Haydovchi -** yo’llarda biron-bir transport vositasini boshqarib borayotgan shaxs.

Boshqarishni o’rgatuvchi, miniladigan xayvonlarda ketayotgan yoki ularni yetaklab borayotgan, chorva mollari (poda)ni xaydab borayotgan shaxslar ham xaydovchiga tenglashtiriladi.

**Harakatlanish bo’lagi -** avtomobillarning bir qator bo’lib xarakatlanishi uchun kengligi yetarlicha bo’lgan, yo’l chiziqlari bilan belgilangan yoki belgilanmagan yo’l qatnov qismining har qanday bo’ylama bo’lagi.

*4-ilova*

**4-savol: Haydovchining umumiy majburiyatlari**

Mexanik transport vositasining xaydovchisi:

Xaydovchilik guvoxnomasi va uning talonini yoki transport vositasini vaqtinchalik boshqarish xuquqini beruvchi talonni, xaydovchilik guvoxnomasi belgilangan tartibda olib qo'yilgan bo'lsa, uning talonini, xaydovchilik guvoxnomasi va uning taloni olib qo'yilgan xolda vaqtinchalik ruxsatnomani

Vaqtinchalik boshqarish xuquqini beruvchi talon yoki vaqtinchalik ruxsatnoma bilan transport vositasini boshqarishda esa xaydovchining shaxsini tasdiqlovchi xujjatni (fuqarolik pasporti va x.k)

Transport vositasi ro'yxatdan o'tkazilganligi xaqidagi xujjatni, transport vositasining egasi bo'lmagan xollarda esa umumiy egilik xuquqini beruvchi, tasarrufga yoki foydalanishga berilganligini tasdiqlovchi xujjatni, belgilangan xollarda yo'l varaqasi va tashilayotgan yukning xujjatlarini yonida olib yurishi, militsiya xodimlari talab qilganda tekshirish uchun berish shartdir.

Tegishli toifadagi xaydovchilik guvoxnomasiga ega bo'lgan shaxs o'ziga qarashli bo'lmagan transport vositasini, uning egasi, yoxud tasarrufga yoki foydalanishga berilganligini tasdiqlovchi xujjatlari bo'lgan shaxs ishtirokidagina (ularning roziligi bilan) boshqarish mumkin.

Mototsikldа xarakatlanayotganda xaydovchi maxsus bosh kiyimini kiyib olishi, tugmalashi, yo'lovchilar ham maxsus bosh kiyimini kiygan va u tugmalangan xolda bo'lishi shart.

Xalqaro yo'llardagi xarakatlanishda ishtirok etayotgan mexanik transport vositasi xaydovchisining yonida "Yo'l xarakati xakidagi" Konventsiya talablariga mos keladigan xaydovchilik guvoxnomasi va transport vositasini ro'yxatdan o'tganligi xaqidagi xujjat, transport vositasida esa ro'yxatdan o'tgan davlatning raqamli va taniqlik belgisi ьo'lishi shart.

Transport vositasi xaydovchisi quyidagilarga amal qilishga majburdir:

Xarakatlanishdan oldin transport vositasining texnik sozligini, tozaligini va to'liq jixozlanganligini tekshirishi.

Xarakatlanish vaqtida transport vositasining texnik xolatini soz xolda bo'lishini ta'minlashi.

Xarakatlanishni boshlashdan oldin yo'lovchilarning transport vositasiga to'liq chiqib joylarini egallaganligiga, transport vositasining eshiklari yopilganligiga, yo'lovchilar tashish uchun maxsus jixozlangan yuk avtomobillarida yo'lovchilar tashiyotganda ushbu qoidalarning 6.2 bandi talablari bajarilgan-ligiga tishonch xosil qilishi

Xarakatlanish jarayonida piyodalar, ayniqsa bolalar, nogironlar, qariyalarga va velisopedchilarga nisbatan extiyotkorlik choralarini ko'rishi

Militsiya xodimlarining talabiga ko'ra mastlik xolatini aniqlovchi maxsus tekshiruvdan o'tishi.

Yo'l-transport xodisasi tufayli shikastlangan transport vositasini shatakka olish (faqat yuk avtomobilida) tabiiy ofatlar sodir bo'lgan joylarga yetib borish, shuningdek kechiktirib bo'lmaydigan xizmat vazifalarini bajarish zarurati tug'ilgan xollarda militsiya xodimlariga, yo'lakay yo'nalishda tibbiy yordam ko'rsatishga ketayotgan tibbiyot xodimlariga, zudlik bilan tibbiy yordamga muxtoj bo'lgan fuqarolarni davolash muassasasiga olib borish uchun tibbiyot va 10 miliyiya xodimlariga, militsiyaning shtatdan tashqari xodimlariga va jamoatchi avtonazoratchilarga transport vositasidan foydalanishga imkon berishi.

*Eslatma: tibbiy xizmatlar uchun transport vositasidan foydalanishga imkon berishdan boshqa xollar fuqarolarga tegishli transport vositalariga taalluqli emas.*

Transport vositasidan foydalangan shaxs xaydovchi talab qilganda yo'l varaqasiga yurilgan vaqtni, bosib o'tilgan masofani, o'z ismi-sharifi, mansabi, ish joyi nomini, yo'l varaqasi bo'lmagan taqdirda tegishli namunadagi ma'lumotnoma yozib berishi lozim.

Transport vositalarini tekshirish yoki undan foydalanish xuquqiga ega bo'lgan shaxs xaydovchining talablariga muvofiq o'z xizmat guvoxnomasini ko'rsatishi shart

Haydovchilarga quyidagilar taqiqlanadi:

Transport vositasini xar qanday mastlik (alkogolь, giyoxvand moddalar va boshqalar) xolatida sezgirlik va e'tiborni susaytiradigan dori-darmonlar ta'sirida, yo'l xarakati xavfsizligiga taxdid soladigan darajada charchoqlik va betoblikda boshqarish;

Har qanday mastlik holatida, sezgirlik va e'tiborni susaytiradigan dori-darmonlar ta'sirida, yo'l xarakati xavfsizligiga taxdid soladigan darajada charchoqlik va betoblikda bo'lgan, shuningdek transport vositasini boshqarish xuquqini beradigan tegishli toifadagi guvoxnomasi bo'lmagan yoki yo'l varaqasida ismi-sharifi ko'rsatilmagan shaxslarga transport vositasini boshqarish uchun topshirish.

Texnik nosoz transport vositasini, moped, motoroller va mototsikllarni tovush pasaytirgichsiz boshqarish.

Transport vositasini tormoz tizimi yoki boshqaruvi ishdan chiqsa, ulagich moslamasi (avtopoezd tarkibida) nosoz bo'lsa, qorong'i vaqtda yoki yetarlicha ko'rinmaslik sharoitida –faralar va orqa gabarit chiroqlari yonmasa, yomg'ir, qor yog'ayotgan vaqtda esa xaydovchi tomonidagi oyna tozalagich ishlamay qolsa, bunday transport vositalarida xarakatlanish

*Eslatma: ishchi tormoz tizimi yoki boshqaruvi sekin xarakatlanayotgan transport vositasini to'xtashi yoki manevr qilishiga imkon bermasa, ular ishlamayotgan xisoblanadi.*

Transport vositalariga tegishli ruxsatsiz maxsus texnik jixozlar (ratsiya, sirena va x.q) ni o'rnatish

Transport vositalarining tashkiliy jamlanmasi (shuningdek, piyodalar jamlanmalari) harakatiga xalaqit berish va ular orasiga kirish

***5-ilova***

**5-savol: Yo'l-transport xodisasi sodir etgan haydovchilarning vazifalari**

Yo'l-transport xodisasi sodir bo'lganda unga daxldor haydovchilar quyidagilarni bajarishlari shart:

Transport vositasini darxol to'xtatishi, falokat yorug'lik ishoralarini yoki falokat sababli to'xtash belgisi (miltillovchi qizil chiroq)ni o'rnatishi, transport vositasini va xodisaga daxldor buyumlarni joyidan qo'zg'atmasligi

SHikastlanganlarga birinchi tibbiy yordam berish uchun zarur bo'lgan choralarni ko'rishi, "Tez tibbiy yordam"ni chaqirishi, shoshilinch xollarda esa shikastlanganlarni yaqin oradagi davolash muassasasiga yo'lakay transportda jo'natishi, buning iloji bo'lmagan xollarda o'z transport vositasida olib borishi, u yerda o'z ismi sharifini, transport vositasining raqamli belgisini bildirishi (xaydovchilik guvoxnomasini yoki o'z shaxsini tasdiqlovchi, transport vositasining ro'yxatdan o'tganlik xujjatini ko'rsatishi) va xodisa ro'y bergan joyga qaytib kelishi

Agar boshqa transport vositalarining xarakatiga to'sqinlik qilsa, avvalo transport vositasi, xodisaga aloqador buyumlar va izlarning xolatini qayd etib (imkoniyati bo'lgan xollarda guvoxlar ishtirokida), ularning yo'qolmasligini ta'minlashi, so'ngra qatnov qismini bo'shatishi yoki xodisa ro'y bergan joyni aylanib o'tishni tashkil qilishning o'ziga bog'liq bo'lgan barcha choralarni ko'rishi

Xodisa xaqida militsiyaga xabar berishi, guvoxlarning ismi-sharifini va manzilgoxini yozib olib, militsiya xodimlarining kelishini kutishi

Agar yo'l-transport xodisasida shikastlanganlar bo'lmasa va xaydovchilar xodisa vaziyatiga baxo berishda o'zaro kelisha olsalar, oldindan xodisa chizmasini tuzib va uni imzolab, yaqin oradagi YHXB maskani yoki militsiya organiga xodisani rasmiylashtirish uchun borishlari mumkin.

Nazorat savollari:

1. **O'zbekiston Respublikasining amaldagi Yo'l harakati qoidalari qaysi vaqtda kiritilgan?**
2. Haydovchi qanday m'eyoriy xujjatlar talablarini bilishi va ularni bajarishi kerak?
3. "Avtomagistral" atamasini tushuntiring.
4. "Axoli yashaydigan xudud" tushunchasi nimani bildiradi?
5. "Piyodalar o'tish joyi" tushunchasi nimani bildiradi?
6. "CHorraxa" tushunchasini ta'riflang.

## 2-mavzu. Yo'l belgilari

Yo'l belgilari. Ogohlantiruvchi belgilar. Imtiyoz belgilari. Taqiqlovchi belgilar. Buyuruvchi belgilar. Axborot-ishora belgilari. Servis belgilari. Qo'shimcha axborot belgilari. Belgilarni o'rnatishga qo'yiladigan talablar. Yo'l belgilarini ko'cha-yo'l sharoitida qo'llash.

**Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi.**

| | |
|---|---|
| Vaqti – 2 soat | Talabalar soni: 45-50 nafar |
| O'quv mashg'ulotining shakli | Kirish, vizual ma'ruza |
| Ma'ruza mashg'ulotining rejasi | 1. Yo'l belgilari. Ogohlantiruvchi yo'l belgilari.<br>2 Imtiyoz belgilari. Taqiqlovchi belgilar.<br>3 Buyuruvchi belgilar. Axborot-ishora belgilari.<br>4. Servis belgilari.<br>5. Qo'shimcha axborot belgilari. |
| ***O'quv mashg'ulotining maqsadi:*** "Yo'l belgilari" to'g'risida tushuncha berish. Yo'l belgilari guruxlari va har bir gurux belgilarining vazifasi to'g'risida tushuncha berish. | |

| | |
|---|---|
| ***Pedagogik vazifalar:***<br>-mavzuning mohiyatini tushuntirish;<br>-asosiy tushunchalar bilan tanishtirish;<br>-yo'l belgilarining harakatni boshqarishdagi ahamiyatini tushuntirish.<br>-yo'l belgilarini ma'lum bir ko'cha-yo'l sharoitida qo'llanilishini tushun-tirish. | ***O'quv faoliyatining natijalari:*** Talaba:<br>-yo'l belgilarini qo'llanilishi mohiyati to'g'risida tushunchaga ega bo'ladi;<br>-yo'l belgilari guruxlarini ta'riflab beradi;<br>-oghlantiruvchi yo'l belgilarini shakli vazifasini o'rganadi.<br>-imtiyoz yo'l belgilarini shakli rangi va qo'llanilishini o'rganadi.<br>- taqiqlovchi yo'l belgilarining shakli rangi simvollari to'g'risida tushunchalar oladi.<br>- buyuruvchi yo'l belgilarini shakli rangi va vazifalarini o'rganadi.<br>- ahborot-ishora, servis, qo'shimcha axborot belgilari, ularning vazifalari va qo'llanilishi o'rganadi |
| O'qitish uslubi va texnikasi | Vizual ma'ruza, blits-so'rov, bayon qilish, insert, "ha-yo'q" texnikasi. |
| O'qitish vositalari | Ma'ruzalar matni, proektor, tarqatma materiallar, grafik organayzerlar. |
| O'qitish shakli | Jamoa, guruh va juftlikda ishlash. |
| O'qitish shart-sharoiti | Proektor, kompьyuter bilan jihozlangan auditoriya. |

**Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi (2-mashg'ulot)**

| Bosqichlar, vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|---|
| | **O'qituvchi** | **Talaba** |
| 1-bosqich.<br>Kirish<br>(10 min.) | 1.1. Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar ma'lum qilinadi. | 1.1. Eshitadi, yozib oladi. |

| | | |
|---|---|---|
| 2-bosqich.<br>Asosiy<br>(60 min.) | 2.1. Talabalar e'tiborini jalb etish va bilim darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javob o'tkazadi:<br>-yo'l belgilarining dastlabki paydo bo'lishi tarixini bilasizmi?<br>-Nechta yo'l belgi guruxlarini bilasiz?<br>-Yo'l belgilari nima maqsadda o'rnatiladi?<br>2.2. O'qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma'ruzani bayon etishda davom etadi. Yo'l belgilarini ularning turlarini,paydo bo'lishi va qo'llanilishi to'g'risida ma'lumotlarni tushuntiradi.<br>2.3. Ogoxlantiruvchi, imtiyoz, taqiqlovchi yo'l belgilarini tushuntiradi.<br>2.4. Buyuruvchi, axborot-ishora, servis va qo'shimcha axborot belgilarini tushuntiradi. Bu ma'lumotlarni Yo'l harakati qoidalarining elektron versiyasidan foydalangan xolda tushuntiradi. | 2.1. Eshitadi.<br>Navbat bilan savolarga javob beradi.<br>O'ylaydi, javob beradi. Javob beradi va to'g'ri javobni eshitadi.<br>2.2. Yo'l belgilari to'g'risida savollar asosiy javoblarni chizmalarni yozib oladi.<br>2.3. Eslab qoladi, yozadi.<br>Ta'rifni yozib oladi, misol-lar keltiradi.<br>2.4. Eslab qoladi, yozadi. |
| 3-bosqich.<br>Yakuniy<br>(10 min.) | 3.1. Mavzuga yakun yasaydi va talabalar e'tiborini asosiy masalalarga qaratadi. Faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi. Mustaqil ish uchun vazifa: "Ogoxlantiruvchi", "Imtiyoz", "Taqiqlovchi","Buyuruvchi" "Axborot-ishora" "Servis", "Qo'shimcha axborot" yo'l belgilari klaster tuzishni vazifa qilib beradi, baholaydi. | 3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi.<br>3.2. Topshiriq-ni yozib oladi.<br>3.3. Berilgan topshiriqni darhol baja-radi. |

## Vizual materiallar

***1-ilova***

### 1-savol: Ogohlantiruvchi belgilar

Ogohlantiruvchi belgilar yo’l harakati qatnashchilariga yo’lning harakatlanishda vaziyatga qarab chora ko’rishni talab qiladigan xavfli qisimlarining joylashuvi hamda ularning hususiyatlari to’g’risida ma’lumot berish uchun qo’llaniladi.



1.1. « SHlagbaumli temir yo’l kesishmasi ».



1.2. « SHlagbaumsiz temir yo’l kesishmasi ».



1.3.1. « Bir izli temir yo’l ».



1.3.2. « Ko’p izli temir yo’l ».

SHlagbaum bilan jihozlanmagan temir yo’l kesishmasi oldida o’rnatiladi. 1.3.1 — bir izli yo’l, 1.3.2 — ikki va undan ortiq izli yo’l.



1.4.1-1.4.6. “Temir yo’l kesishmasiga yaqinlashuv „.







Aholi yashamaydigan joylarda temir yo'l kesishmasining yaqinligi haqida qo'shimcha ogohlantirish.

1.1, 1.2, 1.5-1.30 ogohlantiruvchi belgilar aholi yashaydigan joylarda xavfli joydan 50 – 100 metr, aholi yashaydigan joylardan tashqarida esa 150 – 300 metr oldin o'rnatiladi. Zarurat bo'lganda bu belgilar 7.1.1. qo'shimcha belgida ko'rsatilgan boshqa masofada ham o'rnatilishi mumkin.

Agar nishablik va balandlik ketma – ket keladigan bo'lsa, 1.13 va 1.14 belgilari bevosita nishablik va balandlik oldiga o'rnatilishi mumkin.

Aholi yashaydigan joylardan tashqarida 1.1, 1.2, 1.9, 1.10, 1.21 va 1.23 belgilari takrorlanadi. Ikkinchi belgi yo'lning xavfli qismi boshlanishiga kamida 50 metr qolganda o'rnatiladi.

Agar qatnov qismida qisqa muddatli yo'l ishlari olib borilayotgan bo'lsa, 1.23 belgisi ish bajarilayotgan joyga 10 – 15 metr masofa yetmasdan (7.11 qo'shimcha belgisiz) o'rnatilishi mumkin.

1.3.1 va 1.3.2 belgilari bevosita temir yo'l kesishmasining oldiga o'rnatiladi.

***2-ilova***

## 2-savol: Imtiyoz belgilari

Imtiyoz belgilari – chorrahalarda, alohida joylashgan qatnov qismlari kesishgan joylarda, shuningdek, yo'lning tor qismida yo'l xarakati qatnashchilarining harakatlanish navbatini belgilash uchun qo'llaniladi.



2.1. «Asosiy yo'l ».
Harakat tartibga solinmagan chorrahalarda ikkinchi darajali yo'lda harakatlanayotgan transport vositasidan oldin o'tish huquqi beriladigan yo'lning boshlanishi.



2.2. «Asosiy yo'lning oxiri ».



2.3.1. « Ikkinchi darajali yo’l bilan kesishuv ».



2.3.2. 2.3.3. « Ikkinchi darajali yo’lning tutashuvi».
Tutashuv o’ngdan — 2.3.2, chapdan — 2.3.3.



2.4. « Yo’l bering! ».
Haydovchi kesib o’tilayotgan yo’ldan, 7.13 qo’shimcha belgisi bo’lganda esa asosiy yo’ldan kelayotgan transport vositasiga yo’l berishi kerak.




2.5. « To’xtamasdan harakatlanish taqiqlanadi ».
To’xtash chizig’i oldida, agar u bo’lmasa, kesib o’tiladigan qatnov qismining chetida to’xtamasdan harakatlanish taqiqlanadi. Haydovchi kesib o’tilayotgan yo’lda 7.13 qo’shimcha belgisi bo’lganda esa asosiy yo’ldan chiqayotgan transport vositalariga yo’l berishi kerak.
.

Bu belgi temir yo’l kesishmasi yoki karantin maskanidan oldin o’rnatilishi mumkin. Bunday hollarda haydovchi to’xtash chizig’i oldida, u bo’lmasa, belgi oldida to’xtashi kerak.



2.6. « Ro’para harakatlanishning ustunligi ».
Qarama – qarshi harakatlanishni qiyinlashtiradigan hollarda yo’lning tor qismiga kirish taqiqlanadi. Haydovchi yo’lning tor qismida bo’lgan yoki ro’paradan harakatlanayotgan transport vositasiga yo’l berishi kerak.



2.7. « Ro’parada harakatlanishga nisbatan imtiyoz ».
Yo’lning tor qismida harakatlanmoqchi bo’lgan hfydovchi ro’paradan kelayotgan transport vositasidan oldin o’tish huquqiga ega.

*3-ilova*

**3-savol: Taqiqlovchi belgilar**

Taqiqlovchi belgilar yo'l harakatiga ma'lum cheklanishlar kiritish yoki ularni bekor qilish uchun qo'llaniladi.



3.1. « Kirish ta'qiqlangan ».
Barcha transport vositalarining kirishi ta'qiqlanadi.



3.2. « Harakatlanish taqiqlangan ».
Barcha transport vositalarining harakatlanishi ta'qiqlanadi.



3.3."Mexanik transport vositalarining harakatlanishi taqiqlangan"




3.4. « Yuk avtomobillarining harakatlanishi taqiqlangan". To'la vazni 3,5 tonnadan (agar vazni belgida ko'rsatilmagan bo'lsa) yoki to'la vazni belgida ko'rsatilgandan ortiq bo'lgan yuk avtomobillari va transport vositalari tizimlarining, shuningdek, traktorlar, o'zi yurar moslamalarning harakatlanishi taqiqlanadi.

3.1-3.3, 3.18.1, 3.18.2, 3.19, 3.27 belgilarining belgilangan yo'nalishli transport vositalariga, 3.2-3.8 belgilari ta'sir oralig'ida yashovchi yoki ishlovchi fuqarolarga tegishli yohud ularga va korxonalarga xizmat qiluvchi transport vositalariga daxli yo'q. Bunday hollarda transport vositalari belgilangan joyga yaqin chorrahadan kirib yoki chiqib ketishlari kerak.

Ushbu qoidalarning 28.3 bandiga binoan "nogiron" taniqlik belgisi bilan belgilangan avtomobillar va kajavali mototsikllarni boshqarayotgan nogiron haydovchilar 3.2, va 3.28 belgilari talablaridan chetga chiqishlari mumkin. 7.18 qo'shimcha axborot belgisi bo'lganda 3.27 belgisining ta'sir oralig'ida to'xtashga ruxsat etiladi.

3.28 – 3.30 belgilari taksometri ishlab turgan taksilarga dahli yo'q.

3.18.1 va 3.18.2 belgilari qatnov qismlarining qaysi kesishmasi oldiga o'rnatilsa, shu kesishmaga tatbiq etiladi.

*4-ilova*

## 4-savol: Buyuruvchi belgilar

Transport vositalariga ko’rsatilgan yo’nalishdagi yoki, faqat ma’lum yo’nalishlarda harakatlanishlari lozimligini buyuradi.



4.1.1. «Harakatlanish to’g’riga ».



4.1.2. « Harakatlanish o’ngga ».



4.1.3. « Harakatlanish chapga» .



4.1.4. « Harakatlanish to’g’riga yoki o’ngga».

*5-ilova*

## 5-savol: Axborot – ishora belgilari

Axborot ishora belgilari harakat qatnashchilariga yo’ldagi harakat tartibi hususiyatlari hamda aholi yashaydigan joylar va manzillarning joylashuvi haqida ma’lumot berish uchun qo’llaniladi.



5.1. « Avtomagistralь ».
Yo’l harakati qoidalarining avtomagistrallarda harakatlanish tartibi o’rnatilgan yo’l.



5.2. «Avtomagistralьning oxiri ».



5.3. « Avtomobillar uchun mo’ljallangan yo’l ».
Faqat avtomobillar, avtobus va mototsikllarning harakatlanishi uchun mo’ljallangan yo’l.

Aholi yashaydigan joylarda o’rnatilgan yashil yoki ko’k asosdagi 5.20.1, 5.20.2, 5.21.1 va 5.21.2 belgilarida ko’rsatilgan aholi yashash joylariga shu hududdan chiqqach, tegishli avtomagistralь yoki boshqa yo’llar orqali borilishini bildiradi. Oq asosda ko’rsatilgan manzil shu aholi yashaydigan joyda ekanligini bildiradi.

***6-ilova***

## 6-savol: Servis belgilari

Servis belgilari transport vositalari, yo’lovchilar va haydovchilarga xizmat ko’rsatish joylari haqida ma’lumot berish uchun qo’llaniladi.



6.1. « Tibbiy yordam ko’rsatish joyi ».



6.2. « SHifoxona ».



6.3. « Yonilg’i shaxobchasi ».

***7-ilova***

## 7-savol: Qo’shimcha axborot belgilari

Qo’shimcha axborot belgilari ular bilan birgalikda qo’llangan belgilarga aniqlik kiritish yoki ularning ta’sirini cheklash uchun qo’llaniladi.




7.1.1. «Manzilgacha bo’lgan masofa ».
Belgidan yo’lning xavfli joyigacha bo’lgan masofani, yo’l harakatiga tegishli cheklovlar kiritilgan joyi yoki harakat yo’nalishi bo’yicha oldindagi muayyan joyni ko’rsatadi.




7.1.2. « Manzilgacha bo’lgan masofa ».
CHorraha oldida 2.5. belgisi o’rnatilgan bo’lsa, 2.4. belgisidan chorrahagacha bo’lgan masofani ko’rsatadi.

Qo’shimcha belgilar qaysi belgi bilan birga joriy etilsa, bevosita shu belgi tagiga joylashtiriladi. 7.2.2 – 7.2.4, 7.13 qo’shimcha belgilari yo’lning, yo’l yoqasining, piyodalar yo’lkasining tepasiga o’rnatilgan belgining yoniga joylashtiriladi.

Nazorat savollari:

1. **Yo’l belgilari qanday vazifani bajaradi?**
2. Yo’l belgilari qanday meyoriy xujjatlarga asosan tayyorlanadi va ishlatiladi?
3. Nechta yo’l belgi guruxlarini bilasiz?
4. Ogoxlantiruvchi yo’l belgilarining shakli, rangi va ma’lumot berishi qanday?
5. Ogoxlantiruvchi yo’l belgilari qanday masofada o’rnatiladi?
6. Taqiqlovchi yo’l belgilari qanday maqsadlarda o’rnatiladi?
7. Qo’shimcha axborot belgilari qanday o’rnatiladi?
8. Servis belgilarini vazifasini tushuntiring.

# 3-mavzu. Yo’l chiziqlari

**Ma’ruza mashg’ulotining o’qitish texnologiyasi.**

| | |
|---|---|
| Vaqti – 2 soat | Talabalar soni: 45-50 nafar |
| O’quv mashg’ulotining shakli | Kirish, vizual ma’ruza |
| Ma’ruza mashg’ulotining rejasi | 1. Yo’l chiziqlari.<br>2 Yotiq yo’l chiziqlari.<br>3. Tik chiziqlar.<br>4. Yo’l chiziqlarini qo’llanilishi. |
| ***O’quv mashg’ulotining maqsadi:*** “Yo’l chiziqlari” to’g’risida tushuncha berish. Yo’l chiziqlari va ularning qo’llanilishi va vazifasi to’g’risida tushuncha berish. | |
| ***Pedagogik vazifalar:***<br>-mavzuning mohiyatini tushuntirish;<br>-asosiy tushunchalar bilan tanishtirish;<br>-yo’l chiziqlarining harakatni boshqarishdagi ahamiyatini tushuntirish.<br>-yo’l chiziqlarining real ko’cha-yo’l sharoitida qo’llanilishini tushun-tirish. | ***O’quv faoliyatining natijalari:*** Talaba:<br>-yo’l chiziqlarining qo’llanilishi va mohiyati to’g’risida tushunchaga ega bo’ladi;<br>-yo’l chiziqlarining guruxlarini ta’riflab beradi;<br>-yotiq yo’l chiziqlarining shakli, rangi va vazifasini o’rganadi.<br>-tik yo’l chiziqlarining shakli rangi va vazifasini o’rganadi.<br>- Yo’l chiziqlarini qo’llanilishi to’g’risida tushunchalar oladi. |
| O’qitish uslubi va texnikasi | Vizual ma’ruza, blits-so’rov, bayon qilish, insert, “ha-yo’q” texnikasi. |
| O’qitish vositalari | Ma’ruzalar matni, proektor, tarqatma materiallar, grafik organayzerlar. |
| O’qitish shakli | Jamoa, guruh va juftlikda ishlash. |
| O’qitish shart-sharoiti | Proektor, kompьyuter bilan jihozlangan auditoriya. |

**Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi (4-mashg'ulot)**

| Bosqichlar, vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|---|
| | O'qituvchi | Talaba |
| 1-bosqich. Kirish (10 min.) | 1.1. Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar ma'lum qilinadi. | 1.1. Eshitadi, yozib oladi. |
| 2-bosqich. Asosiy (60 min.) | 2.1. Talabalar e'tiborini jalb etish va bilim darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javob o'tkazadi:<br>- Yo'l harakati qoidalari bo'yicha Vena shartnomasida qanday masalalar ko'rildi?<br>- Yo'l harakati qoidalarini o'qitishda atama va tushunchalar nima uchun kerak?<br>- Amaldagi Yo'l harakati qoidalari qachon va kim tomonidan qabul qilingan?<br>2.2. O'qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma'ruzani bayon etishda davom etadi. Yo'l harakati qoidalarida qabul qilingan asosiy atama va tushunchalarni tushuntiradi.<br>2.3.Haydovchilarning vazifalarini, majburiyatlarini tushuntiradi.<br>YTH sodir etgan haydovchining vazifalarini tushuntiradi.<br>2.4. Haydovchilarga taqiqlangan shartlarni tushuntirib beradi. | 2.1. Eshitadi.<br>Navbat bilan savolarga ja-vob beradi.<br>O'ylaydi, javob beradi.<br>Javob beradi va to'g'ri javob-ni eshitadi.<br>2.2. Berilgan ma'lumotlarning mazmunini muho-kama qiladi.<br>Savollar berib, asosiy joylarini yozib oladi.<br>2.3. Eslab qoladi, yozadi.<br>Har bir savolga javob berishga harakat qiladi.<br>Ta'rifni yozib oladi, misollar keltiradi.<br>2.4. Eslab qoladi, yozadi.<br>Har bir savolga javob berishga harakat qiladi. |
| 3-bosqich. Yakuniy (10 min.) | 3.1. Mavzuga yakun yasaydi va talabalar e'tiborini asosiy masalalarga qaratadi. Faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi. Mustaqil ish uchun vazifa: "Qoidalarda qo'llanilgan asosiy tushuncha va atamalar"ga klaster tuzishni vazifa qilib beradi, baholaydi. | 3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi.<br>3.2. Topshiriqni yozib oladi. |

## Vizual materiallar

***1-ilova***

### 1-savol: Yotiq chiziqlar

Yo’lning qatnov qismi yuzasidagi chiziqlar, ishoralar, yozuvlar va boshqa belgilar harakatlanish tartibini belgilaydi.
Yo’l yuzasidagi yotiq chiziqlar oq rangda bo’ladi (1.4, 1.10 va 1.17 chiziqlar sariq rangda bo’ladi).












1.1 — qarama – qarshi yo'nalishlarda harakatlanayotgan transport oqimlarini ajratadi, yo'lning xavfli joylaridagi harakatlanish bo'lagi chegarasini bildiradi; yo'lning kirish taqiqlangan chegarasini anglatadi;
Transport vositalarini to'xtab turish joyi chegarasini hamda avtomagistrallar qatoriga kiritilmagan yo'lning harakatlanish qismi chegarasini bildiradi.

1.2 (enli sidirg'a chiziq) — avtomagistrallarda harakatlanish qismi chegarasini bildiradi;

1.3 — to'rt va undan ortiq harakatlanish bo'lagi bo'lgan yo'llarda qarama – qarshi yo'nalishdagi transport vositalari oqimini ajratadi;

1.4 — to'xtash taqiqlangan joyni bildiradi. Yakka holda yoki 3.27 "To'xtash taqiqlangan" yo'l belgisi bilan qo'llaniladi hamda yo'lning harakatlanish qismi chetiga yoki yo'l chetidagi to'siq (bordyur) ustidan chiziladi;

***2-ilova***

**2-savol: Tik chiziqlar**

Tik chiziqlar - yo'l inshootlari va jihozlari yuzalariga ketma – ket chizilgan yo'l – yo'l oq – qora chiziqlar majmuasidan iborat bo'lib, ularning o'lchamlarini ko'rsatishda, ko'z bilan chamalash vositasi sifatida hizmat qiladi.



2.1 — harakatlanayotgan transport vositalariga xavf tug’diradigan yo’l ino’ootlarining tik elementlari (ko’priklar va osma yo’llar, ustunlar va h. k.) ni bildiradi.

2.2 - tonellar, ko’priklar, osma yo’l va ko’priklarning pastki qirrasini bildiradi.

2.3 – ajratish bo’laklaridagi yoki “xavfsizlik orolchalari”dagi dumaloq, ustunlarni bildiradi.

2.4 – yo’naltiruvchi, beton yoki temir beton ustunlar, to’siq, tirgaklar va hokazolarni bildiradi.

2.5 – yo’lning kichik radiusli burilishlari, tik nishabliklari va boshqa xavfli joylarda yo’l chetiga o’rnatilgan to’siqlarning yon yuzalarini bildiradi.

2.6 – boshqa joylardagi to’siqlarning yon yuzalarini bildiradi.

2.7 – yo’lning xavfli joylarida uning chetidagi to’siqni (bordyurni) va yo’l sathidan baland bo’lgan “xavfsizlik choralari” chetini bildiradi.

**Nazorat savollari:**

1. Yo’l belgi chiziqlarning vazifalari.
2. Yo’l belgi chiziqlarning guruhlari va turlari.
3. Yotiq chiziqlarning turlanishi.
4. Bo’ylama yotiq chiziqlar.
5. Ko’ndalang yotiq chiziqlar.
6. Sariq rangli yotiq chiziqlar.
7. Oq rangli yotiq chiziqlar.
8. Yotiq chiziqlarning qo’llanilishi.
9. Tik chiziqlar.

## 4 -mavzu. Maxsus transport vositalarining imtiyozlari. Harakatni boshqarish

Maxsus transport vositalarining imtiyozlari. Svetoforlarning ishoralari. Tartibga soluvchining ishoralari.

**Ma’ruza mashg’ulotining o’qitish texnologiyasi.**

| | |
|---|---|
| Vaqti – 2 soat | Talabalar soni: 45-50 nafar |
| O’quv mashg’ulotining shakli | Kirish, vizual ma’ruza |
| Ma’ruza mashg’ulotining rejasi | 1. Maxsus transport vositalarining imtiyozlari.<br>2. Svetoforlarning ishoralari.<br>3. Tartibga soluvchining ishoralari. |
| ***O’quv mashg’ulotining maqsadi:*** “Maxsus transport vositalarining imtiyozlari” to’g’risida tushuncha berish. Svetoforlarning vazifasi ishoralari to’g’risida tushuncha berish. | |
| ***Pedagogik vazifalar:***<br>-mavzuning mohiyatini tushuntirish;<br>-maxsus transport vosi-talari haydovchilari ke-chiktirib bo’lmaydigan xizmat vazifalarini ba-jarayotganda ularga beri-ladigan imtiyozlarni tu-shuntiradi;<br>- svetoforlarni va ular-ni harakatni boshqarish-dagi ahamiyatini tushun-tirish;<br>- tartibga soluvchini va uning ishoralarin hara-katni tartibga solishdagi o’rnini tushuntirish. | ***O’quv faoliyatining natijalari:*** Talaba:<br><br>- maxsus transport vositalari haydovchilari ke-chiktirib bo’lmaydigan xizmat vazifalarini ba-jarayotganda ularga beriladigan imtiyozlar to’g’risida tushunchaga ega bo’ladi;<br>- svetoforlarni va ularni harakatni boshqarish-dagi ahamiyatini o’rganadi;<br>- tartibga soluvchini va uning ishoralarini hara-katni tartibga solishdagi o’rnini o’rganadi.. |
| O’qitish uslubi va texnikasi | Vizual ma’ruza, blits-so’rov, bayon qilish, insert, “ha-yo’q” texnikasi. |
| O’qitish vositalari | Ma’ruzalar matni, proektor, tarqatma materiallar, grafik organayzerlar. |
| O’qitish shakli | Jamoa, guruh va juftlikda ishlash. |
| O’qitish shart-sharoiti | Proektor, kompьyuter bilan jihozlangan auditoriya. |

**Ma’ruza mashg’ulotining texnologik kartasi (5-mashg’ulot)**

| **Bosqichlar, vaqti** | **Faoliyat mazmuni** | |
|---|---|---|
| | **O’qituvchi** | **Talaba** |

| | | |
|---|---|---|
| 1-bosqich.<br>Kirish<br>(10 min.) | 1.1. Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar ma'lum qilinadi. | 1.1. Eshitadi, yozib oladi. |
| 2-bosqich.<br>Asosiy<br>(60 min.) | 2.1. Talabalar e'tiborini jalb etish va bilim darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javob o'tkazadi:<br>- svetoforlar nima uchun ishlatiladi?<br>- nechta yo'l belgi guruxlarini bilasiz?<br>- svetoforlarning qanday turlarini bilasiz?<br>2. O'qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma'ruzani bayon etishda davom etadi. Maxsus transport vositalari haydovchilari kechiktirib bo'lmaydigan xizmat vazifalarini bajarayotganda ularga beriladigan imtiyozlarni tushuntiradi.<br>2.3. Svetoforlarni va ularni harakatni boshqarishdagi ahamiyatini o'rgatadi.<br>2.4.Tartibga soluvchini va uning ishoralarini ko'cha-yo'l sharoitida hara-katni tartibga solishdagi o'rnini o'rgatadi.. | 2.1. Eshitadi. Navbat bilan savolarga javob beradi. O'ylaydi, javob beradi. Javob beradi va to'g'ri javobni eshitadi.<br>2.2.Maxsus TV, svetoforlar, tar--tibga soluvchi-ning ishoralari to'g'risidagi sa-vollarni o'rganadi va ja-voblarni chizma-larni yozib oladi.<br>2.3. Eslab qoladi, yozadi. Ta'rifni yozib oladi, misollar keltiradi.<br>2.4. Eslab qoladi, yozadi. |
| 3-bosqich.<br>Yakuniy<br>(10 min.) | 3.1. Mavzuga yakun yasaydi va talabalar e'tiborini asosiy masalalarga qaratadi. Faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi. Mustaqil ish uchun vazifa: "Ogoxlantiruvchi", "Imtiyoz", "Taqiqlovchi","Buyuruvchi" "Axborot-ishora" "Servis", "Qo'shimcha axborot" yo'l belgilari klaster tuzishni vazifa qilib beradi, baholaydi. | 3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi.<br>3.2. Topshiriq-ni yozib oladi.<br>3.3. Berilgan topshiriqni darhol baja-radi. |

## Vizual materiallar

*1-ilova*

### 1-savol: Maxsus transport vositalarining imtiyozlari

7.1. Ko'k rangli yalt – yalt etuvchi chiroq – mayoqchasi va (yoki) maxsus tovushli ishorasi yoqilgan tezkor va maxsus xizmat transport vositalarining haydovchilari kechiktirib bo'lmaydigan xizmat vazifalarini bajarayotib, yo'l harakatini xavfsizligini ta'minlash sharti bilan ushbu Qoidalarning 8 bob (8.9 bandidan tashqari), 10 – 15, 18 – 19 boblari, Qoidalarning 1 va 2 ilovalari talablaridan chetga chiqishlari mumkin. Ko'k rangli chiroq mayoqchaga qo'shimcha qizil rangli chiroq – mayoqcha ham yoqilishi mumkin.

Boshqa yo'l harakati qatnashchilariga nisbatan imtiyozga ega bo'lishlari uchun bunday transport vositalarida yalt – yalt etuvchi chiroq mayoqcha va (yoki) mahsus tovushli ishorasi yoqilgan bo'lishi shart. Ular o'zlariga yo'l berilayotganligiga ishonch hosil qilganlaridan so'nggina imtiyozdan foydalanishlari mumkin.

Tezkor xizmat va maxsus xizmat transport vositalari kuzatib kelayotgan transport vositalari ham shu imtiyozdan foydalanadilar.

7.2. Haydovchilar ko'k rangli chiroq – mayoqcha va (yoki) maxsus tovushli ishoralarni yoqqan holda yaqinlashib kelayotgan transport vositalariga, shuningdek, ularning kuzatuvidagi yaqinni yorituvchi chiroqlari yoqilgan transport vositalariga yo'l berishlari, zarur bo'lgan hollarda ularning to'siqsiz o'tib ketishlari uchun o'zlari boshqarib borayotgan transport vositalarini yo'lning o'ng tomoniga borib to'xtatishlari shart.

7.3. Ko'k rangli chiroq – mayoqchasini yoqib turgan transport vositasiga yaqinlashayotgan haydovchilar zarur bo'lib qolganda darhol to'xtash imkoniyatini beradigan darajada harakatlanish tezligini kamaytirishlari shart.

7.4. Zarg'aldoq yoki sariq rangli chiroq – mayoqchasi yoqilgan, yo'ldan foydalanish hizmatiga tegishli moslama va transport vositalarining haydovchilari ish bajarish jarayonida yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash sharti bilan ushbu Qoidalarning yo'l belgilari, chiziqlari hamda 11.4, 11.5, 11.8 va 18.1 bandlari talablaridan chetga chiqishlari mumkin. Boshqa haydovchilar ularning ish bajarishlariga to'sqinlik tug'dirmasliklari shart. Zarg'aldoq va sariq rangli chiroq – mayoqcha harakatlanishda imtiyoz bermaydi va u faqat boshqa harakatlanish qatnashchilarining e'tiborini jalb etish uchun xizmat qiladi.

*2-ilova*

### 2-savol: Svetoforlarning ishoralari

8.1. Svetoforlarda yashil, sariq, qizil va oq rangli yorug'lik ishoralari qo'llaniladi.

Svetofor ishoralari vazifasiga bog'liq ravishda doirasimon, yo'naltirgich, piyoda tasviri tushirilgan va X simon ko'rinisha bo'lishi mumkin.

Doira shaklidagi ishorali svetoforlarda yashil doirali ishoralar bilan bir sathda joylashgan yashil yo'naltirgich ko'rinishdagi ishorali bitta yoki ikkita qo'shimcha tarmoq bo'lishi mumkin.

8.2. Svetoforning doirali ishoralari quyidagi manoni bildiradi:

Yashil ishora harakatlanishga ruxsat beradi; miltillovchi yashil ishora ham harakatlanishga ruxsat beradi va uning ta'sir vaqti tugashi hamda ko'p o'tmay taqiqlovchi ishora yonishi haqida axborot beradi.

Yashil ishora o'chishiga soniyalar (sekundlar)da qancha vaqt qolganligi haqida axborot berish uchun raqamli tablo qo'llanilishi mumkin;

Sariq ishora xarakatni taqiqlaydigan (faqat Qoidalarning 8.13 bandida ko'zda tutilgandan tashqari) va ishoralar almashuvi haqida ogohlantiradi;

Miltillovchi sariq ishora harakatlanishga ruxsat beradi va tartibga solinmagan chorraha yoki piyodalar o’tish joyi borligidan xabardor qiladi, xavf – xatar haqida ogohlantiradi;

Qizil ishora, shuningdek, miltillovchi qizil ishora harakatlanishni taqiqlaydi;

Qizil va sariq ishoralarning bir vaqtda yonishi harakatlanishni taqiqlaydi va ko’p o’tmay yashil ishora yonishi haqida axborot beradi.

8.3. Yo’naltirgich ko’rinishidagi qizil, sariq va yashil rangli svetofor ishoralari ham doira shaklidagi svetofor ishoralari bilan bir xil ma’noga ega bo’ladi. Ular faqat ko’rsatilgan yo’nalishga ta’sir etadi.

Agar tegishli yo’l belgisi bilan taqiqlanmagan bo’lsa, chapga burilishga ruxsat beruvchi yo’naltirgich qayrilib olishga ham ruxsat beradi. Qo’shimcha tarmoqdagi yashil yo’naltirgich ham xuddi shu ma’noni bildiradi.

Qo’shimcha tarmoqdagi ishora o’chirilgan bo’lsa, shu tarmoq tartibga solayotgan yo’nalishda harakatlanish taqiqlanganini bildiradi.

8.4. Agar svetoforning asosiy yashil ishorasiga ko’ra yo’naltirgich (yo’naltirgichlar)ning shakli tushirilgan bo’lsa, u haydovchilarga svetoforning qo’shimcha tarmog’i borligi haqida axborot beradi va shu asosiy tarmoqdagi yo’naltirgichlar yo’nalishlarida harakatlanishga ruxsat berilganligini ko’rsatadi.

8.5. Agar svetofor ishorasi piyoda tasviri ko’rinishida bo’lsa, u faqat piyodalarning harakatiga ta’sir ko’rsatadi. Bunda yashil ishora piyodalarning harakatlanishiga ruxsat beradi, qizil ishora esa taqiqlaydi.

8.6. Qatnov qismidagi harakat yo’nalishi qarama – qarshi tomonga o’zgarishi mumkin bo’lgan bo’laklarida transport vositalarining harakatini tartibga solish uchun X – simon qizil ishorali va pastga yo’nalgan yo’naltirgich ko’rinishidagi yashil ishorali reversiv svetoforlar qo’llaniladi. Bu ishoralar qaysi bo’lak ustiga o’rnatilgan bo’lsa, unda harakatlanishni taqiqlaydi yoki ruxsat beradi. Ikki tomoni 1.9. chizig’i bilan belgilangan bo’lak ustiga o’rnatilgan ishoralari o’chirilgan reversiv svetofor shu bo’lakka ko’rishni taqiqlaydi.

8.7. Tramvaylarning, shuningdek, belgilangan yo’nalishli boshqa transport vositalarining harakatlanishini, ular uchun ajratilgan maxsus bo’lakda tartibga solish uchun T – harfi ko’rinishida joylashgan to’rtta doirasimon oq rangli ishorali svetoforlar qo’llanilishi mumkin.

Yuqoridagi bir yoki bir nechta va pastki ishora bir vaqtning o’zida yonganda, harakatlanishga ruxsat etiladi. Ulardan chapdagisi chapga, o’ngdagisi o’ng tomonga burilishga, o’rtasidagi to’g’riga yurishga ruxsat beradi. Agar faqat yuqoridagi uchta ishora bir vaqtda yonsa, harakatlanish taqiqlanadi.

8.8. Temir yo’l kesishmalarida o’rnatilgan doirasimon oq rangli miltillovchi ishora transport vositalarinig kesishma orqali harakatlanishiga ruhsat beradi.

Ko’rinish chegarasida yaqinlashib kelayotgan poezd (lokomotiv, drezina) bo’lmasa, o’chirilgan miltillovchi oq va qizil ishoralarda ham harakatlanishga ruxsat beriladi

*3-ilova*

## 3-savol: Tartibga soluvchining ishoralari

Tartibga soluvchining ishoralari quyidagi ma’noni bildiradi:

QO’LLARI YoN TOMONGA UZATILGANDA YoKI TUSHIRILGANDA, chap va o’ng yon tomonidan tramvayga to’g’riga, relьssiz transport vositalariga to’g’riga va o’ngga harakatlanishga, piyodalarga qatnov qismini kesib o’tishga ruxsat beriladi. Oldi va orqa tomonidan barcha transport vositalari va piyodalarning harakatlanishi taqiqlanadi;

O’NG QO’LI OLDINGA UZATILGANDA, chap yonidan tramvayga chapga, relьssiz transport vostialariga barcha yo’nalishlarda, oldi tomonidan barcha transport vositalariga faqat o’ngga harakatlanishga ruxsat beriladi. Orqa tomonidan va o’ng tomonidan barcha transport vositalarining harakatlanishi taqiqlanadi. Piyodalarga tartibga soluvchining orqa tomonidan qatnov qismini kesib o’tishga ruxsat etiladi;

QO’LNI YuQORIGA KO’TARGANDA, Qoidalarning 8.13 bandida ko’rsatilganidan boshqa hollarda transport vositalari va piyodalarning barcha yo’nalishlarida harakatlanishi taqiqlanadi.

Tartibga soluvchi haydovchi va piyodalarga tushunarli bo’lgan boshqa ishoralarni ham berishi mumkin. Ishoralar yaxshi ko’rinishi uchun tartibga soluvchi jezl yoki yorug’lik qaytaradigan qizil rangli moslamalarni qo’llashi mumkin.

8.10. Harakatni tartibga solayotgan yoki xizmat burchini o’tayotgan militsiya xodimi transport vositasi haydovchisiga qarata qo’l ishorasi yoki ovoz kuchaytirgichli qurilma orqali transport vositasini to’xtatishni talab qilishi mumkin. Haydovchi esa ko’rsatilgan joyda to’xtashi kerak.

8.11. Yo’l harakati qatnashchilarining e’tiborini jalb etish uchun hushtak bilan qo’shimcha ishora berilishi mumkin.

### Nazorat savollari:

1. Qanday transport vositalari maxsus transport vositalari deyiladi?
2. Maxsus transport vositalarining imtiyozlari nimalardan iborat?
3. Qanday qurilma svetofor deyiladi?
4. Tartibga soluvchining asosiy ishoralari nimalardan iborat?
5. Haydovchilarning mayoqcha yongan transport vositalarining oldidagi harakatlari nimadan iborat?
6. Zarg’aldoq yoki sariq rangli chiroqli transport vositalarining imtiyozlari nimalardan iborat?
7. Svetofor qo’shimcha tarmoining vazifalari nimalardan iborat7
8. Svetofor turlarini bilasizmi?

## 5 -mavzu. Ogohlantiruvchi va falokat ishoralari. Harakatni boshlash. Yo'nalishni o'zgartirish.

Ogohlantiruvchi va falokat ishoralari. Falokatda to'xtash belgisi. Harakatni boshlash. Yo'nalishni o'zgartirish.

**Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi.**

| | |
|---|---|
| Vaqti – 2 soat | Talabalar soni: 45-50 nafar |
| 1.1. Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi.<br>O'quv mashg'ulotining shakli | Kirish, vizual ma'ruza |
| Ma'ruza mashg'ulotining rejasi | 1. Ogohlantiruvchi va falokat ishoralari.<br>2. Falokatda to'xtash belgisi.<br>3. Harakatni boshlash.<br>4. Yo'nalishni o'zgartirish. |
| ***O'quv mashg'ulotining maqsadi:*** Haydovchilarga yo'lda avtomobilni boshqarishida foydalanuvchi ogoxlantiruvchi va falokat ishoralari, harakatni boshlash, yo'nalishni o'zgartirish to'g'risida bilimlarni hamda to'liq tasavvurni shakllantirish. | |
| ***Pedagogik vazifalar:***<br>- ogohlantiruvchi va falokat ishoralarini qo'llanilishini o'rga-tish.<br><br>- Falokatda to'xtash belgisini, bu belgi qanday xollarda qo'l-lanilishini tushun-tirish;<br>-haydovchilarni har-akatni boshlashning qanday xavfsiz amalga oshirilishini tushun-tirish;<br>- avtomobilni boshqa-rishda yo'nalishni o'zg-artirish qoidalarini tushuntiradi. | ***O'quv faoliyatining natijalari:*** Talaba:<br><br>- ogohlantiruvchi va falokat ishoralarini qanday xollarda berilishini izohlaydi;<br>- falokatda to'xtash belgisini qo'llanishini ta'riflab beradi;<br>- haydovchi boshqarayotgan TV harakatini boshlashini tushuntirib beradi;<br>-haydovchi TV boshqarishda harakat yo'nalishini o'zgartirishni har xil sharoitda amalga oshirish qoidalarini tushuntirib beradi. |
| O'qitish uslubi va texnikasi | Vizual ma'ruza, blits-so'rov, bayon qilish, klaster, “ha-yo'q” texnikasi. |
| O'qitish vositalari | Ma'ruzalar matni, proektor, tarqatma materiallar, grafik organayzerlar. |
| O'qitish shakli | Jamoa, guruh va juftlikda ishlash. |
| O'qitish shart-sharoiti | Proektor, kompьyuter bilan jihozlangan auditoriya. |

**Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi (6-mashg'ulot)**

| Bosqichlar, vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|---|
| | **O'qituvchi** | **Talaba** |
| 1-bosqich. Kirish (10 min.) | 1.1. Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar ma'lum qilinadi. | 1.1. Eshitadi, yozib oladi. |
| 2-bosqich. Asosiy (60 min.) | 2.1. Talabalar e'tiborini jalb etish va bilim darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javob o'tkazadi:<br>- Ogoxlantiruvi belgiga qanday belgilar kiradi?<br>- Avtomobilning elektr tizimi ishlamasa haydovchi boshqa harakat ishtirokchilarini qanday ogoxlantiradi?<br>2.2. O'qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma'ruzani bayon etishda davom etadi. Yo'l harakati qoidalarida ogoxlantiruvchi belgilarni qanday xollarda berilishini tushuntiradi.<br>2.3.Haydovchilarning falokat yoki boshqa sabab bilan TV yo'lda to'xtab qolganda xavfli vaziyat to'g'risida falokat belgisini qanday o'rnatilishini .<br>YTH sodir etgan haydovchining vazifalarini tushuntiradi.<br>2.4. Haydovchilar TV xarakatini boshlash va yo'nalishni o'zgartirishning qoidalarini tushuntirib beradi. | 2.1. Eshitadi.<br>Navbat bilan savolarga ja-vob beradi.<br>O'ylaydi, javob beradi.<br>Javob beradi va to'g'ri javobni eshitadi.<br>2.2. Berilgan ma'lumotlarning mazmunini muho-kama qiladi.<br>Savollar berib, asosiy joylarini yozib oladi.<br>2.3. Eslab qoladi, yozadi.<br>Har bir savolga javob berishga harakat qiladi.<br>Ta'rifni yozib oladi, misollar keltiradi.<br>2.4. Eslab qoladi, yozadi.<br>Har bir savolga javob berishga harakat qiladi. |
| 3-bosqich. Yakuniy (10 min.) | 3.1. Mavzuga yakun yasaydi va talabalar e'tiborini asosiy masalalarga qaratadi. Faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi. Mustaqil ish uchun vazifa: "Ogoxlantiruvchi ishoralarning qo'llani-lishi. | 3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi.<br>3.2. Topshiriqni yozib oladi. |

## Vizual materiallar

*1-ilova*

### 1-savol: Ogohlantiruvchi va falokat ishoralari, falokat sababli to’xtash belgisining qo’llanilishi

Quyidagilar ogohlantiruvchi ishoralar hisoblanadi:

Burilishni ko’rsatadigan miltillovchi chiroq yoki qo’l bilan beriladigan ishoralar;

Tovushli ishoralar;

Fara chiroqlarining yoqilib – o’chirilishi;

Kunduz kuni yaqinni yorituvchi fara chirog’ini yoqilishi.

Harakatlanishni boshlashdan, qayta tizilishdan, burilish (qayrilib olishdan) va to’htashdan oldin haydovchi tegishli yo’nalishni bildiruvchi burilish yorug’lik ko’rsatgichi, ular bo’lmaganda yoki buzuq bo’lganda, qo’l bilan ishoralar berishi shart.

CHapga burilish (qayrilib olish)ni bildiruvchi ishoraga chap qo’lni yoki tirsakdan to’g’ri burchak ostida bukilgan o’ng qo’lni yonga uzatish mos keladi.

O’ngga burilishni bildiruvchi ishoraga o’ng qo’lni yoki tirsakdan to’g’ri burchak ostida bukilgan chap qo’lni yonga uzatish mos keladi.

To’xtash ishorasi chap yoki o’ng qo’lni yuqori ko’tarib beriladi.

Burilish ko’rsatkichi yoki qo’l bilan berilayotgan ishora manevrini bajarishdan oldinroq berilishi va uni tugallagach darhol to’xtalishi lozim (qo’l bilan berilayotgan ishorani manevr qilishdan bevosita oldin tugallashi mumkin).

Ishoralar berish boshqa yo’l harakati qatnashchilarini chalg’itmasligi kerak.

Ogohlantiruvchi ishora berish haydovchiga oldin o’tish huquqini bermaydi va uni zaruriy ehtiyot choralarini ko’rish masuliyatidan ozod qilmaydi.

Haydovchi o’zidan orqada kelayotgan, quvib o’tishni boshlagan va boshqa transport vositalariga halal bermasligiga ishonch hosil qilgandan keyingina, harakatlanish yo’nalishini o’zgartirish haqida ogohlantiruvchi ishora berishi kerak.

Tovushli ishoralar faqat quyidagi hollarda qo’llanilishi mumkiin:

Aholi yashaydigan joylardan tashqarida boshqa haydovchilarni quvib o’tish haqida ogohlantirish uchun;

Zarur bo’lgan hollarda yo’l – transport hodisasining oldini olish uchun;

Quvib o’tish haqida tovushli ishora o’rniga yoki u bilan birga fara chiroqlarini yoqib – o’chirib ogohlantirish ishorasini berish mumkin.

Burilishni ko’rsatuvchi barcha yorug’lik ishoralarining bir vaqtda miltillashi falokat ishoralari bo’lib hisoblanadi.

Falokat yorug’lik ishoralari quyidagi hollarda yoqilishi kerak:

Yo’l – transport hodisasi sodir bo’lganda;

To’xtash taqiqlangan joylarda majburiy to’xtalganda;

Fara chiroqlari haydovchining ko’zini qamashtirganda;

SHatakka olishda (shatakka olingan transport vositasida).

Haydovchi yo’l harakati hatnashchilarini, o’zi boshqarayotgan transport vositasi xavf tug’dirishi mumkin bo’lgan boshqa hollarda ham ogohlantirish uchun falokat yorug’lik ishoralarini yoqishi kerak.

Quyidagi hollarda falokat yorug’lik ishoralari yoqilgandan keyin, shuningdek, u bo’lmaganda yoki buzuq bo’lganda, falokat sababli to’xtash belgisi (miltillovchi qizil chiroq) darhol o’rnatilishi kerak:

Yo’l transport hodisasi sodir bo’lganda;

Taqiqlangan va ko'rinish sharoitini hisobga olgan holda transport vositasi boshqa haydovchilar tomonidan o'z vaqtida payqab bo'lmaydigan joylarda majburiy to'xtab qolganda.

Bunday belgi (chiroq) muayyan vaziyatda xavf haqida haydovchilarning o'z vaqtida ogohlantirishni taminlaydigan masofada o'rnatilishi kerak. Lekin bu masofa aholi yashaydigan joylarda transport vositasidan 15 metrdan, ulardan tashqarida esa 30 metrdan kam bo'lmasligi kerak.

SHatakka olingan transport vositasida falokat yorug'lik ishoralari buzuq bo'lganda yoki bo'lmagan hollarda uning orqa tomoniga falokat sababli to'xtash belgisi o'rnatilishi kerak.

***2-ilova***

**2-savol: Harakatlanishni boshlash, yo'nalishlarni o'zgartirish**

Haydovchi harakatlanishni boshlash, qayta tizilish, burilish (qayrilib olish), yo'nalishini o'zgartirish qv to'xtashdan oldin o'z xarakati bilan boshqa transport vositalariga havf solmayotganligiga va to'sqinlik qilmayotganligiga ishonch hosil kilishi kerak.

Yondosh hududlardan yo'lga chiqayotgan haydovchi unda harakatlanayotgan transport vositalariga va piyodalarga, shuningdek, undan chiqishda o'zining harakat yo'nalishini kesib o'tayotgan piyodalar va velosipedchilarga yo'l berishi kerak.

Haydovchi qayta tizilishda yon bo'lakda yo'lakay harakat yo'nalishini o'zgartirmasdan ketayotgan transport vositalariga yo'l berishi kerak.

Yo'lakay yo'nalishda harakatlanayotgan transport vositalari bir vaqtda qayta tizilayotganda, haydovchi o'ng tomondagi transport vositasiga yo'l berishi kerak.

Aylanma harakat tashkil qilingan chorrahalarga kirish uchun burilishdan boshqa barcha hollarda haydovchi o'ngga, chapga burilish yoki qayrilib olishdan oldin shu yo'nalishda harakatlanish uchun mo'ljallangan qatnov qismining eng chetki holatini egallashi shart.

Burilishni shunday amalga oshirish kerakki, bunda qatnov qismining kesishmasidan chiqayotgan transport vositasi qarama – qashi yo'nalishdagi harakat tomoniga o'tib ketmasin.

O'ngga burilayotgan transport vositasi iloji boricha qatnov qismining o'ng tomoniga yaqinroqda harakatlanishi kerak.

Transport vositasi o'zinig gabarit o'lchamlariga yoki boshqa texnik sabablariga ko'ra Qoidalarning 10.4. bandi talablariga muvofiq, bajara olmasa, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlab va boshqa transport vositalariga halaqit bermasdan undan chetga chiqishga yo'l qo'yiladi.

Relьssiz transport vositasining haydovchisi yo'lning chorrahadan tashqari joyida chapga burilishi yoki qayrilib olishda qarama –qarshi  yo'nalishdan kelayotgan transport vositalariga va yo'lakay yo'nalishdagi tramvayga yo'l berishlari shart.

CHorrahalardan tashqaridagi qatnov qismining kengligi chetki chap vaziyatdan qayrilib olish uchun yetarli bo'lmasa, uni qatnov qismining o'ng chetidan (yo'lning o'ng yoqasidan) amalga oshirish mumkin. Bu holda haydovchi yo'lakay va qarama – qarshi yo'nalishdagi transport vositalariga yo'l berishi shart.

transport vositalarining harakat yo'nalishlari kesishadigan va o'tish navbati ushbu Qoidalarda ko'zda tutilmagan hollarda haydovchi o'ng tomondan yaqinlashib kelayotgan transport vositasiga yo'l berishi kerak.

Sekinlashish bo'lagi bo'lgan yo'llarda burilmoqchi bo'layotgan haydovchi o'z vaqtida shu bo'lakka o'tishi va tezlikni faqat unda kamaytirishi kerak.

Yo’lga chiqish joyida tezlanish bo’lagi bo’lsa, haydovchi unda harakatlanishi va qo’shni bo’lakda harakatlanayotgan transport vositalariga yo’l berishi, so’ngra oqimga qo’shilishi kerak.

Quyidagi joylarda qayrilib olish taqiqlanadi:

Piyodalarning o’tish joylarida;

Tonellarda;

Ko’priklar, osma yo’l (estakadalar), osma ko’priklar va ularning ostida

Temir yo’l kesishmalarida;

Yo’lning ko’rinishi biron – bir yo’nalishda 100 metrdan kam bo’lgan joylarda.

Transport vositasini orqaga harakatlantirishda haydovchi yo’l harakati xavfsizligini ta’minlashi va boshqa yo’l harakati qatnashchilariga xalaqit bermasligi shart. Zarurat tug’ilganda, haydovchi boshqa shaxslarning yordamidan foydalanishi mumkin.

Nazorat savollari:

1 Ogohlantiruvchi ishoralarning qanday turlari bor?
2 Qanday xollarda ogoxlantiruvchi ishoralar beriladi?
3 Harakatni boshlashda va to’xtatishda qanday ishoralar beriladi?
4 Qanday sharoitda falokatlik ishorasi beriladi?
5 Orqaga harakatlanishda, tormozlashda qanday ogoxlantiruvchi ishoralar beriladi?
6 Miltillovchi qizil chiroq qanday xollarda qo’llaniladi **?**

## 6 -mavzu. Yo’lning qatnov qismida transport vositalarining joylashishi. Harakat tezligi. Quvib o’tish. To’xtash. To’xtab turish.

Yo’lning qatnov qismida transport vositalarining joylashishi. Harakat tezligi. Quvib o’tish. To’xtash. To’xtab turish.

**Ma’ruza mashg’ulotining o’qitish texnologiyasi.**

| | |
|---|---|
| Vaqti – 2 soat | Talabalar soni: 45-50 nafar |
| 1.1. Ma’ruza mashg’ulotining o’qitish texnologiyasi.<br>O’quv mashg’ulotining shakli | Kirish, vizual ma’ruza |
| Ma’ruza mashg’ulotining rejasi | 1. Yo’lning qatnov qismida transport vositalari-ning joylashishi.<br>2. Harakat tezligi.<br>3. Quvib o’tish.<br>4. To’xtash. To’xtab turish. |
| ***O’quv mashg’ulotining maqsadi:*** Yo’lda harakatni tashkil etishda yo’lning qatnov qismida transport vositalarining joylashishi harakat xavfsizligini ta’minlashda muxim ahamiyatga ega ekanligini tushuntirish. | |
| ***Pedagogik vazifalar:***<br>- yo’lning qatnov qismi-da transport vositalari-ning joylashishi.<br>-harakat tezligini sharo-itga qarab to’g’ri tanlash-ni tushuntirish;<br>- quvib o’tishni xavfsiz bajarishni tushuntirish.<br>- TV to’xtashi va to’xtab turishi to’g’risidagi bil-imlarni shakllantirish. | ***O’quv faoliyatining natijalari:*** Talaba:<br>- yo’lning qatnov qismida transport vositalarining joylashishini o’rganadi va tushuntirib beradi;<br>- transport vositalarining harakat tezligini ko’cha-yo’l sharoitiga qarab to’g’ri tanlashni o’rganadi va tushuntiradi;<br>- transport vositalarining quvib o’tish tartibini o’rganadi va tavsiflaydi;<br>-ko’cha-yo’l tarmog’ida transport vositalarining to’xtashi va to’xtab turishini tushuntiradi va harakat xavfsizligiga ta’sirini izoxlab beradi; |
| O’qitish uslubi va texnikasi | Vizual ma’ruza, blits-so’rov, bayon qilish, klaster, “ha-yo’q” texnikasi. |
| O’qitish vositalari | Ma’ruzalar matni, proektor, tarqatma materiallar, grafik organayzerlar. |
| O’qitish shakli | Jamoa, guruh va juftlikda ishlash. |
| O’qitish shart-sharoiti | Proektor, kompьyuter bilan jihozlangan auditoriya. |

**Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi (7-mashg'ulot)**

| **Bosqichlar, vaqti** | **Faoliyat mazmuni** | |
|---|---|---|
| | **O'qituvchi** | **Talaba** |
| 1-bosqich. Kirish (10 min.) | 1.1. Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar ma'lum qilinadi. | 1.1. Eshitadi, yozib oladi. |
| 2-bosqich. Asosiy (60 min.) | 2.1. Talabalar e'tiborini jalb etish va bilim darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javob o'tkazadi:<br>- transport vositalari yo'lning qatnov qismida qanday joylashadi?<br>- transport vositalarining yo'lning qatnov qismida joylashishi qanday salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin?<br><br>2.2. O'qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma'ruzani bayon etishda davom etadi. Yo'lning qatnov qismida transport vositalarining ma'lum tartibga asosan joylashishining harakat qoidalarida belgilanishini tushuntiradi.<br>2.3. Haydovchilar tomonidan transport vositalarining tezligini to'g'ri tanlanishi harakat xavfsizligini ta'minlashda muxim ahamiyatga egaligi tushuntirib beradi.<br>Transport vositalarining quvib o'tishi, to'xtashi va to'xtab turishini qoidalarga asosan tashkil etilishini tushuntiradi. | 2.1. Eshitadi. Navbat bilan savolarga ja-vob beradi.<br>O'ylaydi, javob bera-di.<br>Javob beradi va to'g'-ri javobni eshitadi.<br>2.2. Berilgan ma'lu-motlarning mazmuni-ni muhokama qiladi.<br>Savollar berib, asosiy joylarini yozib oladi.<br>2.3. Eslab qoladi, yozadi. Har bir savolga javob berishga harakat qiladi. Ta'rifni yozib oladi, misollar keltiradi.<br>2.4. Eslab qoladi, yozadi.<br>Har bir savolga javob berishga harakat qiladi. |
| 3-bosqich. Yakuniy (10 min.) | 3.1. Mavzuga yakun yasaydi va talabalar e'tiborini asosiy masalalarga qaratadi. Faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi. Mustaqil ish uchun vazifa: "Qoidalarda qo'llanilgan asosiy tushuncha va atamalar"ga klaster tuzishni vazifa qilib beradi, baholaydi. | 3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi.<br>3.2. Topshiriqni yozib oladi. |

## Vizual materiallar

*1-ilova*

### 1-savol: Yo'lning qatnov qismida transport vositalarining joylashishi

Relьssiz transport vositalari harakatlanadigan bo'laklar soni chiziqlar yoki 5.8.1, 5.8.2, 5.8.7, 5.8.8. yo'l belgilari bilan belgilanadi. Bunday chiziqlar yoki yo'l belgilari bo'lmasa, haydovchilar yo'l bo'laklarini o'zlari, qatnov qismini kengligini, transport vositalari orasidagi zarur yonlama oraliq masofani va ularning gabarit o'lchamlarini hisobga olgan holda aniqlaydilar. Bunda harakat ikki tomonlama bo'lgan yo'l qatnov qismininig chap tomondagi yarmi qarama – qarshi yo'nalishda harakatlanish uchun mo'ljallangan, deb hisoblanadi.

To'rt va undan ortiq bo'lakli, harakat ikki tomonlama bo'lgan yo'llarda qarama – qarshi yo'nalishda harakatlanish uchun mo'ljallangan bo'laklarga chiqish taqiqlanadi.

. Harakat ikki tomonlama bo'lgan uchta bo'lakli (1.9 chizig'i bilan belgilangandan tashqari) yo'llarda o'rta bo'lakka faqat quvib o'tish, chapga burilish, qayrilib olish va aylanib o'tish uchungina chiqishga ruxsat etiladi. Qarama – qarshi yo'nalishda harakatlanish uchun mo'ljallangan chetki chap bo'lakka chiqish taqiqlanadi.

Aholi yashaydigan joylardan tashqarida haydovchilar transport vositalarini mumkin qadar qatnov qismining o'ng chetiga yaqinroqqa olib harakatlanishlari kerak.

Aholi yashaydigan joylarda Qoidalarning 11.6, 19.1, 26.2 bandlaridagi talablarni hisobga olgan holda haydovchilar o'zlariga qulay bo'lgan harakatlanish bo'lagidan foydalanishlari mumkin. Faqat o'ngga yoki chapga burilish, qayrilib olish, quvib o'tish, to'xtash oldidan xarakatlanish bo'lagini o'zgartirishga ruxsat etiladi.

Biroq, bir yo'nalishdagi uch va undan ortiq bo'lakli har qanday yo'lda xarakat serqatnovligi sababli boshqa bo'laklar band bo'lgan hollarda, shuningdek, quvib o'tish, chapga burilish yoki qayrilib olish, ruxsat etilgan to'la vazni 3,5 tonnadan ortiq bo'lgan yuk.

Avtomobillariga esa faqat chapga burilish yoki qayrilib olish uchun chetki chap bo'lakni egallashga ruxsat etiladi.

Harakat bir tomonlama bo'lgan yo'lning chap bo'lagida to'xtash va to'xtab turish Qoidalarning 14.1 bandiga muvofiq amalga oshiriladi.

Biror bo'lakda qo'shni bo'lakdagi transport vositalariga nisbatan katta tezlikda harakatlanish quvib o'tish deb hisoblanmaydi.

Tezlikni soatiga 40 kilometrdan oshirishi mumkin bo'lmagan yoki texnik sabablarga ko'ra tezligini bundan oshira olmaydigan transport vositalari quvib o'tish, chapga burilish yoki qayrilib olish, aylanib o'tish uchun qayta tizilishdan boshqa hollarda faqat chetki o'ng bo'lakda harakatlanishlari kerak.

Yo'lakay yo'nalishdagi qatnov qismining chap tomonida u bilan bir sathda joylashgan tramvay izidan shu yo'nalishdagi boshqa bo'laklar band bo'lganda harakatlanishga, aylanib va quvib o'tishga, shuningdek, 5.8.1, 5.8.2 belgilari bilan belgilanmagan hollarda esa chapga burilish va qayrilib olishga ruxsat etiladi. Biroq bu tramvay harakatiga halaqit bermasligi kerak.

Qarama – qarshi yo'nalishdagi tramvay izidan harakatlanish taqiqlanadi.

Agar qatnov qismi yo'l chiziqlari bilan bo'laklarga ajratilgan bo'lsa, transport vositalarining harakatlanishi qat'i ravishda belgilangan bo'laklarda amalga oshirilishi kerak. Faqat qayta tizilishda uzuk – uzuk chiziqlarni bosib o'tishga ruxsat etiladi.

Reveris harakatlanishli yo'lga burilishda transport vositalari qatnov qismlari kesishmasidan chiqishda chetki o'ng bo'lakni egallashi kerak. Haydovchiga shu yo'nalishdagi boshqa bo'laklarda ham harakatlanishga ruxsat berilganligiga ishonch hosil qilingandan keyingina qayta tizilishga ruxsat etiladi.

Qoidalarning 14.1, 27.2 bandlarida ko'zda tutilgandan boshqa hollarda transport vositalarining yo'l yoqasi, trotuar va piyodalar yo'lkalaridan xarakatlanishi taqiqlanadi. Bu joylarda yo'ldan foydalanish va kommunal xizmat mashinalarining harakatlanishiga, shuningdek, boshqa imkoniyat bo'lmagan hollarda bevosita yo'l yoqasida, trotuar yoki piyodalar yo'lkalari oldida joylashgan savdo shaxobchalari, korxonalar va boshqa inshootlarga yuk olib kirish uchun transport vositalariga yaqin yo'ldan kirishga ruxsat etiladi. Bunda yo'l xarakati xavfsizligi to'la ta'minlangan bo'lishi shart.

Haydovchi o'zidan oldinda ketayotgan transport vositasi keskin to'xtaganda u bilan to'qnashib ketmaslik kafolatini beradigan oraliq masofani, shuningdek, yo'l harakati havfsizligini ta'minlaydiganyonlama oraliq masofani saqlashi kerak.

Aholi yashaydigan joylardan tashqaridagi yo'llarda tezligini soatiga 50 kilometrdan oshirishi mumkin bo'lmagan, shuningdek, ruxsat etilgan to'la vazni 12 tonnadan ortiq bo'lgan transport vositalarining haydovchilari o'zi va oldida ketayotgan transport vositasi oralig'ida, ularni quvib o'tishi mumkin bo'lgan transport vositalari bemalol yo'lning o'ng tomoniga qayta tizilishi uchun imkon beradigan masofani saqlashlari kerak.

Quvib o'tishga tayyorlanayotgan, shuningdek, transport vositalarining tashkiliy jamlanmasi tarkibida, serqatnov bo'lgan yo'llarda harakatlanayotgan transport vositalarining haydovchilariga bu talab taalluqli emas.

Agar biron – bir to'siq sababli qarama – qarshi yo'nalishlarda harakatlanish qiyin bo'lsa, to'siq o'z tomonida bo'lgan haydovchi yo'l berishi kerak.

***2-ilova***

## 2-savol: Harakatlanish tezligi

Haydovchi harakatning serqatnovligini, transport vositasi va yukning hususiyati hamda holatini, yo'l va ob – havo sharoitini, shuningdek, harakatlanish yo'nalishidagi ko'rinishni hisobga olgan holda transport vositasini belgilangan cheklangan tezlikdan oshirmasdan boshqarishi kerak.

Transport vositasining tezligi haydovchiga Qoidalar talablarini bajarish uchkn uning harakatini doimo nazorat qilib borish imkoniyatini berishi kerak.

Harakatlanishda, haydovchi aniqlay olishi imkoniyatida bo'lgan xavf yoki to'siq, paydo bo'lsa, u transport vositasining tezligini to'la to'xtatishni ta'minlaydigan darajada kamaytirish yoki to'siqni boshqa harakat qatnashchilari uchun xavfsiz aylanib o'tish choralarini ko'rishi kerak.

Aholi yashaydigan joylarda transport vositalari tezligini soatiga 70 kilometrdan oshirmasdan harakatlanishga ruxsat etiladi.

Aholi yashaydigan joylardan tashqarida:

Engil avtomobillarga va ruxsat etilgan to'la vazni 3,5 tonnadan oshmydigan yuk avtomobillariga tezlikni soatiga 100 kilometrdan oshirmasdan;

SHaharlararo qatnaydigan avtobuslarga va mikroavtobuslarga tezlikni soatiga 90 kilometrdan oshirmasdan;

Boshqa avtobuslar, tirkamali yengil avtomobillar, mototsikllar, ruxsat etilgan to'la vazni 3,5 tonnadan ortiq bo'lgan yuk avtomobillariga tezlikni soatiga 80 kilometrdan oshirmasdan;

Tirkamali va yuk avtomobillariga tezlikni soatiga 70 kilometrdan oshirmasdan harakatlanishga ruxsat etiladi.

Har qanday yo'llarda:

Odam tashiyotgan yuk avtomobillariga tezlikni soatiga 60 kilometrdan oshirmasdan;

Mexanik transport vositalarini shatakka olgan transport vositalariga tezlikni soatiga 50 kilometrdan oshirmaslikka;

Xavfli, og'ir vaznli va katta o'lchamli yuklarni tashiyotgan, tashkiliyo jamlanmada harakatlanayotgan transport vositalariga YHXB

bilan kelishilgan tezlikdan oshmasdan harakatlanishga ruxsat etiladi.

Haydovchilarga quyidagilar taqiqlanadi:

Tezlikni mazkur transport vositasining texnik tavsifnomasida ko'rsatilgan eng yuqori tezlikdan oshirish;

Tezlikni transport vositasiga o'rnatilgan taniqlik belgi ("Tezlik cheklangan")da ko'rsatilgan qiymatidan oshirish;

Zarurat bo'lmaganda juda past tezlikda harakatlanib, boshqa transport vositalariga xalaqit berish;

Yo'l – transport xodisasining oldini olish zarurati bo'lmaganda keskin tormoz berish.

***2-ilova***

**2-savol: Quvib o'tish**

Haydovchi quvib o'tishni boshlashdan oldin:

O'zi o'tmoqchi bo'lgan harakatlanish bo'lagi quvib o'tish uchun yetarlicha masofada bo'sh ekanligiga, bu qarama – qashi yo'nalishdagi va shu bo'lakdagi transport vositalarining harakatiga xalaqit bermasligiga;

SHu bo'lakda orqada kelayotgan transport vositasi quvib o'tishni boshlamaganligiga;

Oldinda harakatlanayotgan transport vositasi esa quvib o'tish, chapga burilish (qayta tizilish) haqida ishora bermasligiga;

Quvib o'tishni tugallayotganda quvib o'tilayotgan transport vositasiga xalaqit bermasdan ilgari egallagan bo'lakka qaytib o'ta olishiga ishonch xosil qilishi shart.

Relьssie transport vositalarini faqat chap tomondan quvib o'tishga ruxsat beriladi. Biroq chapga burilish ishorasini berib, burilishga kirishgan transport vositasini quvib o'tish o'ng tomondan amalga oshiriladi.

Quvib o'tilayotgan transport vositasining haydovchisiga harakat tezligini oshirish yoki boshqa hatti – harakatlar bilan quvib o'tishga to'sqinlik qilish taqiqlanadi.

Quvib o'tishni tugallagandan so'ng haydovchi ilgari egallagan harakatlanish bo'lagiga qaytishi shart (o'ng tomondan ruxsat etilgan quvib o'tishdan tashqari).

Biroq ushbu yo'nalishda harakatlanish uchun ikki yoki undan ortiq bo'lak bo'lsa, quvib o'tayotgan haydovchi o'zi egallagan bo'lakka qaytgani zaxoti keyingi quvib o'tishni boshlashga to'g'ri keladigan hollarda orqada o'zidan katta tezlikda harakatlanayotgan transport vositalariga xalaqit bermasa, chap bo'lakda harakatlanishni davom ettirishi mumkin.

Quvib o'tish quyidagi hollarda taqiqlanadi:

Tartibga solingan chorrahalarda asosiy bo'lib hisoblanmaydigan yo'llarda harakatlanishda (aylanma harakatlanishli chorrahalarda quvib o'tish, kajavasiz ikki g'ildirakli transport vositalarini quvib o'tish va ruxsat etilgan hollarda o'ng tomondan quvib o'tish bundan mustasno);

Piyodalar o'tish joylarida piyodalar bo'lganda;

Temir yo'l kesishmalarida va ulargacha 100 metrdan kam masofa qolganda;

Quvib yoki aylanib o'tayotgantransport vositalarini;

Tepalikka ko'tarilishning ohirida va yo'lning ko'rinishi cheklangan boshqa joylarida qarama – qarshi harakatlanish yo'nalishiga chiqib.

Aholi yashaydigan joylardan tashqaridagi yo'llarda sekin harakatlanadigan yoki katta hajmli transport vositasini quvib o'tish qiyin bo'lgan hollarda uning haydovchisi ushbu transport vositasini iloji boricha yo'lning o'ng tomoniga olishi, zarur bo'lganda esa orqasida to'planib qolgan transport vositalarini o'tkazib yuborish uchun to'xtashi kerak.

*3-ilova*

## 3-savol: To’xtash va to’xtab turish

Transport vostialariga yo’lning o’ng tomonidagi yoqasida, u bo’lmaganda esa qatnov qismining chetida to’xtash va to’xtab turishga ruxsat etiladi.

Aholi yashaydigan joylarda yo’llarning chap tomonida to’xtash va to’xtab turishga har yo’nalishda kamida bittadan harakatlanish bo’lagi bo’lgan va o’rtada tramvay izi bo’lmagan hamda harakat faqat bir tomonlama bo’lgan yo’llarda ruxsat etiladi.

Ruxsat etilgan to’la vazni 3,5 tonnadan ko’p bo’lgan yuk avtomobillari harakat bir tomonlama bo’lgan yo’llarning chap tomonida faqat yuk ortish va tushurish uchun to’xtashlari mumkin.

Transport vostialarini qatnov qismining cheti bo’ylab bir qator qilib, kajavasi bo’lmagan ikki g’ildirakli transport vositalarini esa ikki qator qilib qo’yishga ruxsat etiladi.

Yo’lnig qatnov qismi kengaygan ayrim joylarida boshqa yo’l harakati qatnashchilariga xalaqit bermaslik sharti bilan transport vositalarini boshqacha tartibda ham qo’yishga ruxsat etiladi.

Piyodalar harakatiga halaqit bermaslik sharti bilan qatnov qismiga chegaradosh trotuar chetida faqat yengil avtomobillar, mototsikllar, mopedlar va velosipedlarga to’xtab turishga ruxsat etiladi.

Aholi yashaydigan joylardan tashqarida to’xtab qolish, dam olish yoki boshqa maqsadlarda to’xtab turish faqat buning uchun ko’zda tutilgan maydonchalarda yoki yo’ldan tashqarida ruxsat etiladi.

Quyidagi joylarda to’xtash taqiqlanadi:

Tramvay yo’llarida, shuningdek, bevosita ularga yaqinroqda tramvaylar harakatlanishiga halaqit beradigan bo’lsa;

Tonellarda, temir yo’l kesishmalarida;

Bir yo’nalishda harakatlanish uchun uchtadan kam bo’lagi bo’lgan ko’priklar, osma yo’l (estakada)lar, osma ko’priklar va ularning ostida;

To’xtagan transport vositasi bilan sidirg’a chiziq (qatnov qismining chetini belgilagan chiziqdan tashqari) orasidagi masofa 3 metrdan kam bo’lgan joylarda;

Piyodalar o’tish joylarida va ularga 5 metrdan kamroq masofa qolganda;

Qatnov qismining xavfli burilishlarida;

Loaqal bir yo’nalishdagi ko’rnish 100 metrdan kam bo’lgan yo’l do’ngliklari yaqinida;

Qatnov qismlari kesishmalarida va kesilayotgan qatnov qismi chetiga 5 metrdan kamroq masofa qolganda (qarama-qarshi harakat yo’nalishlari sidirg’a chizig’i yoki ajratuvchi bo’lak bilan ajratilgan yo’lda, o’ngga yondan tutashgan yo’lning qarama – qarshi tomoni bundan mustasno);

Bekat maydonchalariga, ular bo’lmaganda esa harakatga xalaqit beradigan bo’lsa, belgilangan yo’nalishdagi transport vositalari yoki taksining to’xtash joyi ko’rsatkichlariga 15 metr qolganda;

transport vositasi svetofor ishoralari, yo’l belgilarini boshqa haydovchilardan to’sibqo’yadigan yoki boshqa transport vositalarining harakatlanishiga (kirish va chiqishga) imkon qoldirmaydigan va piyodalarning harakatiga xalaqit beradigan joylarda;

“To’xtash taqiqlangan” yo’l belgisi (3.27) hamda chizig’i (1.4) ning ta’sirlari doirasida.

To’xtab turish quyidagi joylarda taqiqlanadi:

To’xtash taqiqlangan joylarda;

Aholi yashaydigan joylardan tashqarida 2.1 belgisi bilan belgilangan yo’llarning qatnov qismida;

Temir yo’l kesishmalariga 50 metr qolganda;

To’xtash va to’xtab turishni taqiqlovchi yo’l belgilari (3.27 – 3.30) va chiziqlari (1.4, 1.10) ta’sirlari doirasida;

To’xtash taqiqlangan joyda majburiy to’xtagan haydovchi transport vositasini bu joydan olib ketishning barcha choralarini ko’rishi kerak.

Agar boshqa yo’l xarakati qatnashchilarining harakatiga xalaqit beradigan bo’lsa yoki xavf tug’dirsa, transport vositasinig eshiklarini ochish taqiqlanadi.

Haydovchi transport vositasini o’z – o’zidan harakatlanishini yoki o’zi yo’qligida undan foydalanishni istisno qiladigan zarur ehtiyot choralarini ko’rgandan keyingina o’z joyini tashlab ketishi yoki transport vositasini qoldirishi mumkin.

Nazorat savollari:

1 Haydovchi harakatni boshlashdan oldin qanday ishlarni qilishi kerak?
2 CHorraxada o’ngga burilishda haydovchi kimga yo’l berishi kerak?
3 Harqanday manevrdan oldin haydovchi nima qilishi kerak?
4 Qaerlarda qayrilib olish taqiqlanadi?
5 Yo’lning tor qismida qarama-qarshi harakatlanishda qaysi transport vositalari haydovchisi yo’l berishi kerak?
6 Qanday xollarda tramvay izlarida harakatlanishga ruxsat beriladi?
7 Transport vositalari orasidagi oraliq masofa qanday tanlab olinadi?
8 Qanday sharoitlarni hisobga olib transport vositalarining tezligi tanlab olinadi?
9 Qanday xollarda quvib o’tish taqiqlanadi?
10 Qanday joylarda to’xtash va to’xtab turish taqiqlanadi?
11 To’xtash taqiqlangan joyda majburan to’xtaganda haydovchining vazifasi ?

## 7 -mavzu. CHorraxalarda harakatlanish

Tartibga solingan chorrahalar. Tartibga solinmagan chorrahalar. Piyodalarning o’tish joylari va belgilangan yo’nalishdagi transport vositalarining bekatlari.

**Ma’ruza mashg’ulotining o’qitish texnologiyasi.**

| | |
|---|---|
| Vaqti – 2 soat | Talabalar soni: 45-50 nafar |
| O’quv mashg’ulotining shakli | Kirish, vizual ma’ruza |
| Ma’ruza mashg’ulotining rejasi | 1 Tartibga solingan chorrahalar.<br>2. Tartibga solinmagan chorrahalar.<br>3. Piyodalarning o’tish joylari.<br>**4.** Belgilangan yo’nalishdagi transport vositalarining bekatlari. |
| ***O’quv mashg’ulotining maqsadi:*** “Yo’l belgilari” to’g’risida tushuncha berish. Yo’l belgilari guruxlari va har bir gurux belgilarining vazifasi to’g’risida tushuncha berish. | |

| | |
|---|---|
| ***Pedagogik vazifalar:***<br>-mavzuning mohiyatini tushuntirish;<br>-asosiy tushunchalar bilan tanishtirish;<br>-yo'l belgilarining harakatni boshqarishdagi ahamiyatini tushuntirish.<br>-yo'l belgilarini ma'lum bir ko'cha-yo'l sharoitida qo'llanilishini tushun-tirish. | ***O'quv faoliyatining natijalari:*** Talaba:<br>-yo'l belgilarini qo'llanilishi mohiyati to'g'risida tushunchaga ega bo'ladi;<br>-yo'l belgilari guruxlarini ta'riflab beradi;<br>-oghlantiruvchi yo'l belgilarini shakli vazifasini o'rganadi.<br>-imtiyoz yo'l belgilarini shakli rangi va qo'llanilishini o'rganadi.<br>- taqiqlovchi yo'l belgilarining shakli rangi simvollari to'g'risida tushunchalar oladi.<br>- buyuruvchi yo'l belgilarini shakli rangi va vazifalarini o'rganadi.<br>- ahborot-ishora, servis, qo'shimcha axborot belgilari, ularning vazifalari va qo'llanilishi o'rganadi |
| O'qitish uslubi va texnikasi | Vizual ma'ruza, blits-so'rov, bayon qilish, insert, "ha-yo'q" texnikasi. |
| O'qitish vositalari | Ma'ruzalar matni, proektor, tarqatma materiallar, grafik organayzerlar. |
| O'qitish shakli | Jamoa, guruh va juftlikda ishlash. |
| O'qitish shart-sharoiti | Proektor, kompьyuter bilan jihozlangan auditoriya. |

**Ma’ruza mashg’ulotining texnologik kartasi (8-mashg’ulot)**

| Bosqichlar, vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|---|
| | **O’qituvchi** | **Talaba** |
| 1-bosqich. Kirish (10 min.) | 1.1. Mavzu, uning maqsadi, o’quv mashg’ulotidan kutilayotgan natijalar ma’lum qilinadi. | 1.1. Eshitadi, yozib oladi. |
| 2-bosqich. Asosiy (60 min.) | 2.1. Talabalar e’tiborini jalb etish va bilim darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javob o’tkazadi:<br>-yo’l belgilarining dastlabki paydo bo’lishi tarixini bilasizmi?<br>-Nechta yo’l belgi guruxlarini bilasiz?<br>-Yo’l belgilari nima maqsadda o’rnatiladi?<br>2.2. O’qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma’ruzani bayon etishda davom etadi. Yo’l belgilarini ularning turlarini,paydo bo’lishi va qo’llanilishi to’g’risida ma’lumotlarni tushuntiradi.<br>2.3. Ogoxlantiruvchi, imtiyoz, taqiqlovchi yo’l belgilarini tushuntiradi.<br>2.4. Buyuruvchi, axborot-ishora, servis va qo’shimcha axborot belgilarini tushuntiradi. Bu ma’lumotlarni Yo’l harakati qoidalarining elektron versiyasidan foydalangan xolda tushuntiradi. | 2.1. Eshitadi. Navbat bilan savolarga javob beradi. O’ylaydi, javob beradi. Javob beradi va to’g’ri javobni eshitadi.<br>2.2. Yo’l belgilari to’g’risida savollar asosiy javoblarni chizmalarni yozib oladi.<br>2.3. Eslab qoladi, yozadi. Ta’rifni yozib oladi, misol-lar keltiradi.<br>2.4. Eslab qoladi, yozadi. |
| 3-bosqich. Yakuniy (10 min.) | 3.1. Mavzuga yakun yasaydi va talabalar e’tiborini asosiy masalalarga qaratadi. Faol ishtirok etgan talabalarni rag’batlantiradi. Mustaqil ish uchun vazifa: “Ogoxlantiruvchi”, “Imtiyoz”, “Taqiqlovchi”,”Buyuruvchi” “Axborot-ishora” “Servis”, “Qo’shimcha axborot” yo’l belgilari klaster tuzishni vazifa qilib beradi, baholaydi. | 3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi.<br>3.2. Topshiriq-ni yozib oladi.<br>3.3. Berilgan topshiriqni darhol baja-radi. |

## Vizual materiallar

***1-ilova***

### 1-savol: Tartibga solingan chorrahalar.

Svetoforning yashil ishorasida chapga burilayotgan yoki qayrilib olayotgan relьssiz transport vositasining haydovchisi qarama – qarshi tomondan to'g'riga harakatlanayotgan va o'ngga burilayotgan transport vositalariga yo'l berishi shart. Bu qoidaga tramvay haydovchilari ham o'zaro amal qilishlari kerak.

Svetoforning qizil yoki sariq ishorasi bilan bir vaqtda yongan qo'shimcha tarmoqning yashil ishorasidagi yo'naltirgich yo'nalishida harakatlanayotgan transport vositasining haydovchisi boshqa yo'nalishdagi transport vositalariga yo'l berishi kerak.

Agar svetofor yoki tartibga soluvchining ishoralari tramvay va relьssiz transport vositalariga bir vaqtda harakalanishga ruxsat bersa, harakatlanish yo'nalishidan qat'i nazar, tramvay oldin o'tish huquqiga ega bo'ladi.

Svetoforning ruxsat etuvchi ishorasida chorrahaga kirgan haydovchi, undan chiqishdagi svetofor ishorasidan qat'i nazar, belgilangan yo'nalishda harakatini davom ettirishi kerak. Biroq chorrahada haydovchining yuradigan yo'lida joylashgan svetoforlar oldida to'xtash chiziqlari (yoki 5.33 belgisi) bo'lsa, u har bir svetofor ishorasiga amal qilishi shart.

Svetoforning ruxsat beruvchi ishorasi yonganda haydovchi chorraha orqali harakatlanishni tugallayotgan transport vositalari va qatnov qismidan tegishli yo'nalishda o'tishni tugallayotgan piyodalarga yo'l berishi shart.

***2-ilova***

### 2-savol: Tartibga solinmagan chorrahalar

Teng ahamiyatga ega bo'lmagan yo'llar kesishgan chorrahada, keyingi harakat yo'nalishidan qat'i nazar, asosiy yo'ldan kelayotgan transport vositasiga ikkinchi darajali yo'ldan kelayotgan transport vositasining haydovchisi yo'l berishi kerak.

Teng ahamiyatga ega bo'lgan yo'llar kesishgan chorrahada relьssiz transport vositasining haydovchisi o'ngdan kelayotgan transport vositalariga yo'l berishi shart.

Bu qoidaga tramvay haydovchilari ham o'zaro amal qilishlari kerak. Bunday chorrahalarda, keyingi harakat yo'nalishidan qat'i nazar, tramvay relьssiz transport vositalariga nisbatan oldin o'tish huquqiga ega bo'ladi.

Asosiy yo'lning yo'nalishi chorrahada o'zgarganda, asosiy yo'lda harakatlanayotgan haydovchilar o'zaro teng ahamiyatli yo'llar chorrahasidan o'tish qoidasiga amal qilishlari shart.

Ikkinchi darajali yo'llarda harakatlanayotgan haydovchilar ham o'zaro shu qoidaga amal qilishlari lozim.

CHapga burilishda yoki qayrilib olishda relьssiz transport vositasining haydovchisi teng ahamiyatli yo'ldan qarama – qarshi yo'nalishdan to'g'riga yoki o'ngga harakatlanayotgan, shuningdek, ruxsat etilgan hollarda quvib o'tayotgan transport vositalariga yo'l berishi shart. Bu qoidaga tramvay haydovchilari ham o'zaro amal qilishlari kerak.

Agar haydovchi o'zi harakatlanayotgan yo'lning qoplamasi bor – yo'qligini aniqlay olmasa (qorong'i vaqt, loy, qor va h. k.) va imtiyoz belgilari bo'lmasa, unda u o'zini ikkinchi darajali yo'lda deb hisoblashi kerak.

***3-ilova***

**3-savol: Piyodalarning o'tish joylari va belgilangan yo'nalishdagi transport vositalarining bekatlari**

Transport vositasining haydovchisi tartibga solinmagan piyodalar o'tish joyida qatnov qismidan o'tayotgan piyodalarga yo'l berishi shart.

Agar tartibga solinmagan piyodalar o'tish joyi oldida transport vositasi harakatini sekinlashtirsa yoki to'xtatsa, qo'shni bo'laklarda harakatlanayotgan boshqa haydovchilar bu Transport vositasi oldida piyodalar yo'qligiga ishonch hosil qilganlaridan so'nggina harakatlanishni davom ettirishlari mumkin.

Tartibga solingan piyodalar o'tish joylarida haydovchilar svetoforning ruxsat etuvchi ishorasi yongan taqdirda ham piyodalarga qatnov qismini shu yo'nalishda kesib o'tishni tugallashga imkon berishi kerak.

Agarda, piyodalar o'tish joylaridan keyin paydo bo'lgan tirbandlik tufayli haydovchi piyodalar o'tish joyoida to'xtashga majbur bo'ladigan bo'lsa, bunday piyodalar o'tish joylariga kirish taqiqlanadi.

Barcha hollarda, shu jumladan, piyodalar o'tish joylaridan tashqarida ham haydovchi oq xassa bilan ishora berayotgan ko'zi ojiz piyodalarni o'tkazib yuborishi kerak.

Agar piyodalarni tushirish yoki chiqarish qatnov qismida yoki unda joylashgan maydonchada amalga oshirilayotgan bo'lsa, haydovchi bekatda to'xtagan belgilangan yo'nalishdagi transport vositasi eshiklari tomon borayotgan yoki undan kelayotgan piyodalarga yo'l berishi kerak.

"Bolalar guruhini tashash" taniqlik belgisi o'rnatilgan transport vositasi to'xtab turganda, unga yaqinlashayotgan haydovchi harakat tezligini kamaytirishi, zarur bo'lsa to'xtatishi va bolalar guruhini o'tkazib yuborishi kerak.

Nazorat savollari:

1 CHorraxa nima ?
2 Tutashma nima?
3 CHorrahaning xududi qanday belgilanadi?
4 Teng ahamiyatli chorrahalarda harakatlanish?
5 Teng ahamiyatsiz chorrahalarda harakatlanish?
6 CHorrahalarda piyodalarning imtiyozlari?

## 8 -mavzu. Murakkab sharoitlarda harakatlanish

Temir yo'l kesishmalari orqali harakatlanish. Avtomagistrallarda harakatlanish . Turar joy dahalarida harakatlanish. Tik nishablik va tik balandliklarda harakatlanish. Belgilangan yo'nalishdagi transport vosita-larining imtiyozlari. Tashqi yoritish asboblaridan foydalanish. Mexanik transport vositalarini shatakka olish.

**Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi.**

| | |
|---|---|
| Vaqti – 2 soat | Talabalar soni: 45-50 nafar |
| O'quv mashg'ulotining shakli | Kirish, vizual ma'ruza |
| Ma'ruza mashg'ulotining rejasi | 1 Temir yo'l kesishmalari orqali harakatlanish.<br>7 Avtomagistrallarda harakatlanish.<br>8 Turar joy dahalarida harakatlanish.<br>9 Tik nishablik va tik balandliklarda harakatlanish.<br>10 Belgilangan yo'nalishdagi transport vositalarining imtiyozlari.<br>11 Tashqi yoritish asboblaridan foydalanish.<br>12 Mexanik transport vositalarini shatakka olish. |
| ***O'quv mashg'ulotining maqsadi:*** "Yo'l chiziqlari" to'g'risida tushuncha berish. Yo'l chiziqlari va ularning qo'llanilishi va vazifasi to'g'risida tushuncha berish. | |
| ***Pedagogik vazifalar:***<br>-mavzuning mohiyatini tushuntirish;<br>-asosiy tushunchalar bilan tanishtirish;<br>-yo'l chiziqlarining harakatni boshqarishdagi ahamiyatini tushuntirish.<br>-yo'l chiziqlarining real ko'cha-yo'l sharoitida qo'llanilishini tushun-tirish. | ***O'quv faoliyatining natijalari:*** Talaba:<br>-yo'l chiziqlarining qo'llanilishi va mohiyati to'g'risida tushunchaga ega bo'ladi;<br>-yo'l chiziqlarining guruxlarini ta'riflab beradi;<br>-yotiq yo'l chiziqlarining shakli, rangi va vazifasini o'rganadi.<br>-tik yo'l chiziqlarining shakli rangi va vazifasini o'rganadi.<br>- Yo'l chiziqlarini qo'llanilishi to'g'risida tushunchalar oladi. |
| O'qitish uslubi va texnikasi | Vizual ma'ruza, blits-so'rov, bayon qilish, insert, "ha-yo'q" texnikasi. |
| O'qitish vositalari | Ma'ruzalar matni, proektor, tarqatma materiallar, grafik organayzerlar. |
| O'qitish shakli | Jamoa, guruh va juftlikda ishlash. |
| O'qitish shart-sharoiti | Proektor, kompьyuter bilan jihozlangan auditoriya. |

**Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi (9-mashg'ulot)**

| Bosqichlar, vaqti | Faoliyat mazmuni |
|---|---|

| | O'qituvchi | Talaba |
|---|---|---|
| 1-bosqich. Kirish (10 min.) | 1.1. Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar ma'lum qilinadi. | 1.1. Eshitadi, yozib oladi. |
| 2-bosqich. Asosiy (60 min.) | 2.1. Talabalar e'tiborini jalb etish va bilim darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javob o'tkazadi:<br>- Yo'l harakati qoidalari bo'yicha Vena shartnomasida qanday masalalar ko'rildi?<br>- Yo'l harakati qoidalarini o'qitishda atama va tushunchalar nima uchun kerak?<br>- Amaldagi Yo'l harakati qoidalari qachon va kim tomonidan qabul qilingan?<br>2.2. O'qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma'ruzani bayon etishda davom etadi. Yo'l harakati qoidalarida qabul qilingan asosiy atama va tushunchalarni tushuntiradi.<br>2.3.Haydovchilarning vazifalarini, majburiyatlarini tushuntiradi.<br>YTH sodir etgan haydovchining vazifalarini tushuntiradi.<br>2.4. Haydovchilarga taqiqlangan shartlarni tushuntirib beradi. | 2.1. Eshitadi.<br>Navbat bilan savolarga ja-vob beradi.<br>O'ylaydi, javob beradi.<br>Javob beradi va to'g'ri javob-ni eshitadi.<br>2.2. Berilgan ma'lumotlarning mazmunini muho-kama qiladi.<br>Savollar berib, asosiy joylarini yozib oladi.<br>2.3. Eslab qoladi, yozadi.<br>Har bir savolga javob berishga harakat qiladi.<br>Ta'rifni yozib oladi, misollar keltiradi.<br>2.4. Eslab qoladi, yozadi.<br>Har bir savolga javob berishga harakat qiladi. |
| 3-bosqich. Yakuniy (10 min.) | 3.1. Mavzuga yakun yasaydi va talabalar e'tiborini asosiy masalalarga qaratadi. Faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi. Mustaqil ish uchun vazifa: "Qoidalarda qo'llanilgan asosiy tushuncha va atamalar"ga klaster tuzishni vazifa qilib beradi, baholaydi. | 3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi.<br>3.2. Topshiriqni yozib oladi. |

## Vizual materiallar

*1-ilova*

### 1-savol: Temir yo'l kesishmalari orqali harakatlanish.

17.1. Transport vositalarining haydovchilari temir yo'llarni faqat temir yo'l kesishmalari orqali poezd (lokomativ, drezina)larga yo'l berib kesib o'tishlari mumkin.

17.2. Temir yo'l kesishmasiga yaqinlashib kelayotgan haydovchi yo'l belgilari va chiziqlariga, svetofor ishoralariga, shlagbaum holatiga, kesishma navbatchisining ko'rsatmalariga amal qilishi, yaqinlashib kelayotgan poezd (lokomativ, drezina) yo'qligiga ishonch hosil qilishi shart.

17.3. Temir yo'l kesishmasiga kirish quyidagi hollarda taqiqlanadi:

Svetofor ishorasidan qat'i nazar, shlagbaum yopiq turgan yoki yopila boshlagan holatda;

SHlagbaumning bor – yo'qligidan, uning holatidan qat'i nazar, svetoforning taqiqlovchi ishorasida;

Kesishma navbatchisining taqiqlovchi ishorasida (navbatchi haydovchilarga oldi yoki orqasi bilan turib tayoqchani, qizil chiroq yoki bayroqchani boshidan ko'tarib tursa yoki qo'llarini yonga uzatsa);

Kesishmadan keyin hosil bo'lgan tirbandlik tufayli haydovchi kesishmada to'xtashga majbur bo'ladigan hollarda;

Agar ko'rinish chegarasidagi masofada kesishmaga poezd (lokomativ, drezina) yaqinlashib kelayotgan bo'lsa;

Bundan tashqari:

Kesishma oldida turgan transport vositalarining qarama – qarshi harakatlanish bo'lagiga chiqib aylanib o'tish;

SHlagbaumni o'zboshimchalik bilan ochish;

Kesishma orqali zanjirli qishloq xo'jaligi, yo'l qurilishi va boshqa mashina va boshqa mexanizmlarning yurib o'tishi (mexanik transport vositalariga yuklab olib o'tish ruxsat etiladi);

Temir yo'l distantsiyasi boshlig'ining ruxsatisiz tezligi soatiga 8 kilometrdan kam bo'lgan transport vositalarini olib o'tish taqiqlanadi.

17.4. Kesishma orqali harakatlanish taqiqlangan hollarda haydovchi to'xtash chizig'i, 2.5 yo'l belgisi yoki svetofor oldida, ular bo'lmaganda shlakbaumgacha kamida 5 metr, shlagbaum bo'lmaganda esa birinchi temir yo'l iziga kamida 10 metr qolganda to'xtatishi kerak.

17.5. Temir yo'l kesishmasida majburan to'xtab qolgan transport vositasining haydovchisi daro'ol odamlarni tushirish va kesishmani bo'shatish choralarini ko'rishi kerak.

Agarda kesishmani bo'shatishni iloji bo'lmasa haydovchi:

Imkoniyati bo'lganda yaqinlashib kelayotgan poezd mashinasiga to'xtash ishorasini berish qoidasini tushuntirib, ikki kishini temir yo'l yoqasi bo'ylab ikkala tomonga 1000metr masofaga (agar bir kishi bo'lsa uni yo'l yaxshi ko'rinmaydigan tomonga) yuborishi;

Transport vositasining yonida qolishi va umumiy xatar borligi ishorasini berishi;

Poezd ko'ringanda to'xtash ishorasini berib, u kelayotgan tomonga yugurishi kerak.

Eslatma: To'xtash ishorasi qo'lni (kunduzi yorqin mato parchasi yoki aniq ko'rinadigan biror narsa bilan) gir aylantirish orqali beriladi.

Umumiy xatar ishorasi bitta uzun va uchta qisqa tovush ishorasi orqali beriladi.

*2-ilova*

**2-savol: Avtomagistrallarda harakatlanish**

Avtomagistrallarda quyidagilar taqiqlanadi:

Piyodalar, uy hayvonlari, ot – aravalar, velosipedlar, mopedlar, traktorlar va o'zi yurar mashinalar, texnik tavsifnomasiga yoki holatiga ko'ra tezligi soatiga 40 kilometrdan kam bo'lgan transport vositalarini harakatlanishi;

Ruxsat etilgan to'la vazni 3,5 tonnadan ortiq  bo'lgan yuk avtomobillariga birinchi va ikkinchi bo'laklardan boshqa bo'laklarda harakatlanishi;

5.15. yoki 6.11 belgilari bilan belgilangan maxsus to'xtab turish maydonchalaridan boshqa joylarda to'xtash;

Ajratuvchi bo'lakning texnologik uzilish joylariga kirish va qayrilib olish;

Orqaga harakatlanish

transport vositasini o'rganish uchun boshqarish.

Qatnov qismida majburiy to'xtaganda haydovchi transport vositasini Qoidalarning 9 – bobi talablariga muvofiq belgilashi va bunday holatlar uchun mo'ljallangan bo'lakka (qatnov qismining chetini bildiruvchi chiziqdan o'ng tomonga) olib chiqishning barcha choralarini ko'rishi kerak.

*3-ilova*

**3-savol: Turar – joy dahalarida harakatlanish**

Turar – joy dahalari (kirish va chiqish 5.38. va 5.39. belgilari bilan belgilangan hududlar)da piyodalarga trotuarlar hamda qatnov qismida harakatlanishiga ruxsat etiladi. Bunda piyodalar imtiyozga ega bo'ladilar, biroq ular transport vositalarining harakatlanishiga asossiz halaqit bermasligi kerak.

Turar – joy dahalarida:

Mexanik transport vositasini boshqarishni o'rgatish;

Yurgizgichni ishlab turgan holda to'xtab turish;

Ruxsat etilgan to'la vazni 3.5 tonnadan ortiq bo'dgan yuk avtomobillarining maxsus ajratilgan, belgi yoki chiziqlar bilan belgilangan joylardan tashqarida to'xtab turishi taqiqlanadi.

Turar – joy dahalarida haydovchilar piyodalar xavfsizligini, shuningdek, ushbu hududdagi inshoot, qurilma va o'simliklarning shikastlanmasligini ta'minlashlari zarur.

Turar – joy dahalaridan chiqishda haydovchilar boshqa harakat qatnashchilariga yo'l berishlari kerak.

Ushbu bo'limdagi talablar hovlili hududlarga ham tegishlidir.

*4-ilova*

**4-savol: Tik nishablik va balandliklarda harakatlanish**

1.13. va 1.14. belgilari bilan belgilangan qiyaliklarda yo'lda qarama – qarshi yo'nalishlarda harakatlanishni qiyinlashtiradigan biron bir to'siq bulsa, nishablikka harakatlanayotgan transport vositasi haydovchisi yo'l berishi kerak.

Tik nishablikda, dovonda va 1.13. belgisi o'rnatilgan yo'lda to'xtatish tizimi ishlamay qolgan transport vositalari o'z harakatini to'xtatish uchun 5.40. belgisi bilan belgilangan falokatli holatlar uchun yo'lga  kirishlari shart.

Yo'lning 1.13. "Tik nishablik" yo'l belgisi bilan belgilangan qismida uzatma yoki tishlashish mehanizmini ajratilgan holatda harakatlanish taqiqlanadi.

*5-ilova*

## 5-savol: Belgilangan yo'nalishdagi transport vositalarining imtiyozlari

Tramvay yo'li chorrahadan boshqa joylarda yo'l qatnov qismini kesib o'tadigan bo'lsa, tramvay relьssiz transport vositalariga nisbatan imtiyozga ega bo'ladi (depodan chiqish joylaridan tashqari).

Belgilangan yo'nalishdagi transport vositalarining harakatlanishi uchun 5.9, 5.10.1 – 5.10.3 belgilari bilan ajratilgan bo'lakda boshqa transport vositalarining harakatlanishi va to'xtashi taqiqlanadi.

Agar bu bo'lak yo'l qatnov qismining boshqa joyidan uzuq – uzuq chiziq bilan ajratilgan bo'lsa, burilmoqchi bo'layotgan transport vositalari bu bo'lakka qayta tizilishlari kerak.

SHuningdek, bunday joylarda belgilangan yo'nalishlarda transport vositalarining harakatiga halaqit bermaslik sharti bilan yo'lga chiqish, qatnov qismining chetki o'ng tomonida yo'lovchilarni chiqarish va tushirish uchun bu bo'lakka o'tishga ruxsat etiladi.

Aholi yashaydigan joylarda bekatdan harakatlanishni boshlagan avtobus va trolleybuslarga haydovchilar yo'l berishlari kerak. O'z navbatida avtobus va trolleybus haydovchilari ularga yo'l berganligiga ishonch hosil qilganliklaridan keyingina harakatlanishni boshlashlari mumkin.

***6-ilova***

## 6-savol: Tashqi yoritish asboblaridan foydalanish

Qorong'i vaqtda va yetarlicha ko'linmaydigan sharoitda, shuningdek, tonnellarda harakatlanayotgan barcha transport vositalari:

Yo'lning yoritilmagan qismida uzoqni yoki yaqinni yorituvchi faralarini;

Yo'lning yoritilgan qismida yaqinni yorituvchi faralarni;

Yo'lning yoritilganligidan qa'i nazar, tirkamalarning gaborit chiroqlarini yoqishi kerak.

Quyidagi hollarda uzoqni yorituvchi fara yaqinni yorituvchi fara bilan almashtirilishi kerak:

Aholi yashaydigan joylarda yo'l yoritilgan bo'lsa;

Qarama qarshi yo'nalishdagi transport vositasiga 150 metrdan karoq masofa qolganda, shuningdek, haydovchi transport vositasining chiroqlarini vaqti vaqti bilan o'chirib bunga zaruriyat borligini bildirgan hollarda undan ham ko'proq masofada;

Qarama – qarshi va bir yo'nalishdagi haydovchilarning ko'zini qamashtirishi mumkin bo'lgan boshqa barcha hollarda;

Ko'zi qamashgan haydovchi falokat yorug'lik ishoralarini yoqishi, harakatlanish bo'lagini o'zgartirmasdan tezlikni kamaytirishi va to'xtatishi kerak.

Qorong'i vaqtda yo'lning yoritilmagan qismida, shuningdek, yetarlicha ko'rinmaydigan sharoitda to'xtagan yoki to'xtab turgan transport vositasida gabarit chiroqlari yoqilgan bo'lishi kerak.

Etarlicha ko'rinmaydigan sharoitda gabarit chiroqlariga qo'shimcha qilib yaqinni yorituvchi faralar, tumanga qarshi faralar va tumanga qarshi orqa chiroqlar yoqilishi mumkin.

Quyidagi hollarda tumanga qarshi faralarni qo'llash mumkin:

Etarlicha ko'rinmaydigan sharoitda alohida, shuningdek uzoqni yorituvchi yoki yaqinni yorituvchi faralar bilan;

Qoidalarning 22.5 bandida ko'zda tutilgan hollarda yaqinni yorituvchi fara o'rnida.

kunning yorug' vaqtida quyidagi hollarda yaqinni yorituvchi faralar yoqilishi kerak:

Transport vositalarining tashkiliy jamlanmasi safida harakatlanayotganda;

Umumiy harakat oqimiga qarshi yo'nalishda maxsus ajratilgan bo'lakda harakatlanayotgan belgilangan yoo'nalishdagi transport vositalarida;

Avtobus va yuk avtomobillarida bolalar guruhini tashkiliy tashishda;

Xavfli, katta o'lchalmli va og'ir vaznli yuklarni tashishda;

Mexanik transport vositalarini shatakka olishda (shatakka olib ketayotgan transport vositasida).

Fara – projektor va izlovchi faralardan faqat aholi yashaydigan joylardan tashqarida qarama – qarshi yo'nalishdan kelayotgan transport vositalari bo'lmaganda foydalanish mumkin.

Aholi yashaydigan joylarda esa bunday faralardan faqat xizmat vazifalarini bajarayotgan tezkor va maxsus xizmat va transport vositalarining haydovchilariga foydalanishga ruxsat etiladi.

Tumanga qarshi orqa chiroqlarni faqat yetarlicha ko'rinmaydigan sharoitda qo'llash mumkin. Orqadagi to'xtash chiroqlari (stop signal)ga tumanga qarshi orqa chiroqlarni ulash ta'qiqlanadi.

"Avtopoezd" taniqlik belgisi avtopoezd xarakatlanayotganda, kunning qorong'i vaqtida esa yo'lda to'xtash va to'xtab turish vaqtida ham yoqib qo'yilishi kerak.

Zarg'aldoq yoki sariq rangli miltillovchi chiroq – mayoqcha yo'lda qurilish, ta'mirlash yoki tozalash ishlari olib borayotgan, shuningdek, og'ir vaznli, katta o'lchamli yoki xavfli yuklarni tashish qoidalarida ko'zda tutilgan hollarda ularni tashiyotgan transport vositalarida yoqilishi kerak.

***7-ilova***

**7-savol: Mexanik transport vositalarini shatakka olish**

Qattiq yoki egiluvchan ulagich yordamida shatakda olib yurish shatakka olingan transport vositasining rulь boshqaruvida haydovchi bo'lganddagina amalga oshirilishi kerak. Qattiq ulagichning tuzilishi (konstruktsiyasi) shatakka olingan transport vositasining izidan borishni ta'minlagan hollar bundan mustasno.

Qattiq yoki egiluvchan ulagich yordamida shatakka olingan avtobusda, trolleybusda va yuk avtomobili yukxonasida odam tashish, qisman ortish yo'li bilan shatakka olishda esa shatakka olingan transport vositasining yukxonasida odamlar bo'lishi ta'qiqlanadi.

Egiluvchan ulagich bilan shatakka olishda shatakka olgan va shatakka olingan transport vositalari o'rtasidagi masofa 4-6 metr oralig'ida bo'lishi, qattiq ulagich yordamida esa4 metrdan ko'p bo'lmasligi kerak. Egiluvchan ulagichga Qoidalarning 28.4. bandiga muvofiq, taxtacha yoki bayroqcha qo'yilishi kerak.

SHatakka olish quyidagi hollarda taeqiqlanadi:

Rul boshqaruvi ishlamayotgan transport vositalarini (qisman ortishusuli bilan shatakka olish bundan mustasno);

Ikki va undan ko'proq transport vositalarini;

SHatakka olingan va shatakka olgan transport vositalarining ulagich bilan birga umumiy uzunligi 24 metrdan ortiq bo'lsa;

To'xtatish tizimi ishlamayotgan transport vositasining haqiqiy vazni shatakka olgan transport vositasining haqiqiy vaznining yarmidan ortiq bo'lsa (haqiqiy vazni kam bo'lgan bunday transport vositasini faqat qattiq ulagich yordamida yoki qisman ortish usuli bilan shatakka olish bundan mustasno);

Kajavasiz mototsikllar bilan, shuningdek, bunday mototsikllarni;

Yo'l yaxmalak, sirpanchiq bo'lgan hollarda egiluvchan ulagichda.

Nazorat savollari:

1 Temir yo’l  kesishmasi nima?
2 SHlagbaumli va shlagbaumsiz temir yo’l kesishmalari qanday farqlanadi?
3 Qanday hollarda  temir yo’l  kesishmasiga kirish taqiqlanadi?
4 Turar joy dahalarida qanday yo’l belgisi o’rnatiladi?
5 Qanday yo’llar avtomagistral yo’llar deyiladi?
6 Avtomagistrallarda nimalar taqiqlanadi?
7 Turar joy dahalarida nimalar taqiqlanadi?
8 Tik nishabliklarda qanday harakatlanish kerak?
9 Tik balandliklarda qanday harakatlanish kerak?

# 9-Mavzu. Transport vositalaridan foydalanish

Transport vositalarini boshqarishni o’rgatish. Odam tashish. Yuk tashish. Velosiped va aravalar harakatlanishi, hayvonlarni haydab o’tishga doir qo’shimcha talablar.

**Amaliy mashg’ulotining o’qitish texnologiyasi.**

| | |
|---|---|
| Vaqti – 2 soat | Talabalar soni: 15-20 nafar |
| O’quv mashg’ulotining shakli | Kirish, vizual ma’ruza |
| Ma’ruza mashg’ulotining rejasi | 1 Transport vositalarini boshqarishni o’rgatish.<br>2 Odam tashish.<br>3 Yuk tashish.<br>4 Velosiped va aravalar harakatlanishi, hayvonlarni haydab o’tishga doir qo’shimcha talablar. |
| ***O’quv mashg’ulotining maqsadi:*** Transport vositalarini boshqarishni o’rgatish, odam tashish, yuk tashish va velosiped va aravalar harakatlanishi, hayvonlarni haydab o’tishga doir qo’shimcha talablar va ularning qo’llanilishi hamda vazifasi to’g’risida tushuncha berish. | |
| ***Pedagogik vazifalar:***<br>-mavzuning mohiyatini tushuntirish;<br>-asosiy tushunchalar bilan tanishtirish;<br>- Transport vositalarini boshqarishni o’rgatish ahamiyatini tushuntirish.<br>- odam tashish, yuk tashish tushuntirish.<br>- velosiped va aravalar harakatlanishi, hayvonlarni haydab o’tishga doir qo’shimcha talablar va ularning qo’llanilishi hamda vazifasi to’g’risida tushuncha berish | ***O’quv faoliyatining natijalari:*** Talaba:<br>- Transport vositalarini boshqarishni o’rgatish mohiyati to’g’risida tushunchaga ega bo’ladi;<br>- Odam tashish va yuk tashish to’g’risida tushunchalar oladi..<br>-Aravalar harakatlanishi, hayvonlarni haydab o’tishga doir qo’shimcha talablar va ularning qo’llanilishi to’g’risida tushunchalar oladi. |
| O’qitish uslubi va texnikasi | Vizual ma’ruza, blits-so’rov, bayon qilish, insert, “ha-yo’q” texnikasi. |
| O’qitish vositalari | Ma’ruzalar matni, proektor, tarqatma materiallar, grafik organayzerlar. |
| O’qitish shakli | Jamoa, guruh va juftlikda ishlash. |
| O’qitish shart-sharoiti | Proektor, kompьyuter bilan jihozlangan auditoriya. |

**Ma’ruza mashg’ulotining texnologik kartasi (10 mashg’ulot)**

| Bosqichlar, vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|---|
| | **O’qituvchi** | **Talaba** |
| 1-bosqich. Kirish (10 min.) | 1.1. Mavzu, uning maqsadi, o’quv mashg’ulotidan kutilayotgan natijalar ma’lum qilinadi. | 1.1. Eshitadi, yozib oladi. |
| 2-bosqich. Asosiy (60 min.) | 2.1. Talabalar e’tiborini jalb etish va bilim darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javob o’tkazadi:<br>- Transport vositalarini boshqarishni o’rgatishda qanday masalalar ko’rildi?<br>- Odam tashish va yuk tashish nima uchun kerak?<br>- Aravalar harakatlanishi, hayvonlarni haydab o’tishga doir qo’shimcha talablar va ularning qo’llanilishi nima uchun qabul qilingan?<br>2.2. O’qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma’ruzani bayon etishda davom etadi. Transport vositalarini boshqarishni o’rgatish mohiyatini tushuntiradi.<br>2.3. Odam tashish va yuk tashish mazmunini tushuntiradi.<br>2.4. Velosiped va aravalar harakatlanishi, hayvonlarni haydab o’tishga doir qo’shimcha talablar va ularning qo’llanilishi hamda vazifasini tushuntiradi. | 2.1. Eshitadi.<br>Navbat bilan savolarga ja-vob beradi.<br>O’ylaydi, javob beradi.<br>Javob beradi va to’g’ri javob-ni eshitadi.<br>2.2. Berilgan ma’lumotlarning mazmunini muho-kama qiladi.<br>Savollar berib, asosiy joylarini yozib oladi.<br>2.3. Eslab qoladi, yozadi.<br>Har bir savolga javob berishga harakat qiladi.<br>Ta’rifni yozib oladi, misollar keltiradi.<br>2.4. Eslab qoladi, yozadi.<br>Har bir savolga javob berishga harakat qiladi. |
| 3-bosqich. Yakuniy (10 min.) | 3.1. Mavzuga yakun yasaydi va talabalar e’tiborini asosiy masalalarga qaratadi. Faol ishtirok etgan talabalarni rag’batlantiradi. Mustaqil ish uchun vazifa: “Transport vositalarini boshqarishni o’rgatish, odam tashish, yuk tashish va velosiped va aravalar harakatlanishi, hayvonlarni haydab o’tishga. klaster tuzishni vazifa qilib beradi, baholaydi. | 3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi.<br>3.2. Topshiriqni yozib oladi. |

## Vizual materiallar

***1-ilova***

### 1-savol: Transport vositalarini boshqarishni o'rgatish

Transport vositalarini boshqarishni dastlabki o'rgatish yopiq maydonchalarda yoki avtodromlarda o'tkazilishi kerak.

Yo'llarda boshqarishni o'rgatishga faqat yo'riqchi ishtirokida, o'rganuvchi dastlabki boshqaruv malakasini yetarlichaegallagandan so'nggina ruxsat etiladi. O'rganuvchi qoidalartalablarini bilishi va ularga amal qilishi shart.

Boshqarishni o'rgatayotgan yo'riqchi o'rgatish huquqini beruvchi hujjatga, shu toifadagi transport vositasini boshqarish huquqini beruvchi guvohnomaga va u bevosita 3 yillik haydovchilik faoliyatiga ega bo'lishi kerak.

Haydovchilarni tayyorlash mashg'ulotlari o'quv yakunida avtomobilь boshqarishni o'rganuvchi 18 yoshga, avtobus, tramvay va trolleybus boshqarishni o'rganuvchi 21 yoshga, mototsikl boshqarishni o'rganuvchi esa 16 yoshga to'ladigan shaxslar bilan olib boriladi.

Boshqarishni o'rgatish uchun mo'ljallangan mexanik transport vositalari "Boshqarishni o'rgatish transport vositasi" taniqlik belgisi va yo'riqchi uchun orqani ko'rsatuvchi ko'zgu bilan jihozlanishi kerak. Bundan tashqari boshqarishni o'rgatish transport vositalarida yo'riqchi uchun qo'shimcha ulovchi (stseplenie) va to'xtatish tepkilari ham bo'lishi kerak.

Boshqarishni o'rgatish yo'nalishlari Davlat avtomobilь nazorati organlari bilan kelishilishi shart. Boshqa yo'llarda boshqarishni o'rgatish ta'qiqlanadi.

***2-ilova***

### 2-savol: Odam tashish

Yuk avtomobilining yukxonasida odam tashish "S" toifasidagi transport vositalarini boshqarish huquqiga ega bo'lgan, odamlar soni kabinadagilarni ham qo'shib hisoblaganda 8 nafardan ortiq bo'lganda esa "S" va "D" toifasidagi transport vositalarini boshqarish huquqiga ega bo'lgan va shu toifadagi transport vositalaridan birini 3 yildan ortiq boshqargan haydovchilar tomonidan amalga oshirilishi kerak.

Eslatma: Harbiy haydovchilarning yuk avtomobillarda odam tashishga yo'l qo'yish Mudofaa vazirligi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Odam tashish uchun mo'ljallangan yuk avtomobili yukxonasi bortining balandligidan 30 santimetr pastda joylashgan o'rindiqlar bilan jihozlanishi, ikki yon va orqa botdagi o'rindiqlar mustahkam suyanchiqqa ega bo'lishi kerak.

Tashiladigan odamlar soni jihozlangan o'rindiqlar sonidan oshmasligi kerak.

Harakatni boshlashdan oldin haydovchi yo'lovchilarga avtomobilga chiqish, undan tushish va unga joylashish tartibi haqida  tushuntirish berishi kerak.

Haydovchi harakatni boshlashdan oldin yo'lovchilarni xavfsiz tashish sharoiti ta'minlanganligiga ishonch hosil qilishi kerak.

Odam tashishga moslashtirilmagan yuk avtomobillarning yukxonasida faqat yukni olish uchun borayotgan yoki uni kuzatib borayotgan shaxslarning bo'lishiga yo'l qo'yiladi, bunda ular bortlardan pastda joylashgan o'rindiqlar bilan ta'minlanishlari kerak.

Avtobuslarda yoki furgon g' yukxonali yuk avtomobillarida bolalarni tashishda katta yoshli kuzatib boruvchi shaxs, bortli yuk avtomobilining kuzovida tashishda esa kamida ikki nafar katta yoshli kuzatib boruvchi shaxs bo'lishi shart. Bunday transport vositalarining oldi va orqa tomoniga "Bolalar guruhini tashish" taniqlik belgisini qo'yish kerak.

Haydovchi transport vositasi to’la to’xtagandan keyin odamlarni tushirishi va chiqarishi, eshiklar yopilgandan so’nggina harakatlanishni boshlashi va to’la to’xtamaguncha ularni ochmasligi shart.

Odamlarni tashish quyidagi hollarda ta’qiqlanadi:

Avtomobilning kabinasidan tashqarida (bortli yuk yoki furgon yukxonali avtomobillarda odam tashishdan tashqari);

Traktorlar va boshqa o’zi yurar mashinalar, yuk tashiladigan tirkamalar, tirkama – uycha, yuk mototsikllari yukxonasida;

Mototsikllarning konstruktsiyasida ko’zda tutilgan joylardan tashqarida;

12 yoshga to’lmagan bolalarni mototsiklning orqa o’rindig’ida, shuningdek yengil avtomobilga bolalarni ushlab turuvchi maxsus qurilma o’rnatilmagan bo’lsa, uning oldingi o’rindig’ida;

12 yoshga to’lmagan bolalarni hisobga olmaganda transport vositasining texnik tavsifnomasida ko’zda tutilgan miqdordan ortiq.

Bunda transport vositasining haqiqiy vazni uni ishlab chiqargan korxona belgilagan ruxsat etilgan to’la vazndan ortmasligi kerak.

***3-ilova***

**3-savol: Yuk tashish**

Tashilayotgan yukning vazni va o’qlarga tushadigan og’irlik miqdorining taqsimlanishi transport vositasini ishlab chiqargan korxona tomonidan belgilangan miqdordan oshmasligi kerak.

Haydovchi harakatni boshlashdan oldin yukning to’g’ri joylashganligi va mahkamlanganligiga ishonch hosil qilishi, harakatlanish vaqtida esa yukning tushib ketmasligini va harakatlanishga xalaqit bermasligini ta’minlash maqsadida uning holatini kuzatib borish kerak.

Quyidagi shartlarga amal qilinganda yuk tashishga yo’l qo’yiladi:

Haydovchiga tevarak – atrof ko’rinishini cheklamasa;

Transport vositasini boshqarishniqiyinlashtirmasa va muvozanatini buzmasa;

Tashqi yoritish asboblari va yorug’lik qaytargichlarini, davlat raqami belgilarini va taniqlik belgilarini, shuningdek, ishoralarni va qo’l bilan beriladigan ishoralarini ko’rishni to’smasa;

SHovqin solmasa, chang ko’tarmasa, yo’lni va atrof muhitni iflos qilmasa.

Agar yukning joylashuvi va holati qayd etilgan talablarga javob bermasa, haydovchi yuqorida sanab o’tilgan qoidalar buzilishini bartaraf etish choralarini ko’rishi, uning iloji bo’lmasa, bundan keyingi harakatlanishni to’xtatishi shart.

Transport vositasining gabaritlaridan oldi yoki orqa tomonga 1 metrdan, gabarit chiroqlarining chetki qismidan 0,4 metrdan ortiq chiqib turgan yuk ushbu Qoidalarning 28.3. bandiga muvofiq, “Katta o’lchamli yuk” belgisi bilan belgilanishi, qorong’i vaqtda va yetarlichako’rinmaydigan sharoitda esa bunga qo’shimcha qilib, oldi oq chiroq yoki yorug’lik qaytargich, orqasi .sa qizil chiroq yoki yorug’lik qaytargich bilan belgilanishi kerak.

O’ta og’ir, katta o’lchamli va xavfli yuklarni tashish, gabarito’lchamlari yukli yoki yuksiz holda eni 2,5 metrdan va yo’l satxidan 4 metrdan, uzunligi bitta tirkama bilan 20 metrdan ortiq bo’lgan yoxud yuki transport vositasining orqa nuqtasidan 2 metrdan ortiq chiqib turgan transport vositalarining, ikki yoki undan ortiq tirkamali avtopoezdlarning harakatlanishi uchkn DAN organlarining ruxsatnomasi bo’lishi kerak.

***4-ilova***

### 4-savol: Velosiped va aravalar harakatlanishi, shuningdek, hayvonlarni haydabo'tishga doir qo'shimcha talablar

Yo'lda velosiped, aravani boshqarish, hayvonlarni haydab o'tish yoki ularni minib o'tish 14 yoshga to'lgan, mopedni boshqarish esa 16 yoshga to'lgan shaxslarga ruxsat etiladi.

Velosipedlar, mopedlar, aravalarni boshqarish, hayvonlarni minib borish yoki haydab ketish paytida yo'lning chetgi o'ng bo'lagida imkoni boricha o'ng tomonidan bir qator bo'lib harakatlanishga yo'l qo'yiladi. Agar piyodalarga xalaqit bermasa, yo'l yoqasida ham haraktlanishga ruxsat etiladi.

Yo'lning qatnov qismida harakatlanishda velosipedchilar, aravalar jamlanmasi, minib olingan hayvonlar guruhlari va haydab ketilayotgan hayovonlar to'dasi, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlaydigan hamda ularni quvib o'tishni osonlashtiradigan guruhlarga bo'linishi kerak.

Velosiped tovush bergich moslamasi bilan jihozlangan va uning tormozi soz bo'lishi zarur. Qorong'i vaqtda va yetarli ko'rinmaslik sharoitida velosipedning old tomoniga oq rangli, orqa tomoniga qizil rangli chiroqcha yoki qizil rangli nur qaytargich, yon tomonlariga esa zarg'aldoq yoki qizil rangli nur qaytargich o'rnatilishi kerak.

Velosiped va moped xaydovchilariga quyidagilar ta'qiqlanadi:

Rulni bir qo'lda ushab harakatlanish (manyovrdan oldin ishoralar berish bundan mustasno);

Yo'lovchi tashish (ishonchli oyoq qo'ygich bilan jihozlangan qo'shimcha o'rindiqda 7 yoshgacha bo'lgan yo'lovchini tashish bundan mustasno);

Gabaritdan bo'yiga va eniga 0,5 metrdan ortiq chiqib turgan yoki boshqarishga xalaqit beradigan yuklarni tashish;

Velosiped yo'lkasi bo'lgani holda yo'lning qatnov qismida harakatlanish;

Tramvay harakatlanadigan yo'llarda va tegishli yo'nalishdabo'lagi bittadan ko'p bo'lgan yo'llarda chapga burilish yoki qayrilib olish;

Velosipedlarni va mopedlarni shatakka olish, shuningdek, ularni shatakka olishda foydalanish, (velosiped yoki mopedlarga mo'ljallangan tirkamalar bundan mustsano).

CHorrahadan tashqaridagi harakat tartibga solinmaydigan joyda velosiped yo'lkasida borayotgan velosiped va moped haydovchilari bu yo'lka bilan kesishgan yo'llarda harakatlanayotgan transport vositalariga yo'l berishlari kerak.

Ot – aravalarda orqaga tisarilib ketishga yo'l qo'ymaydigan tirgaklar va uni to'xtatib turadigan moslama bo'lishi kerak.

Qorong'i vaqtda va yetarli ko'rinmaslik sharoitida yo'lda harakatlanayotgan ot – aravaning old tomoniga oq rangli chiroqcha yoki ikkita nur qaytargich, orqa tomoniga esa qizil rangli chiroqcha yoki ikkita nur qaytargich o'rnatilishi kerak.

Yondosh hududdan yoki ikkinchi darajali yo'ldan ko'rinish cheklangan joylarda yo'lga chiqayotgan arava haydovchisi hayvonlarning jilovini qo'yib yubormasligi kerak.

Uy hayvonlari yo'llarda asosan kunning yorug' vaqtida haydab boriladi. Podachilar hayvonlarni mumkin qadar yo'lning o'ng chetidan olib yurishlari kerak.

Temir yo'l kesishmalari orqali o'tishda podachilar sonini hisobga olgan holda hayvonlar podasi xavf – xatarsiz haydab o'tilishi ta'minlanadigan to'dalarga bo'linishi lozim.

Aravani boshqarayotgan, hayvonlarni minib yoki haydab ketayotgan shaxslarga quyidagilar taqiqlanadi:

Yo'llarda hayvonlarni nazoratsiz qoldirish;

Podani temir yo'ldan va yo'lda maxsus ajratilmagan joylardan, shuningdek, ruxsat etilgan joylarda esa qorong'i vaqtda va yetarli ko'rinmaslik sharoitida haydab o'tish;

Hayvonlarni mukammal qoplamali yo'llardan haydab borish;

Ko'kalamzorlashtirilgan joylarda (yo'l, yo'l yoqasi, ajratuvchi bo'lak va h. k.) hayvonlarni boqish va bog'lab qo'yish.

***5-ilova***

### 5-savol: Mansabdor shaxslar va fuqarolarning yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash, transport vositalarini yo'lga chiqarish, ularga raqam va taniqlik belgilarini o'rnatish bo'yicha vazifalari

Mexanik transport vositalari va tirkamalari, ularning texnik holatidan qat'iy nazar, xarid qilingan yoki bojxona rasmiylashtirilgan vaqtdan boshlab 10 kun mobaynida YHXB da ro'yxatdan o'tkazilishi kerak.

Mexanik transport vositalari (tramvay, trolleybuslardan tashqari) va tirkamalarning ko'zda tutilgan joylarida tegishli namunadagi raqam belgilari o'rnatilgan bo'lishi shart. Avtomobilda esa old peshoynaning o'ng tomonidagi yuqori burchagiga davlat texnik ko'rigidan o'tganligi haqidagi talon ham o'rnatilishi kerak.

Yuk avtomobillari, tirkamalar (engil avtomobillar va mototsikllar tirkamalaridan tashqari) va avtobuslar (mikroavtobuslardan tashqari) kuzovining orqa devoriga uning raqam belgisi va harfi yozilishi kerak. Raqamning balandligi 300 mm, raqamlar kengligi 120 mm, chiziqning yo'g'onligi 30 mm, harflar balandligi esa raqam o'lchamlarining 2/3 qismiga teng bo'lishi lozim.

Tramvay va trolleybuslarga tegishli tashkilot tomonidan ro'yxatga olingan raqamlar yoziladi.

Transport vositalariga quyidagi ko'rinishda bo'lgan taniqlik belgilari o'rnatilishi kerak:

**"Avtopoezd"** yuk avtomobillari va g'ildirakli traktor (1,4 tonna va undan yuqori)larda tirkama bo'lganda, shuningdek, tutashtirilgan avtobus va trolleybus kabinalari tomining old qismi o'rtasiga bir qator qilib 150 dan 300 millimetrgacha oraliqda ko'ndalang joylashgan uchta zarg'aldoq rangli chiroq yoki ichidan yoritiladigan, tomonlarining har biri 250 millimetr bo'lgan sariq rangli uchburchak shaklidagi belgi;

**"Turumlangan"** (tishli, shipli) – turumlangan shinali mexanik transport vositasining orqasiga tomonlari teng, ichiga qora rangda "G" harfi tushirilgan, qizil hoshiyali oq rangdagi uchburchak shaklidagi belgi.

Uchburchakning tomonlari transport vostasining turiga qarab 200 – 300 millimetrgacha, hoshiyaning kengligi uchburchak tomonining 1/10 qismiga teng bo'lishi kerak.

**"Bolalar guruhini tashish"** – avtobus yoki maxsus jihozlangan yuk avtomobillarida bolalar tashilganda, transport vositasining old va orqa tomonlariga qizil hoshiyali, ichiga 1.21 yo'l belgisidagi bolalar timsolining tasviri tushirilgan, sariq rangdagi to'rtburchak ko'rinishidagi belgi;

To'rtburchakning tomonlari 250 – 300 millimetrgacha, hoshiyaning kengligi to'rtburchak tomonining 1/10 qismiga teng bo'lishi kerak.

**"Kar haydovchi" –** kar – soqov yoki kar haydovchi boshqarayotgan transport vositasining old va orqa tomonlariga ichiga diametri 40 millimetr bo'lgan uchta qora doira tushirilgan, diametri 160 millimetrni tashkil etgan sariq rangli doira shaklidagi belgi;

**"Boshqarishni o'rgatish transport vositasi" –** boshqarishni o'rgatishda foydalanadigan transport vositalarining old va orqa tomoniga ichiga qora rangda "O`" harfi tushirilgan, transport vositasining turiga qarab tomonlari 200 millimetrdan 300 millimetrgacha bo'lgan, qizil hoshiyali oq rangli uchburchak shaklidagi belgi;

**“Tezlik cheklangan” –** juda og’ir, xavfli va kattao’lchamli yuklarni tashiyotgan, shuningdek, transport vositasining texnik tavsifnomasida ko’rsatilgan eng yuqori tezligi Qoidalarning 12.2, 12.3 va 12.4 bandlarida belgilangan tezlikdan past bo’lgan hollarda transport vositasi kuzovi orqa devorining chap tomoniga 3.24 – “Yuqori tezlik cheklangan” yo’l belgisining kichraytirilgan tasviri tushirilgan shaklidagi belgi;

Belgining diametri 160 millimetrdan kam bo’lmasligi, hoshiyasining kengligi belgi diametrining 1/10 qismiga teng bo’lishi kerak.

**“Xavfli yuk” –** xavfli yukni tashiyotgan transport vositasining old va orqa tomoniga o’rnatilgan o’lchami 690*300 millimetr, zarg’aldoq rangli o’ng qismi 400*300 millimetr bo’lgan, chap qismi esa yukning xavfli xususiyatini bildirib turgan belgilar tushirilgan qora hoshiyali (kengligi 15 millimetr) oq rangdagi to’rtburchak shaklidagi belgi (4-ilova);

**“Katta o’lchamli yuk” -** ichiga kengligi 50 millimetrli, diagonal bo’yicha galma – gal joylashgan qizil va oq rangli chiziqlar tushirilgan, nur qaytaradigan yuzali, o’lchami 400*400 millimetrli to’rtburchak shaklidagi belgi;

**“Uzun o’lchamli transport vositasi”** – yukli yuksiz uzunligi 20 metrdan oshadigan transport vositasining, ikki yoki undan ko’proq tirkamali avtopoezdlarning orqasiga kengligi 40 millimetr bo’lgan qizil hoshiyali, o’lchami1200*200 millimetr bo’lgan, tarkibning tasviri tushirilgan sariq rangli to’rtburchak shaklidagi belgi;

Ko’rsatilgan o’lchamli belgini joylashtirishning imkoniyati bo’lmasa, bir xil ikkita 600*200 millimetrli o’lchamdagi belgini transport vositasining o’qiga simmetrik ravishda o’rnatishga yo’l qo’yiladi.

**“Falokat sababli to’xtash” –** miltillovchi qizil chiroq va davlat standarti talablari asosidagi uchburchak shaklidagi belgi haydovchilarning xohishiga ko’ra quyidagi taniqlik belgilari o’rnatilishi mumkin.

**“SHifokor”** – shifokor – haydovchi boshqarayotgan transport vositasining old va orqa tomoniga o’rnatiladigan, tomonlari 140 millimetrdan bo’lgan ko’k rangli to’rtburchak ichida, diametri 90 millimetrli oq doiraga qalinligi 25 millimetrli qizil xoch tasviri tushirilgan belgi;

**“Nogiron”** – birinchi yoki ikkinchi guruh nogironi boshqarayotgan transport vositasining old va orqa tomoniga o’rnatiladigan barcha tomonlari 150 millimetrdan bo’lgan va qora rangdagi 7.17 yo’l belgisining tasviri tushirilgan sariq rangli to’rtburchak shaklidagi belgi;

Mexanik transport vositalarini shatakka olishda egiluvchan ulagichni ko’rsatadigan oghlantiruvchi qurilmao’lchami 200*200 millimetr bo’lgan, diagonali bo’yicha ketma- ket joylashgan 50 millimetr qalinlikdagi qizil va oq rangli chiziqlar tushirilgan, yorug’lik qaytaradigan yuzali bayroqchalar yoki taxtachalar ko’rinishida tayyorlanishi kerak.

Egiluvchan ulagichning har bir metriga bittadan ogohlantiruvchi qurilma o’rnatiladi.

Qattiq ulagichli qurilmaning davlat standarti talablariga mos bo’lishi kerak.

Quyidagi hollarda transport vositalaridan foydalanish ta’qiqlanadi:

Agar avtomobillar, avtobuslar, avtopoezdlar, tirkamalar, mototsikllar, mopedlar, traktorlar va boshqa o’ziyurar mashinalarning texnik holati va jixozlanishi 3- ilovadagi transport vositalaridan foydalanishni ta’qiqlaydigan shartlar ro’yxatining biron- bir talabiga javob bersa;

Trolleybus va tramvaylarda tegishli texnik foydalanish qoidalarida ko’zda tutilgan nosozliklardan birortasi bo’lsa;

Transport vositalari davlat texnika ko’rigidan o’tmagan, shuningdek, tegishli ruxsatsiz qayta jihozlangan bo’lsa;

Transport vositalari davlat avtomobilь nazorati organlarining ruxsatisiz miltillovchi chiroq mayoqcha va maxsus tovushli ishora bilan jihozlangan, kuzovining yon tomoniga YHXB bilan kelishmasdan qiya oq chiziq tortilgan, ko’zda tutilmagan joylarga tegishli

raqam belgilari o’rnatilgan, agregat va qismlarining raqamlari yoki raqam belgilari ko’rinmaydigan, qalbakilashtirilgan, o’zgartirilgan bo’lsa.

Transport vositalarining texnik holatiga va ulardan foydalanishga javobgar bo’lgan mansabdor va boshqa shaxslarga quyidagilar ta’qiqlanadi:

Texnik nosozligi tufayli foydalanish ta’qiqlangan, tegishli ruxsatsiz qayta jihozlangan, belgilangan tartibda ro’yxatdan o’tkazilmagan yoki davlat texnika ko’rigidan o’tkazilmagan transport vositalarini yo’lga chiqarish;

Yo’l harakati xavfsizligiga tahdid soladigan har qanday mastlik (alkogolь, giyohvand va boshqalar) holatida yoki sezgirlik va e’tiborni susaytiradigan dori – darmonlar ta’sirida, charchoqlik yoki betoblik holatida, shuningdek, tegishli toifadagi transport vostialarini boshqarish huquqi bo’lmagan, belgilangan muddatda tibbiy ko’rikdan o’tmagan, giyohvand yoki spirtli ichimliklarni surunkali istemol qiluvchi shaxs sifatida hisobda turgan shaxslarni transport vositasini boshqarishga qo’yish;

Asfalьt yoki tsement – beton qoplamali yo’llarga zanjirli traktor va boshqa o’zi yurar mexanizmlarni chiqarish.

Yo’llar, temir yo’l kesishmalari va boshqa yo’l inshootlarining holatiga javobgar bo’lgan mansabdor va boshqa shaxslar:

Yo’llar, temir yo’l kesishmalari va boshqa yo’l inshootlarini yo’l harakati xavfsizligini ta’minlaydigan holatda saqlashga;

Yo’l harakatiga xalaqit beradigan har qanday to’sqinlik vujudga kelsa ularni o’z vaqtida bartaraf etish, yo’lning ayrim qismlarida ulardan foydalanish yo’l harakati xavfsizligiga tahdid soladigan hollarda harakatni cheklash yoki taqiqlash choralarini qo’rishga majburdirlar.

Yo’llarda ta’mirlash ishlarini bajarishga javobgar mansabdor va boshqa shaxslar ishlar olib borilayotgan joyda yo’l harakati xavfsizligini ta’minlashga majburdilar. Bunday joylar, shuningdek, yo’ldan tashqariga olib chiqish imkoniyati bo’lmagan ish bajarmayotgan yo’l mashinalari, qurilish materiallari, qurilma va shunga o’xshashlar tegishli yo’l belgilari, yo’naltiruvchi va to’suvchi moslamalar bilan, sutkaning qorong’i vaqtida va yetarlicha ko’rinmaslik sharoitida esa qo’shimcha qizil yoki sariq chiroqli ishoralar bilan belgilanishi kerak.

Ta’mirlash ishlari tugallangandan so’ng yo’llarda transpor vositalari va piyodalarning xavfsiz harakatlanishi ta’minlangan bo’lishi kerak.

Amaldagi qonun hujjatlarida ko’zda tutilgan hollarda tegishli mansabdor va boshqa shaxslar tomonidan YHXB organlari bilan belgilangan tartibda quyidagilar kelishiladi:

SHaharlarda va avtomobil yo’llarida harakatni tashkil etishni loyihalash, yo’llarni harakatni tashkil etuvchi texnik vositalar bilan jihozlash;

Yo’llarni, yo’l inshootlarini ko’rish, qayta rekonstrktsiya qilish va ta’mirlash ishlarini loyihalash;

Yo’llarga bevosita yaqinroq ko’rinishni cheklovchi yoki piyodalar harakatini qiyinlashtiruvchi kiosklar, transparantlar, plakatlar, reklama taxtalari va shunga o’xshashlarnio’rnatish;

Yo’nalishli transport vositalari yo’nalishlari va bekatlarining joylanishi;

Yo’llarda ommaviy, sport va boshqa tadbirlarni o’tkazish;

Transport vositalarini qayta jihozlash, ularga maxsus yorug’lik va tovush ishoralarini o’rnatish, transport vositalari kuzovining yon tomoniga qiya oq chiziqlar tortish;

Mazkur Qoidalarning 26.5. bandida keltirilgan transport vositalarining harakatlanishi;

Boshqarishni o’rgatish ruxsat etilgan yo’llar ro’yxati va chizmasi;

Yo’llarda transport vositalari va piyodalarning harakatiga xavf tug’diruvchi har qanday ishlarni olib borish.

Nazorat savollari:

1 Boshqarishni o’rgatish qaerlarda o’tkaziladi?
2 Necha yoshdan avtomobilni boshqarishga ruxsat etiladi ?
3 Haydovchilarning umumiy majburiyatlariga qanday vazifalar kiradi?
4 Odam tashishga qanday hollarda ruxsat beriladi?
5 Odam tashishda haydovchilarning qanday vakolatlari bor?
6 Yuk tashishda nimalarga e’tibor berish kerak?
7 Yuk tashishda qay hollarda YHXB dan ruxsat olinadi?

## 10 -mavzu. Transport vositalaridan foydalanishni taqiqlovchi shartlar

Tormoz tizimi nosozliklari bo'yicha taqiqlovchi shartlar. Boshqaruv qurilmasi va tashqi yoritgichlar bo'yicha taqiq-lovchi shartlar. Oyna tozalagich, shinalar, dvigatel bo'yicha va boshqa taqiqlovchi shartlar.

**Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi.**

| | |
|---|---|
| Vaqti – 2 soat | Talabalar soni: 45-50 nafar |
| O'quv mashg'ulotining shakli | Kirish, vizual ma'ruza |
| Ma'ruza mashg'ulotining rejasi | 1 Tormoz tizimi nosozliklari bo'yicha taqiqlovchi shartlar.<br>2 Boshqaruv qurilmasi bo'yicha taqiqlovchi shartlar.<br>3 Tashqi yoritgichlar bo'yicha taqiqlovchi shartlar.<br>4 Oyna tozalagich, shinalar, dvigatel bo'yicha va boshqa taqiqlovchi shartlar. |
| ***O'quv mashg'ulotining maqsadi:*** "Yo'l chiziqlari" to'g'risida tushuncha berish. Yo'l chiziqlari va ularning qo'llanilishi va vazifasi to'g'risida tushuncha berish. | |
| ***Pedagogik vazifalar:***<br>-mavzuning mohiyatini tushuntirish;<br>-asosiy tushunchalar bilan tanishtirish;<br>-yo'l chiziqlarining harakatni boshqarishdagi ahamiyatini tushuntirish.<br>-yo'l chiziqlarining real ko'cha-yo'l sharoitida qo'llanilishini tushun-tirish. | ***O'quv faoliyatining natijalari:*** Talaba:<br>-yo'l chiziqlarining qo'llanilishi va mohiyati to'g'risida tushunchaga ega bo'ladi;<br>-yo'l chiziqlarining guruxlarini ta'riflab beradi;<br>-yotiq yo'l chiziqlarining shakli, rangi va vazifasini o'rganadi.<br>-tik yo'l chiziqlarining shakli rangi va vazifasini o'rganadi.<br>- Yo'l chiziqlarini qo'llanilishi to'g'risida tushunchalar oladi. |
| O'qitish uslubi va texnikasi | Vizual ma'ruza, blits-so'rov, bayon qilish, insert, "ha-yo'q" texnikasi. |
| O'qitish vositalari | Ma'ruzalar matni, proektor, tarqatma materiallar, grafik organayzerlar. |
| O'qitish shakli | Jamoa, guruh va juftlikda ishlash. |
| O'qitish shart-sharoiti | Proektor, kompьyuter bilan jihozlangan auditoriya. |

**Ma’ruza mashg’ulotining texnologik kartasi (11-mashg’ulot)**

<table>
<tr><th rowspan="2">Bosqichlar, vaqti</th><th colspan="2">Faoliyat mazmuni</th></tr>
<tr><th>O’qituvchi</th><th>Talaba</th></tr>
<tr><td>1-bosqich.<br>Kirish<br>(10 min.)</td><td>1.1. Mavzu, uning maqsadi, o’quv mashg’ulotidan kutilayotgan natijalar ma’lum qilinadi.</td><td>1.1. Eshitadi, yozib oladi.</td></tr>
<tr><td>2-bosqich.<br>Asosiy<br>(60 min.)</td><td>2.1. Talabalar e’tiborini jalb etish va bilim darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javob o’tkazadi:<br>- Yo’l harakati qoidalari bo’yicha Vena shartnomasida qanday masalalar ko’rildi?<br>- Yo’l harakati qoidalarini o’qitishda atama va tushunchalar nima uchun kerak?<br>- Amaldagi Yo’l harakati qoidalari qachon va kim tomonidan qabul qilingan?<br>2.2. O’qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma’ruzani bayon etishda davom etadi. Yo’l harakati qoidalarida qabul qilingan asosiy atama va tushunchalarni tushuntiradi.<br>2.3.Haydovchilarning vazifalarini, majburiyatlarini tushuntiradi.<br>YTH sodir etgan haydovchining vazifalarini tushuntiradi.<br>2.4. Haydovchilarga taqiqlangan shartlarni tushuntirib beradi.</td><td>2.1. Eshitadi.<br>Navbat bilan savolarga ja-vob beradi.<br>O’ylaydi, javob beradi.<br>Javob beradi va to’g’ri javob-ni eshitadi.<br>2.2. Berilgan ma’lumotlarning mazmunini muho-kama qiladi.<br>Savollar berib, asosiy joylarini yozib oladi.<br>2.3. Eslab qoladi, yozadi.<br>Har bir savolga javob berishga harakat qiladi.<br>Ta’rifni yozib oladi, misollar keltiradi.<br>2.4. Eslab qoladi, yozadi.<br>Har bir savolga javob berishga harakat qiladi.</td></tr>
<tr><td>3-bosqich.<br>Yakuniy<br>(10 min.)</td><td>3.1. Mavzuga yakun yasaydi va talabalar e’tiborini asosiy masalalarga qaratadi. Faol ishtirok etgan talabalarni rag’batlantiradi. Mustaqil ish uchun vazifa: “Qoidalarda qo’llanilgan asosiy tushuncha va atamalar”ga klaster tuzishni vazifa qilib beradi, baholaydi.</td><td>3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi.<br>3.2. Topshiriqni yozib oladi.</td></tr>
</table>

## Vizual materiallar

*1-ilova*

**1-savol: Transport vositalaridan foydalanishni taqiqlovchi shartlar.**
**Tormoz tizimi**

Tormoz tizimining tuzilishi o’zgartirilsa, ishlab chiqargan korxona talabiga mos kelmasa yoki transport vositasining shu turida ko’zda tutilmagan tormoz suyuqligi yoki boshqa qismlar qo’llanilsa.

Ishchi tormoz tizimining samaradorligi quyidagi me’yyorlar talabini ta’minlamasa:

| № | Transport vositasi turi | Tormoz yo’li (ko’pi bilan) metr hisobida | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | 1982 yil 1.01 dan ishlab chiqarila boshlangan | | 1981 yil 1.01 dan oldin ishlab chiqarila boshlangan | |
| | | Aslahalangan holda | To’la vaznda | Aslahalangan holda | To’la vaznda |
| 1 | Engil avtomobillar va ularning yuk tashishga moslashtirilgan turlari | 12.2 | 12.9 | 14,5 | 16,2 |
| | Ular shatakka olganda | 13,6 | 16,5 | 14,5 | 16,5 |
| 2 | Avtobuslar: | | | | |
| | To’la vazni 5 tonna va undan kam bo’lgan | 13,6 | 17,0 | 18,7 | 21,2 |
| | To’la vazni 5 tonnadan kam bo’lgan | 16,8 | 17,4 | 19,9 | 21,2 |
| 3 | Yuk avtomobillari | | | | |
| | To’la vazni 3,5 tonna va undan kam bo’lgan | 15,1 | 19,0 | 19,0 | 23,0 |
| | To’la vazni 3,5 tonnadan 12 tonnagacha va 12 t. bo’lgan | 17,3 | 20,1 | 18,4 | 23,0 |
| | To’la vazni 12 tonnadan ortiq bo’lgan | 16,0 | 19,7 | 17,7 | 23,0 |
| 4 | Avtopoezdlar shatakchi transport vositasi bilan: | | | | |
| | To’la vazni 3,5 tonna va undan kam bo’lgan | 17,7 | 21,8 | 22,7 | 25,0 |
| | To’la vazni 3,5 tonnadan 12 tonnagacha va 12 t. bo’lgan | 18,8 | 21,3 | 22,1 | 25,0 |
| | To’la vazni 12 tonnadan ortiq bo’lgan | 18,4 | 20,8 | 21,9 | 25,0 |
| 5 | Ikki g’ildirakli mototsikl va mopedlar | 7,5 | 7,5 | 7,5 | 7,5 |
| 6 | Kajavali mototsikllar | 8,2 | 8,2 | 8,2 | 8,2 |

Izoh: 1. Ishchi tormoz tizimining samaradorligi davlat namunasiga muvofiq boshqa o’lchamlar bilan ham belgilanishi mumkin.

2. Ishchi tormoz tizimi – yo’lning beton, asfalьtbeton, quruq, toza tekis qoplamali, yotiq qismida tormozlash boshlanganvaqtdagi tezligi avtotransport vositalari uchun soatiga 40 km, mototsikl, mopedlar uchun soatiga 30km bo’lganda sinovdan o’tkaziladi. Agar haydovchi tormozlash vaqtida to’g’ri yo’nalishni saqlash uchun harakatlanish izini o’zgartirishga majbur bo’lsa yoki to’g’ri chiziqli harakati buzilsa, sinov natijalari bekor qilinadi.

1.3. Gidravlik tormoz uzatmasining zichligi (germetikligi) buzilgan bo’lsa.

1.4. Pnevmatik tormoz uzatmasining zichligi buzilishi natijasida havo siquvchi moslama (kompressor) ishlamay turganda va boshqaruv qismlari ulanmaganda – 30 daqiqada, ulanganda – 15 daqiqada tizimdagi havo bosimi 0,05 MP (0,5kg/sm$^2$)dan ko’p pasayishiga sabab bo’lsa.
1.5. Tormoz uzatmasidagi havo bosimini o’lchaydigan asbob (monometr) ishlamasa.
1.6. To’xtab turish tormoz tizimi transport vositalarini quyidagi joylarda harakatsiz holatda ushlab tura olmasa:

To’la vazndagi transport vositalarini 16 foizdan kam bo’lmagan qiyalikda;

Aslahalangan holatdagi yengil avtomobillar, ularning yuk tashishga moslashtirilgan turlari, shuningdek, avtobuslarni 23 foizdan kam bo’lmagan qiyalikda;

Aslahalangan holatdagi yuk avtomobillari va avtopoezdlarni 31 foizdan kam bo’lmagan qiyalikda.

Izoh: To’xtatib turish tormoz tizimi sinovdan o’tkazilayotganda yurgizgich transmissiyasidan ajratilgan bo’lishi kerak.
1.7. Qulflovchi moslama to’xtatib turish tormoz tiziminig dastagi (richagi)ni ushlab tura olmasa.

***2-ilova***

## 2-savol: Boshqaruv qurilmasi

Boshqaruv qurilmasidagi lyuft (qismlar birikmasidagi yeyilish) yig’indisi quyidagi ko’rsatkichdan katta bo’lsa:

| № | Transport vostasining turi | Erkin qismlar o’rtasidagi yeyilish yig’indisi, ko’pi bilan gradus hisobida |
|---|---|---|
| 1 | Engil avtomobillar va ular asosida yaratilgan yuk avtomobillari hamda mikroavtobuslar | 10 |
| 2 | Avtobuslar | 20 |
| 3 | Yuk avtomobillari | 25 |

Boshqaruv qurilmasidagi qismlar tuzilishida ko’zda tutilmagan sezilarli o’zgarishlar yoki transport vositasida yukxonasi (rama, kabina, shassi)ga nisbatan qo’zg’algan bo’lsa, qurilmadagi rezbali birikmalar tegishli ravishda mahkamlanmagan bo’lsa.

Boshqaruv qurilmasining tuzilishida ko’zda tutilgan kuchaytirgich yoki mototsikllarda tebranishni pasaytiruvchi asbob (dempfer) nosoz bo’lsa yoki umuman bo’masa.

Boshqaruv qurilmasida qoldiq deformatsiya izlari, darz ketgan joylari va boshqa nuqsonlari bo’lgan qismlar o’rnatilgan, shu transport vositasi turida ko’zda tutilmagan yoki ishlab chiqargan korxona talabiga mos kelmaydigan qismlar va suyuqliklar qo’llangan bo’lsa.

***3-ilova***

## 3-savol: Tashqi yoritgichlar

Tashqi yoritgichlar soni, turi, joylashuvi va ishlash tartibi transport vositasining tuzilish talabiga mos kelmasa.
Izoh: 1. Mototsikl, mopedlar bitta, boshqa transport vositalari esa ikkita tumanga qarshi faralar bilan jihozlangan bo’lishi mumkin.

Tumanga qarshi faralar yo'l yuzasidan 250mm dan kam bo'lmagan balandlikda joylashishi, lekin yaqinni yorituvchi faralardan baland bo'lmasligi, transport vositasining o'qiga mutanosib va tashqi gabaritdan ko'pi bilan 400mm uzoqlikda joylashishi kerak.

1. Tumanga qarshi bitta yoki ikkita qizil chiroq transport vostalarining orqasiga 400 – 1200mm balandlikda va to'xtatish ishorasida kamida 100mm yaqinlikda o'rnatiladi.
2. Tumanga qarshi fara, orqa chiroqlar, gabarit chiroqlari va davlat raqami belgisini yorituvchi chiroqlar bir vaqtda yoqilishi kerak.
3. Engil transport vositasi va avtobusga bitta yoki ikkita qo'shimcha qizil rangli, tormoz berganda yonuvchi chiroqni 1250 – 1400mm balandlikda o'rnatishga ruxsat etiladi.
4. Ishlab chiqarilishi to'xtatilgan yengil avtomobillarga boshqa turdagi, rusumdagi transport vositalarining tashqi yoritgichlarini o'rnatishga ruxsat etiladi.

Yorituchi fara nurining yo'nalishi buzilgan bo'lsa.

Agar tashqi yoritgilar va nur qaytargichlar belgilangan tartibda ishlamayotgan yoki ifloslangan bo'lsa.

Yoritish asboblarida nur sochuvchisi bo'lmasa yoxud nur sochuvchi va lampalar tegishli yorug'lik asboblari turiga mos bo'lmaganidan foydalanilgan bo'lsa.

***4-ilova***

**4-savol: Oyna tozalagich va oyna yuvgichlar. SHinalar**

Oyna tozalagich belgilangan tartibda ishlamayotgan bo'lsa.

Transport vositasining tarkibida ko'zda tutilgan oyna yuvgich ishlamayotgan bo'lsa.

Engil avtomobillar shinasi naqshlari izlarining qoldiq chuqurligi 1,6 mm dan, yuk avtomobillariniki – 1,0 mm dan, avtobuslarniki – 2,0 mm dan, mototsikl va mopedlarniki – 0,8mm dan kam bo'lmasa.

Izoh: Tirkamalar shinasi naqshlari izlarining qoldiq chuqurligi shatakchi transport vositasi shinalari uchun belgilngan me'yor kabidir.

SHinalarning bazi joylari shikastlangan yoki boshqa nuqsonlarga (kesilgan, yorilgan) ega bo'lsa.

Qo'shaloq shinalar orasiga xavf – xatar tug'diruvchi begona qismlar qisilib, tiqilib qolgan bo'lsa.

SHina o'lchamlari yoki unga cheklangan og'irlik transport vositasining turiga mos kelmasa.

Transport vositasining bitta o'qiga diagonal va radial, shuningdek, har xil naqshli shinalar o'rnatilgan bo'lsa.

SHaxarlararo qatnaydigan avtobusning oldingi o'qiga naqshi qayta tiklangan shina, boshqa o'qiga esa ikkinchi marta (2- darajali) tamirlash yo'li bilan tiklangan shinalar tiklangan bo'lsa.

Engil avtomobillar va avtobuslarning oldingi o'qiga ikkinchi marta (2- darajali) ta'mirlash yo'li bilan tiklangan shinalar o'rnatilgan bo'lsa.

***5-ilova***

**5-savol: Yurgizgich (motor)**

Ishlab chiqqan gazlar tarkibida zararli moddalar yoki tutash darajasi belgilangan meyyordan ortiq bo'lsa.

Yonilg'i uzatish tizimi zich (germetik) bo'lmasa.

Radio to'lqinlaridagi shovqinni so'ndiruvchi moslamalar bo'lmasa.

ishlab chiqarilgan gazlarni chiqarib tashlash tizimi buzuq bo'lsa.

YHXB organlari ruxsatisiz yurgizgich tuzilishiga o'zgartirish kiritilgan, boshqa turdagi yonilg'ida ishlatish uchun qo'shimcha moslama va jihozlar o'rnatil-magan bo'lsa.

***6-ilova***

## 6-savol: Transport vositasi tuzilishining bo'lak qismlari

Transport vositasining tuzilishida ko'zda tutilgan orqa tomonni ko'rsatuvchi ko'zgu bo'lmasa.

Tovush moslamasi (signal) bo'lmasa.

Transport vositasiga tevarak – atrof ko'rinishini cheklaydigan qo'shimcha narsalar, ko'zgusimon, shuningdek, tegishli davlat standartlarida belgilangan meyorlarni buzgan holda tayyorlangan tusi o'zgartirilgan (qoraytirilgan) oynalar o'rnatilgan bo'lsa.

Izoh:

1. Yengil avtomobillarning oldingi ikki yoniga orqa tomon ko'rinishini ta'minlaydigan tashqi ko'zgu o'rnatilgandagina orqa oynasiga parda o'rnatishga ruxsat etiladi.
2. Transport vositalarining faqat orqa va yon oynalari yorug'lik o'tkazuvchanligini 70 % dan kam bo'lmaydigan qilib, davlat standarti talablarini buzmagan holda tusini o'zgartirish (qoraytirish)ga ruxsat etiladi. Avtomobillarning tom qismidagi lyuk oynasi bundan mustasno.

Tarkibida ko'zda tutilgan yukxona, kabina eshiklari, qulflari, yuk platformasi bortlarining temir yopqichlari, yonilg'i idishi va tsisternalar og'zining qulflari, haydovchi o'rindig'i holatini sozlovchi moslama, falokat yuz bergan vaqtda chiqish joylari, eshiklarni ochish va yopish moslamasi, spidometrlar, haydab olib qochishga qarshi, oynani isituvchi va havo almashtirish moslamalari buzuq bo'lsa, yoki umuman bo'lmasa.

Spidometr qurilmasi nosoz yoki tamralanmagan (shaxsiy transprt vositalari, mototsikl va mopedlardan tashqari) bo'lsa.

Tarkibida ko'zda tutilgan, o'zi yurib ketganda xavfsizlikni taminlovchi orqa bufer, loy to'sgich va sachratmagichlar bo'lmasa.

Ressorlarning asosiy qatlami yoki markaziy bolti shikastlangan bo'lsa.

SHatak tirkama burimining tortish – tirkash moslamasi hamda ko'zda tutilgan ehtiyot arqonlari nosoz bo'lsa. Mototsikl bilan kajava ramasi mahkamlangan joyda lyuft (ramalar o'rtasida oraliq, yeyilish) bo'lsa.

Transport vositalari quyidagilar bilan jihozlanmagan bo'lsa:

Avtobuslarda tibbyot qutichasi (aptechka), favqulodda holatlarni oynani sindirish uchun foydalaniladigan bolg'acha, o't o'chirgich, majburiy to'xtaganni bildiruvchi belgi (miltillovchi qizil chiroq);

Mikroavtobus, yuk va yengil avtomobillarda tibbyot qutichasi (aptechka), o't o'chirgich, majburiy to'xtaganni bildiruvchi belgi (miltillovchi qizil chiroq);

Ishlab chiqargan korxona tomonidan nazarda tutilmagan va belgilanmagan joyda antenna, sirena, ratsiya, tovush chiqarish moslamalari, yoritgichlar va har xil bezaklar tegishli ruxsatsiz o'rnatilsa;

To'la vazni 3,5 tonnadan ortiq bo'lgan yuk avtomobillarida va to'la vazni 5 tonnadan ortiq avtobuslarda tisarilishga qarshi tirgak (boshmoq);

Avtopoezdlar, tirkamalar, traktorlar, aravalar va boshqa o'zi yurar mashinalarda tashqi yorug'likni qaytaruvchi (qizil – oq rangli) xavfsizlik moslamalari;

Kajavali mototsikllarda tibbiyot qutisi, falokat sababli to'xtashga majbur bo'lganini bildiruvchi belgi.

Izoh: Tibbiyot qutichasi va o’t o’chirgich transport vositalarini ishlab chiqargan korxona tomonidan belgilangan joyga mustaxkam o’rnatiladi. Agar transport vositasining konstruktsiyasida bunday joylar ko’zda tutilmagan bo’lsa, tibbiyot qutichasi oson olinadigan joyga, o’t o’chirgich esa yengil avtomobillarnig salonida yoki yukxonasida, avtobuslarda esa bitta o’t o’chirgich haydovchining kabinasida, ikkinchisi yo’lovchilar salonida bo’lishi kerak. Katta va o’rta avtobuslar bundan tashqari favqulotda holatlarda avtobus oynasini sindirish uchun maxsus bolg’achalar bilan (avtobus salonida) jihozlangan bo’lishi lozim.

Maxsus transport vositalarida ko’zda tutilgan chiroq – myoqcha, navbatma navbat chalinadigan maxsus tovushlar va rangdor chizmalardan foydalanilayotgan bo’lsa.

Transport vositasida uni ishlab chiqargan korxona tomonidan ko’zda tutilmagan boshqa nusxadagi yukxona (kuzov) qismlari o’rnatilgan bo’lsa.

Yukxona, kabina qismlari to’la ta’mirlanmagan va bo’yog’i tashqi ko’rinishini buzadigan hamda bir necha xil rangga bo’yalgan bo’lsa. (maxsus transport vositalari bundan mustasno)

Ikki g’ildirakli mototsikl tarkibida ko’zda tutilgan xavfsizlik yoki (duga) bo’lmasa.

mototsikl va mopedlarda ko’zda tutilmagan oyoq tiragich, egarida yo’lovchi uchun ko’ndalang tutqich o’rnatilmagan bo’lsa.

Izoh: Bir turdagi transport vositalarida buferlar, moldinglar, qoplamalar.yu g’ildirak qopqoqlari va h. k. Ni o’zaro almashtirishga ruxsat etiladi.

Ilovada ko’rsatilgan texnika talablariga davlat namunalari bo’yicha o’zgartirishlar kiritilishi mumkin.

Nazorat savollari:

1. Transport vositalarining tormoz tizimi sababli foydalanishni taqiqlash shartlari?
2. Tormoz tizimidagi havo bosimi qanday bo’lishi kerak?
3. Transport vositalarining yoritgichlari sababli foydalanishni taqiqlash shartlari?
4. Qanday holatlarda oyna tozalagichlardan foydalanish taqiqlanadi?
5. Tashqi yoritgichlar qanaqa bo’lishi kerak?
6. Tashqi yoritgichlar qanday joylashtiriladi?
7. Transport vositalarining shinalardan foydalanishni taqiqlash shartlari?
8. Yurgizgichlarga qanday talablar qo’yiladi?
9. Transport vositalarining rul boshqarmasidan foydalanishni taqiqlash shartlari?

## 11 -mavzu. Yo’llarda harakat xavfsizligini ta’minlashning davlat boshqaruvi tizimi

O’zbekiston Respublikasining harakat xavfsizligi to’g’-risidagi Qonun. Davlat vakolatli organlari. Vazirlar Mahkamasining vakolatlari, IIV YHXB vakolatlari. O’zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi. «O’zavtoyo’l» DAK. vakolatlari. Mahalliy Davlat hokimiyat organlarining vakolatlari.

**Ma’ruza mashg’ulotining o’qitish texnologiyasi.**

| | |
|---|---|
| Vaqti – 2 soat | Talabalar soni: 45-50 nafar |
| O’quv mashg’ulotining shakli | Kirish, vizual ma’ruza |
| Ma’ruza mashg’ulotining rejasi | 1 O’zbekiston Respublikasining harakat xavfsizligi to’g’risidagi Qonuni.<br>2 Davlat vakolatli organlari. Vazirlar Mahkamasining vakolatlari.<br>3 IIV YHXB vakolatlari.<br>4 O’zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi.<br>5 «O’zavtoyo’l» DAK. vakolatlari.<br>6 Mahalliy Davlat hokimiyat organlarining vakolatlari. |
| ***O’quv mashg’ulotining maqsadi:*** “Yo’l chiziqlari” to’g’risida tushuncha berish. Yo’l chiziqlari va ularning qo’llanilishi va vazifasi to’g’risida tushuncha berish. | |
| ***Pedagogik vazifalar:***<br>-mavzuning mohiyatini tushuntirish;<br>-asosiy tushunchalar bilan tanishtirish;<br>-yo’l chiziqlarining harakatni boshqarishdagi ahamiyatini tushuntirish.<br>-yo’l chiziqlarining real ko’cha-yo’l sharoitida qo’llanilishini tushun-tirish. | ***O’quv faoliyatining natijalari:*** Talaba:<br>-yo’l chiziqlarining qo’llanilishi va mohiyati to’g’risida tushunchaga ega bo’ladi;<br>-yo’l chiziqlarining guruxlarini ta’riflab beradi;<br>-yotiq yo’l chiziqlarining shakli, rangi va vazifasini o’rganadi.<br>-tik yo’l chiziqlarining shakli rangi va vazifasini o’rganadi.<br>- Yo’l chiziqlarini qo’llanilishi to’g’risida tushunchalar oladi. |
| O’qitish uslubi va texnikasi | Vizual ma’ruza, blits-so’rov, bayon qilish, insert, “ha-yo’q” texnikasi. |
| O’qitish vositalari | Ma’ruzalar matni, proektor, tarqatma materiallar, grafik organayzerlar. |
| O’qitish shakli | Jamoa, guruh va juftlikda ishlash. |
| O’qitish shart-sharoiti | Proektor, kompьyuter bilan jihozlangan auditoriya. |

**Ma’ruza mashg’ulotining texnologik kartasi (12-mashg’ulot)**

| Bosqichlar, vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|---|
| | **O’qituvchi** | **Talaba** |
| 1-bosqich. Kirish (10 min.) | 1.1. Mavzu, uning maqsadi, o’quv mashg’ulotidan kutilayotgan natijalar ma’lum qilinadi. | 1.1. Eshitadi, yozib oladi. |
| 2-bosqich. Asosiy (60 min.) | 2.1. Talabalar e’tiborini jalb etish va bilim darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javob o’tkazadi:<br>- Yo’l harakati qoidalari bo’yicha Vena shartnomasida qanday masalalar ko’rildi?<br>- Yo’l harakati qoidalarini o’qitishda atama va tushunchalar nima uchun kerak?<br>- Amaldagi Yo’l harakati qoidalari qachon va kim tomonidan qabul qilingan?<br>2.2. O’qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma’ruzani bayon etishda davom etadi. Yo’l harakati qoidalarida qabul qilingan asosiy atama va tushunchalarni tushuntiradi.<br>2.3.Haydovchilarning vazifalarini, majburiyatlarini tushuntiradi.<br>YTH sodir etgan haydovchining vazifalarini tushuntiradi.<br>2.4. Haydovchilarga taqiqlangan shartlarni tushuntirib beradi. | 2.1. Eshitadi.<br>Navbat bilan savolarga ja-vob beradi.<br>O’ylaydi, javob beradi.<br>Javob beradi va to’g’ri javob-ni eshitadi.<br>2.2. Berilgan ma’lumotlarning mazmunini muho-kama qiladi.<br>Savollar berib, asosiy joylarini yozib oladi.<br>2.3. Eslab qoladi, yozadi.<br>Har bir savolga javob berishga harakat qiladi.<br>Ta’rifni yozib oladi, misollar keltiradi.<br>2.4. Eslab qoladi, yozadi.<br>Har bir savolga javob berishga harakat qiladi. |
| 3-bosqich. Yakuniy (10 min.) | 3.1. Mavzuga yakun yasaydi va talabalar e’tiborini asosiy masalalarga qaratadi. Faol ishtirok etgan talabalarni rag’batlantiradi. Mustaqil ish uchun vazifa: “Qoidalarda qo’llanilgan asosiy tushuncha va atamalar”ga klaster tuzishni vazifa qilib beradi, baholaydi. | 3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi.<br>3.2. Topshiriqni yozib oladi. |

**Vizual materiallar**

*1-ilova*

**1-savol: O'zbekiston Respublikasining harakat xavfsizligi to'g'risidagi Qonuni**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI**
**YO'L XARAKATI XAVFSIZLIGI** TO'G'RISIDA
19.08.1999 y. N818-I 2007 yildan yangi taxrirda

**1-modda. Ushbu qonunning maqsadi**

Ushbu qonun yo'l xarakati xavfsizligi soxasida yuzaga keluvchi munosabatlarni tartibga soladi xamda fukarolarning xayoti, sogligi va mol-mulkini muxofaza etishni ta'minlashga, ularning xukuklari va konuniy manfaatlarini, shuningdek atrof tabiiy muxitni ximoya etishga karatilgan.

**2-modda. Asosiy tushunchalar**

Ushbu konunda kuyidagi asosiy tushunchalar ko'llaniladi:

**yo'l** - transport vositalari katnovi uchun kurilgan yoki moslashtirilgan va xuddi shu maksadda foydalaniladigan yer mintakasi yoxud sun'iy inshoot yuzasi. Yo'l o'z ichiga avtomobilь yo'llarini (umumiy foydalanishdagi va idoraviy avtomobilь yo'llarini), shaxarlar, shaxarchalar va kishlok axoli punktlarining ko'chalari va yo'lkalarini, shuningdek shaxar elektr transporti yo'llarini oladi;

**yo'l harakati** - odamlar va yuklarning transport vositalari yordamida yoki bunday vositalarsiz yo'llar doirasida xarakatlanishi jarayonida yuzaga keluvchi munosabatlar majmui;

**19.08.1999 y. N818-I** 2007 yildan yangi taxrirda

*-ilova*

**2-savol: Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash sohasidagi davlat boshqaruvi. Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash soxasidagi maxsus vakolatli davlat organlari**

Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash soxasidagi maxsus vakolatli davlat organlariga quyidagilar kiradi:

- O'zbekiston avtomobilь va daryo transporti agentligi;
- Avtomobilь yo'llari kurish va ulardan foydalanish davlat-aktsiyadorlik kompaniyasi;
- O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Davlat yul xarakati xavfsizligi xizmati.

*3-ilova*

**3-savol: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash soxasidagi vakolatlari**

Yo'l xarakati xavfsizligini ta'minlash soxasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi:

- Yo'l xarakati xavfsizligini ta'minlash davlat dasturlarini tasdiklaydi va ularni amalga oshirish ustidan nazorat olib boradi;

- Yo’l xarakati koidalarini xamda yo’l xarakati xavfsizligini ta’minlash va yo’l xarakatini tashkil etish masalalariga doir boshka normativ xujjatlarni tasdiklaydi;

- vazirliklar va idoralarning yo’l xarakati xavfsizligini ta’minlash, ekologik xavfsizlik talablariga rioya etish soxasidagi faoliyatini muvofiklashtirib boradi;

- transport vositalari va yo’llarning texnikaviy xolatiga, yo’llar va temir yo’ldan o’tish joylari bo’ylab yo’l xarakati xavfsizligiga doir yagona talablarni belgilaydi;

- transport vositalarining xaydovchilarini tayyorlashga, shuningdek axoliga yo’llarda yurish-turish xavfsizligi koidalarini o’rgatishga doir umumiy talablarni belgilaydi:

- transport vositalarining xaydovchilarini, shunday vositalarning o’zini, yo’l xarakati koidalarining buzilishi xollarini, yo’l-transport xodisalari va boshka ko’rsatkichlarni xisobga olishning yagona tizimini tasdiklaydi;

- qonun xujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

***4-ilova***

**4-savol: O’zbekiston Respublikasi IIV DYHXXning vakolatlari**

Yo’l xarakati xavfsizligini ta’minlash soxasida O’zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Davlat yul xarakati xavfsizligi xizmatininginining:

- yo’l xarakati xavfsizligi standartlari, koidalari va normalarini ishlab chikadi;

- yo’l xarakati katnashchilarining ushbu Konunga, Yo’l xarakati koidalariga xamda boshka konun xujjatlarining yo’l xarakati xavfsizligini ta’minlashga oid kismiga rioya etishi ustidan nazorat olib boradi;

- jamoat transportining, shuningdek ogir vaznli, yirik gabaritli, xavfli va maxsus yuklarni tashuvchi transport vositalarining katnov yo’nalishlarini belgilashda ishtirok etadi;

- yo’llarni, temir yo’l kesishuvi joylarini, avtomobilь yonilgisi kuyish tarmoklarini, transport vositalarining konstruktsiyalarini kurish, rekonstruktsiya kilish loyixalariga rozilik beradi;

- foydalanishdagi transport vositalarining texnik xolati ustidan nazorat olib boradi, transport vositalarining texnik ko’rigini o’tkazadi;

- yo’llar va temir yo’ldan o’tish joylarining saklanishi, ularning yo’l xarakatini boshkarish vositalari bilan jixozlanishi ustidan nazorat olib boradi;

- yo’l xarakati xavfsizligi standartlari, koidalari va normalariga muvofik bo’lmagan yo’llar va temir yo’l kesishuvi joylaridan foydalanishni takiklaydi;

- transport vositalari, yo’l xarakati koidalarining buzilishi xollari va yo’l-transport xodisalari xisobini va ro’yxatini yuritadi;

- transport vositalarini boshqarish xuquqiga doir guvoxnomalar beradi;

- konun xujjatlariga muvofik uning vakolat doirasiga berilgan ma’muriy xukukbuzarliklar to’grisidagi ishlarni ko’radi;

***5-ilova***

**5-savol: O’zavtoyo’l kompaniyasining vakolatlari**

Yo’l xarakati xavfsizligini ta’minlash soxasida O’zbekiston avtomobilь yo’llari kurish va ulardan foydalanish davlat-aktsiyadorlik kompaniyasi o’z tasarrufidagi avtomobilь yo’llaridan transport vositalarining xavfsiz katnovi uchun bu yo’llarning soz xolatda saklanishini ta’minlaydi;

- yo’l xarakati katnashchilarini yo’l koplamasining xolati, gidrometeorologiyaga oid va boshka sharoitlar to’grisida zarur axborot bilan ta’minlaydi;

- avtomobilь yo’llarida yo’l xarakatini boshkarish vositalari, tezkor aloka tizimi kurilishi va jixozlanishini amalga oshiradi xamda ularning saklanishini ta’minlaydi;

- avtomobilь yo’llarining katnov uchun xatarli joylarini aniklaydi va bu joylarda yo’l xarakatini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlarini ko’radi;

- ogir vaznli, yirik gabaritli, xavfli va maxsus yuklarni tashuvchi transport vositalarining katnov yo’nalishlarini belgilashda ishtirok etadi, shuningdek yo’l xizmati ko’rsatish ob’ektlari joylashuviga rozilik beradi;

- konun xujjatlariga muvofik boshka vakolatlarni amalga oshiradi.

***6-ilova***

**6-savol: O’zbekiston avtomobilь va daryo transporti agentligining vakolatlari**

Yo’l xarakati xavfsizligini ta’minlash soxasida O’zbekiston avtomobilь va daryo transporti agentligi:

- yo’l xarakati xavfsizligini ta’minlash davlat dasturlarini ishlab chikish va amalga oshirishda ishtirok etadi;

- avtomobilda yuk tashish xavfsizligini ta’minlash masalalari yuzasidan normativ xujjatlarni ishlab chikadi;

- transport vositalari va transportda ko’rsatiladigan xizmatlar sertifikatlashtirilishini amalga oshiradi;

- yo’l xarakati xavfsizligi to’grisidagi konun xujjatlariga avtomobilь transportida rioya etilishi ustidan nazorat olib boradi;

- konun xujjatlariga muvofik boshka vakolatlarni amalga oshiradi.

***7-ilova***

**7-savol: Maxalliy davlat xokimiyati organlarining vakolatlari**

Yo’l xarakati xavfsizligini ta’minlash soxasida mahalliy davlat xokimiyati organlari:

- yo’l xarakati xavfsizligini ta’minlash davlat dasturlarini amalga oshiradi;

- yo’l xarakati xavfsizligini ta’minlash xududiy dasturlarini tasdiklaydi xamda ularni amalga oshirish ustidan nazorat olib boradi;

- yo’l xarakati xavfsizligi tibbiy jixatdan ta’minlanishini, shuningdek yo’l-transport xodisalari sodir bo’lganda jabrlanganlarga tibbiy yordam ko’rsatilishini tashkil etadi;

- yo’l-transport xodisalari okibatidagi jaroxatlanishlarning oldini olish, axoliga yo’llarda yurish-turish xavfsizligi koidalarini o’rgatish, yo’l xarakati xavfsizligini tarkib etish xamda ekologik xavfsizlik talablariga rioya etish chora-tadbirlarini ko’radi;

- shaxarlardagi, shaxarchalar va kishlok axoli punktlaridagi ko’chalarning, yo’lkalarning xamda yo’l xarakatini boshkarish vositalarining, shuningdek shaxar elektr transporti yo’llarining kurilishi va soz xolatda saklanishini ta’minlaydi;

Nazorat savolari:

1. Harakat xavfsizligini ta’minlashda davlat boshqaruvining o’rni.
2. O’zbekiston Respublikasi davlat tashkilotlarining harakat xavfsizligi sohasini boshqarish umumiy tizimi qanday?
3. Harakat xavfsizligi qonuni qanday asosiy bo’limlardan iborat?
4. Harakat xavfsizligi bo’yicha O’zbekiston Respublikasida umumiy rahbarlik qanday amalga oshiriladi?
5. Vazirlar Mahkamasining harakat xavfsizligini ta’minlashdagi vakolatlari nimalardan iborat?
6. Mahalliy hokimiyat organlarining harakat xavfsizligini ta’minlashdagi vakolatlari nimalardan iborat?
7. O’zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligining harakat xavfsizligini

ta'minlashdagi vakolatlari nimalardan iborat?

8. «O'zavtoyo'l» davlat aktsiyadorlik kompaniyasining xavfsizlikni ta'minlashdagi vakolatlari nimalardan iborat?

## 12 -mavzu. Harakat xavfsizligini tashkil etish asoslari

Yo'l harakatini tashkil etishda «Avtomobil-haydovchi-yo'l-piyoda-muhit» tizimining o'zaro bog'liqligi, O'zbekiston Respublikasida avtomobillashtirish va yo'l tarmoqlarining o'sish ko'rsatkichlari.

**Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi.**

| | |
|---|---|
| Vaqti – 2 soat | Talabalar soni: 45-50 nafar |
| O'quv mashg'ulotining shakli | Kirish, vizual ma'ruza |
| Ma'ruza mashg'ulotining rejasi | 1 Yo'l harakatini tashkil etishda «Avtomobil-haydovchi-yo'l-piyoda-muhit» tizimining o'zaro bog'liqligi.<br>2 O'zbekiston Respublikasida avtomobillashtirish va yo'l tarmoqlarining o'sish ko'rsatkichlari. |
| ***O'quv mashg'ulotining maqsadi:*** "Harakat xavfsizligini tashkil etish asoslari" fanining predmeti va bilish usullari, boshqa fanlar bilan aloqasi to'g'risida bilimlarni hamda to'liq tasavvurni shakllantirish. | |
| ***Pedagogik vazifalar:***<br>-fanning predmetini tushuntirish;<br>-asosiy tushunchalar bilan tanishtirish;<br>-harakat xavfsizligini tavsiflash;<br>-harakat xavfsizligiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni o'rgatish. | ***O'quv faoliyatining natijalari:*** Talaba:<br>-fanining predmetini izohlaydi;<br>-asosiy tushunchalariga ta'rif beradi;<br>- harakat xavfsizligini tavsiflaydi;<br>-harakat xavfsizligiga ta'sir etuvchi asosiy omillarga ta'rif beradi;<br>-ilmiy bilishning asosiy usullarini sanab beradi va izohlaydi;<br>-"Harakat xavfsizligini tashkil etish asoslari" fanining boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasini va uni fanlar ichida tutgan o'rnini tavsiflaydi. |
| O'qitish uslubi va texnikasi | Vizual ma'ruza, blits-so'rov, bayon qilish, klaster, "ha-yo'q" texnikasi. |
| O'qitish vositalari | Ma'ruzalar matni, proektor, tarqatma materiallar, grafik organayzerlar. |
| O'qitish shakli | Jamoa, guruh va juftlikda ishlash. |
| O'qitish shart-sharoiti | Proektor, kompьyuter bilan jihozlangan auditoriya. |

**Ma’ruza mashg’ulotining texnologik kartasi (13-mashg’ulot)**

| Bosqichlar, vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|---|
| | **O’qituvchi** | **Talaba** |
| 1-bosqich. Kirish (10 min.) | 1.1. Mavzu, uning maqsadi, o’quv mashg’ulotidan kutilayotgan natijalar ma’lum qilinadi. | 1.1. Eshitadi, yozib oladi. |
| 2-bosqich. Asosiy (60 min.) | 2.1. Talabalar e’tiborini jalb etish va bilim darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javob o’tkazadi:<br>-Harakatni tashkil etish bo’yicha qanday vazifalar bajariladi?<br>-“A-Y-H-P-M” tizimidagi asosiy vazifa nimadan iborat?<br>-Harakatni tashkil etish bo’yicha qanday me’yoriy hujjatlarni bilasiz?<br>2.2. O’qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma’ruzani bayon etishda davom etadi. Harakat xavfsizligini tashkil etish bo’yicha asosiy muammosi tushunchalarini sharhlaydi.<br>2.3. Yo’l harakatini tashkil etishda “Avtomobil-yo’l-haydovchi-piyoda-muhit” tizimining o’zaro bog’liqligini sxema va jadvallar yordamida taqdimotini namoyish etadi:<br>a) yo’l harakatini tashkil etishda (A-Y) qanday o’rin tutadi?<br>b) yo’l harakatini tashkil etishda (A-H) qanday o’rin tutadi?<br>2.4. O’zbekiston Respublikasida avtomobillashtirish va yo’l tarmoqlarining o’sish ko’rsatkichlarini izohlaydi. Harakatni tashkil etish bo’yicha me’yoriy hujjatlarni tushuntirib beradi. | 2.1. Eshitadi. Navbat bilan savolarga ja-vob beradi. O’ylaydi, javob beradi. Javob beradi va to’g’ri javob-ni eshitadi.<br>2.2. Sxema va jadvallar maz-munini muho-kama qiladi. Savollar berib, asosiy joyla-rini yozib oladi.<br>2.3. Eslab qoladi, yozadi. Har bir savolga javob berishga harakat qiladi. Ta’rifni yozib oladi, misollar keltiradi.<br>2.4. Eslab qoladi, yozadi. Har bir savolga javob berishga harakat qiladi. |
| 3-bosqich. Yakuniy (10 min.) | 3.1. Mavzuga yakun yasaydi va talabalar e’tiborini asosiy masalalarga qaratadi. Faol ishtirok etgan talabalarni rag’batlantiradi. Mustaqil ish uchun vazifa: “Harakat xavfsizligi” so’ziga klaster tuzishni vazifa qilib beradi, baholaydi. | 3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi.<br>3.2. Topshiriq-ni yozib oladi. |

## Vizual materiallar

*1-ilova*

**1-savol: Yo'l harakatini tashkil etishda "avtomobil-yo'l-haydovchi-piyoda-muhit" tizimining o'zaro bog'liqligi**

Avtomobil yo'llarida insonlar tomonidan boshqariladigan turli xildagi mexanik va mexanik bo'lmagan transport vositalari, harakatlanayotgan (yoki harakatda bo'lmagan) piyodalar majmuidan iborat murakkab dinamik tizim mavjuddir. Bu tizim yo'l harakati deb ataladi.

Yo'l harakatining muammolari va maxsus tomonlari, eng avvalo, "Avtomobil-haydovchi-yo'l-piyoda" tizimi orqali belgilanadi. Ular o'z navbatida atrof-muhitda faoliyat ko'rsatadilar.




"Avtomobil – haydovchi – yo'l – piyoda - muhit" tizimi.

Tizimga quyidagi tashkiliy qismlar kiradi: A (avtomobil), H (haydovchi), Y (yo'l), P (piyoda), M (muhit). Bu tashkiliy qismlar muhitda faoliyat ko'rsatibgina qolmasdan, atrof-muhit bilan ularning har biri chambarchas bog'liq bo'ladi. Muhit deb atrof-muhitning yo'l harakati xavfsizligiga mujassamlashgan ta'siri tushuniladi va u quyidagi omillardan tashkil topadi: 1) ob-havo (metrologik ko'rinish, yog'ingarchilik, shamol, harorat); tabiiy landshaft (tekislik, qir-adirlar, tog'lik, yer osti-usti suvlari va h.k.); mexanik (shovqin, chang, tebranish, gaz chiqindilari bilan ifloslanganlik va h.k.) "A-H-Y-P-M" tizimida mexanik "Avtomobil-yo'l" (A-Y) va biomexanik "Haydovchi avtomobil" (H-A), "Haydovchi-yo'l" (H-Y), "Piyoda-Avtomobil" (P-A) va "Piyoda-yo'l" (P-Y) hamda biologik "Haydovchi-piyoda" (H-P) tizimlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

*2-ilova*

**2-savol: O'zbekiston Respublikasini avtomobillashtirish va yo'l tarmoqlarining o'sish ko'rsatkichlari**

O'zbekiston Respublikasida 1996 yildan boshlab xususiy sektorda avtomobil transportining soni yildan-yilga ortib bormokda, xususan oxirgi 2003-2008 yillarda bu o'sish ko'rsatkichi o'rtacha 2-5,4%ni tashkil etadi.

| Yillar* | 2003 | 2004 | 2005 | 2006 | 2007 | 2008 |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Xususiy sektor-dagi avtomo-billar soni | 1095928 | 1211713 | 1235879 | 1269115 | 1330230 | 1402333 |

** ko'rsatkichlar har yilning birinchi yanvariga keltirilgan.*

O'zbekiston Respublikasi yetarli darajada zich avtomobil yo'llar tarmog'iga ega. 2007 yil 1 yanvar holatiga ko'ra respublikamizdagi yo'llarning umumiy uzunligi 183000 km, shu jumladan, umumfoydalanuvdagi avtomobil yo'llari 42530 kmni tashkil etadi. O'zbekiston hududlarining transport tarmog'i bilan ta'minlanish ko'rsatkichlari keltirilgan.

| Hududlar | Avtomobil yo'llari uzunligi, ming km. | Transport tarmog'ining zichligi, km | |
|---|---|---|---|
| | | 1000 km$^2$ | 1000 kishi |
| O'zbekiston Respublikasi bo'yicha jami: | 146,347 | 210,1 | 3,89 |
| Qoraqolpog'iston Respublikasi | 9,7 | 58,8 | 6,58 |
| Andijon viloyati | 5,9 | 1404,8 | 2,74 |
| Buxoro viloyati | 9,7 | 246,2 | 6,93 |
| Jizzax viloyati | 4,1 | 200,0 | 4,38 |
| Qashqadaryo viloyati | 8,2 | 288,7 | 3,87 |
| Navoiy viloyati | 6,2 | 56,2 | 8,00 |
| Namangan viloyati | 6,3 | 797,5 | 3,33 |
| Samarqand viloyati | 10,3 | 628,0 | 3,92 |
| Surxondaryo viloyati | 5,7 | 274,0 | 3,35 |
| Sirdaryo viloyati | 4,7 | 921,6 | 7,6 |
| Toshkent sh. va viloyati | 9,5 | 609,0 | 2,3 |
| Farg'ona viloyati | 9,5 | 1338,0 | 3,62 |
| Xorazm viloyati | 4,2 | 666,7 | 3,23 |

Nazorat savollari:

1. Harakat xavfsizligining qanday umumiy tushunchalari mavjud?
2. Yo'l harakatini tashkil etishning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
3. Yo'l harakatini tashkil etish deganda nimani tushunasiz?
4. "Avtomobil-haydovchi-yo'l-piyoda-muhit" tizimining harakat xavfsizligini ta'minlashdagi o'rni nimadan iborat?
5. Avtomobillashtirish harakat xavfsizligiga qanday ta'sir qiladi?
6. O'zbekiston Respublikasida harakat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan Prezident va Vazirlar Mahkamasining qanday qaror va farmoyishlarini bilasiz?
7. O'zbekiston Respublikasidagi Avtomobil yo'llarini rivojlantirish bo'yicha qanday ishlar rejalashtirilgan?
8. Harakatni tashkil etish bo'yicha qanday me'yoriy hujjatlarni bilasiz?
9. Yo'l harakati havfsizligi to'g'risidagi qonunda qanday asosiy tushunchalar qabul qilingan?

## 13 -mavzu. Yo'l harakatining asosiy tavsiflari

Transport va piyodalar harakatini tavsiflovchi ko'rsatkichlar. Harakat miqdori. Harakat tarkibi. Transport va piyodalar oqimining tezligi va zichligi.

**Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi.**

| | |
|---|---|
| Vaqti – 2 soat | Talabalar soni: 45-50 nafar |
| O'quv mashg'ulotining shakli | Kirish, vizual ma'ruza |
| Ma'ruza mashg'ulotining rejasi | 1 Transport va piyodalar harakatini tavsiflovchi ko'rsatkichlar.Harakat miqdori. Harakat tarkibi.<br>2 Transport va piyodalar oqimining tezligi va zichligi. |
| ***O'quv mashg'ulotining maqsadi:*** "Harakat xavfsizligini tashkil etish asoslari" fanining predmeti va bilish usullari, boshqa fanlar bilan aloqasi to'g'risida bilimlarni hamda to'liq tasavvurni shakllantirish. | |
| ***Pedagogik vazifalar:***<br>-fanning predmetini tushuntirish;<br>-asosiy tushunchalar bilan tanishtirish;<br>-harakat xavfsizligini tavsiflash;<br>-harakat xavfsizligiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni o'rgatish. | ***O'quv faoliyatining natijalari:*** Talaba:<br>-fanining predmetini izohlaydi;<br>-asosiy tushunchalariga ta'rif beradi;<br>- harakat xavfsizligini tavsiflaydi;<br>-harakat xavfsizligiga ta'sir etuvchi asosiy omillarga ta'rif beradi;<br>-ilmiy bilishning asosiy usullarini sanab beradi va izohlaydi;<br>-"Harakat xavfsizligini tashkil etish asoslari" fanining boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasini va uni fanlar ichida tutgan o'rnini tavsiflaydi. |
| O'qitish uslubi va texnikasi | Vizual ma'ruza, blits-so'rov, bayon qilish, klaster, "ha-yo'q" texnikasi. |
| O'qitish vositalari | Ma'ruzalar matni, proektor, tarqatma materiallar, grafik organayzerlar. |
| O'qitish shakli | Jamoa, guruh va juftlikda ishlash. |
| O'qitish shart-sharoiti | Proektor, kompьyuter bilan jihozlangan auditoriya. |

**Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi (14-mashg'ulot)**

| Bosqichlar, vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|---|
| | **O'qituvchi** | **Talaba** |
| 1-bosqich.<br>Kirish<br>(10 min.) | 1.1. Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar ma'lum qilinadi. | 1.1. Eshitadi, yozib oladi. |

| | | |
|---|---|---|
| 2-bosqich. Asosiy (60 min.) | 2.1. Talabalar e'tiborini jalb etish va bilim darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javob o'tkazadi:<br>-Harakatni tashkil etish bo'yicha qanday vazifalar bajariladi?<br>-"A-Y-H-P-M" tizimidagi asosiy vazifa nimadan iborat?<br>-Harakatni tashkil etish bo'yicha qanday me'yoriy hujjatlarni bilasiz?<br>2.2. O'qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma'ruzani bayon etishda davom etadi. Harakat xavfsizligini tashkil etish bo'yicha asosiy muammosi tushunchalarini sharhlaydi.<br>2.3. Yo'l harakatini tashkil etishda "Avtomobil-yo'l-haydovchi-piyoda-muhit" tizimining o'zaro bog'liqligini sxema va jadvallar yordamida taqdimotini namoyish etadi:<br>a) yo'l harakatini tashkil etishda (A-Y) qanday o'rin tutadi?<br>b) yo'l harakatini tashkil etishda (A-H) qanday o'rin tutadi?<br>2.4. O'zbekiston Respublikasida avtomobillashtirish va yo'l tarmoqlarining o'sish ko'rsatkichlarini izohlaydi. Harakatni tashkil etish bo'yicha me'yoriy hujjatlarni tushuntirib beradi. | 2.1. Eshitadi.<br>Navbat bilan savolarga ja-vob beradi.<br>O'ylaydi, javob beradi.<br>Javob beradi va to'g'ri javob-ni eshitadi.<br>2.2. Sxema va jadvallar maz-munini muho-kama qiladi.<br>Savollar berib, asosiy joyla-rini yozib oladi.<br>2.3. Eslab qoladi, yozadi.<br>Har bir savolga javob berishga harakat qiladi.<br>Ta'rifni yozib oladi, misollar keltiradi.<br>2.4. Eslab qoladi, yozadi.<br>Har bir savolga javob berishga harakat qiladi. |
| 3-bosqich. Yakuniy (10 min.) | 3.1. Mavzuga yakun yasaydi va talabalar e'tiborini asosiy masalalarga qaratadi. Faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi. Mustaqil ish uchun vazifa: "Harakat xavfsizligi" so'ziga klaster tuzishni vazifa qilib beradi, baholaydi. | 3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi.<br>3.2. Topshiriq-ni yozib oladi. |

**Vizual materiallar**

*1-ilova*

**1-savol: Transport va piyodalar harakatini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlar**

***Harakat miqdori*** (jadalligi) - yo'lning biron-bir ko'ndalang kesimidan vaqt birligi ichida o'tgan transport vositalarining soni (avt/sut yoki avt/soat) - bu ko'rsatkich kuzatish va avtomatik usullar bilan o'lchanishi mumkin.

Harakat miqdori yillar, oylar, sutka soatlari va hafta kunlari hamda yo'lning bo'laklariga nisbatan o'zgaruvchan ko'rsatkichdir.




Ҳаракат миқдорининг ойлар бўйича ўзгариши.

***Kuzatish*** (viziual ham deyiladi) usulida harakat miqdori yo’lning ko’rsatilgan bo’lagida bir yoki bir necha soat davomida hisobchilar yordamida maxsus tayyorlangan blankaga transport vositalarining o’tishini belgilash orqali aniqlanadi. Bu usuldan foydalanilganda soha me’yoriy ko’rsatmalariga amal qilinishi maqsadga muvofiq bo’ladi. Ko’pchilik davlatlarda, shuningdek, O’zbekistonda ham avtomobil yo’llaridagi harakat miqdorini kuzatuvchilar orqali aniqlanadi.

***Avtomatik*** usulda harakat miqdori har xil uslubda ishlaydigan datchiklar yordamida hisoblanadi. Hozirda bu maqsad uchun quyidagi keng tarqalgan datchiklar ishlatiladi:

Pnevmatik; fotoelektrik; ulьtratovush; mexanik; radiolakatsion; induktiv; elektron; infraqizil nurli.

***Harakat tarkibi*** - transport oqimida har xil transport vositalarining nisbatini belgilovchi ko’rsatkich bo’lib, u foizda yoki ulushda o’lchanadi.

***Transport oqimining tarkibi*** - harakat miqdoriga o’xshash o’zgaruvchan ko’rsatkichdir, u vaqt o’tishi bilan yo’l sharoitiga qarab o’zgaradi.

***Harakat oqimining tezligi*** - yo’l bo’laklari bo’yicha har xil transport vositalarining tezligini alohida va umuman o’zgarishini ko’rsatuvchi ko’rsatkich, o’lchov birligi m/s yoki km/soat.




Автомобил йўлларидаги транспорт оқимининг таркиби

Maqsad va vazifalariga qarab tezlik (hisobiy, oniy, aloqa, konstruktiv, texnik tezlik) quyidagi turlarga bo'linadi:

***Hisobiy tezlik*** - yakka avtomobillarning (xavfsizlik va ustuvorlik sharti bo'yicha) ob-havoning muqim sharoitida, avtomobil shinasining yo'l qatnov qismi yuzasi bilan me'yoriy tishlashish holatida, yo'lning eng noqulay ruxsat etilgan elementlariga ega bo'laklarida mumkin bo'lgan eng katta tezlikdagi harakatiga aytiladi.

***Oniy tezlik*** - aniq kichik masofadagi real yo'l sharoitidagi haqiqiy tezlik. U yakka avtomobillarning yoki transport oqimining u yoki bu belgilangan qisqa masofadagi (odatda masofa 50, 100, 150, 200 metr belgilanadi) tezligini bildiradi. Bu tezlikdan ma'lum yo'l bo'laklarida harakatni tashkil qilishda keng ko'lamda foydalaniladi.

| Avtomobil yo'lining darajasi | | Ia | Ib | II | III | IV | V |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Hisobiy tezlik, km/soat | Asosiy | 150 | 120 | 120 | 100 | 80 | 60 |
| | Past-baland | 120 | 100 | 100 | 80 | 60 | 40 |
| | Tog'li joylar uchun | 80 | 60 | 60 | 50 | 40 | 30 |

***Aloqa tezligi*** - ma'lum marshrutdagi ushlanib qolishlar (bir sathli chorrahalar, temir yo'l kesishmalari, qoplamaning notekis bo'laklari mavjudligidan hamda transport oqimidagi avtomobillarning o'zaro ta'siri natijasida) hisobiy aniqlanadigan tezlik.

***Avtomobilning konstruktiv tezligi*** - ma'lum konstruktsiyali avtomobilning maksimal tezligi, u asosan avtomobilning turiga bog'liq ravishda o'zgaradi.

***Texnik tezlik*** - ma'lum marshrutdagi ushlanib qolishlarni hisobga olmagan ravishda aniqlangan harakat tezligi, uning qiymati asosan avtomobil yo'lining geometrik o'lchamlariga va yo'l sharoitiga, shuningdek, transport oqimining tarkibiga bog'liq.

Transport harakatini tavsiflovchi keyingi ko'rsatkich bu ***transport oqimining zichligi*** - transport vositalarining 1 km uzunlikdagi bitta harakat tasmasiga joylashgan soni bilan o'lchanadi (q-km/dona). Bu ko'rsatkich harakat tarkibiga, uning tezligiga va yo'l sharoitiga nisbatan o'zgaradi.

***Harakatning ushlanishi*** - yo'l uchastkasida hisobiy tezlikka nisbatan transport vositalari tezligining pasayishi tushuniladi, uni m/s yoki km/soatda, shuningdek, sekund miqdorida ham aniqlash mumkin.

Piyodalar harakatini tavsiflovchi ko'rsatkichlar ham asosan harakat miqdori, tezlik va zichlik orqali belgilanadi va fizik jihatdan avval keltirilgan birliklarda o'lchanadi.

***Piyodalarning harakat miqdori*** - ma'lum yo'l kesimidan vaqt birligi ichida o'tgan piyodalar soni bilan o'lchanadi.

***Piyodalar harakat tezligi*** - piyodalarning yoshiga, psixologik holatiga, harakatlanish maqsadiga, qatnov zichligiga bog'liq bo'lib, o'rtacha 1,8-5,7 km/soat tashkil etadi.

***Piyodalar oqimining zichligi*** - bir metr kvadrat trotuar maydoniga to'g'ri keladigan qiymat bilan aniqlanadi. Piyodalar oqimining zichligi trotuarning eniga va piyodalarning harakat miqdoriga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lib, ularning nisbati piyodalarning harakatlanish qulayligini belgilaydi.

Harakat miqdori yillar, oylar, sutka soatlari va hafta kunlari hamda yo'lning bo'laklariga nisbatan o'zgaruvchan ko'rsatkichdir.

Nazorat savollari:

1. Transport va piyodalar harakatini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlar nimalarga

bog'liq?
2. Harakat miqdori deganda nimani tushunasiz?
3. Harakat tarkibi qanday aniqlanadi?
4. Harakat miqdori yillar, oylar, hafta kunlari, soatlar mobaynida qanday o'zgarishi mumkin?
5. Harakat tezligining qanday turlarini bilasiz?
6. Transport oqimining tezligi qanday aniqlanadi?
7. Transport oqimi zichligining turli yo'l sharoitlarida o'zgarishi qanday izohlanadi?

## 14 -mavzu. Yo'l-transport hodisalari va ularning ko'rsatkichlari

YTH ta'rifi, turlari, miqdori haqidagi ma'lumotlar. YTHni hisobga olish. YTHni tahlil qilishning vazifalari va usullari. YTH vujudga kelishida yo'l sharoitining roli. YTHni vujudga kelishida transport vositala-rini texnik holatini ta'siri. YTH vujudga kelishida haydovchilarning o'rni. YTH natijasida vujudga keluvchi zararni baholash.

**Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi.**

| | |
|---|---|
| Vaqti – 2 soat | Talabalar soni: 45-50 nafar |
| O'quv mashg'ulotining shakli | Kirish, vizual ma'ruza |
| Ma'ruza mashg'ulotining rejasi | 1. YTH to'g'risida tushuncha.<br>2. YTHni tahlil qilishning asosiy vazifalari va usullari.<br>3. YTH to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish tizimi. Yo'l-transport hodisalarini maxsus kartochkalarda va formalarda hisobga olish.<br>4. YTH vujudga kelishida avtomobilning, haydovchining va yo'l sharoitining o'rni.<br>5. YTH natijasida keladigan iqtisodiy zararlar. |
| ***O'quv mashg'ulotining maqsadi:*** "Yo'l transport hodisalari va ularning ko'rsatkichlari" mavzusini bilish usullari, bu mavzuning bugungi kundagi ahamiyati to'g'risida bilimlarni hamda to'liq tasavvurni shakllantirish. | |
| ***Pedagogik vazifalar:***<br>-mavzuning mohiyatini tushuntirish;<br>-asosiy tushunchalar bilan tanishtirish;<br>-yo'l-transport hodisa-sining kelib chiqish sababini o'rgatish;<br>-yo'l-transport hodisa-larining turlarini tushuntirish;<br>-ilmiy jihatdan yondoshish va tasavvur hosil qilish. | ***O'quv faoliyatining natijalari:*** Talaba:<br>-mavzuning mohiyati to'g'risida tushunchaga ega bo'ladi;<br>-asosiy tushunchalariga ta'rif beradi;<br>-yo'l-transport hodisalarining kelib chiqish sabablarini o'rganadi;<br>- yo'l-transport hodisalarining turlarini o'rganadi;<br>- yo'l-transport hodislarining kelib chiqishi sabablarini ilmiy jihatdan yondoshib o'rganadi va ularga misollar keltiradi;<br>-yo'l-transport hodisalari va ularning ko'rsatkichlari mavzusining bugungi kundagi ahamiyati to'g'risida tushunchaga ega bo'ladi. |

| | |
|---|---|
| O'qitish uslubi va texnikasi | Vizual ma'ruza, blits-so'rov, bayon qilish, insert, "ha-yo'q" texnikasi. |
| O'qitish vositalari | Ma'ruzalar matni, proektor, tarqatma materiallar, grafik organayzerlar. |
| O'qitish shakli | Jamoa, guruh va juftlikda ishlash. |
| O'qitish shart-sharoiti | Proektor, kompьyuter bilan jihozlangan auditoriya. |

**Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi (15-mashg'ulot)**

| Bosqichlar, vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|---|
| | **O'qituvchi** | **Talaba** |
| 1-bosqich. Kirish (10 min.) | 1.1. Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar ma'lum qilinadi. | 1.1. Eshitadi, yozib oladi. |
| 2-bosqich. Asosiy (60 min.) | 2.1. Talabalar e'tiborini jalb etish va bilim darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javob o'tkazadi:<br>-yo'l-transport hodisalarining turla-rini bilasizmi?<br>-Yo'l-transport hodisalari va ularning ko'rsatkichlari nima uchun o'rganiladi?<br>-Yo'l-transport hodisalarining kelib chiqishiga yo'l harakatining asosiy tavsiflarining qanday ta'siri bor?<br>2.2. O'qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma'ruzani bayon etishda davom etadi. Yo'l-transport hodisalari va ularning kelib chiqish sabablari bo'yicha asosiy muammo, hamda uni bartaraf etish tushunchalarini sharhlaydi.<br>2.3. Yo'l-transport hodisalarining mazmun va mohiyatini tushuntiradi.<br>2.4. Yo'l-transport hodisalariga real ko'cha-yo'l sharoitidan kelib chiqqan holda aniq misollar keltirib, ularni real hayotga bog'lab talabalarga tushuntiradi. | 2.1. Eshitadi. Navbat bilan savolarga javob beradi. O'ylaydi, javob beradi. Javob beradi va to'g'ri javobni eshitadi.<br>2.2. Sxema va jadvallar maz-munini muho-kama qiladi. Savollar berib, asosiy joyla-rini yozib oladi.<br>2.3. Eslab qoladi, yozadi. Ta'rifni yozib oladi, misol-lar keltiradi.<br>2.4. Eslab qoladi, yozadi. |
| 3-bosqich. Yakuniy (10 min.) | 3.1. Mavzuga yakun yasaydi va talabalar e'tiborini asosiy masalalarga qaratadi. Faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi. Mustaqil ish uchun vazifa: "Yo'l-transport hodisasi", "Ziddiyatli vaziyat", "Boshlang'ich faza" va "Nisbiy halokat" so'zlariga klaster tuzishni vazifa qilib beradi, baholaydi. | 3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi.<br>3.2. Topshiriq-ni yozib oladi.<br>3.3. Berilgan topshiriqni darhol baja-radi. |

## Vizual materiallar

*1-ilova*

### 1-savol: Yo'l-transport hodisasi to'g'risida tushuncha

**Avtomobil yo'llarida, shahar ko'cha va maydonlarida transport vositalarining normal harakat rejimining buzilishi oqibatida insonlar halok bo'lishiga, tan jarohati olishiga, shuningdek, transport vositalariga va undagi yuklarning zarar ko'rishiga, yo'ldagi sun'iy inshootlarning zararlanishiga yoki boshqa turdagi moddiy zararlar yetkazishga sababchi bo'luvchi halokatlarga yo'l-transport hodisasi (YTH) deyiladi. Bu ta'rifga ko'ra YTHda ikkita omil bo'lishi tavsiflidir, bular:** *insonlarning o'limi, tan jarohati yoki katta miqdordagi moddiy zarar***, shuningdek, biron-bir transport vositasining harakatda bo'lishidir.**

**YTH vujudga kelishida umumiy tizimga kiruvchi «A-H-Y-P-M» elementlaridan biri yoki bir nechtasi birgalikda normal harakat rejimini buzishga sababchi bo'lishi kuzatiladi.**

Har bir YTHda shartli ravishda uchta fazani ajratish mumkin: ***boshlang'ich***, ***kulьminatsion*** va ***yakuniy***. Ular o'zaro bog'liq bo'lib, biri ikkinchisining davomi bo'lishi mumkin.

***YTHning boshlang'ich fazasi*** deganda avtomobillarning va piyodalarning ***xavfli vaziyat arafasidagi*** harakatlanish sharoiti tushuniladi. ***Xavfli vaziyat*** deb, shunday yo'l harakati sharoiti tushuniladiki, unda harakat qatnashchilari YTHning oldini olishga imkoniyatlari yetarli, agarda tezda bu imkoniyatdan foydalanilmasa yoki ko'rilgan choralar samarasi yetarli bo'lmasa, unda avtomobillar va piyodalar ***yaqinlashuvi falokatli (avariya)*** vaziyatni vujudga keltiradi.

***Falokatli vaziyatda*** harakat qatnashchilarining YTHning oldini olish bo'yicha texnik imkoniyatlari yetarli bo'lmaydi va u sodir bo'ladi.

***YTHning kulьminatsion fazasi*** og'ir oqibatlar yuzaga kelishi bilan xarakterlanadi (transport vositalarining buzilishi, piyodalarning va haydovchilarning tan jarohati olishi yoki halok bo'lishi). Bu faza bir necha daqiqa, ob-havo yomon sharoitlarida esa bir necha daqiqalargacha davom etishi mumkin. Bunday holda asosan bir nechta transport vositasi ishtirok etadi va uni ko'pincha «zanjirli» YTH ham deyiladi.

***YTHning yakuniy fazasi*** kulьminatsion fazasidan keyin transport vositasi harakati to'xtashining oxiriga to'g'ri keladi. Ba'zi vaqtda transport vositasi harakati to'xtasa ham yakuniy faza davom etadi. Masalan, ag'darilib ketgan avtomobilda yong'in chiqish hollari.

Amaldagi me'yoriy hujjatlarga ko'ra YTH quyidagi 9 turdan iborat:

1. ***To'qnashuv***. Bunga transport vositalarining qarama-qarshi tomonidan, bir yo'nalishda yoki yon tomondan harakatlanayotgan vaqtdagi to'qnashuvi, shuningdek, temir yo'l transporti bilan avtomobil transportining to'qna-shuvi kiradi. Bu turdagi YTHga to'satdan to'xtagan transport vositasi bilan to'qnashish ham kiradi.

2. ***Ag'darilib*** (to'ntarilib) ketish. Harakatlanayotgan transport vositasi o'z turg'unligini yo'qotib ag'darilishi. Bu turdagi yo'l-transport hodisasiga to'qnashuv, to'xtab turgan transport vositalariga yoki to'siqqa urilish natijasida transport vositalarining ag'darilishi kirmaydi. Ag'darilib ketish YTHda asosan bitta transport vositasi ishtirok etadi.

3. ***Turgan transport vositasini urib ketish***. Harakatlanayotgan transport vositasining harakatlanmayotgan (V=0) transport vositasiga urilishi. Bu turdagi YTHga birdaniga (to'satdan) to'xtagan transport vositasining urilishi kirmaydi.

4. ***To'siqlarga urilish***. Transport vositalarining qo'zg'almaydigan to'siqlarga (ko'prik tayanchiga, stolba va machta tayanchiga, yo'l to'siqlariga, daraxtlarga va h.k.) urilishi.

5. ***Piyodalarni bosib (urib) ketish***. Transport vositalari piyodalarni urishi yoki piyodalar transport vositalariga urilishi, shuningdek, tashilayotgan yukdan (yog'och, truba, plita va h.k.) piyodalarning shikastlanishi ham kiradi.

6. ***Velosipedchini bosib (urib) ketish***. Transport vositasi velosipedchini bosishi (urishi) yoki velosipedchi transport vositasiga urilishi.

7. ***Aravani bosib (urib) ketish***. Harakatlanayotgan transport vositasi harakatlanayotgan aravani urib ketishi, shuningdek, bu turga transport vositasi yovvoyi yoki uy hayvonini urib ketishi ham kiradi.

8. ***Yo'lovchining yiqilishi.*** Harakatlanayotgan transport vositasidan yo'lovchining tushib qolishi yoki transport vositasi ichida keskin tormoz berish oqibatida yoxud traektoriyani o'zgartirishdan vujudga keladigan halokat.

9. ***Boshqa (qolgan) YTH.*** Bu turdagi YTHga tramvayning relьsdan chiqib transport vositasini yoki piyodalarni urishi, yuk avtomobillaridan yuk tushib ketishi natijasida bo'ladigan falokatlar, avtomobil g'ildiragi ostidan tosh yoki boshqa qattiq jismlar chiqishi natijasida jarohat olishi va h.k. kiradi.

Quyidagilar YTH sifatida hisobga olinmaydi:

- traktorlar, boshqa o'ziyurar mashinalar va mexanizmlar bilan ular mo'ljallangan asosiy ishlab chiqarish jarayonlarini (er haydash, handaqlar qazish, dalada qishloq xo'jalik mahsulotlarini yig'ish, avtokranlar yordamida amalga oshiriladigan yuk ortish - tushirish ishlari, machta tayanchlarini o'rnatish va h.k.) bajarayotgan vaqtda ro'y bergan hodisalar (ular asosan foydalanish tartiblarini va texnika xavfsizligiga rioya qilinmaganlikdan kelib chiqqan hodisalar);
- odamlar hayotidan mahrum etish yoki ular salomatligiga yoxud mulkiga zarar yetkazishga qaratilgan qasddan qilingan harakatlar natijasida vujudga kelgan hodisalar;
- jabrlanuvchining o'z joniga qasd qilishga urinishi oqibati hisoblangan hodisalar;
- tabiiy ofatlar natijasida vujudga kelgan hodisalar;
- haydovchi rulda bo'lmagan paytda xavfsizlik texnikasining buzilishi natijasida vujudga kelgan hodisalar (dvigatel dastak bilan o't oldirish yoki ulamada turgan dvigatelni o't oldirish va h.k.);
- hududi yopiq bo'lgan tashkilotlarda, aerodromlarda, harbiy qismlarda va boshqa qo'riqlanadigan ob'ektlarda vujudga kelgan hodisalar;
- sport yig'inlarini o'tkazish davrida transport vositasining nosozligi yoki haydovchi-sportchi yoki boshqa qatnashchilarning aybi bilan vujudga kelgan hodisalar;
- harakatlanayotgan transport vositalarida ularning texnik nosozligi bilan bog'liq bo'lgan yong'inlar.

***2-ilova***

**2-savol: Yo'l-transport hodisalarini tahlil qilishning asosiy vazifalari va usullari.**

Harakat xavfsizligini tashkil etish uchun aniq tadbirlar belgilashda asosiy tayanch ko'rsatma sifatida YTHni har taraflama chuqur ob'ektiv tahlil qilish natijalaridan olingan xulosalardan foydalaniladi.

YTH quyidagi vazifalarni hal qilish maqsadida tahlil qilinadi:

- harakat xavfsizligiga taalluqli «Avtomobil-haydovchi-yo'l-piyoda-muhit» tizimiga kiruvchi har bir omilning faoliyatiga tegishli tadbir va choralar ishlab chiqish uchun;

- biron-bir boshqaruv hududidagi, vazirliklardagi va ularning korxonalaridagi falokatlar ahvolini, o’zgarish mohiyatini hamda istiqboldagi o’zgarishini bashorat qilish maqsadida;

- YTHning kelib chiqish sabablarini va ularni bartaraf qilish borasida tuziladigan ko’rsatmalarni ishlab chiqish uchun;
- YTH ko’p qaytariladigan yo’l bo’laklarini aniqlash maqsadida;
- bitta yoki bir nechta bir xil YTHning vujudga kelish sabablarini aniqlash uchun;
- YTHni tahlil qilish uchun universal dastur tuzish maqsadida.

Maqsad va vazifalariga qarab YTHni tahlil qilishning ***miqdoriy***, ***sifat*** va ***topografik*** usullari mavjud. YTHni miqdoriy usul bilan tahlil qilishda halokatlarning absolyut, nisbiy va solishtirma ko’rsatkichlari o’rganiladi.

***Halokatlarning absolyut ko’rsatkichlariga*** quyidagilar misol bo’ladi: YTHning umumiy (yillik, oylik, choraklik) soni; YTHda jarohat olganlar (halok bo’lganlar) soni; jarohat olganlarning yoki halok bo’lganlarning yoshiga, kasbiga qarab YTHdagi soni; haydovchilarning aybi bilan o’lganlar, jarohat olganlar soni; avtomobil yoki ular holatining nosozligi bilan bo’lgan YTH soni va h.k.

***Nisbiy halokatlilik ko’rsatkichlari***. Nisbiy halokatlilik ko’rsatkichlarini hisoblashda bitta absolyut ko’rsatkich boshqa absolyut ko’rsatkichga nisbatan olinadi. Bunda nisbiy ko’rsatkichni umumiy ko’rinishda quyidagi formula orqali hisoblash mumkin:

$$O = KA / B$$

bu yerda: $O$ - nisbiy ko’rsatkich; $A / B$ - biron-bir absolyut ko’rsatkichlar;
$K$ - masshtabli koeffitsient.

Masalan: $A$ - YTH soni, $B$ - transport vositalari soni bo’lsa va $K$ =$10^4$ olinsa, bunda juda ko’p ishlatiladigan nisbiy ko’rsatkich YTH sonining 10 ming transport vositasiga to’g’ri keladigan hisobi kelib chiqadi. Xuddi shuningdek, 10 ming aholi soniga va boshqa hisoblar olinishi mumkin.

Yo’l sharoitlarini hisobga olishda ko’pincha ***nisbiy halokatlilik koeffitsientidan*** foydalaniladi.

Uzun bir xil geometrik elementga ega yo’l bo’laklarini hisoblashda YTH sonini 1 million avtomobil-kilometrga nisbati bilan o’lchanishi qabul qilinib, nisbiy halokatlilik koeffitsienti quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$N = \frac{10^6 Z}{365 L N}; \qquad \text{YTH soni/mln.avt.km.}$$

bu yerda: $Z$ - bir yillik halokatlar soni; $N$ - bir sutkadagi o’rtacha yillik harakat miqdori, avt/sutka; $L$ - yo’l uzunligi, km.

Juda qisqa masofada (ko’prik, yo’l o’tkazgich, chorraha va h.k.) yo’l sharoiti bilan farqlanadigan bo’laklarda nisbiy halokatlilik koeffitsienti odatda quyidagi formula bo’yicha aniqlanadi:

$$N = \frac{10^6 Z}{365 N}; \qquad \text{YTH soni/mln.avt.}$$

***Solishtirma halokatlilik ko’rsatkichi***. YTH biron-bir absolyut ko’rsatkichidan boshqa YTH qancha qismini tashkil qilishi tushuniladi va odatda foiz ko’rsatkichida keltiriladi. Masalan, jami YTH sonidan to’ntarilish (to’qnashish, piyodalarni bosib ketish yoki YTH halok bo’lganlar, jarohat ko’rganlar va h.k.) necha foizni tashkil qiladi.

YTHni tahlil qilishning ***sifat usuli*** hodisalarning nima sababdan vujudga kelganini aniqlashga qaratiladi. Bu usul bilan yo'l harakatini tashkil etuvchilar «Avtomobil-haydovchi-yo'l-piyoda-muhit» tizimidagi elementlarning qaysi birining aybi bilan yoki birgalikdagi ta'siri natijasida vujudga kelgan YTHni tahlil qilish odat tusiga kirgan. Masalan, avtomobil yo'lining ma'lum chorraha bo'lagida yo'l sharoitiga bog'liq ravishda YTH vujudga kelishi, unda piyodalarning o'rni yoki ma'lum yoshdagi haydovchilar sodir etadigan YTH turi, vaqti va h.k.

Yo'l-transport hodisalarining vujudga kelish joylarini aniq ko'rsatish uchun ***topografik usuldan*** foydalaniladi. Hozirda asosan uch turdagi topografik tahlil o'tkaziladi: xaritada, chiziqli grafikda (yo'l-ko'cha bo'yicha) va masshtabli sxemada.

SHahar, tuman yoki viloyatning ***masshtabli xaritasida*** bir yoki bir necha yillar ichida sodir etilgan YTHni ko'cha-yo'l, maydonlarda aniq joylarini shartli belgilar yordamida ko'rsatiladi. Bunday YTH xaritasi yordamida YTHni ko'p bo'ladigan joyi, turi, vaqti va hokazolar aniqlanib, ularni tahlil qilish natijalariga tayangan holda harakat xavfsizligini oshirish borasida aniq tadbirlar belgilanadi.

***YTHning chiziqli grafigi*** ko'cha va yo'lning butun uzunasi bo'yicha yoki ma'lum bo'lagi uchun xaritaga nisbatan katta masshtablarda YTHni joylashni ko'rsatadi. Masshtab katta bo'lganligi sababli YTH yo'lning qanday elementlarining kamchiligi bilan sodir bo'lganligini yoki boshqa sabablarni aniq topishda bu usul ijobiy natijalar beradi.

***YTHning masshtabli sxemasida*** yo'l chorrahasini, temir yo'l kesishmasini yoki boshqa yo'l bo'lagida bo'lgan YTHni katta masshtablarda barcha yo'l qatnashchilarini (transport vositasini, piyodani) sxematik ravishda joylashtirilib ko'rsatiladi. Sxemani tahlil qilish natijasida YTH nima sababdan vujudga kelgani va har bir ishtirokchining hodisaning oldini olish bo'yicha imkoniyatlari qay darajada ekanligi aniqlanadi. Bu sxemada transport vositalari va piyodalarning harakatlanish traektoriyalari ko'rsatilib, keyinchalik hodisa ro'y bergan joydagi yo'l sharoitini yoki harakatni tashkil etish bo'yicha o'zgartirish takliflari ishlab chiqiladi.

Haydovchilar aybi bilan sodir etilgan YTH yillar davomida o'zgarish grafigi ko'rsatilgan.




Haydovchilar aybi bilan sodir etilgan YTHning yillar davomida o'zgarishi

*3-ilova*

**3-savol: Yo'l-transport hodisalari to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish tizimi. Yo'l-transport hodisalarini maxsus kartochkalarda va formalarda hisobga olish.**

YTHni hisobga olish ishlari O'zbekiston Respublikasi hududida yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi (YHXB) xodimlari tomonidan olib boriladi. Ayrim vazirliklar, korporatsiyalar, kontsernlar va uyushmalar o'z tashkilotlariga tegishli avtotransport yoki yo'llarda sodir etilgan YTHni alohida hisob qilib boradilar, bunda ular birlamchi axborotni YHXB bo'linmalaridan oladilar. Masalan, «Toshshahartransxizmat» uyushmasi, «O'zneftgaz» korporatsiyasi avtokorxonalariga tegishli avtomobillar sodir etgan YTHni, «O'zavtoyo'l» kontserniga tegishli yo'l xo'jaliklarida esa umumfoydalanuvdagi avtomobil yo'llarida qayd etilgan YTHni hisobga olib borish bilan birgalikda, to'plangan ma'lumotlar batafsil tahlil qilinadi. SHuningdek, sog'liqni saqlash vazirligiga qarashli tibbiyot tashkilotlarida YTHda jabrlanganlar ro'yxatga olinadi.

YTHni hisobga olish tartibi va ma'lumotlar yig'ish ishlari YHXB bo'linmalarida bir xil tartib bo'yicha olib boriladi. Bu tartibga asosan hamma YTH ikki guruhga bo'linadi.

Birinchi guruhga YTHda halok bo'lganlar yoki jarohat olganlar kiradi. Bunday YTH ma'lumotlari maxsus kartochkalarda hisobga olinib, ***davlat statistika hisobiga kiritiladi***.

Agarda YTHda jarohat ko'rmasdan faqat moddiy zarar ko'rilsa yoki yengil jarohat olinsa, bunday holda YTHni ikkinchi guruhga kiritiladi. Bu xildagi YTH ***davlat statistika hisobotiga kiritilmaydi*** va ular shahar, tuman, vazirliklar darajasida ko'rib chiqiladi.

Agarda tan jarohati oluvchi kishi o'zining ish qobiliyatini yo'qotsa, kasalxonada bir sutkadan kam bo'lmagan vaqtda davolansa yoki birinchi tibbiy yordamdan keyin qatnab davolanish belgilansa, u holda ***YTHda jarohat olgan*** hisoblanadi.

YTHni hisobga olish uchun O'zbekiston Respublikasi hududida barcha YHXB xodimlari tomonidan bir xil turdagi YTH kartochkasi to'ldiriladi.

Avtotransport korxonalarida «Harakat xavfsizligi xizmati» xodimlari korxonaga tegishli bo'lgan transport vositalari sodir etgan YTHni hisobga olish, tahlil qilish va amaliy chora-tadbirlar ko'rish ishlarini olib boradilar. SHuningdek, muntazam ravishda harakatdagi transport vositalarini yo'llarda nazorat qilinib, quyidagilar aniqlanadi: tekshiruv sanasi, transport vositasi kimga tegishli, qanday rusumli, davlat raqami, harakat yo'nalishi, haydovchining ismi-sharifi, tekshiruv vaqti va joyi, yo'l varaqasi raqami, qoidabuzarlik turi, haydovchining imzosi, ko'rilgan chora va natijalar.

Yo'l xo'jaliklari o'z tasarrufida bo'lgan avtomobil yo'llarida yuz bergan (asosan yo'l sharoiti kamchiligi bilan) YTHni hisobga olib, uni ***YTH-1 formasida*** yoki alohida daftarda quyida ko'rsatilgan jadval ko'rinishida qayd etadi. YTHning oylik, choraklik va yillik ko'rsatkichlarini o'rganib, yo'l sharoitini yaxshilash bo'yicha ish rejasi tuziladi. Yo'l xo'jaliklarida YTHni to'liq hisobga olish uchun MQN 15-2007 «Avtomobil yo'llarida yo'l-transport hodisalarini hisobga olish va tahlil qilish qoidalari»da ***kartochka formasi*** tavsiya etilgan bo'lib, uni yozma ravishda yoki EHM yordamida to'latish mumkin. Bu kartochkalarning afzalligi u yoki bu ko'rsatkichlarni belgilab, hamma ma'lumotlar shaxsiy EHMga kiritiladi. Kartochka quyidagi bo'limlardan tashkil topgan: umumiy ma'lumotlar, yo'l tarxi va bo'ylama kesim bo'laklari, yo'l to'g'risidagi boshqa ma'lumotlar, yo'l qoplamasining turi, qatnov qismining holati, ob-havo to'g'risida ma'lumot, transport oqimining holati, yo'lning yorug'ligi, aholi yashovchi joyning ta'rifi, YTH sodir bo'lgan joyning ta'rifi, yo'lning holati va uning qay darajada jihozlanganligi, xulosa va yo'lning holatini yaxshilash uchun bajarilishi kerak bo'lgan tadbirlar.

***YTHni yig'ish va tahlil qilishda EHMning roli*** juda katta bo'lib, hozirda rivojlangan barcha davlatlarda YTHni yig'ish va uni tahlil etishda EHMdan foydalanish keng yo'lga

qo'yilgan. Bu maqsadda ***«Harakat xavfsizligini avtomatik axborot-qidiruv tizimi»*** tuzilgan. Bu tizim yordamida quyidagi masalalar yechiladi:

1. Davlat va har xil darajalarda YTH miqdorini pasaytirish bo'yicha dasturlar ishlab chiqish.

2. Haydovchilarga guvohnoma berishni, ularning tartib buzganliklarini, qayta imtihon topshirishini nazorat qilish (bu ish ko'pchilik shahar va viloyat miqiyosida respublikamizda yo'lga qo'yilgan).

3. Transport vositalarini qayd etish, texnik ko'rikdan o'tkazish, transport vositalari kuzovini, dvigatelini va boshqa agregatlarini hisobga olish ishlarini amalga oshirish (Respublikada bu ishlar ham qisman yo'lga qo'yilgan).

4. YTHlari to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish va uni so'ralgan tashkilotlarga tarqatish.

5. Yo'l sharoitini nazorat qilish, YTH ko'p qaytariladigan yo'l bo'laklarini aniqlash, yo'l sharoitini yaxshilash bo'yicha olib borilayotgan ishlarni nazorat qilish.

6. Yo'l harakatini boshqarishda mavjud imkoniyatlardan operativ ravishda foydalanish, avariya va tez yordam xizmatlarini boshqarish.

7. Harakat xavfsizligini vazirliklar bo'yicha nazorat qilish, avtotransport korxonalaridagi, yo'l va ko'cha bo'laklarida yuz bergan YTHni tahlil qilish.

8. Harakat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan me'yoriy hujjatlar va davlat standartlarining holatini o'rganish, ularni qayta ishlab chiqish hamda kelajakda bu ishlarni rivojlantirish borasidagi ishlarni olib borish.

9. Haydovchilarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini nazorat qilish.

***4-ilova***

## 4-savol: Yo'l-transport hodisasi vujudga kelishida transport vositasining, haydovchining va yo'l sharoitining o'rni

Statistika ma'lumotlariga ko'ra, ba'zan avtomobillarning texnik nosozligi oqibatida YTH bo'lishi qayd qilinadi. Bunda asosan transport vositasi tormozi, boshqaruv tizimi, shinasi, harakatga keltiruvchi agregat va mexanizmlari holati ko'zda tutiladi. Avtomobildagi nosoz isitish, sovutish tizimi, haydovchi o'rindig'ining noqulay holati, noto'g'ri o'rnatilgan orqa ko'rinishni tasvirlovchi oyna yoki old ko'rinish oynasi tozalagichining noto'g'ri ishlashi birinchi qarashda YTHni keltirib chiqarishga sababchi emasdek tuyuladi. Ammo bu keltirilgan kamchiliklar haydovchilar psixofizilogik holatini yomonlashtirib, oqibatda YTH kelib chiqishiga to'g'ridan-to'g'ri sabab bo'ladi. Afsuski, amaliyotda ko'pchilik hollarda bunday omillar avtomobilning texnik nosozligi emas, balki haydovchining e'tiborsizligi oqibatida kelib chiqqan deb qaraladi.

O'zbekiston Respublikasida texnik nosoz avtomobilni ishlatish oqibatida ro'y bergan YTHlari to'g'risidagi ko'p yillik ma'lumot 3.9-jadvalda keltirilgan.

YTHning avvalgi ittifoq miqiyosida tahlil qilingan natijalariga ko'ra, avtomobillarning nosozligi tufayli sodir etilgan hodisalar umumiy sonidan 3-5 % tashkil etishi aniqlangan.

Jadval

| Yillar | | 2002 | 2003 | 2004 | 2005 | 2006 | 2007 | 2008 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Texnik nosoz avtomobillar sodir etgan YTH soni | Jami, dona | 27 | 33 | 31 | 12 | 8 | 10 | 5 |
| | % hiso-bida | 0,25 | 0,31 | 0,29 | 0,11 | 0,07 | 0,08 | 0,05 |

Yo’l harakatini tashkil etishdagi «Avtomobil-haydovchi-yo’l-piyoda-muhit» tizimida harakat xavfsizligini ta’minlashning asosiy garovi - bu haydovchining yo’l harakati qoidalariga mos ravishda harakat tartibini tanlashdan iboratdir. 75÷80 % YTH haydovchilarning aybi bilan sodir etiladi. Bundan haydovchilarning mast holatda vujudga keltirgan YTHni istisno qilinsa, unda kamida 45÷50 % falokatlar haydovchining tartibsiz harakatlanishi natijasida bo’ladi.

O’zbekiston Respublikasi bo’yicha haydovchilarning aybi bilan sodir etilgan YTHning ko’p yillik ma’lumoti jadvalda keltirilgan.

Jadval

| Yillar | | 2002 | 2003 | 2004 | 2005 | 2006 | 2007 | 2008 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Haydovchilar aybi bilan YTHni soni | Jami, dona | 8644 | 8677 | 8928 | 9320 | 9234 | 9396 | 9412 |
| | % hiso-bida | 81,1 | 81,8 | 83,6 | 85,4 | 85,1 | 86.8 | 87,0 |

YTHni vujudga kelish sabablari bo’yicha mutaxassislarning fikri bilan qayd etilgan davlat statistikasidagi ma’lumotlarning farqini quyidagicha tushuntirish mumkin. Yuz bergan YTHni qayd qiladigan kartochka asosan yo’l patrul xizmati (YPX) xodimi tomonidan to’ldiriladi. Kartochka to’ldiruvchi YPX xodimlari yo’l sharoitini kompleks ravishda «A-H-Y-P-M» tizimning o’zaro bog’liqligini va har bir tizim elementlarining xususiyatlarini to’laligicha tushunmasligi natijasida sodir etilgan YTHning sababini to’g’ri ko’rsata bilmaydilar. Buning natijasida esa doim ham ro’y bergan YTHga to’g’ri ob’ektiv xulosa qilinmaydi.

Jadval

| Yillar | | 2002 | 2003 | 2004 | 2005 | 2006 | 2007 | 2008 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Yo’l sharoiti yomonligi oqibatida bo’lgan YTHlar soni | Jami, dona | 1 | 2 | 0 | 2 | 1 | 2 | 0 |
| | % hiso-bida | 0,01 | 0,02 | 0,00 | 0,02 | 0,01 | 0.02 | 0,00 |

CHet davlatlarda yo’l sharoitining yomonligi oqibatida quyidagi miqdorda YTH umumiy soniga nisbatan Angliya - 6,7 %; Ispaniya - 6,5 %; Frantsiya - 10,8 % SHvetsiya - 6,1%; Yugoslaviya - 20,4 %; Yaponiya - 17,3 % sodir etilgan.

YTHning vujudga kelishida piyodalar o’rnini alohida ta’kidlab o’tish darkor, chunki ko’pchilik hodisalarga piyodalarning avtomobil yo’llarining belgilanmagan joylardan o’tishlari, shuningdek, yo’l harakati qoidalari bo’yicha amaliy ko’nikmalari yo’qligi sabab bo’ladi. O’zbekiston Respublikasida piyodalar aybi bilan sodir etilgan YTH to’g’risidagi ma’lumotlar jadvalda keltirilgan.

**Jadval**

| Yillar | | 2002 | 2003 | 2004 | 2005 | 2006 | 2007 | 2008 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Piyodalar aybi bilan sodir etilgan YTH soni | Jami, dona | 1870 | 1666 | 1596 | 1414 | 1257 | 1230 | 1187 |
| | % hisobida | 17,5 | 15,7 | 14,9 | 12,9 | 11,6 | 11,3 | 11,0 |

*5-ilova*

## 5-savol: Yo'l-transport hodisalari natijasida keladigan iqtisodiy zararlar

Harakat xavfsizligini oshirish uchun bajariladigan ishlar ko'lamini va YTH natijasida xalq xo'jaligiga yetkaziladigan zararni aniqlash SQM 3-81 «Avtomobil yo'llarini loyihalashda yo'l-transport hodisalaridan xalq xo'jaligiga keladigan zararni hisobga olish yo'riqnomasi»ga asosan olib borilishi maqsadga muvofiq.

***YTH natijasida bo'ladigan zararni aniqlash.***

Harakat xavfsizligini yaxshilash uchun bajariladigan ishlarning ko'lamini aniqlashda YTH natijasida xalq xo'jaligiga keltirilgan zararni baholash zarur.

***Davlat statistikasiga kiritilmaydigan*** bitta YTHdan keladigan zararni quyidagi formula orqali hisoblash mumkin.

$$\Pi = S + \Pi_1 + \Pi_2$$

bu yerda: $S$ - transport vositasining, yo'l sharoitlarining yoki ortilgan yuklarning buzilishidan bo'ladigan zarar; $\Pi_1$- YTH bo'lgan joyda boshqa o'tayotgan transportlar yo'qotadigan vaqtdan va yo'lning harakat qismini tozalashga sarflanadigan harajatlar;

$\Pi_2$ - YHXB tomonidan ketadigan harajatlar.

***Davlat statistikasiga kiritiladigan*** bitta YTH bo'ladigan o'rtacha zararni quyidagi formulaga asosan aniqlash mumkin:

$$\Pi^1 = \Pi_e n_e + \Pi_o n_o + \Pi_x n_x + S_1 + \Pi_1^1 + \Pi_2^1 \text{ ; so'm}$$

bu yerda: $Ï_{å}, Ï_{0}, Ï_{x}$ - YTHda odam ishtirok etgan vaqtda yengil, og'ir jarohatlardan va halok bo'lishi natijasida xalq xo'jaligi ko'radigan zararlar; $n_{å}, n_0, n_x$ - bitta YTH o'rtacha yengil, og'ir jarohat ko'rganlar yoki halok bo'lganlar sonini hisobga oluvchi koeffitsientlar, bu koeffitsientlar shahardan tashqaridagi yo'llar uchun $n_0 = 0{,}06$, $n_0 = 0{,}758$, $n_x = 0{,}182$; $S_1, \Pi_1^1, \Pi_2^1$ - mos ravishda $S, \Pi_1, \Pi_2$ - oldingi ma'nodagi ko'rsatkichlar.

Iqtisodiy hisoblarda ***xalq xo'jaligi ko'radigan jami zararni*** quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$\Pi = 365 m_t \sum_{t=1}^{t=T_{ü}} \frac{L \cdot N_1 \cdot C_{nt7{,}5}}{(1 + E_{H\Pi})}$$

bu yerda: $m_t$ - jarohatlanish og'irligini hisobga oluvchi jamlovchi koeffitsient; $N$ - o'rtacha yillik harakat miqdori, avt/sut; $L$ - yo'l uzunligi, km; $C_{nt7{,}5}$ - 7,5 m qatnov qismiga to'g'ri keladigan zararning hisobiy miqdori, tiyin/avt-km; $E_{H\Pi}$ - har xil vaqtlarga to'g'ri keladigan harajatlarni keltirish me'yori, 0,08.

Yuqorida keltirilgan $m_t, C_{nt}, E_{H\Pi}$ qiymatlarini t yillar o'zgarishi bo'yicha «MSHN» 25-05 me'yoriy hujjatdan yangi narxlarni hisobga olgan holda qabul qilish mumkin.

## Mashg'ulot bo'yicha xulosa

Xavfsiz harakatni tashkil etishda yo'l-transport hodisalarining oldini olish va harakat xavfsizligini oshirish bo'yicha transport va piyodalar harakatini tavsiflovchi ko'rsatkichlarni tadqiq qilish birinchi navbatdagi vazifa hisoblanadi. Avtomobillarning atrof-muhitga yetkazadigan zararlari miqdori kundan-kunga oshib bormoqda, eng asosiysi esa, yo'llarda sodir etilayotgan yo'l-transport hodisalari natijasida ko'plab odamlarning jabr ko'rishlari va

hayotdan ko'z yumishlaridir. Bu esa, harakat xavfsizligini ta'minlash muammolariga o'ta jiddiy yondoshish zarur ekanligini mutaxassislar oldiga vazifa qilib qo'ymoqda:

1) Yo'l-transport hodisalarini o'rganish uchun unga ilmiy yondoshish zarur;
2) Yo'l-transport hodisalarining sodir etilishiga bog'liq barcha jarayonlarni tahlil etish zarur.

Buning uchun yo'l harakati xavfsizligi bo'yicha mutaxassislar yo'l harakatining asosiy ko'rsatkichlarini, yo'llardagi sharoitlarning transport oqimlari harakatlariga qanday ta'sir ko'rsatishlarini, transport oqimlarini boshqarishning texnik vositalari orqali yo'l harakatini boshqarish bo'yicha bilimlarga ega bo'lishlari zarur.

***6-ilova***

**Test savollari:**

1. Transport vositasining yo'ldagi qatnovi jarayonida sodir bo'lib, fukarolarning o'limi yoki ularning sog'lig'iga zarar yetishiga, transport vositalari, inshoatlar, yuklar shikastlanishiga yoki boshqa tarzda moddiy zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan hodisaga .................... deyiladi.

a) yo'l-transport hodisasi;
b) transport ishtiroki;
v) yo'l harakati xavfsizligi;
g) yo'l harakatini tashkil etish;

2. Yo'l-transport hodisasining nechta turi bor?

a) 9 ta;
b) 12 ta;
v) 10 ta;
g) 7 ta;

3. Maqsad va vazifalariga ko'ra yo'l-transport hodisalarini tahlil qilishning qanday usullari bor?

a) mikdoriy, sifat, topografik;
b) solishtirma, mikdoriy, grafik;
v) absolyut, mikdoriy;
g) absolyut, nisbiy, sifat;

4. Yo'l-transport hodisalarining necha foizi haydovchilar aybi bilan sodir etiladi?

a) 75-80 %;
b) 80-95 %;
v) 60-80- %;
g) 30-45 %;

5. Yo'l-transport hodisasi sodir bo'lganda qaysi ko'rik o'tkaziladi?

a) operativ;
b) mavsumiy;
v) nazorat;
g) kundalik;

6. YTHda xavfli vaziyat arafasidagi harakatlanish sharoiti deganda qanday faza tushuniladi?

a) YTH ni kulminatsion fazasi;
b) YTH ni boshlang'ich fazasi;
v) YTH ni yakuniy fazasi;
g) 5-faza tushuniladi;

7. YTH lar hisobga olinishiga qarab nechiga bo'linadi?

a) 2 ga;
b) 3 ga;

v) 4 ga;
g) 6 ga;
8. YTHlar sodir bo’lishiga qarab nechta fazalarga bo’linadi?
a) 2 guruhga;
b) 3 guruhga;
v) 4 guruhga;
g) 5 guruhga;
9. Barcha YTHni qaysi tashkilot tomonidan hisobga olinadi?
a) avtoulov tegishli bo’lgan tashkilot yoki korxona tomonidan;
b) avtoyo’l xo’jaligini xududiy bo’limi tomonidan;
v) YHXB tomonidan;
g) yo’l tashkilotlari tomonidan;
10. Ziddiyatli vaziyat o’zining xavflilik darajasi bo’yicha necha turga bo’linadi?
a) 3 ga;
b) 4 ga;
v) 5 ga;
g) 6 ga;

## 15 -mavzu. Piyodalar harakati xavfsizligini ta’minlash

Piyodalar harakat xafvsizligini oshirish yo’llari. Piyodalar harakatini tashkil etish tamoyillari. Piyodalar o’tish joylarida ziddiyatsiz harakatni tashkil etish.

**Ma’ruza mashg’ulotining o’qitish texnologiyasi.**

| Vaqti – 2 soat | Talabalar soni: 45-50 nafar |
|---|---|
| O’quv mashg’ulotining shakli | Kirish, vizual ma’ruza |
| Ma’ruza mashg’ulotining rejasi | 1 Piyodalar harakat xafvsizligini oshirish yo’llari.<br>2 Piyodalar harakatini tashkil etish tamoyillari.<br>3 Piyodalar o’tish joylarida ziddiyatsiz harakatni tashkil etish. |
| ***O’quv mashg’ulotining maqsadi:*** “Yo’l transport hodisalari va ularning ko’rsatkichlari” mavzusini bilish usullari, bu mavzuning bugungi kundagi ahamiyati to’g’risida bilimlarni hamda to’liq tasavvurni shakllantirish. | |

| | |
|---|---|
| ***Pedagogik vazifalar:***<br>-mavzuning mohiyatini tushuntirish;<br>-asosiy tushunchalar bilan tanishtirish;<br>-yo'l-transport hodisa-sining kelib chiqish sababini o'rgatish;<br>-yo'l-transport hodisa-larining turlarini tushuntirish;<br>-ilmiy jihatdan yondoshish va tasavvur hosil qilish. | ***O'quv faoliyatining natijalari:*** Talaba:<br>-mavzuning mohiyati to'g'risida tushunchaga ega bo'ladi;<br>-asosiy tushunchalariga ta'rif beradi;<br>-yo'l-transport hodisalarining kelib chiqish sabablarini o'rganadi;<br>- yo'l-transport hodisalarining turlarini o'rganadi;<br>- yo'l-transport hodislarining kelib chiqishi sabablarini ilmiy jihatdan yondoshib o'rganadi va ularga misollar keltiradi;<br>-yo'l-transport hodisalari va ularning ko'rsatkichlari mavzusining bugungi kundagi ahamiyati to'g'risida tushunchaga ega bo'ladi. |
| O'qitish uslubi va texnikasi | Vizual ma'ruza, blits-so'rov, bayon qilish, insert, "ha-yo'q" texnikasi. |
| O'qitish vositalari | Ma'ruzalar matni, proektor, tarqatma materiallar, grafik organayzerlar. |
| O'qitish shakli | Jamoa, guruh va juftlikda ishlash. |
| O'qitish shart-sharoiti | Proektor, kompьyuter bilan jihozlangan auditoriya. |

**Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi (16-mashg'ulot)**

| **Bosqichlar, vaqti** | **Faoliyat mazmuni** | |
|---|---|---|
| | **O'qituvchi** | **Talaba** |
| 1-bosqich.<br>Kirish<br>(10 min.) | 1.1. Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar ma'lum qilinadi. | 1.1. Eshitadi, yozib oladi. |

| | | |
|---|---|---|
| 2-bosqich. Asosiy (60 min.) | 2.1. Talabalar e'tiborini jalb etish va bilim darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javob o'tkazadi:<br>-yo'l-transport hodisalarining turla-rini bilasizmi?<br>-Yo'l-transport hodisalari va ularning ko'rsatkichlari nima uchun o'rganiladi?<br>-Yo'l-transport hodisalarining kelib chiqishiga yo'l harakatining asosiy tavsiflarining qanday ta'siri bor?<br>2.2. O'qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma'ruzani bayon etishda davom etadi. Yo'l-transport hodisalari va ularning kelib chiqish sabablari bo'yicha asosiy muammo, hamda uni bartaraf etish tushunchalarini sharhlaydi.<br>2.3. Yo'l-transport hodisalarining mazmun va mohiyatini tushuntiradi.<br>2.4. Yo'l-transport hodisalariga real ko'cha-yo'l sharoitidan kelib chiqqan holda aniq misollar keltirib, ularni real hayotga bog'lab talabalarga tushuntiradi. | 2.1. Eshitadi. Navbat bilan savolarga javob beradi. O'ylaydi, javob beradi. Javob beradi va to'g'ri javobni eshitadi.<br>2.2. Sxema va jadvallar maz-munini muho-kama qiladi. Savollar berib, asosiy joyla-rini yozib oladi.<br>2.3. Eslab qoladi, yozadi. Ta'rifni yozib oladi, misol-lar keltiradi.<br>2.4. Eslab qoladi, yozadi. |
| 3-bosqich. Yakuniy (10 min.) | 3.1. Mavzuga yakun yasaydi va talabalar e'tiborini asosiy masalalarga qaratadi. Faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi. Mustaqil ish uchun vazifa: "Yo'l-transport hodisasi", "Ziddiyatli vaziyat", "Boshlang'ich faza" va "Nisbiy halokat" so'zlariga klaster tuzishni vazifa qilib beradi, baholaydi. | 3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi.<br>3.2. Topshiriq-ni yozib oladi.<br>3.3. Berilgan topshiriqni darhol baja-radi. |

## Vizual materiallar

*1-ilova*

### 1-savol: Piyodalar harakat xafvsizligini oshirish yo'llari

X,arakat xavfsizligini oshirish maksadida axoli yashaydigan punktlarda transport vositalari va piedalarning xarakat mikdoriga karab piyodalar utish joylarining jixozlanish darajasi o'zgarib boradi (8.14-rasm). «Zebra» ko'rinishdagi piyodalar utish joyi II, III toifali yullarda avtomobillarning xarakat mikdori 200 avt/soat va undan yuqori bo'lganda piyodalar yig'ilib, yo'lni kesib o'tadigan joylarda o'rnatilishi ko'zda tutiladi.

Piyodalar utish joylarini I darajali avtomobil yo'llarida ikki satxda kurilishini ta'minlash zarur.

Piyodalar xarakatining avtomobil yulida xarakatlanayotgan transport vositalari uchun ta'sirini umuman yuk kilish maksadida ***piyodalar yo'l o'tkazgichi*** yoki ***tonnellari*** qurilishi kerak.

SHNK, 2.05.02-07 kursatmasiga asosan, piyodalar xarakat mikdori 16 darajali yullar uchun soatiga 100 odam va undan ortik va II darajali yullar uchun soatiga 250 odam va

undan ortik bulganda piyodalar (er osti yoki yer usti) yulagini loyixalash lozim. Piyodalar yulaklari loyixalangan joylarda tusikdar kuzda tutilishi zarur.

Piyodalar yul utkazgichlari yul katnov kismining tepasidan utkazilsa, kurilish oson va arzonga tushadi. Pekin piyodalar undan kam foydalaniladilar, chunki yul satxidan 5-6 m balandlikka kutarilib, sungra yana kayta tushishlari kerak. SHu sababli ***piyodalar yo'l o'tkazgichi*** asosiy yul o'ymadan o'tganda yoki yulning xarakat bilan yuklanganlik koeffitsienti juda yukori 0,7-0,9 bulganda ***itstisodiy jixatdan foydali hamda piyodalar foydalanishi yuqori bo'ladi***.

Er osti piyodalar tonnellari piyodalar tomonidan ko'p foydalaniladi, chunki yer osti tonnellarining balandligi 2-2,5 m dan oshmaydi va piyodalar tushib-chikishi yo'l o'tkazgichlariga nisbatan 2 marta oson bo'ladi. Lekin tonnellar qurilishi jixatidan birmuncha murakkab va qimmat bo'ladi.

Piyodalarning yo'l o'tkazgich va tonnellar qurilgan joylarda tartibsiz yurishlarini kamaytirish maksadida yo'l o'qi bo'yicha yoki ajratuvchi tasmada 2-gurux yo'l to'siqlarini yo'lning xar ikki tomoniga 50-100 m masofaga (xarakat miqdoriga qarab) o'rnatish zarur.

***2-ilova***

## 2-savol: Piyodalar harakatini tashkil etish tamoyillari.

***Piyodalar xarakatini tashkil etish tamoyillari.*** Piyodalar xarakatini tashkil etish avtomobil yullarini va shaxar ko'chalarini ikkita bo'lakka bo'lib olib borilishi lozim. Birinchi bo'lak chorraha va tutashma joylar, ikkinchi bo'lak chorraha va tutashmalar oralig'idagi yo'l bo'yidagi mintaqa.

Piyodalar xarakatini tashkil etish kuyidagi ***tamoyillar*** buyicha amalga oshiriladi:

I. Piyodalar transport vositalarining harakatiga ta'sir ko'rsatmay-dilar.
II. Piyodalar transport vositalarining harakatiga qisman (vakti-vakti bilan) ta'sir kursatadilar.
III. Piyodalar transport vositalarining harakatiga ta'sir ko'rsatadilar.

***Birinchi tamoyil*** talabini bajarish uchun piyodalar harakatini tashkil etishda chorraxa va tutashmalar mintakasida piyodalar yulning (kuchaning) bir tarafidan ikkinchi tarafiga utishi uchun yer osti tonneli yoki katnov kismining ustidan yul utkazgich inshootlari kuriladi. SHuningdek, ikki chorraxa oraligida piyodalar xarakatlanishi uchun yulning ikki tarafidan yoki bir tarafidan yulka belgilanib, piyodalar yulning katnov kismiga chikishini bartaraf etishi uchun tusiklar urnatiladi. Bu tamoyil buyicha piyodalar xarakatining tashkil etilishi avtomagistrallarda, gokori darajali yullarda va asosan tezyurar shaxar kuchalarida kuzda tutiladi. CHorraxada yoki tutashmada bunday xdrakatning tashkil etilishi natijasida piyodalar va transport vositalari orasida ziddiyatli vaziyat vujudga kelmaydi. Rivojlangan mamlakatlarning shaxar kuchalarida va avtomagistrallarida shu tamoyil buyicha xarakat tashkil etilgan bulib, piyodalar utish joylarida YTH kuzatilmaydi. Oxirgi yillarda Uzbekiston Respublikasining katta shaxarlarida, ayniksa, Toshkentda piyodalar uchun yer osti yullari kurilishi keng rivoj oldi. Masalan, Markaziy va Bosh universal, «Bolalar dunyosi» magazinlari, Oloy, Eski juva bozorlari, shimoliy va janubiy vokzallar xududida yer osti yullari barpo etilib, shu mintakadagi xdrakat xavfeizligi ta'minlanishi bilan birgalikda, transport vositalari urtacha tezligining oshishiga erishildi. Afsuski, kupchilik xrllarda piyodalar bunday mintakalarda yul xarakati koidalarini buzib, katnov kismida xarakatlanishi natijasida yer osti yulaklarining samaradorligi pasayishi, ayniksa, bu sutkaning korongi vaktida kuzatiladi.

***Ikkinchi tamoyil*** boshkariladigan chorraxalarda uchraydi. Bunda piyodalar xarakatini svetofor yoki tartibga soluvchi shaxe yordamida katnov kismi ustida amalga

oshiriladi. Buning uchun chorraxa yoki tutashma mintakasida yul belgi chizigi yordamida (1.14.3. belgisi) piyodalar utish joyi belgilanib, ularning xarakatini tartibga solish uchun boshka yul belgilari (1.20;5.16.1. va 5.16.2.) va piyodalar svetofori yoki transport svetoforlaridan foydalaniladi.

Xozirgi kunda Uzbekistonning kupchilik shaxarlarida piedalar xarakati shu tamoyil buyicha tashkil etilgan.

***Uchinchi tamoyil*** avtomobil yullari axoli yashash joylaridan utganda va shaxarlardagi maxalliy axamiyatdagi kuchalarda kullaniladi. Bu turdagi piyodalarning xarakatini tashkil etishda boshkarilmaydigan chorraxa va tutashmalarda piyodalarning utish joylari 1.14. yoki 1.14.2. yul belgi chizigi va 1.20; 5.16.2. yul belgilari bilan jixozlanadi. CHorraxalar va tutashmalar oraligida piedalar trotuar buylab yoki avtomobil yulining yokasidan bir yoki ikki taraflama xarakatlanishlari mumkin. Bunday xarakat tashkil kilingan chorraxalarda va yul bulaklarida piedalar transport vositalarining xarakatlanishiga xar taraflama salbiy ta'sir kursatib, kuplab YTDlar vujudga kelishiga, shuningdek, transport vositalari tezligi pasayishiga sababchi buladilar.

Aholi punktidan o'tgan yo'llarda harakatni to'g'ri tashkil kilish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish kerak:

1. Yo'l belgisini, yul belgi chizigini, yul tusigini va yunaltiruvchi kurilmalarni joylashtirish.
2. Engil va yuk avtomobillarini aloxida xarakat tasmalari buyicha xarakatlantirish.
3. Ajratuvchi tasma o'rnatish.
4. Bir tomonlama xarakatni tashkil kilish (yunalishlar bo'yicha xarakatni boshka-boshka ko'chalarda tashkil etish).
5. Sun'iy yoritishni ta'minlash.
6. Piyodalar xarakatini tashkil kilish.
7. Velosipedchilarning xarakatini tashkil kilish.

Nazorat savollari:

1. Piyodalar harakatini tashkil etishda nechta tamoyillar bo'yicha amalga oshiriladi?
2. 1-tamoyilda qanday talablar qo'yilgan ?
3. 2-tamoyilda qanday talablar qo'yilgan ?
4. 3-tamoyilda qanday talablar qo'yilgan ?
5. Qanday piyodalar o'tish joylarida ziddiyatsiz harakat tashkil etiladi
6. Harakat xavfsizligini ta'minlashda piyodalarning qanday majburyatlari belgilangan?
7. Yo'l harakat qoidalarini buzganlik bo'yicha piyodalarning javobgarligi qanday?
8. Piyodalarni harakat xavsizligini oshirishda targ'ibot ishlarini o'rni qanday?

## 16 -mavzu. Birinchi tibbiy yordam ko'rsatish

YTHda jarohatlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish. Tibbiy yordam ko'rsatish bosqichlari. Jarohatlarda va qon oqishda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish. Nafas olish va yurak urishi to'xtaganda birinchi yordam ko'rsatish.YHQB sodir etganlarning administrativ, jinoiy javobgarligi.

**Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi.**

| | |
|---|---|
| Vaqti – 2 soat | Talabalar soni: 45-50 nafar |
| O'quv mashg'ulotining shakli | Kirish, vizual ma'ruza |

| | |
|---|---|
| Ma’ruza mashg’ulotining rejasi | 1 YTHda jarohatlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko’rsatish.<br>2 Tibbiy yordam ko’rsatish bosqichlari.<br>3 Jarohatlarda va qon oqishda birinchi tibbiy yordam ko’rsatish.<br>4 Nafas olish va yurak urishi to’xtaganda birinchi yordam ko’rsatish.<br>5 YHQB sodir etganlarning administrativ, jinoiy javobgarligi. |
| ***O’quv mashg’ulotining maqsadi:*** “Yo’l transport hodisalari va ularning ko’rsatkichlari” mavzusini bilish usullari, bu mavzuning bugungi kundagi ahamiyati to’g’risida bilimlarni hamda to’liq tasavvurni shakllantirish. | |
| ***Pedagogik vazifalar:***<br>-mavzuning mohiyatini tushuntirish;<br>-asosiy tushunchalar bilan tanishtirish;<br>-yo’l-transport hodisa-sining kelib chiqish sababini o’rgatish;<br>-yo’l-transport hodisa-larining turlarini tushuntirish;<br>-ilmiy jihatdan yondoshish va tasavvur hosil qilish. | ***O’quv faoliyatining natijalari:*** Talaba:<br>-mavzuning mohiyati to’g’risida tushunchaga ega bo’ladi;<br>-asosiy tushunchalariga ta’rif beradi;<br>-yo’l-transport hodisalarining kelib chiqish sabablarini o’rganadi;<br>- yo’l-transport hodisalarining turlarini o’rganadi;<br>- yo’l-transport hodislarining kelib chiqishi sabablarini ilmiy jihatdan yondoshib o’rganadi va ularga misollar keltiradi;<br>-yo’l-transport hodisalari va ularning ko’rsatkichlari mavzusining bugungi kundagi ahamiyati to’g’risida tushunchaga ega bo’ladi. |
| O’qitish uslubi va texnikasi | Vizual ma’ruza, blits-so’rov, bayon qilish, insert, “ha-yo’q” texnikasi. |
| O’qitish vositalari | Ma’ruzalar matni, proektor, tarqatma materiallar, grafik organayzerlar. |
| O’qitish shakli | Jamoa, guruh va juftlikda ishlash. |
| O’qitish shart-sharoiti | Proektor, kompьyuter bilan jihozlangan auditoriya. |

**Ma’ruza mashg’ulotining texnologik kartasi (17-mashg’ulot)**

| Bosqichlar, vaqti | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|---|
| | **O’qituvchi** | **Talaba** |
| 1-bosqich.<br>Kirish<br>(10 min.) | 1.1. Mavzu, uning maqsadi, o’quv mashg’ulotidan kutilayotgan natijalar ma’lum qilinadi. | 1.1. Eshitadi, yozib oladi. |

| | | |
|---|---|---|
| 2-bosqich.<br>Asosiy<br>(60 min.) | 2.1. Talabalar e'tiborini jalb etish va bilim darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javob o'tkazadi:<br>-yo'l-transport hodisalarining turla-rini bilasizmi?<br>-Yo'l-transport hodisalari va ularning ko'rsatkichlari nima uchun o'rganiladi?<br>-Yo'l-transport hodisalarining kelib chiqishiga yo'l harakatining asosiy tavsiflarining qanday ta'siri bor?<br>2.2. O'qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma'ruzani bayon etishda davom etadi. Yo'l-transport hodisalari va ularning kelib chiqish sabablari bo'yicha asosiy muammo, hamda uni bartaraf etish tushunchalarini sharhlaydi.<br>2.3. Yo'l-transport hodisalarining mazmun va mohiyatini tushuntiradi.<br>2.4. Yo'l-transport hodisalariga real ko'cha-yo'l sharoitidan kelib chiqqan holda aniq misollar keltirib, ularni real hayotga bog'lab talabalarga tushuntiradi. | 2.1. Eshitadi.<br>Navbat bilan savolarga javob beradi.<br>O'ylaydi, javob beradi. Javob beradi va to'g'ri javobni eshitadi.<br>2.2. Sxema va jadvallar maz-munini muho-kama qiladi.<br>Savollar berib, asosiy joyla-rini yozib oladi.<br>2.3. Eslab qoladi, yozadi.<br>Ta'rifni yozib oladi, misol-lar keltiradi.<br>2.4. Eslab qoladi, yozadi. |
| 3-bosqich.<br>Yakuniy<br>(10 min.) | 3.1. Mavzuga yakun yasaydi va talabalar e'tiborini asosiy masalalarga qaratadi. Faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi. Mustaqil ish uchun vazifa: "Yo'l-transport hodisasi", "Ziddiyatli vaziyat", "Boshlang'ich faza" va "Nisbiy halokat" so'zlariga klaster tuzishni vazifa qilib beradi, baholaydi. | 3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi.<br>3.2. Topshiriq-ni yozib oladi.<br>3.3. Berilgan topshiriqni darhol baja-radi. |

**Vizual materiallar**

*1-ilova*

**1-savol: Birinchi tibbiy yordam ko'rsatish**

Tibbiy yordam ko'rsatish bosqichlari:

***Birinchi bosqich*** – hodisa joyida. Bu o'zi o'ziga yordam ko'rsatish va hodisa joyida bo'lgan odamlarning yordami, hamda chaqirilgan tibbiyot xodimlari ko'rsatgan yordamdan iborat.

***Ikkinchi bosqich*** – shikastlanganlarni davolash muassasasiga olib borishda yo'lda ko'rsatiladigan yordam

***Uchinchi bosqich*** – davolash muassasalaridagi yordam

*2-ilova*

**2-savol: Nafas olish to'xtab qolganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish:**

- har xil apparatlardan foydalanib sun'iy nafas yuritish;

- Bunday apparatlar bo’lmaganda og’izdan-og’izga puflash usulida sun’iy nafas oldiriladi;
- Agar nafas to’xtashi bilan birga yurak faoliyati ham to’xtasa, bu holda bir vaqtning o’zida ham sun’iy nafas oldiriladi, ham yuragi massaj qilinadi.

## Nafas olish va yurak urishi to’xtaganda birinchi yordam ko’rsatish







*3-ilova*

## 3-savol: Jarohatlanishda va qon oqishda birinchi tibbiy yordam ko’rsatish

















Qon oqishni to’xtatishning ikkita usuli bor:

- vaqtincha bog’lab qo’yish, tomirni suyakka bosib turish;
- butunlay to’xtatish, bunday qon oqishini jarrohlik yo’li bilan to’xtatiladi.

***4-ilova***

**4-savol: YHQB sodir etganlarning administrativ, jinoiy javobgarligi**

**4.1 Axloqiy javobgarlik.**

a) Haydovchi mehnat shartnomasida ko’rsatilgan vazifani bajarmagan, ichki tartib-qoidalarga rioya qilmagan, xizmat burchini o’tayotgan paytda ATXga ziyon keltirgan bo’lsa, axloqiy javobgarlikka tortiladi.

B)Mehnat intizomini buzganligi uchun ATX ma’muriyati haydovchini:

- ogohlantirishi;
- hayfsan e’lon qilishi;
- qattiq hayfsan berishi;
- maoshi past ishga o’tkazishi;
- ishdan bo’shatishilishi.

### 4.2 Moddiy javobgarlik

Haydovchining aybi bilan avtotransport xizmatigaga ziyon keltirilgan bo’l sa, u bu ziyonni qoplashi lozim. To’lov miqdori haydovchi o’rtacha maoshining uchdan bir qismidan oshmasligi kerak.

### 4.3 Ma’muriy javobgarlik

Avtotransportda yo’l qo’yilgan qoidabuzarliklar O’zbekiston Respublikasi-ning ma’muriy javobgarlik to’g’risidagi kodeksida belgilangan holatlar bo’yicha javobgarlikka tortiladi.

**28-modda.** Maxsus huquqdan maxrum qilish.

**31-modda.** Ma’muriy javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlar.

**33-modda. Ye**ngilroq ma’muriy jazo chorasining qo’llanilishi.

**36-modda.** Ma’muriy jazo qo’llanish muddatlari.

**37-modda**.Tugaganidan so’ng shaxs ma’muriy jazoga tortilmagan deb hisobla-nadigan muddat.

Avtotransport bilan bog’liq bo’lgan qoidabuzarliklar:

- ❖ Transport vositalaridan axlat yoki boshqa narsalarni tashlab yuborish;
- ❖ Transportda yong’in havfsizligi qoidalarini buzish;
- ❖ Transport vositalaridan foydalanish qoidalarini buzish;
- ❖ Ko’zgusimon va tusi o’zgartirilgan (qoraytirilgan) nostandart oynalar o’rnatilgan transport vositalaridan foydalanish;
- ❖ Transport vositasini boshqarish vaqtida haydovchilarning telefondan foydalanishi;
- ❖ Transport vositalari haydovchilarning temir yo’lning o’tish joylaridan o’tish qoidalarini buzishi;
- ❖ Transport vositalarini mast xolda boshqarish;
- ❖ Transport vositalari haydovchilarning yo’l harakati qoidalarini buzishi jabrlanuvchiga yengil tan jaroxati yoki ancha miqdorda moddiy zarar yetkazilishiga olib kelishi;
- ❖ Haydovchilarning yo’l harakati qoidalarini buzishi transport vositalarining yoki boshqa mol-mulkning shikastlanishiga olib kelishi;
- ❖ Boshqarish huquqini beruvchi hujjatlari bo’lmagan axslarning transport vositalarini boshqarishi;
- ❖ Transport vositalari haydovchilarning mastligi yoki mast emasligini aniqlash uchun tekshiruvdan o’tishdan bo’yin tovlashi;
- ❖ Yo’l transport xodisasi yuz bergan joydan ketib qolish;
- ❖ Piyodalar va yo’l harakati boshqa ishtirokchilarining harakat qoidalarini buzishi;
- ❖ Nosoz transport vositalarini yo’lga chiqarish va transport vositalarini foydalanish qoidalarini boshqacha tarzda buzish.

O’zbekiston Respublikasining ma’muriy javobgarlik to’g’risidagi kodeksining 121-131, 133-143, 147 va 148 moddalarda  o’z aksini topgan.

### 4.4 Jinoiy javobgarlik

Jinoiy javobgarlik deb davlat oldida sodir etgan jinoiy ishi uchun javob berilishiga aytiladi.

- 266-modda. Transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish.
- 268-modda. Transportning xavfsiz ishlashini ta’minlashga doir qoidalarni buzish.
- 267-modda. Transport vositasini olib qochish

## III. NAZARIY MATERIALLAR

### 1 - MAVZU: Kirish. Umumiy qoidalar. Qoidalarda qo'llaniladigan asosiy tushuncha va atamalar. Haydovchilarning umumiy majburiyatlari. Yo'l transport hodisasi sodir etgan haydovchilarning vazifalari

**.** *Tayanch iboralar. Qoidalar. Asosiy tushunchalar. Atamalar. Haydovchining majburiyatlari. YTH sodir bo'lganda haydovchining vazifalari.*

Ma'lumki, har qanday faoliyatni amalga oshirishda, uni to'g'ri tashkil qilishda biror narsaga ya'ni qandaydir qonuniyatlarga asoslanish, maqsadga erishishning yagona to'g'ri yo'li hisoblanadi. SHu o'rinda yo'l harakatini to'g'ri tashkil qilishda insoniyat tarixida juda ko'plab qoidalar ishlab chiqilgan va ular takomillashib borgan. Yo'l harakati qoidalari juda kadimga borib taqaladi. Yo'llarda birinchi transport vositalari - «izvoshlar» paydo bo'lishi bilan, ular uchun harakatlanish qoidalari ishlab chiqilgan. Keyinchalik dastlabki avtomobillar yo'lga chiqqanda, tezliklari juda past bo'lsa ham, ularni oldida bir kishi yugurib yurib yo'ldagi odamlarni ogohlantirib chetga chiqarib yurgan. Keyinchalik shu tartibda har bir davlatda o'zlarining yo'llarida harakatlanish qoidalari ishlab chiqilgan. Davlatlarning rivojlanishi ular orasidagi aloqalarni ham rivojlantirib bordi va dunyoda o'zaro hamkorlik qiladigan davlatlar o'rtasida yo'llarda harakatlanish yagona qoidalarini qo'llashni talab qila boshladi. SHunday qilib, xalqaro kelishuvlarga asos solindi va 1909 yilda birinchi xalqaro konventsiya qabul qilingan bo'lib, unda atigi 4ta yo'l belgi qabul qilingan edi:

Bular: 1) Notekis yul 2) Xavfli burilishlar 3) Temiryul kesishmasi 4) CHorraha yo'l belgilaridir.

Keyinchalik halqaro konventsiya talablari asosida «yo'llada harakatlanish qoidalari» ishlab chiqila boshladi. O'zbekistonda oxirgi yo'l harakati qoidalari 2001 yil mart oyidan kuchga kirgan.

«Yo'l harakati qoidalari»ni boblar bo'yicha o'rganib chiqamiz.
I-bob. Umumiy koidalar;

Umumiy koidalar 5 bandni o'z ichiga oladi.

1-band: Respublika yo'llarida harakatlanishning yagona tartiblarini;

2-band: Respublikadagi yo'llarda TVlarning o'ng taraflama harakati;

3-band: Yo'l harakati qatnashchilariga talablar;

4-band: Yo'l harakati qatnashchilarining vazifalari;

5-band:Qoidani yuridik himoyalaydi.

II-bob. Qoidada qo'llaniladigan asosiy tushuncha va atamalar.

Bu bob 45 asosiy tushuncha va atamalarni o'z ichiga oladi. Ular yo'l harakati qoidalarini o'rganishda muhim ahamiyatga egadir.

III-bob. Haydovchilarning umumiy majburiyatlari.

Haydovchilarni umumiy majburiyatlari 6 bandni o'z ichiga oladi.

1-band: Xaydovchining zaruriy xujjatlarini o'z ichiga oladi;

2-band: Haydovchilik guvohnomasi bo'lgan shaxsning vakolatini;

3-band: Mototsikl haydovchining huquqini;

4-band: Xalkaro yo'llarda harakatlanishni;

5-band: Haydovchini majburiyatlarini;

6-band: Haydovchilarga taqiqlangan harakatlarni.

IV-bob. YTH sodir etgan haydovchilarning vazifalari.

Ushbu bob 2 bandni o’z ichiga oladi.

1-band: YTH sodir bo’lganda qilinishi lozim bo’lgan ishlarni barchasi yoritilgan.

2-band: YTH da zarar kam miqdorda bo’lgandagi holati yoritilgan.






Nazorat savollari:

1. Umumiy qoidalarda qanday bandlar kiritilgan?
2. Qanday asosiy tushunchalar qoidalarda o’rin olgan?
3. Qanday asosiy atamalar qoidalarda o’rin olgan?
4. Haydovchilarning umumiy majburiyatlariga qanday vazifalar kiradi?
5. YTH lar sodir etilganda haydovchilarning vazifalari qanday?

**2 - MAVZU: Yo’l belgi guruhlari. Ularni yo’l-ko’cha sharoitida qo’llanilishi.**

*Tayanch iboralar. Yo’l belgilari. Ogohlantiruvchi belgilar. Imtiyoz belgilari. Taqiqlovchi belgilar. Buyuruvchi belgilar. Axborot-ishora belgilari. Servis belgilari. Qo’shimcha axborot belgilari. Belgilarni o’rnatishga qo’yiladigan talablar.*

Yo’l harakati qoidalarida 7 ta yo’l belgi guruhlari qo’llaniladi. Bular:

1. Ogohlantiruvchi belgilar
2. Imtiyoz belgilar
3. Taqiqlovchi belgilar
4. Buyuruvchi belgilar
5. Axborot – ishora belgilar
6. Servis belgilar
7. Qo’shimcha axborot belgilar

1. Ogohlantiruvchi belgilar yo’l harakati qatnashchilariga yo’lning harakatlanishda vaziyatiga qarab chora ko’rishni talab qiladigan xavfli qismlarini joylashuvi hamda ularni xususiyatlari to’tsrisida ma’lumot berish uchun qo’llaniladi.

Ogohlantiruvchi belgilar 31 ta bo’lib, ularni asosiy qismining ko’rinishi uchburchak shaklida, xoshiyasi qizil, foni oq va tasviri qora rangda berilgan bo’ladi. 1.3.1 va 1.3.2 hamda 1.31.1, 1.31.2 1.31.3 belgilarini ko’rinishi boshqa shaklda berilgan. 1.1, 1.2, 1.5-1.30 ogohlantiruvchi belgilar aholi yashaydigan joylarda xavfli joydan 50-100 metr, aholi yashaydigan joylardan tashqarida esa 150-300 metr

oldin o’rnatiladi. Zarurat bo’lganda bu belgilar 7.1.1 qo’shimcha belgida ko’rsatilgan boshqa masofada ham o’rnatilishi mumkin.

Agar nishablik va balandlik ketma-ket keladigan bo’lsa, 1.13 va 1.14 belgilari bevosita nishablik va balandlik oldiga o’rnatilishi mumkin.

Aholi yashaydigan joylardan tashqarida 1.1, 1.2, 1.9, 1.10, 1.21 va 1.23 belgilari takrorlanadi. Ikkinchi belgi yo’lning xavfli qismi boshlanishiga kamida 50 metr qolganda o’rnatiladi.

Agar qatnov qismida qisqa muddatli yo’l ishlari olib borilayotgan bo’lsa, 1.23 belgisini ish bajarayotgan joyga 10-15 metr masofa yetmasdan (7.11 qo’shimcha belgisi) o’rnatish mumkin.

1.3.1 va 1.3.2 belgilari bevosita temir yo’l kesishmasining oldiga o’rnatiladi.

2. Imtiyoz belgilari – chorrahalarda, alohida joylashgan qatnov qismlari kesishgan joylarda, shuningdek, yo’lning tor qismida yo’l harakati qatnashchilarining harakatlanishi navbatini belgilash uchun qo’llaniladi.

Imtiyoz belgilari 7 ta bo’lib, ular ko’rinishi jihatidan har xil, chunki bu belgi guruhi boshqa yo’l belgi guruhlaridan tashkil topgan. SHuning uchun ham uchburchak, to’rtburchak va doira shaklidagi ko’rinishga ega. Bu belgilar bevosita kesishma, tutashma va yo’lning tor qismlariga o’rnatiladi.

3.Taqiqlovchi belgilar – yo’l harakatiga ma’lum cheklanishlar kiritish yoki ularni bekor qilish uchun qo’llaniladi.

Taqiqlovchi belgilar 31 ta bo’lib, ularning asosiy qismining ko’rinishi doira shaklida bo’lib, hoshiyasi qizil, foni oq va tasviri qora va qizil ranglarda berilgan bo’ladi.

3.1-3.3, 3.18.1, 3.18.2, 3.19, 3.27 belgilarining belgilangan yo’nalishli transport vositalariga, 3.2-3.8 belgilari ta’sir oraligida yashovchi yoki ishlovchi fukarolarga tegishli yoxud ularga va korxonalarga xizmat qiluvchi transport vositalariga dahli yo’q. Bunday hollarda transport vositalari belgilangan joyga yaqin chorrahadan kirib yoki chiqib ketishlari kerak. Ushbu qoidalarning 28.3 bandiga binoan «Nogiron» taniqli belgisi bilan belgilangan avtomobillar va kajavali mototsikllarni boshqarayotgan nogiron haydovchilar 3.2, 3.3 va 3.28 belgilari talablaridan chetga chiqishlari mumkin. 7.18 qo’shimcha axborot belgisi bo’lganda 3.27 belgining ta’siri oraligida to’xtashga ruxsat etiladi.

3.28-3.30-belgilari taksometri ishlab turgan taksilarga dahli yo’q. 3.18.1 va 3.18.2 belgilari qatnov qismlarining qaysi kesishmasi oldiga o’rnatilsa, shu kesishmaga tadbiq etiladi. 3.16, 3.20, 3.22, 3.24, 3.26-3.30 belgilarining ta’siri belgi o’rnatilgan joydan keyingi eng yaqin chorrahagacha, chorrahasi bo’lmagan aholi yashaydigan joylarda aholi yashaydigan xududning oxirigacha, yo’lga yondosh xududlardan dala va o’rmonlarning yo’l bilan tutashgan hamda ikkinchi darajali yo’llardan chiqish joylarida, ularning oldida tegishli belgilar o’rnatilmagan bo’lsa, bu belgining ta’siri bo’lmaydi.

Aholi yashaydigan joylarga yetmay o’rnatilgan 3.24 belgining ta’siri 5.22 belgisigacha kuchini saqlaydi.

Belgilarning ta’sir doirasi:

3.16 va 3.26 belgilari 7.2.1 qo’shimcha belgisi orqali 3.20, 3.22, 3.24 belgilari 3.21, 3.23, 3.25 va 7.2.1 qo’shimcha belgi orqali.

3.27-3.30 belgilarining amal qilish oraligi 3.27-3.30 belgilari 7.2.3 qo'shimcha belgisi bilan birga takror o'rnatiladi yoki 7.2.2 bilan qo'llaniladi.

3.27 belgisi 1.4 yotiq chizitsi bilan birgalikda, 3.28 belgisi esa 1.10 yotiq chizigi bilan birgalikda qo'llanilishi mumkin, bunda belgilarning ta'sir doirasi chiziqlar uzunligi bilan aniqlanadi.

3.10, 3.27-3.30 belgilari yo'lning qaysi tomoniga o'rnatilgan bo'lsa, ularga faqat o'sha tomonda amal qilinadi.






















Nazorat savollari:
1. Yo’l belgilari nechta guruhga bo’linadi?
2. Ogohlantiruvchi belgilarga misollar keltiring.
3. Imtiyoz belgilariga misollar keltiring.
4. Taqiqlovchi belgilarga misollar keltiring.

## 3 - MAVZU:

## Yo’l belgi guruhlari. Ularni yo’l – ko’cha sharoitida qo’llash.

*Tayanch iboralar: Yo’l belgilari. Ogohlantiruvchi belgilar. Imtiyoz belgilari. Taqiqlovchi belgilar. Buyuruvchi belgilar. Axborot-ishora belgilari. Servis belgilari. Qo’shimcha axborot belgilari. Belgilarni o’rnatishga qo’yiladigan talablar.*

4. Buyuruvchi belgilar

Buyuruvchi belgilar transport vositalariga ko’rsatilgan yo’nalishda yoki faqat ma’lum yo’nalishlarda harakatlanishlari lozimligini buyuradi.

Buyuruvchi belgilar doira shakldа bo’lib, foni ko’k, tasviri oq rangda bo’ladi. Ular 8 ta bo’lib, birinchi va ikkinchi belgilar turlanishlarga ega, ya’ni 4.1.1, 4.1.2, 4.1.3, 4.1.4, 4.1.5, 4.1.6 kabi.

Belgilarni ta'sir doirasi va dahldorligi:

4.1.1-4.1.6 belgilarining belgilangan yo'nalishdagi transport vositalariga dahli yo'q.

4.1.1-4.1.6 belgilarining ta'siri qatnov qismlarining qaysi kesishmasi oldiga o'rnatilsa, shu kesishmaga tadbiq etiladi.

4.1.1 belgisi yo'l boshlanishiga o'rnatilsa, unga yaqin chorrahagacha amal qilinadi. Belgi o'ng tomonda joylashgan hovli va yo'lga tutash boshqa xududlarga burilishni taqiqlamaydi.

4.4. «Engil avtomobillar harakatlanadi». Yengil transport vositalari, avtobus, mototsikllar, to'la vazni 3,5 tonnadan oshmaydigan yuk tashuvchi transport vositalarining harakatlanishiga ruxsat etiladi.

Belgining ta'sir oralitsida yashovchi va ishlovchi fuqarolarga tegishli ularga va korxonalarga xizmat ko'rsatuvchi transport vositalariga bu belgi tadbiq etilmaydi.

Bunday hollarda transport vositalari belgilangan joyga eng yaqin chorrahadan kirib yoki chiqib ketishlari kerak.

## 5. Axborot–ishora belgilari

Axborot-ishora belgilari harakat qatnashchilariga yo'ldagi harakat tartibi xususiyatlari hamda aholi yashaydigan joylar va manzillarning joylashuvi xaqida ma'lumot berish uchun qo'llaniladi.

Axborot-ishora belgilari asosan to'tsri to'rtburchak shaklida bo'lib, foni ko'k, yashil, oq va sariq rangda bo'ladi. Tasviri esa oq va qora rangda bo'ladi. Axborot-ishora belgilari 40 ta bo'lib, ma'lum belgilar turlanadi.

Yashil fonli axborot-ishora belgilari avtomagistralga ta'luqli ekanligini bildiradi. Oq fonli axborot-ishora belgilari aholi yashash joyidaligini bildiradi. Sariq fonli axborot-ishora belgilari esa ta'mirlash ishlari ketayotgan yo'llarga o'rnatiladi.

## 6. Servis belgilari

Servis belgilari transport vositalari, yo'lovchilar va haydovchilarga xizmat ko'rsatish joylari xaqida ma'lumot berish uchun qo'llaniladi.

Servis belgilari to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'lib, foni ko'k va oq rangda, tasviri esa qora rangda berilgan bo'ladi. Servis belgilari 12 ta bo'lib, asosan bevosita joyning o'ziga o'rnatilgan bo'ladi.

## 7. Qo'shimcha axborot belgilari

Qo'shimcha axborot belgilari ular bilan birgalikda qo'llangan belgilarga aniqlik kiritish yoki ularning ta'sirini cheklash uchun qo'llaniladi.

Qo'shimcha axborot belgilari ham to'rtbo'rchak shaklida bo'lib, foni oq, tasviri qora rangda bo'ladi. Qo'shimcha axborot belgilari 18 ta bo'lib, ba'zilari turlanadi.

Qo'shimcha belgilar qaysi belgi bilan birga joriy etilsa, bevosita shu belgi tagiga joylashtiriladi. 7.2.2-7.2.4, 7.13 qo'shimcha belgilari yo'lning, yo'l yoqasining, piyodalar yo'lkasining tepasiga o'rnatilgan belgining yoniga joylashtiriladi.

Vaqtinchalik (ko'chma tirgakdagi) va doimiy belgilar mano jihatidan bir-biriga zid kelgan hollarda haydovchilar vaqtincha o'rnatilgan belgilarga amal qilishlari kerak.

Eslatma: Ogohlantiruvchi, taqiqlovchi, buyuruvchi, axborot-ishora yo'l belgilarining tagida mazkur yo'l belgisining ta'sir oraligini ko'rsatuvchi 7.2.1

qo’shimcha axborot belgisi o’rnatilgan bo’lsa, yo’l belgilarining ta’sir oraligi oxirini ko’rsatuvchi yo’l belgisi o’rnatilishi shart emas.







Nazorat savollari:
1. Buyuruvchi belgilarga misollar keltiring.
2. Axborot – ishora belgilariga misollar keltiring.
3. Servis belgilarga misollar keltiring.
4. Qo'shimcha – axborot belgilariga misollar keltiring.

## 4 - MAVZU:

## Yo'l belgi chiziqlarining guruhlari. Ularni yo'l ko'cha sharoitida qo'llanilishi.

*Tayanch iboralar. Yo'l belgi chiziqlari. Yo'l belgi chiziqlarining guruhlari. Qo'llanish sharoiti. Yotiq yo'l belgi chiziqlari. Tik yo'l belgi chiziqlari.*

Reja:
1. Yotiq chiziqlarning vazifalari va turlari.
2. Yotiq chiziqlarning farqlash belgilari.
3. Yotiq chiziqlarini qo'llanilishi.
4. Yotiq chiziqlarning vazifasi va qo'llanilishi.

Yo'l harakatini tashkil etishda yo'l belgilari bilan bir qatorda (yo'l belgi) chiziqlari ham qo'llaniladi. CHiziqlar yotiq va tik chiziqlarga bo'linadi. Yo'lning qatnov qismi yuzasidagi chiziqlar, ishoralar, yozuvlar va boshqa belgilar harakatlanish tartibini belgilaydi. Yo'l yuzasidagi yotiq chiziqlar oq va sariq rangda bo'ladi. Yotiq chiziqlar umuman soni 23 tani tashkil etadi, shundan 3 tasi sariq rangda bo'ladi. Yotiq chiziqlar ranglaridan tashqari o'lchamlari va ko'rinishi bo'yicha bir-biridan farq kilib, ma'lum vazifalarni bajaradi.

Savol:
1. Yotiq chiziqlar nima vazifani bajaradi? Yotiq chiziqlar nima uchun qo'llaniladi?

Ushbu savol berilib, auditoriyadan talabalarning fikri eshitiladi.

Javob: Ma'lumki, yo'lning qatnov qismi yuzasidagi chiziqlar, ishoralar, yozuvlar va boshqa belgilar harakatlanish tartibini belgilaydi.[1]

Yuqorida berilgan savolga javoblar eshitilib, o'qituvchi tomonidan to'ldiriladi va yotiq chiziqlar belgilangan vazifalarni bajarishi uchun turli o'lchamda, rangda bo'lishligi aytilib, ularni qaerlarda ishlatilishi tartib bilan aytib beriladi.

Qoidada belgilangan:

1.1 – chizig'i qarama-qarshi yo'nalishlarda harakatlanayotgan transport oqimlarini ajratadi, yo'lning xavfli joylaridagi harakatlanish bo'lagi chegarasini bildiradi; yo'lning kirish taqiqlangan qismini ajratadi; transport vositalarining to'xtab turish joyi chegarasini hamda avtomagistrallar qatoriga kiritilmagan yo'lnig harakatlanish qismi chegarasini bildiradi.








Nazorat savollari:

1. Nechta guruh yo'l belgi chiziqlari mavjud?
2. Yotiq yo'l belgi chiziqlari qaerlarga chiziladi?
3. Tik yo'l belgi chiziqlari qaerlarga chiziladi?
4. 1.1. raqamli o'q chizitsi nimani taqiqlaydi?
5. 1.11. raqamli yo'l belgi chizitsi qanday holatlarda qo'llaniladi?

## 5 - MAVZU:

## Piyodalarning vazifalari. Yo'lovchilarning vazifalari. Maxsus transport vositalarining imtiyozlari. Svetofor va tartibga soluvchining ishoralari.

*Tayanch iboralar. Piyodar. Piyodalarning vazifalari. Yo'lovchilar. Yo'lovchilarning vazifalari. Maxsus transport vositalari. Maxsus transport vositalarining imtiyozlari. Svetofor. Tartibga soluvchi. Tartibga soluvchining ishoralari.*

YHQda piyodalarning vazifalari bobi 8 bandni o'z ichiga oladi:
1-band. Yo'lda piyodalarni yurishi lozim bo'lgan joylar;
2-band. Piyodalarning tashkiliy jamlanmalari harakati tartibi;
3-band. Yo'lda qatnov qismidan o'tish tartibi;
4-band. Harakat tartibga solingan joylardan o'tish tartibi;
5-band. Harakat tartibga solinmagan joylardan o'tish tartibi;
6-band. Qatnov qismidagi piyoda harakatiga qo'yilgan tartiblar;
7-band. Maxsus transport vositalari yaqinlashganda piyodaga quyilgan talab;
8-band. Piyodalarga transport vositalarini kutish joylaridagi holatlarni izohlaydi.

Yo'lovchilarning vazifalari bobi 2 bandni o'z ichiga oladi:
1-band. Yo'lovchilarning majburiyatlari;
2-band. Yo'lovchilarga man qilingan harakatlar.

Maxsus transport vositalarining imtiyozi bobi 4 bandni o'z ichiga oladi:

1-band. Ko'k rangli chiroq mayoqchali maxsus transport vositalarining huquqlari;

2-3-band. Haydovchilarga Ko'k rangli chiroq mayoqchali transport vositasi yaqinlashgandagi vazifalar;

4-band. Zartsaldoq yoki sariq rangli chiroq mayoqchasi yoqilgan maxsus transport vositalarini huquqlari.

Svetofor va tartibga soluvchining ishoralari.

Svetofor va tartibga soluvchining ishoralari bobi 15 bandni o'z ichiga oladi.

1-band. Svetofor yorutslik ranglari turi va vazifasi bo'yicha svetoforning ko'rinish turlarini;

2-band. Svetoforning doirali ishoralarining ranglarini manolarini, ya'ni yashil rangni harakatlanishga ruxsat berishi va xoqazo.

3-band. Svetoforning yo'naltirish ko'rinishidagi turini;

4-band. Yashil ishoradagi qora yo'naltirgichni manosini;

5-band. Piyodalar svetoforini;

6-band. Reversiv svetoforni ishoralarini;

7-band. Tramvay va belgilangan yo'nalishdagi transport vositalari uchun mo'ljallangan T-simon svetoforni;

8-band. Temir yo'l kesishmalaridagi svetoforni;

9-band. Tartibga soluvchining ishoralarini;

10-band. Tartibga soluvchining talablarini;

11-band. Tartibga soluvchini qo'shimcha ishorasini;

12-band. Svetoforni yoki tartibga soluvchini to'xtash ishorasida to'xtash joylarini;

13-band. Sariq ishorada yoki tartibga soluvchining qo'li yuqoriga ko'tarilganda haydovchilar keskin tormoz bermay, ulgira olmasalar, harakatini davom ettirishlari mumkinligini;

14-band. Haydovchi va piyodalarni tartibga soluvchini ishoralariga har qanday sharoitda amal qilishlarini;

15-band. Temir yo’l kesishmasida qo’shimcha ravishda taqiqlovchi tovushli ishora ham berilishi mumkinligini izohlaydi.














Nazorat savollari:
1. «Piyoda» - kim?
2. Piyodalarning vazifalari nimalardan iborat?
3. «Yo’lovchi» - kim?
4. Yo’lovchilarning vazifalari nimalardan iborat?
5. Qanday transport vositalari maxsus deyiladi?
6. Maxsus transport vositalarining imtiyozlari nimalardan iborat?

7. Qanday qurilma svetofor deyiladi?
8. Tartibga soluvchining asosiy ishoralari nimalardan iborat?

## 6 - MAVZU:

### Ogohlantiruvchi va falokat ishoralari, falokat sababli to'xtash belgisining qo'llanilishi. Harakatlanishni boshlash, yo'nalishlarni o'zgartirish.

*Tayanch iboralar. Ogohlantiruvchi ishoralar falokat ishoralari. Falokatda to'xtash belgisi. Harakatlanishni boshlash. Yo'nalishni o'zgartirish.*

Yo'lning qatnov qismida transport vositalarining joylashishi. Ogohlantiruvchi va falokat ishoralari, falokat sababli to'xtash belgisining qo'llanilishi bobi 9 bandni o'z ichiga oladi:

1-band. Ogohlantiruvchi ishoralarga qanday ishoralar kirishini. Bunda burilishni ko'rsatuvchi miltillovchi chiroq, ko'k bilan beriladigan ishoralar, tovush ishoralari fara chiroqlari nazarda tutiladi;
2-3-band. Burilish ishoralarini berilish tartibini. Bunda ishorani berilish shartligi, berish va tugallash vaqtlari izohlanadi;
4-band. Harakatlanishda boshqa TVlariga xalaqit bermaslikni ta'kidlaydi;
5-band. Tovushli ishora berish holatini;
6-band. Quvib o'tishda qo'shimcha fara chirotsidan foydalnish mumkinligini;
7-band. Falokat ishorasi va uni borilish vaqtlarini;
8-band. Falokat sababli to'xtash belgisini o'rnatish holatlarini;
9-band. SHatakka olish holatida falokat sababli to'xtash belgisini qo'llashni izohlaydi.

Harakatlanishni boshlash, yo'nalishni o'zgartirish bobi 11 banddan iborat bo'lib:
1-band. Haydovchini harakatlanishini boshlashi, yoki yo'nalishni o'zgartirishga tayyorlovchi holatni izohlaydi. Ya'ni u o'zidan boshqa TV lariga xalaqit qilmayotganligiga ishonch hosil qilishi kerak;
2-band. Yondosh xududdan chiqishni;
3-band. O'rin almashtirishdagi holatni;
4-band. O'ng va chapga burilishdagi holatni izohlaydi;
5-band. O'ng va chapga burilishni amalga oshirish tartibini;
6-band. Gabarit o'lchami katta bo'lgan TVlarini burilishini amalga oshirish tartibini;
7-band. CHapga burilish va qayrilib olish tartibini belgilaydi;
8-band. O'ng qo'l qoidasiga amal qilinadigan holatni;
9-band. Tezlanish va sekinlashish bo'lagi bor yo'llarda burilish tartibini 10-band. Qayrilib olish taqiqlangan joylarni izohlaydi;
11-band. Orqaga harakatlanish tartibini belgilaydi.

Yo'lning qatnov qismida TV larining joylashuvi bobi 12 bandni o'z ichiga oladi:
1-band. Relqssiz transport vositalarining harakatlanish bo'laklarini tanlash tartibini belgilaydi.
2-band. To'rt va undan ortiq bo'lakli yo'llardagi cheklanishni;
3-band. Ikki tomonlama 3 bo'lakli yo'llarda harakatlanishni;
4-band. Harakatlanish bo'laklarini o'zgartirish holatlarini izohlaydi;
5-band. Tezligi 40 km/soatdan kam bo'lgan yo'llarning harakatlanish tartibini belgilaydi.

6-band. Tramvay izlariga chiqish holatini;
7-band. Bo’laklar chiziqlar bilan ajratilgan holatni;
8-band. Reversiv harakatlanishni yo’lga chiqish holatini;
9-band. Trotuar va piyodalar yo’lakchasiga chiqishga ruxsat etilgan holatni izohlaydi;
10-band. Oraliq masofa saqlash tartibini;
11-band. Aholi yashash joylaridan tashqarida otsir yuk tashuvchi TV haydovchilarini harakatlanish tartibini belgilaydi;
12-band. To’siq bo’lgan holatni izohlaydi.

Nazorat savollari:
1. Qanday ishoralar ogohlantiruvchi ishoralar deyiladi?
2. Qanday ishoralar falokat ishoralari deyiladi?
3. Falokat sababli qanday to’xtash belgisi qo’llaniladi?
4. Harakatlanishni boshlashda qanday qoidalar mavjud?
5. Yo’nalishni o’zgartirishda qanday qoidalar mavjud?

## 7 - MAVZU:
## Harakatlanish tezligi, quvib o’tish, to’xtash va to’xtab turish.

*Tayanch iboralar. Tezliklar. Tezlik miqdorlari. Tezlikni o’zgarishi. Quvib o’tish. To’xtash. To’xtab turish.*

***Harakatlanish tezligi bobi o’z ichiga 5 bandni oladi:***

1- band. Haydovchi sharoitlarni hisobga olgan holda transport vositasini cheklangan tezlikdan oshirmasdan boshqarishini;

2- band. Aholi yashaydigan joydagi ruxsat etilgan tezlikni;

3- band. Aholi yashaydigan joylardan tashqaridagi ruxsat etilgan tezliklarni;

4- band. Har qanday yo’llardagi haraqat tezliklarini;

5- band. Haydovchilarga taqiqlangan holatlarni izohlaydi.

***13- bob. Quvib o’tish bobi 6 bandni o’z ichiga oladi:***

1-band. Haydovchining quvib o’tish holatlarini;

2- band. Quvib o’tish shartlarini;

3- band. Quvib o’tishdagi haraqat tezligi;

4- band. Quvib o’tishni tugallagandan qeyingi holatlarni;

5- band. Quvib o’tishni taqiqlovchi holatlarni;

6- band. Aholi yashaydigan joylardan tashqaridagi yo’llarda quvib o’tish hollarini.

***14- bob. To’xtash va to’xtab turish bobi 8 bandni o’z ichiga oladi:***

1- band. Transport vositalarida yo’lning o’ng yoki chap tomonida to’xtash va to’xtab turish qoidalarini;

2- band. Transport vositalarini piyodalar haraqatiga xalaqit bermasdan yo’l yoqasida qo’yishni;

3- band. Transport vositalarini aholi yashaydigan joylardan tashqarida to’xtash va to’xtab turishi mumkinligi;

4- band. To’xtash taqiqlangan joylar:

-tonnellarda, temir yo’l kesishmalarida, piyodalar o’tish joylarida va ularga 5 metrdan kamroq masofa qolganda;

-to'xtash taqiqlangan yo'l belgisi (3.27) hamda chizitsi (1.4) ning ta'siri doirasida.

5- band. To'xtab turish taqiqlangan joylar:

- temir yo'l kesishmalariga 50 metr qolganda;

- to'xtash va to'xtab turishni taqiqlovchi yo'l belgilari (3.27-3.30) va chiziqlari (1.14-1.10) ta'sirlari doirasida.

6-band. To'xtash taqiqlangan joyda majburiy to'xtagan haydovchining ko'radigan choralari haqida;

7-band. To'xtagan transport vositalarini boshqa transport vositalari harakatiga xavf tutsdirmasligi to'tsrisida;

8- band. Transport vositasini o'z-o'zidan harakatlanishini yoki undan foydalanishni istisno qiladigan ehtiyot choralar to'tsrisida ma'lumot beradi.








Nazorat savollari:
1. Aholi yashash joylarida eng yuqori tezlik qancha?
2. Aholi yashash joylaridan tashqarida eng yuqori tezlik qancha?
3. Quvib o'tish nima?
4. Qanday holatlarda quvib o'tish taqiqlanadi?
5. Qaerlarda to'xtash man etilgan?
6. Qaerlarda to'xtab turish man etilgan?

## 8 - MAVZU:
## CHorrahalarda harakatlanish.

*Tayanch iboralar. CHorraha. Tutashma. CHorraha xududi. CHorraha turlari. CHorrahalarni jihozlash. CHorrahada o'tish tartibi.*

CHorrahalarda harakatlanish bobi 13 bandni o’z ichiga oladi va tartibga solingan chorrahalar va tartibga solinmagan chorrahalarda harakatlanish tartiblarini belgilab beradi:

1- band. CHapga yoki o’ngga burilayotgan transport vositasining haydovchisi piyodalarga yo’l berish kerakligini;

2- band. Tirbandlik tufayli to’xtashga majbur bo’lgan haydovchining vazifalarini belgilaydi;

3- band. Haydovchilarning imtiyoz belgilariga amal qilish shartlarini izohlaydi;

4-band. Svetoforning yashil ishorasida haydovchining amal qilish kerak bo’lgan shartlarni;

5-band. Svetoforning qizil ishorasida haydovchining amal qilishi kerak bo’lgan shartlarni;

6-band. Relьssiz transport vositalariga nisbatan tramvayning oldin o’tish huquqini belgilaydi;

7- band. Svetoforning ruxsat etuvchi ishorasida chorrahaga kirgan haydovchi undan chiqishda belgilangan yo’nalishda harakatni davom ettirish kerakligini;

8- band. Svetoforning ruxsat beruvchi ishorasida haydovchi chorraha orqali harakatlanishni tugallayotgan transport vositalari va qatnov qismidan tegishli yo’nalishda o’tishni tugallayotgan piyodalarga yo’l berish shartligini;

9- band. Asosiy yo’ldan kelayotgan transport vositasining haydovchisiga ikkinchi darajali yo’ldan kelayotgan transport vositasining haydovchisi yo’l berishi kerakligini izohlaydi;

10- band. Teng ahamiyatga ega bo’lgan yo’llar kesishgan chorrahada tramvay relqssiz transport vositalariga nisbatan oldin o’tish huquqiga ega ekanligini belgilaydi;

11- band. Asosiy yo’lning yo’nalishi chorrahada o’zgarganda asosiy yo’lda harakatlanayotgan haydovchilar o’zaro teng ahamiyatli yo’llar chorrahasidan o’tish qoidasiga amal qilishlari kerakligini izohlaydi;

12- band. CHapga burilishda yoki qayrilib olishda relьssiz transport vositasining haydovchisiga teng ahamiyatli yo’ldan qarama-qarshi yoki o’ngga harakatlanayotgan transport vositalariga yo’l berishi kerakligini;

13- band. Agar haydovchi o’zi harakatlanayotgan yo’lning qoplamasi bor-yo’qligini aniqlay olmasa va imtiyoz belgilari bo’lmasa, unda u o’zini ikkinchi darajali yo’lda deb hisoblash kerakligini belgilaydi.



Nazorat savollari:
1. CHorraha nima?
2. Tutashma nima?
3. CHorrahaning xududi qanday belgilanadi?
4. Qanday chorrahalar teng ahamiyatli?
5. Qanday chorrahalar teng ahamiyatsiz?
6. Qanday hollarda piyodalarga yo'l berish kerak?

## 9 - MAVZU:

## Temir yo'l kesishmalari orqali harakatlanish. Avtomagistrallarda harakatlanish. Turarjoy dahalarida harakatlanish. Tik nishablik va balandlikda harakatlanish.

*Tayanch iboralar. Temir yo'l kesishmalariga kirish to'xtash taqiqlangan holatlar. Temir yo'l kesishmasida majburiy to'xtash. Avtomagistrallarda taqiqlangan holatlar. Turar joy dahalarida taqiqlangan holatlar. Tik nishablik va tik balandlikda harakatlanishdagi talablar.*

Temir yo'l kesishmalari orqali harakatlanish bobi 5 bandni o'z ichiga oladi:

1-band. Temir yo'l kesishmalarida poezd (lokomotiv, drezina) larning imtiyozini;

2-band. Temir yo'l kesishmalariga yaqinlashayotgan haydovchiga majburiyat yuklaydi, haydovchi barcha yo'l belgi va chiziqlariga, svetafor va navbatchi ishoralariga, shlagbaum holatiga, yaqinlashib kelayotgan poezd yo'qligiga ishonch hosil qilishi shart;

3-band. Temir yo'l kesishmasiga kirish taqiqlangan holatlarni, ya'ni quyidagi xonalarda temir yo'l kesishmasiga kirish taqiqlanadi:

– Svetofor ishorasidan qat'iy nazar shlagbaum yopiq bo'lganda;

– SHlagbaumdan qat'iy nazar svetaforning taqiqlovchi ishorasida;

– Navbatchini taqiqlovchi ishorasida.

– Agar ko'rinish chegarasidagi masofada kesishmagan poezd yaqinlashib kelayotgan bo'lsa;

– Kesishmadan keyin hosil bo'ladigan tirbandlik tufayli haydovchi kesishmada to'xtashga majbur bo'lsa.

*Bundan tashqari:*

– Kesishma oldida turgan transport vositalarining qarama-qarshi harakatlanish bo'lagiga chiqib aylanib o'tishi;

– SHlagbaumni o'zboshimchalik bilan ochish;

–Kesishma orqali zanjirli qishloq xo'jalik, yo'l qurilishi mashinalari va mexanizmlarini yurib o'tishi;

– Temir yo'l boshlig'ining ruxsatisiz tezligi soatiga 8 km/soatdan kam bo'lgan transport vositasini olib o'tish taqiqlanadi.

4-band. Kesishma orqali harakatlanish taqiqlanganda to'xtash joyini belgilaydi, ya'ni haydovchi to'xtash chizitsi 2.5 raqamli belgisi yoki svetafor oldida, ular bo'lmaganda shlagbaumgacha kamida 5 m, shlagbaum bo'lmaganda esa birinchi temir yo'l iziga kamida 10 m qolganda to'xtashi kerak.

5-band. Temir yo’l kesishmasida majburan to’xtab qolgan haydovchiga majburiyat yuklaydi, ya’ni majburan to’xtab qolgan haydovchi darhol odamlarni tushirishi va kesishmani bo’shatish choralarini ko’rishi zarur. Bo’shatishni iloji bo’lmasa, ikki tomonga 1000 metrdan odam yuborishi, (agar 1 kishi bo’lsa yo’l yaxshi qo’rinmaydigan tomonga), o’zi transport vositasi yonida qolishi va umumiy xatar borligi ishorasini berishi zarur. Poezd ko’ringanda to’xtash ishorasini berib u tomonga yugurishi kerak.

– To’xtash ishorasi - qo’lni gir aylantirish.

– Umumiy xatar 1 ta uzun va 3 ta qisqa tovush ishorasi orqali beriladi.

18. Avtomagistrallarda harakatlanish bobi o’z ichiga 2 bandni oladi:

1-band. Avtomagistrallarda taqiqlangan harakatlar,ya’ni, avtomagistrallarda piyodalar, uy hayvonlari, ot aravalar, velosipedchilar, mopedlar, traktorlar va o’zi yurar mashina va mexanizmlar, texnik tavsifnomasiga yoki holatiga ko’ra tezligi soatiga 40 km/soatdan oshmaydigan transport vositalari harakatlanishi.

– Ruxsat etilgan to’la vazni 3,5 t dan ortiq bo’lgan yuk avtomobillariga birinchi va ikkinchi bo’laklardan boshqa bo’lakda harakatlanishni taqiqlaydi.

– 5,15 va 6,11 belgilar bilan belgilangan maxsus to’xtab turish maydonlaridan boshqa joylarda to’xtash.

– Ajratuvchi bo’lakning texnologik uzilish joylariga kirish va qayrilab olish.

– Orqaga harakatlanish.

– Transport vositasini boshqarishni o’rgatish.

2-band. Qatnov qismida majburiy to’xtash haydovchiga majburiyat yuklaydi. Ya’ni qatnov qismini tezroq bo’shatish chorasini ko’rish zarur.

19. Turarjoy dahalarida harakatlanish bobi 5 bandni o’z ichiga oladi:

1- band. Turarjoy dahalarida piyodaning imtiyozlari;

2- band. Turarjoy dahalarida taqiqlangan harakatlari, ya’ni:

– Transport vositasini boshqarish mashtsulotlarini o’tkazish;

– Motor ishlab turgan holda to’xtash;

– Ruxsat etilgan to’la vazni 3,5 t dan ortiq bo’lgan yuk avtomobillarning maxsus ajratilgan joyidan tashqarida to’xtatish.

3-band. Turarjoy dahalarida atrof muhitni himoyalaydi, inshoat, qurilma va o’simliklarni shikastlantirmaslik kerak.

4-band. Turarjoy dahalaridan chiqishda haydovchiga majburiyat yuklaydi, ya’ni haydovchi Turarjoy dahalaridan chiqishda boshqa harakat qatnashchilariga yo’l berishi kerak.

5-band. Ushbu bo’limdagi talablar xavfli xududlarga ham tegishli ekanligini izohlaydi.

20. Tik nishablik va balandliklarda harakatlanish bobi 3 ta bandni o’z ichiga oladi:

1- band. Harakatlanish navbatini;

2- band. Tormoz tizimi ishlamay qolganda transport vositalarini kirishi shart bo’lgan joylarni;

3- band. Ushbu joylarda uzatma yoki ilashish muftasini ajratib nishablikka harakatlanish taqiqlanishini izohlaydi.











Nazorat savollari:
1. Qanday hollarda temir yo'l kesishmasiga kirish taqiqlanadi?
2. Qanday hollarda temir yo'l kesishmalarida majburiy to'xtash kerak?
3. Qanday yo'llarni avtomagistral deyiladi?
4. Avtomagistrallarda nimalar taqiqlanadi?
5. Turarjoy dahalarida qanday yo'l belgisi o'rnatiladi?

6. Tik nishablik va tik balandlikda qanday harakatlanish kerak?

## Adabiyotlar


1. “Yo’l harakati qoidalari” Rasmiy nashr. Toshkent - 2001y.
2. «Yo’l belgilari va yo’l chiziqlari». Toshkent – 2001 y.
3. N.F.Muhitdinov, G.K.Nurmuhamedov, R.N.Dimetov «Yo’l harakati qoidalariga sharhlar». Toshkent - 2005 y.
4. N.F.Muhitdinov, A.A.Hamidullaev, B.U.Umarov. «Yo’l harakati qoidalariga sharhlar va amaliy tavsiyalar». Toshkent - 2010 y.


## 10 - MAVZU:

**Boshqarishning o’rgatish vakolati, o’rganuvchi, transport vositasida odam tashishda haydovchining vakolatlari. Odam tashish qoidalari. Odam tashishni taqiqlagan holatlar. Yuk tashish qoidalari. Yuk tashishda Yo’l harakati xavfsizligi boshqarmasidan ruxsat olish. Velosiped haydovchilariga man qilingan harakatlar.**

*Tayanch iboralar. Boshqarishning o’rgatish vakolati, o’rganuvchi, transport vositasi odam tashishda haydovchi vakolatlari. Odam tashish qoidalari. Odam tashish taqiqlangan holatlar. Yuk tashish qoidalari. Yuk tashishda DANdan ruxsat olish va velosiped haydovchilariga man qilingan harakatlar. Piyoda va haydovchilarni yo’llarda harakatlantirish qoidalari.*

Transport vositasini boshqarishni o’rgatish bobi 6 bandni o’z ichiga oladi:

1- band. Transport vositasini boshqarishni boshlash;

2- band. Yo’llarda boshqarishni o’rgatishga o’tish davri;

3- band. Yo’riqchining vakolatlari;

4- band. Haydovchilarni tayyorlashning boshlang’ich yoshlari;

5-band. Boshqarishni o’rgatishda foydalaniladigan transport vositasining jihozlanish qoidasi;

6- band. Boshqarishni o’rgatish DAN bilan kelishilgan ma’lum marshrutda amalga oshirilishi.

Odam tashish bobi 8 bandni o’z ichiga oladi.

1- band. Haydovchilarning odam tashish huquqlari;

2- band. Yuk avtomobillarda odam tashiganda avtomobilni jihozlash qoidalari;

3- band. Tashilayotgan odamlar soni;

4 - band. Harakatlanishni belgilaydi. Haydovchiga majburiyat yuklaydi.

5 – band. Yuk tashishda yukxonada odam tashishga ruxsat etilgan holat;

6 - band. Bolalarni tashish qoidalari;

7 -band. Odamlarni transport vositasiga chiqarish va tushirish qoidalari;

8 - band. Odamlarni tashish taqiqlangan holatlar;

Yuk tashish bobi 5 bandni o’z ichiga oladi:

1- band. Transport vositalarida tashilayotgan yuklarni miqdori;

2- band. Yukni tashish xavfsizligi bo'yicha haydovchiga majburiyat;

3- band. Yuk tashish ma'lum jarayonlarga amal qilish zarurligi;

4- band. Transport vositalarining gabaritlaridan chiqib turadigan yuk qoida talablari bo'yicha belgilanishi zarurligi;

5- band. Yuk tashishda DAN organlaridan ruxsat olinadigan holatlar.

Velosiped va aravalar harkatlanishi, shuningdek, xayvonlarni xaydab o'tishga doir qo'shimcha talablar bobi 9 bandni o'z ichiga oladi:

1 -band. Velosiped va aravachalarni boshqarishni boshlantsich yoshi;

2- band. Velosiped, moped va aravachalarning harakatlanish joyi;

3- band. Velosipedni jihozlanish tartibi;

4- band. Velosiped va moped haydovchilariga taqiqlangan harakatlar;

5- band. CHorrahadan tashqaridagi harakat tartibga solinmaydigan joyda velosiped haydovchilariga majburiyat yuklaydi.

6- band. Ot aravalar haydovchilariga majburiyat yuklaydi.

7- band. Haydovchilarning hayvonlarni haydab borish tartibi;

8- band. Hayvonlarni temir yo'l kesishmasidan haydab o'tish tartibi;

9- band. Hayvonlarni minib yoki haydab ketayotgan va aravani boshqarayotgan shaxslarga taqiqlangan harakatlar.

Mansabdor shaxslar va fuqarolarning yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash, transport vositalarini yo'lga chiqarish, ularga raqam va taniqlik belgilarini o'rnatish bo'yicha vazifalari bobi 10 bandni o'z ichiga oladi:

1 - band. Mexanik transport vositalarini ro'yxatdan o'tkazish muddati;

2 - band. Mexanik transport vositasi va transport vositalarida raqam belgilari qanday tartibda bo'lishi zarurligi;

3 - band. Transport vositalaridagi taniqlilik belgilarini qanday tartibda bo'lishi. Bunday avtopoezd, turumlangan bolalar guruxini tashish, boshqarishni o'rgatish, tezlik cheklangan xavfsizlikka katta o'lchamli yuk, uzun o'lchamli yuk, uzun o'lchamli tarsport vositasi, falokat sababli to'xtash, shifokor, nogiron belgilaridir.

4- band. SHatakka olishda egiluvchan ulagichli jihozlash tartibi;

5- band. Qattiq ulagichga talab;

6- Transport vositasidan foydalanish taqiqlangan hollar;

7- band. Transport vositasining texnik holatiga va ulardan foydalanishga javobgar bo'lgan mansabdor shaxslarga taqiqlangan holatlar;

8- band. Yo'llar, transport yo'llari kesishmalari va boshqa yo'l inshoatlarining holatiga javobgar bo'lgan mansabdor va boshqa shaxslarga majburiyat;

9- band. Yo'llarda ta'mirlash ishlari olib borayotgan javobgar mansabdor va boshqa shaxslarga majburiyat;

10- band. Amaldagi qonun xujjatlarida ko'zda tutilgan hollarda tegishli mansabdor va boshqa shaxslar tomonidan DAN organlari bilan kelishiladigan holatlar.






Avtotransport vositalari haydovchilarini tayyorlash vakolati

Avtomobilni boshqarish amaliy mashq ustalari lavozimiga bilimi o'rta ma'lumotdan kam bo'lmagan tegishli toifadagi avtotransport vositasida uzliksiz 3 yil (D toifasidagi transport vositasida uzliksiz 5 yil) haydovchilik faoliyatiga, shuningdek avtomobilni boshqarishni o'rgatish uslubini maxsus o'quv kurslarida tugatganligi haqidagi guvohnomaga ega bo'lgan shaxslar tayinlanadi.

Avtotransport vositalarini boshqarishni
o'rgatuvchi shaxslarning xuquqlari

Yo'l harakati qoidalarini, avtotransportni boshqarish asoslari va yo'l harakati xavfsizligi fanlaridan dars beruvchi o'qituvchilar, qo'shimcha ravishda avtotransport vositalarini boshqarish huquqini beruvchi haydovchilik guvoxnomasiga ega bo'lishlari shart. 5-yil mobaynida tegishli toifadagi transport vositalarida xaydovchi bo'lib ishlagan shaxslarga ruxsat etiladi.

Transport vositalarini boshqarishni o'rgatish

**A** toifa-14 yoshdan katta bo'lganlarga mototsikl boshqarishni o'rganishga ruxsat etiladi

**V** toifa-Engil avtomobillarni boshqarishni o'rgatish 16 yoshga to'lganlarga ruxsat etiladi

**S** toifa-Haydvchilik kursini bitirishda 18 yoshga to'lgan bo'lishi kerak

**D** toifa-Haydovchi 21 yoshga to'lgan bo'lishi kerak (bu paytda haydovchining ish staji 3 yildan kam bo'lmasligi kerak)

**E** toifa - "**VS**", "**S**" yoki "**D**" toifali haydovchilik guvohnomasiga ega bo'lgan haydovchilik ish faoliyati 3 yildan kam bo'lmagan va amaliy imtihonni topshirgan haydovchilar.

Avtotransport vositalarini
boshqarishni o'rgatuvchi shaxslarning huquqlari

Yo'l harakati qoidalarini, avtotransportni boshqarish asoslari va yo'l harakati xavfsizligi fanlaridan dars beruvchi o'qituvchilar, qo'shimcha ravishda avtotransport vositalarini boshqarish huquqini beruvchi haydovchilik guvoxnomasiga ega bo'lishlari shart. 5-yil mobaynida tegishli toifadagi transport vositalarida xaydovchi bo'lib ishlagan shaxslarga ruxsat etiladi.

Yo'lovchi tashishning aloxida shartlari- SHahar va shahar atrofida yo'lovchilar tashishda avtobusdagi yo'lovchilar soni avtobuslarning to'liq sig'imidan ortiq bo'lmasligi kerak.

- Haydovchining avtobusni boshqarish vaqti 9 soatdan ortiq bo'lganda yoki yo'lanish uzoqligi 400 km va undan ortiqni tashkil etganda avtobusda yo'lovchilar tashishni tashkil etishda avtomobilda haydovchining dam olishi uchun joy jihozlanishi uchun va qatnoviga 2 haydovchi yuborilishi kerak.

- SHaxarlararo, viloyatlararo va xalqaro yo'lanishlarda, sayoxat ekskursiya yo'lanishlarida avtobuslar harakati jadvalida avtobusni xar 1,5 soat boshqarishdan keyin haydovchining kamida 15 daqiqi yoxud 4,5 soat boshqarishdan keyin 45 daqiqa dam olishi majburiy tartibda nazarda tutiladi.
- Avtobusda harakat xavfsizligiga xavf tug'diruvchi nosozliklar paydo bo'lganda, shuningdek haydovchi o'zini yomon xis etganda avtobus harakatini darxol to'xtatilishi kerak. Bu xaqda eng yaqin avtovokzal dispeytchriga yoxud avtobus yoki haydovchini almashtirishi tashishning bajarilishi ta'minlash choralarini ko'rish majburiy bo'lgan tashuvchiga xabar qilinadi.

- Tijorat asosida yo'lovchilarga xizmat ko'rsatuvchi yengil avtomobillarni boshqarish transport vositalarini oxirgi 3 yil mobaynida uzluksiz boshqargan shaxslarga ruxsat etiladi.

Haydovchilar "V", "S" va "D" toifasidagi transport vositalarini ruxsat etilgan to'la vazni 750 kg dan ko'p bo'lmagan tirkama bilan ham boshqarishlari mumkin.

HAYDOVCHILARNING ODAM (YO'LOVCHI)
TASHISHDAGI VAKOLATLARI

Odam tashish mahsus avtobus, trolleybus va tramvaylarda belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Yuk avtomobillarida odam tashishni tashkil etishda transport vositalari o'rindiqlar bilan jixozlanganda ular bortning balandligidan 30 sm pastda bo'lishi hamda suyanchiqlarga ega bo'lib, bortlar mustaxkamlanishi kerak. SHu bilan albatta chiqish va tushish zinalari bilan jixozlanishi talab etiladi.

Tashiladigan yo'lovchilar soni toshish amalga oshiralayotgan transport vositasi uchun belgilangan sonidan oshmasligi kerak.

Harakatni boshlashdan oldin xaydovchi yo'lovchilarga avtomobillarga chiqish, undan tushi shva unga joylashish tartibi xaqida tushintirishi kerak.

Haydovchi harakatni boshlashdan oldin yo'lovchilarni havsiz tashish sharoiti ta'minlanganligiga ishonch xosil qilishi kerak.

Odam tashish uchun moslanilgan yuk avtomobillarining yuk xonasida faqat yukni kuzatib borayotgan shahslarga bortlaridan pastda maxsus ajratilgan joydagi o'rindiqlarda borishiga ruxsat etiladi.

Avtobuslarda yoki furgon-yukxonali yuk avtomobillarida bolalarni tashishda kata yoshli kuzatib boruvchi shaxs , bortli yuk avtomobilining kuzovida tashishda esa kamida ikki nafar kata yoshli kuzatib boruvchi bo'lishi shart.

Bunday transport vositalarining oldi va orqa tomoniga "Bolalar guruhini tashish " taniqlik belgisi o'rnatilishi kerak.

## ODAM TASHISHNI TAQIQLOVCHI SHARTLAR

Traktor va boshqa o'ziyurar moslamalar kabinasidan tashqarida, yuk tashiladigan tirkama, tirkama-uycha, mototsikllar tirkamasida;

Odam tashishga mo'ljallanmagan transport vositalarining kabinasidan tashqarida va transport vositasining odam tashish uchun mo'ljallanmagan boshqa qismlarida;

Tashiladigan odamlar soni transport vositasining texnik tavfsifnomasida ko'zda tutilgan miqdordan ortiq (12 ga to'lmagan bolalar hisobga olmaganda) bo'lsa;

Yo'lovchilar miqdori boshqaruvga va haydovchi o'rindig'idan ko'rinishga halaqit beradigan bo'lsa;

Engil avtomobilning oldingi o'rindig'ida va mototsikilning orqa o'rindig'ida 12 yoshga to'lmagan bolalarni tashish taqiqlanadi.

## YuK TASHISH

Tashilayotgan yukning vazni transport vositasini ishlab chiqargan korxona belgilagan miqdordan oshmasligi kerak;

Transport vositasiga yuk mustaxkam joylanishi kerakki, u xavfsiz harakatlanishga halaqit bermasin;

Yuk avtomobilining gabaritlaridan oldi yoki orqa tomonidan 1 m yoki enining chekka nuxtalaridan 0,4 m dan oshmasligi kerak;

Agar transport vositasining yuk bilan gabariti bo'yiga 4, eniga 2,5 m va bortdan orqaga 2 m dan ortiq chiqib turgan hollarda DYHXX dan ruxsatnoma olinishi shart.

Nazorat savollari:

1. Boshqarishni o'rgatish qaerlarda o'tkaziladi?
2. Necha yoshdan boshqarish huquqi beriladi?
3. Odam tashishga qanday hollarda ruxsat beriladi?
4. Odam tashishda haydovchilarning qanday vakolatlari bor?
5. Yuk tashishda nimalarga e'tibor berish kerak?
6. Yuk tashishda qay hollarda YHXB dan ruxsat olinadi?

## 11- MAVZU:

**Transport vositalaridan foydalanishni taqiqlovchi shartlar. Tormoz tizimi nosozliklari bo'yicha taqiqlovchi shartlar. Boshqaruv qurilmasi va tashqi yoritgichlar bo'yicha taqiqlovchi shartlar. Oyna tozalagich, shinalar va dvigatel bo'yicha taqiqlovchi shartlar.**

*Tayanch iboralar. Tormoz tizimi bo'yicha taqiqlangan shartlar. Boshqaruv qurilmasi va tashqi yoritgichlar bo'yicha taqiqlangan shartlar. Oyna tozalagich, shinalar va yurgizgich bo'yicha taqiqlangan shartlar.*

## TRANSPORT VOSITALARIDAN FOYDALANISHNI TAQIQLOVCHI SHARTLAR:

Tormoz tizimi, boshqaruv qurilmasi, tashqi yoritgichlar, oyna tozalagich va oyna yuvgichlar, shinalar, yurgizgich (motor), transport vositasi tuzilishining bo'lak qismlari.

### TORMOZ TIZIMI

-Tormoz tizimining tuzilishi o'zgartirilsa, ishlab chiqaruvchi korxona talablariga mos kelmasa yoki transport vositasining shu turida ko'zda tutilmagan tormoz suyuqligi yoki boshqa qismlar qo'llanilsa, transport vositasidan foydalanish ta'qiqladi;

-Tormoz tizimining samaradorligi me'yorlarini belgilaydi, ya'ni transport vositalarining turiga qarab tormoz yo'li me'yorlari o'rnatilgan. Ular ta'minlanmasa transport vositasidan foydalanish ta'qiqlanadi;

-Tormoz uzatmasidagi havo bosimini o'lchaydigan asbob (manometr) ishlamagandagi holat;

-Gidravlik tormoz uzatmasining zichligi buzilgandagi va havo siquvchi moslamada germetik yo'qolgandagi holat;

-To'xtab turish tormoz tizimi transport vositasini harakatsiz holatda ushlab tura olmagandagi holat, ya'ni:

-To'la vazndagi transport vositalarini 16% dan kam bo'lmagan qiyalikda;

-Aslahalangan yengil avtomobillar va avtobuslar 23% dan kam bo'lmagan qiyaliklarda;

- Aslahalangan holatdagi yuk avtomobillari va avtopoezdlarni.

-Qulflovchi moslama to'xtatib turish tormoz tizimining dastagi (richagi)ni ushlab tura olmagandagi holat.

### Boshqaruv qurilmasi

Boshqaruv qurilmasidagi lyuftning eng katta bo'lgandagi holati, ya'ni:

– Yengil avtomobillar va mikroavtobuslar 10°;

– Yuk avtomobillari 25°;

Boshqaruv qurilmasidagi qismlar tuzilishida ko'zda tutilmagan sezilarli o'zgarishlar bo'lgandagi, rezbali birikmalar tegishli ravishda mustahkamlanmagan holatlar;

Boshqaruv qurilmasining tuzilishida ko'zda tutilgan kuchaytirgich nosoz bo'lsa yoki umuman bo'lmagandagi holat;

Boshqaruv qurilmasida nuqsonli qismlardan foydalanish holat.

## BOSHQARUV QURILMASINING ME’YoRLARI

| T/r | Transport vositasining turi | Erkin qismlar o’rtasidagi yeyilish yig’indisi, ko’pi bilan gradus hisobida |
|---|---|---|
| 1 | Engil avtomobillar va ular asosida yaratilgan yuk avtomobillari hamda mikroavtobuslar | 10 |
| 2 | Avtobuslar | 20 |
| 3 | Yuk avtomobillari | 25 |

### Tashqi yoritgichlar

Tashqi yoritgichlar soni, turi, joylashuvi va ishlash tartibi transport vositasining tuzilishi talabiga mos kelmasa taqiqlanishi berilgan.

Yorituvchi fara nurini yo’nalishi buzilgandagi holat;

Agar tashqi yoritgichlar va nur qaytargichlar belgilangan tartibda ishlamayotgan yoki ifloslangan holat;

Yoritish asboblarida nur sochuvchi bo’lmasa yoki mos kelmaydiganidan foydalanilgandagi holat.

### Tashqi yoritgichlarni joylashtirish

Tumanga qarshi bitta yoki ikkita qizil chiroq transport vositalarining orqasiga 400-1200 mm balandlikda va to’xtatish ishorasida kamida 100 mm yaqinlikda o’rnatiladi.

Tumanga qarshi fara, orqa chiroqlar, gabarit chiroqlari va davlat raqami belgisini yorituvchi chiroqlar bir vaqtda yoqilishi kerak.

Engil transport vositasi va avtobusga bitta yoki ikkita qo’shimcha qizil rangli. Tormoz berganda yonuvchi chiroqni 1250-1400 mm balandlikda o’rnatishga ruxsat etiladi.

### Oyna tozalagich va oyna yuvgichlar

Oyna tozalagich belgilangan tartibda ishlamayotgandagi holat.

Transport vositasining tarkibida ko’zda tutilgan oyna yuvgich ishlamayot-gandagi holat.

### SHinalar

Transport vositalarining shinalari naqshlari qoldiq izlarining me’yorini belgilaydi, ya’ni:

– Yengil avtomobillarda, 1,6 mm dan kam.
– Yuk avtomobillarida 1,0 mm dan kam,
– Avtobuslarda 2,0 mm dan kam.
– Mototsikl va mopedlarda 0,8 mm dan kam bo’lmasligi kerak.

SHinalarning ba’zi joylari shikastlangandagi holat;

Qo’shaloq shinalar orasida xavf-xatar tug’diruvchi begona jismlar kirib qolgandagi holat;

SHina o’lchamlari yoki unga cheklangan og’irlik transport vositasining turiga mos kelmagandagi holat;

Transport vositasining bitta o’qiga diagonal va radial, shuningdek, har xil naqshli shinalar o’rnatilgan bo’lgandagi holat;

SHaharlararo qatnaydigan avtobusning oldingi o’qiga naqshi qayta tiklangan shina, boshqa o’qiga esa ikkinchi marta ta’mirlash yo’li bilan tiklangan shina o’rnatilgandagi holat;

Engil avtomobillar yoki avtobuslarning oldingi o’qiga ikkinchi marta ta’mirlash yo’li bilan tiklangan shinalar o’rnatilgan bo’lgandagi holat.

Transport vositalaridan foydalanishni taqiqlaydigan shartlar YHQning
3-ilovasida berilgan bo’lib, 7 bobni o’z ichiga oladi:

1-bob. Tormoz tizimi bo’lib, 7 band;

2-bob. Boshqaruv qurilmasi. 4 band;

3-bob. Tashqi yoritgichlar. 4 band;

4-bob. Oyna tozalagich va oyna yuvgichlar. 2 band;

5-bob. SHinalar. 7 band;

6-bob. Yurgizgich (motor). 5 band;

7-bob. Transport vositasi tuzilishining bo’lak qismlari. 15 band.

1-bob. 1-bandi. Tormoz tizimining tuzilishi o’zgartirilsa, ishlab chiqaruvchi korxona talablariga mos kelmasa, yoki transport vositasining shu turida ko’zda tutilmagan tormoz suyuqligi yoki boshqa qismlar qo’llanilsa, transport vositasidan foydalanish taqiqlanadi;

2-band. Tormoz tizimining samaradorligi me’yorlarini belgilaydi, ya’ni transport vositalarining turiga qarab tormoz yo’li me’yorlari o’rnatilgan. Ular ta’minlanmasa transport vositasidan foydalanish taqiqlanadi.

3-band. Gidravlik tormoz uzatmasining zichligi buzilgandagi va havo siquvchi moslamada germetik yo’qolgandagi holat;

5-band. Tormoz uzatmasidagi havo bosimini o’lchaydigan asbob (manometr) ishlamagandagi holat;

6-band. To’xtab turish tormoz tizimi transport vositasini harakatsiz holatda ushlab tura olmagandagi holat,ya’ni:

– To’la vazndagi transport vositalarini 16% dan kam bo’lmagan qiyalikda.

– Aslahalangan yengil avtomobillar va avtobuslar 23% dan kam bo’lmagan qiyaliklarda.

- Aslahalangan holatdagi yuk ovlari va avtopoezdlarni

7-band. Qulflovchi moslama to’xtatib turish tormoz tizimining dastagi (richagi)ni ushlab tura olmagandagi holat;

2-bob. 1-band. Boshqaruvchi qurilmasidagi eng katta lyuftni bo’lgandagi holat. ya’ni:

– Yengil avtomobillar va mikroavtobuslar 10°

– Yuk avtomobillari 25°

2-band. Boshqaruv qurilmasidagi qismlar tuzilishida ko'zda tutilmagan sezilarli o'zgarishlar bo'lgandagi, rezbali birikmalar tegishli ravishda mustahkamlanmagan holatlar;

3-band. Boshqaruv qurilmasining tuzilishida ko'zda tutilgan kuchaytirgich nosoz bo'lsa yoki umuman bo'lmagandagi holat;

4-band. Bosharuv qurilmasida nuqsonli qisimlardan foydalanish holat;

3-bob. 1 band. Tashqi yoritgichlar soni, turi, joylashuvi va ishlash tartibi transport vositasining tuzilishi talbiga mos kelmasa taqiqlanishi berilgan.

2-band. Yorituvchi fara nurini yo'nalishi buzilgandagi holat;

3-band. Agar tashqi yoritgichlar va nur qaytargichlar belgilangan tartibda ishlamayotgan yoki ifloslangan holat;

4-band. Yoritish asboblarida nur sochuvchi bo'lmasa yoki mos kelmaydiganidan foydalanilgandagi holat.

4-bob. 1-band. Oyna tozalagich belgilangan tartibda ishlamayotgandagi holat;

2-band. Transport vositasining tarkibida ko'zda tutilgan oyna yuvgich ishlamayotgandagi holat;

5-bob, 1-band. Transport vositalarining shinalari naqshlari qoldiq izlarining me'yorini belgilaydi, ya'ni:

– Yengil avtomobillarda, 1,6 mm dan kam.

– Yuk avtomobillarida 1,0 mm dan kam,

– Avtobuslarda 2,0 m dan kam.

– Mototsikl va mopedlarda 0,8 mm dan kam bo'lmasligi kerak.

2-band. SHinalarning ba'zi joylari shikastlangandagi holat;

3-band. Qo'shaloq shinalar orasida xavf-xatar tutsdiruvchi begona jismlar kirib qolgandagi holat;

4-band. SHina o'lchamlari yoki unga cheklangan otsirlik transport vositasining turiga mos kelmagandagi holat;

5-band. Transport vositasining bitta o'qiga diagonal va radial, shuningdek, har xil naqshli shinalar o'rnatilgan bo'lgandagi holat;

6-band. SHaharlararo qatnaydigan avtobusning oldingi o'qiga naqshi qayta tiklangan shina, boshqa o'qiga esa ikkinchi marta ta'mirlash yo'li bilan tiklangan shina o'rnatilgandagi holat;

7-band. Yengil avtomobillar yoki avtobuslarning oldingi o'qiga ikkinchi marta ta'mirlash yo'li bilan tiklangan shinalar o'rnatilgan bo'lgandagi holat;

6-bob. 1-band. Ishlatilgan gazlardagi zaharli moddalar me'yoridan ortiq bo'lsa.

2-band. Yoniltsi uzatish tizimi jips(zich)ligi bo'lmasa.

3-band. Radio to'lqinlaridagi shovqinni so'ndiruvchi moslamalar bo'lmasa.

4-band. Ishlatilgan gazlarni chiqarish tizimi buzuq bo'lsa.

5-band. DAN organi ruxsatisiz yurgizgich tuzilishiga o'zgartirish kiritilgan bo'lsa boshqa turdagi yoniltsi ishlatish uchun qo'shimcha moslama va jixozlar o'rnatilgan bo'lsa, bunday TV laridan foydalanishni taqiqlanishini izohlaydi.

Transport vositalari quyidagilar bilan jihozlanmagan bo'lsa:

– avtobuslarda tibbiyot qutichasi (aptechka), favqulodda holatlarda oynani sindirish uchun foydalanadigan bolg’acha, o’t o’chirgich, majburiy to’xtaganini bildiruvchi belgi (miltillovchi qizil chiroq);

– mikroavtobus, yuk va yengil avtomobillarda tibbiyot qutichasi (aptechka), o’t o’chirgich, majburiy to’xtaganini bildiruvchi belgi (miltillovchi qizil chiroq);

– ishlab chiqargan korxona tomonidan nazarda tutilmagan va belgilanmagan joyda antenna, sirena, ratsiya, tovush chiqarish moslamalar, yoritgichlar va har xil bezaklar tegishli ruxsatsiz o’rnatilsa;

– to’la vazni 3,5 tonnadan ortiq bo’lgan yuk avtomobillarida va to’la vazni 5 tonnadan ortiq bo’lgan avtobuslarda tisarilishga qarshi tirgak (boshmoq);

– avtopoezdlar, tirkamalar, traktorlar, aravalar va boshqa o’ziyurar mashinalarda tashqi yorug’likni qaytaruvchi (qizil-oq rangli) xavfsizlik moslamalari;

– kajavali mototsikllarda tibbiyot qutichasi, falokat sababli to’xtashga majbur bo’lganini bildiruvchi belgi.






Nazorat savollari:

1. Qanday holatlarda tormoz tizimidan foydalanish taqiqlanadi?
2. Qanday holatlarda yorigichlardan foydalanish taqiqlanadi?
3. Qanday holatlarda oyna tozalagichlardan foydalanish taqiqlanadi?
4. Qanday holatlarda shinalardan foydalanish taqiqlanadi?
5. Qanday holatlarda rul boshqarmasidan foydalanish taqiqlanadi?

## 12-MAVZU.

**O’zbekiston Respublikasining “Yo’l harakati xavfsizligi”, “Avtomobil yo’llari”, “Avtomobil transporti”, “SHahar yo’lovchi transporti” to’g’risidagi qonunlari. 13508-74, 10807-78, 25695-83, 26804-86, 23457-86 , O’z Dst 1057-2004, O’z Dst 1058-2004 Davlat namunalari.**

**REJA:**

1. *O’zbekiston Respublikasining “Yo’l harakati xavfsizligi” to’g’risidagi qonuni.*
2. *O’zbekiston Respublikasining “Avtomobil yo’llari” to’g’risidagi qonuni.*
3. *O’zbekiston Respublikasining “Avtomobil transporti” to’g’risidagi qonuni.*
4. *O’zbekiston Respublikasining “SHahar yo’lovchi transporti” to’g’risidagi qonuni.*

***Tayanch so’zlar va iboralar:*** *qonun; me’yoriy hujjatlar; yo’l; yo’l harakati; harakat qatnashchisi; yo’l-transport hodisasi; davlat namunasi; SHNQ; MQN; konventsiya.*

O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari yo’llarda harakatni amalga oshirish, xavfsizlikni ta’minlash jarayonida vujudga keladigan barcha ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish uchun asos bo’lib xizmat qiladi. Harakat xavfsizligini ta’minlash yo’nalishdagi me’yoriy hujjatlar O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi [19] talablariga muvofiq ravishda ishlab chiqilgan.

Hozirgi kunda “Yo’l harakati xavfsizligi to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi qonuni (1999 yil 19 avgust O’zbekiston Respublikasi Oliy majlisining XV-sessiyasida qabul qilingan), harakat xavfsizligining huquqiy mezonini ta’minlovchi asosiy me’yoriy hujjat bo’lib xizmat qiladi. Bu qonun yo’l harakati xavfsizligi sohasida yuzaga keluvchi munosabatlarni tartibga solish hamda fuqarolarning hayoti, sog’ligi va mol-mulkini muhofaza etishni ta’minlashga, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlari, shuningdek, atrof-muhitni himoya etishga qaratilgan. Qonun quyidagi 24 moddadan tashkil topgan: Qonuning maqsadi; asosiy tushunchalar; qonun hujjatlari; davlat boshqaruvi; (Vazirlar Mahkamasi, Hokimiyatlar, avtomobil va daryo transporti agentligi, yo’l xo’jaligi, ichki ishlar vazirligi) soha vakolatlari; transport vositalari egalarining majburiyatlari; yo’llarga doir talablar; transport vositalariga doir talablar; transport vositalaridan foydalanuvchilarga talablar; yo’l harakati xavfsizligini tibbiy jihatdan ta’minlash; tashkil etish; yo’l harakati qatnashchilarining huquqlari va majburiyatlari; transport vositalarini boshqarish huquqi; haydovchilarni tayyorlashga doir talablar; boshqarish huquqining bekor qilinishi; qonun buzganlik uchun javobgarlik.

Yo’l harakati xavfsizligi to’g’risidagi qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qabul qilingan:

***Yo’l*** – transport vositalari qatnovi uchun qurilgan yoki moslashtirilgan va xuddi shu maqsadda foydalanishga yer mintaqasi yoxud sun’iy inshoot yuzasi;

***Yo'l harakati*** – odamlar va yuklarni transport vositalari yordamida yoki bunday vositalarsiz yo'llar doirasida harakatlanishi jarayonida yuzaga keluvchi munosabatlar majmui;

***Yo'l harakati katnashchisi*** – yo'l harakati jarayonida transport vositasining haydovchisi, yo'lovchisi yoki piyoda tariqasida bevosita ishtirok etayotgan shaxs;

***Yo'l harakati xavfsizligi*** – yo'l harakati katnashchilarning yo'l–transport hodisalari va ularning oqibatlaridan himoyalanganlik darajasini aks ettiruvchi yo'l harakati holati;

***Yo'l-transport hodisasi*** – transport vositasining yo'ldagi qatnovi jarayonida sodir bo'lib, fuqarolarning o'limi yoki ularning sog'ligiga zarar yetishiga, transport vositalariga, inshootlar, yuklar shikastlanishiga yoki boshqa tarzda moddiy zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan hodisa:

***Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash*** **-** yo'l-transport hodisa-larining yuzaga kelish sabablarining oldini olishga, bunday hodisalar oqibatlarining og'irligini yengillashtirishga qaratilgan faoliyat;

**Transport vositasi** – odamlarni, yuklarni tashishga yoki maxsus ishlarni bajarishga mo'ljallangan qurilma.

O'zbekiston Respublikasi hududida harakatlanish xavfsizligini ta'minlash yo'l-transport hodisalarning oldini olish va bu borada yagona davlat siyosatini yuritish, yo'l harakati qoidalarini xalqaro «Yo'l harakati haqidagi» Konventsiya talablariga muvofiqlashtirish maqsadida hamda «Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida"gi qonunning 5-moddasiga asosan Vazirlar Mahkamasi muntazam ravishda «Yo'l harakati qoidalari»ni ko'rib chiqib, takomillashtirilgan variantini tasdiqlaydi. Hozirgi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 11 dekabr 472-sonli qaroriga asosan «Yo'l harakati qoidalari» 2001 yil 1 martdan e'tiboran amalga kiritildi.

«Yo'l harakati qoidalari» asosida vazirliklar, davlat qo'mitalari, korporatsiyalar, uyushmalar, kontsernlar va boshqa tashkilotlar va muassasalar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar kengashi, viloyatlar, shahar hokimliklari yo'l harakatini tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan barcha ishlarni amalga oshirish chora-tadbirlarini belgilaydilar, hamda u yo'l harakati tartiblarini belgilovchi asosiy hujjat bo'lib hisoblanadi.

Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashda 2007 yil 29 iyunda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasinig «Avtomobil yo'llari» to'g'risidagi qonuni katta ahamiyatga ega. Qonun O'zbekiston Respublikasida avtomobil yo'llarini rivojlantirish va ulardan foydalanish hamda harakat xavfsizligini ta'minlash borasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning huquqiy asoslarini belgilab bergan bo'lib, 6 ta bob va 29 moddadan iborat.

Birinchi bob "Umumiy qoidalar"da qonunning maqsadi, "Avtomobil yo'llari" to'g'risidagi Qonun hujjatlari, asosiy tushunchalar to'g'risidagi moddalar keltirilgan. Ikkinchi bob - "Avtomobil yo'llari sohasini boshqarish"da avtomobil yo'llari sohasida davlat boshqaruvi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining avtomobil yo'llari sohasidagi vakolatlari, maxsus organning vakolatlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining avtomobil sohasidagi vakolatlari to'g'risida tushuntirishlar berilgan. Uchinchi bob - "Avtomobil yo'llarini tasniflash va ularning toifalari"da avtomobil yo'llarini tasniflash, umumiy foydalanishdagi avtomobil

yo'llari, shaharlar va boshqa aholi punktlarining ko'chalari, xo'jalik avtomobil yo'llari, avtomobil yo'llarining toifalari haqida batafsil tushuntirishlar keltirilgan. To'rtinchi bob - "Avtomobil yo'llarini moliyalashtirish, qurish va saqlash»da avtomobil yo'llarini moliyalashtirish, avtomobil yo'llarini loyihalash, qurish va rekonstruktsiya qilish, avtomobil yo'llarini ta'mirlash va saqlash, yo'l tashkilotlarining huquq va majburiyatlari to'g'risidagi moddalar keltirilgan. Beshinchi "Avtomobil yo'llaridan foydalanish" bobida avtomobil yo'llaridan foydalanuvchilarning huquqlari, majburiyatlari, javobgarligi, tartibi, avtomobil yo'llaridan ularning asosiy vazifasi bilan bog'liq bo'lmagan hollarda foydalanish, ajratilgan mintaqadan foydalanish tartibi, avtomobil yo'llarida harakatlanishni cheklash yoki ta'qiqlash, avtomobil yo'liga tutash yer uchastkalarining miqdorlari, egalari va ulardan foydalanuvchilarning majburiyatlari, avtomobil yo'llaridan foydalanish tartibiga rioya qilmaganlik uchun yuridik va jismoniy shaxslarning javobgarligi to'g'risidagi moddalar keltirilgan. Oltinchi "Yakunlovchi qoidalar" bobida nizolarni hal etish, avtomobil yo'llari to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganligi uchun javobgarlik, qonun hujjatlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirish, qonunni o'z kuchini yo'qotgan deb topish kabi moddalar berilgan.

O'zbekiston Respublikasi avtomobil transporti to'g'risidagi qonun 1998 yil 29 avgustda qabul qilingan. Qonun 31 moddadan iborat bo'lib, unda quyidagilar keltirilgan:

Qonunning maqsadi - avtomobil transportining huquqiy asoslarini shakllantirish; asosiy tushunchalar; avtomobil transporti to'g'risidagi qonun hujjatlari; mulk shakllari; avtotransport vositalarini tasniflash; tashish turlari; avtomobil transporti faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va boshqarish; favqulotda holatlarda avtotransport ishi; tashuvchining huquqlari va majburiyatlari; mijozning huquqlari va majburiyatlari; yo'lovchi va yuklarni sug'urta qilish; avtomobil transportida xavfsizlikni ta'minlash; nizolarni hal qilish.

SHahar yo'lovchi transport to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonuni 1997 yil 25 aprelda qabul qilingan bo'lib, jami 27 moddadan tashkil topgan. Bu qonunda shahar yo'lovchi transport turlari, shahar yo'lovchi transportiga egalik shakllari, idoraviy shahar yo'lovchi transporti yo'lovchilarni tashish shartnomalari, shahar yo'lovchi transportining davlat boshqaruvi, qatnov marshrutini belgilash, harakat xavfsizligini ta'minlash to'g'risida aniq ko'rsatmalar berilgan. Harakat xavfsizligi bo'yicha transport vositalari, yo'llar va boshqa inshootlarga hamda harakatni tashkil etish vositalariga qo'yiladigan talablar davlat me'yoriy hujjatlari, davlat namunalari (GOST), shaharsozlik norma va qoidalari (SHNQ) va muassasaviy qoida va normalar (MQN) orqali aniqlanadi.

## Konventsiyalar. Davlat namunalari 13508-74, 10807-78, 25695-83, 26804-86, O'ZDSt 1057-2004, O'ZDSt 1058-2004, 23457-86 to'g'risida tushuncha.

Tayanch so'zlar va iboralar: *Konventsiyalar davlat namunalari QMQ, SHNQ, Yo'l belgilari, Yo'l belgi chiziqlari, yo'l to'siqlari, svetaforlar.*

«Yo'l harakati» haqidagi va «Yo'l belgilari va signallari» haqidagi Konventsiyalar eng asosiy xalkaro me'yoriy hujjat hisoblanadi. Bu Konventsiyalar

1968 yilda Vena shahrida BMT «Yo'l harakati» konferentsiyasida qabul qilingan. Konventsiyaga 1971 yil Jenevadagi Yevropa kengashida to'ldirishlar kiritilgan.

Yo'l harakati to'g'risidagi Konventsiyada: yo'l harakatini tashkil etish bo'yicha umumiy talablar; xalqaro harakatga qo'yish uchun transport vositalariga qo'yiladigan talablar; haydovchilar guvohnomasi namunasiga qo'yiladigan talablar; haydovchilarga qo'yiladigan talablar; davlatlarning konventsiyaga qo'shilish tadbirlari; atamalarga qo'yilgan talablar berilgan.

O'zbekiston Respublikasi hududida foydalanishdagi yetti guruhdagi: ogohlantiruvchi, imtiyoz, ta'qiqlovchi, buyuruvchi, axborot-ko'rsatuvchi, servis, qo'shimcha axborot yo'l belgilari Venada 1968 yil qabul qilingan yo'l belgilari Konventsiyasiga va bu Konventsiyani to'ldiruvchi Jenevadagi 1971 yil Yevropa kelishuvi talablariga to'liq mos keladi.

Avtomobil yo'llarida va shahar ko'chalarida yo'l belgilarini o'rnatish GOST 23457-86, ularning o'lchamlari esa GOST 10807-78 talablariga javob berishi kerak. Avtomobil yo'llarida yo'l belgilari quyidagi ketma-ketlikda o'rnatilishi kerak: ko'rsatuvchi (axborot-ko'rsatuvchi); imtiyoz; servis va tablichkalar; ogohlantiruvchi; buyuruvchi; ta'qiqlovchi.

O'rnatiladigan yo'l belgilarining ***umumiy soni*** yo'lda iloji boricha kam bo'lishi kerak. Har bir o'rnatilayotgan ogohlantiruvchi yoki ***ta'qiqlovchi*** yo'l belgilari asoslangan bo'lishi shart va yo'l sharoiti yomonlashganligi oqibatida ko'rilgan majburiy chora deb tushunilishi kerak. SHuning uchun ogohlantiruvchi va ta'qiqlovchi belgilar ko'pchilik hollarda vaqtincha o'rnatilib, ma'lum yo'l sharoiti yaxshilangandan so'ng olib tashlanishi kerak. SHuningdek, mavsumga qarab o'rnatiladigan yo'l belgilarini ham vaqt o'tishi bilan tezda olib tashlash kerak.

Yo'l belgilarini shunday o'rnatish kerakki, ularni kunning yorug' vaqtida ko'rish masofasi 150 m dan kam bo'lmasligi kerak. Haydovchiga u yoki bu uchastkada o'rnatilgan belgini ko'rish masofasining qiymati shu uchastkadagi tezlikning ikki barobariga yoki undan katta qiymatiga teng bo'lishi kerak. Bu holatda yangi qurilayotgan yo'llar uchun tezlik hisobiy tezlikdan 70% olinsa, foydalanayotgan yo'llarda esa transport vositalarining 85 % tezligidan oshmaydigan tezlik qabul qilinadi.

Yo'l belgi chiziqlarini yo'l sharoitlarining o'zgarishiga qarab ishlatish qoidalari GOST 23457-86 «Texnicheskie sredstva organizatsii dorojnogo dvijeniya», ularning elementlariga qo'yiladigan talablar esa GOST 13508-74 «Dorojnaya razmetka»da keltirilgan.

***Harakatning tartibini belgilovchi yo'l belgi chiziqlariga yo'lning qatnov qismiga, to'siqlarga va boshqa yo'l inshootlariga tushiriladigan chiziqlar, yozuvlar va har xil belgilar kiradi.***

Avtomobil yo'llarida harakatni tashkil qilishning samarali usullaridan biri yo'l belgi chiziqlarini ishlatishdir. Yo'l belgi chiziqlarini ishlatish yo'l-transport hodisalari sonining 30-50% kamayishiga olib keladi.

Ishlatilish vazifasi bo'yicha yo'l belgi chiziqlari yo'l belgilariga ko'pincha mos keladi. Lekin ko'pchilik hollarda yo'l belgi chiziqlari bir qator afzalliklarga ega. Yo'l belgi chiziqlari haydovchilarni yon atrofga qaratib chalg'itmasdan, nigohini yo'lning qatnov qismiga qaratgan holda ko'rsatmalar beradi, shuning bilan

birgalikda, ular haydovchiga yo'l ***belgilariga nisbatan uzoq muddat mobaynida*** ta'sir qiladi. Yo'l belgi chiziqlarining kamchiligiga tez yedirilish, iflos va qor tagidan ko'rinmaslikni ko'rsatish mumkin.

Yo'l belgi chiziqlari ikki guruhga bo'linadi: ***gorizontal*** va ***vertikal***.

***Gorizontal yo'l belgi chiziqlari*** takomillashtirilgan qoplamali yo'llarda tushirilib, quyidagilarga bo'linadi:

- bo'ylama belgi chiziqlari;
- ko'ndalang belgi chiziqlari;
- xavfsizlik orolchasi;
- aholi yashash punktini, marshrut yo'nalishini bildiruvchi yozuvlar va boshqa belgi chiziqlari.

***Gorizontal yo'l belgi chiziqlari aholi yashaydigan*** punktlarda tezyurar, magistral yo'llarda, shuningdek, jamoat yo'lovchi transportlari qatnaydigan yo'llarda tushiriladi.

Gorizontal yo'l belgi chiziqlari aholi yashamaydigan punktlarda natural harakat miqdori 1000 avt/sut va undan ortiq hamda qatnov qismining kengligi ***6 m va undan ko'p bo'lgan*** yo'llarda tushiriladi. Bunda yo'l belgi chizig'i bilan belgilangan kenglik 3,0 m dan kam bo'lmasligi kerak.

***Vertikal yo'l belgi chiziqlari*** turli tayanchlarni, ko'prik, yo'l o'tkazgichlarning to'siqlarini, tonnellarning devorlarini, yo'l to'siqlarining yon tomonlarini, xavfli joylarda o'rnatilgan xavfsizlik orolchalarini belgilashda ishlatiladi.

Avtomobil yo'llarida yo'l to'siqlari ***transport vositalarining, piyodalarning harakatini tartibga solish va yo'l-transport hodisalarining oldini olish hamda ularning og'irlik darajasini pasaytirish*** uchun o'rnatiladi. Yo'l to'siqlariga qo'yiladigan talablar ***GOST 26804-86*** «Ograjdeniya dorojnыe, metallicheskie barьernogo tipa. Texnicheskie usloviya»da keltirilgan. Yo'l sharoitining o'zgarishiga qarab yo'l to'siqlarini qanday vaqtlarda ishlatish shartlari ***GOST 23457-86*** «Texnicheskie sredstva organizatsii dorojnogo dvijeniya»da keltirilgan.

Yo'l to'siqlari qo'llanish sharoitlariga ***qarab ikki guruhga bo'linadi***. ***Birinchi guruhga «barьer» konstruktsiyali*** (balandligi 0,75 m dan kam bo'lmagan) va ***devorsimon*** («parapet» shaklidagi balandligi 0,6 m dan kam bo'lmagan) yo'l to'siqlari kiradi. Bu guruhdagi to'siqlar ***transport vositalarini yo'l poyida, ko'priklarda, yo'l o'tkazgich joylarida ushlab qolish va qarama-qarshi tomondan harakatlanayotgan transport vositalari to'qnashuvining oldini olish hamda yo'l mintaqasida joylashgan har xil predmetlarga*** (yoritgich, ko'prik tayanchlari, daraxtlar va h.k.) ***kelib urilishidan saqlash uchun o'rnatiladi.***

***Ikkinchi guruh to'siqlariga setkalar***, har xil panjaralar (balandligi 0,8-1.5 m) kiradi. ***Ulardan piyodalarning harakatini tartibga solish va hayvonlarning yo'l qatnov qismiga chiqishining oldini olish maqsadida foydalaniladi***.

O'zbekistonda ishlatiladigan ***svetofor signallarining*** almashish ketma-ketligi GOST 25695-83ga asosan qabul qilingan bo'lib, bu yo'l belgilari va signallari ***xalqaro konventsiya talablariga mos keladi***.

Signallar quyidagi ketma-ketlikda almashtiriladi: qizil-qizil sariq bilan yashil-sariq-qizil. Signallarni quyidagicha almashtirishga ruxsat beriladi: qizil-yashil-sariq-qizil yoki qizil-sariq, yashil-sariq. Ba’zida yashil signal almashtirilishi oldidan uni o’chirib yoqish amalda uchrab turadi.

Hozirgi paytda transport vositalarining texnik holati bo’yicha xavfsizlik va ularni nazorat usullarini o’zida mujassam qilgan O’ZDSt 1057-2004, O’ZDSt 1058-2004 Davlat namunalari amalda qo’llaniladi.

O’ZDSt 1057-2004 Avtotransport vositalarining texnik xolatiga xavfsizlik talablari keltirilgan. Xususan unda umumiy talablar; tormoz tizimiga qo’yilgan talablar; rul boshqarmasiga qo’yilagan talablar; tashqi va ichki yoritish tizimiga qo’yilgan talablar; haydovchining o’tirgan joyidan tashqarini ko’rishga qo’yilgan talablar; avtomobilning shinalariga qo’yilgan talablar; dvigitel va uning tizimiga qo’yilgan talablar va turli yelementlariga qo’yilgan talablar keltirilgan.

O’ZDSt 1058-2004 Bu davlat standaritida avtotransport vositalarining texnik ko’rigini o’tkazishda nazorat qilish usullari keltirilgan.

KMQA 2 05 02- 05. Avtomobtil yo’llari davlat namunasida O’zbekiston Respublikasi umum foydalanuvligi avtomobil yo’llarini transport- eksplotatsion ko’rsatgichlari to’g’risida ma’lumotlar keltirilgan.

SHNK 2.07.01.-03. SHaxarsozlik. SHaxar va qishloq axoli punktlari xuddlarini rejalashtirish va qurilishni rejalashtirish davlat namunasida shaxar ko’chalarining geommetrik parametrolari va ularining transport eksplotatsion kursatgachlari to’g’risida ma’lumotlar keltirilgan.

Sohalar me’yoriy hujjatlarda (instruktsiya, uslubiy ko’rsatma) avtomobil transportida, yo’l xo’jaligida, yo’l harakati xavfsizligi xizmatlarida harakat xavfsizligini yaxshilash, yo’l-transport hodisalarini hisobga olish, transport vositalaridan foydalanishga ruxsat berish, yo’llarning xavfli bo’laklarni aniqlash, harakat xavfsizligini boshqarish bo’yicha yo’l-yo’riqlar ko’rsatiladi

## Nazorat savollari

1.Harakatni tashkil etish bo’yicha qanday me’yoriy hujjatlarini bilasiz?

2.Konventsiya deganda nimani tushunasiz?

3. Yo’l belgilarini o’rnatishda qo’yiladigan talabalar nimalardan iborat?

4. 10807-78-sonli Davlat namunasida qanday talablar keltirilgan.

5.Yo’l belgilari qanday guruxlarga bo’linidi?

6. Yo’l belgi chiziqlarini tushirishga qo’yiladigan umumiy talablar va ularning turlari qandayligini izohlang?

7. Yo’l belgilarini o’rnatishda qo’yiladigan qanday talablar mavjud?

8. Yo’l to’siqlari qanday davlat namunasiga asosan o’rnatiladi?

9. Svetaforlar qanday davlat namunasiga asasan o’rnatiladi?

## 13-MAVZU.

**Avtomobilning harakati nazariyasi. Transport vositalarining parametrlari. Transport vositasiga ta'sir etuvchi kuchlar. Balandlikka harakatlanishdagi qarshilik kuchi. Havoning qarshilik kuchi. Inertsiya kuchi. Tortish kuchi. SHina bilan qoplamaning tishlashish kuchi.**

Reja:

1. Transport vositalarining parametrlari.
2. Transport vositasiga ta'sir etuvchi kuchlar.
3. Balandlikka harakatlanishdagi qarshilik kuchi.
4. Xavoning qarshilik kuchi. Inertsiya kuchi. Tortish kuchi.SHina bilan qoplamaning tishlashish kuchi.

Tayanch iboralar: Avtomobil, yuk tashuvchi, yo'lovchi tashuvchi, maxsus avtomobillar, gabarit parametrlar, g'ildirak formulasi, og'irlik parametrlari.

Avtomobil transporti yuk tashuvchi, yo'lovchi va maxsus turlarga bo'linadi.

Yuk avtomobillari o'z navbatida:

- yuk tashuvchi avtomobillarga;
- etakchi avtomobillarga:
- tirkamalar va yarim tirkamalarga bo'linadi.

Yo'lovchi avtomobillar yo'lovchilarni tashishga mo'ljallangan bo'lib ular o'rindiqlar soniga qarab:

- yengil avtomobillar:
- avtobuslarga bo'linadi.

Maxsus avtomobillar ma'lum ishlarni bajarishga mo'ljallangan mexanizm, asbob va uskunalar bilan jixozlangan bo'ladi. Bularga sanitariya, o't o'chirish, avtotsisternalar, tsement tashuvchi, ko'cha supiruvchi, yuk ortish avtomobillari va boshqalar kiradi.

Avtomobillar umumfoydalanadigan yo'llarda harakatlanishga mo'l-jallangan va yo'ldan tashqarida foydalanadigan – kar'er avtomobillariga bo'linadi.

Barcha avtomobillar ikki raqamdan iborat g'ildirak formulasi bilan tavsiflandi. Birinchi raqam – umumiy g'ildiraklar, ikkinchi- tortuvchi g'ildiraklar soni. Masalan, Neksiya avtomobili $4\times2$, Niva-SHevrole $4\times 4$ g'ildirak formulasiga ega.

Barcha avtomobillar quyidagi asosiy parametrlar bilan tavsiflan-adi:

Gabarit parametrlar. Bunga transport vositasining uzunligi, eni, ba-landligi, bazasi, g'ildirak izlari orasidagi masofa, yo'l tirqishi(avtomobilning eng pastki nuqtasidan yo'lgacha bo'lgan masofa), eng kichik burilish radiusi kiradi.

Og'irlik parametrlari Bularga to'liq og'irlik-transport vositasining yuk, haydovchi, va yo'lovchilar bilan ishlab chiqaruvchi korxona tomonidan belgilangan og'irligi. Yuk ko'tarish qobiliyati- transport vositasining tavsifnomasida ko'rsatilgan yuk og'irligi. Transport vositasining o'zining og'irligi(aslaxalangan,yuksiz, yoqilg'i, moylash, sovitish ash'yolari va jixozlari bilan).

Tortish qobiliyati. Transport vositasining tortish qobiliyati yuqori tezlik bilan yurishi, yo'l qarshiligi katta bo'lgan yo'l bo'lagida harakatlana olishi bilan tavsiflanadi. Tortish qobiliyati tortish g'ildiraklaridagi xar xil tezliklardagi tortish kuchiga bog'liq.

Tortish qobiliyati maksimal tezlik, tezlanish vaqti(ma'lum tezlikka yetguncha ketgan vaqt, ma'lum yo'l bo'lagini bosib o'tish uchun sarflangan vaqt), harakatlanish mumkin bo'lgan maksimal nishablik bilan tavsifla-nadi.

Tormozlanish qobiliyati. Transport vositalarining tormozlanishi tormoz yo'li, to'xtash yo'li va sekinlashish ko'rsatkichlari bilan tavsiflanadi.

Turg'unlik - transport vositasining sirpanish, siljish va ag'darilib ketishiga qarshi xususiyati.

Boshqaruvchanlik- transport vositasining haydovchi belgilagan yo'nalishda harakatlanish xususiyati.

O'tuvchanlik - transport vositasining notekis joylarda kuzovning pastki qismlari bilan tegmasdan harakatlana olishi.

Yoqilg'i tejamkorligi Transport vositasining belgilangan masofada sarflagan yoqilg'i miqdori bilan (ko'pincha l/100 km), bir birlik bajarilgan transport ishi uchun sarflangan yoqilg'i(g/tkm) bilan tavsiflanadi. Yoqilg'i tejamkorligi transport vositasi dvigatelining quvvati va uning texnik xolati, transmissiyaning texnik xolati va unda ishqalanishlarni yengish uchun sarflanayotgan yoqilg'i, transport vositasining yuklanganligi, harakatlanish rejimi, haydovchining kvalifikatsiyasi, yo'l sharoiti va boshqalarga bog'liq..

Transport vositasining tavsifnomasida asosan yoqilg'ining nazorat sarfi ko'rsatiladi. Yoqilg'ining nazorat sarfi quyidagi sharoitda aniqlanadi: quruq , gorizontal, qattiq qoplamali yo'lda, shamolsiz sharoitda, shu transport vositasiga xos bo'lgan tezlikda, belgilangan og'irlikda. Transport vositasining yoqilg'i nazorat sarfiga qarab uning texnik xolatini belgilanishi mumkin. Quyidagi jadvalda ayrim avtomobillarning nazorat yoqilg'i sarfi keltirilgan.

| Avtomobillar | ***Benzin markasi*** | Yoqilg'i sarfi l/100 km. |
|---|---|---|
| GAZ – 51 | ***A – 76*** | 21,5 |
| GAZ – 53 | A – 76 | 25,5 |
| GAZ – 21 «Volga» | A – 76 | 13,0 |
| GAZ – 24 «Volga» | AI – 93 | 13,0 |
| VAZ | AI – 93 | 10,5 |

Transport vositasining yoqilg'i nazorat sarfi ekspluatatsiya sharoitida o'zgarishi mumkin. SHaxar sharoitida yoqilg'i sarfi ortadi.

## Transport vositasiga ta'sir etuvchi kuchlar

Avtomobilga harakat vaqtida quyidagi kuchlar ta'sir etadi: tortish kuchi, harakatga qarshilik kuchlar va inertsiya kuchi rasm-1-2. Inertsiya kuchi harakat rejimiga qarab oldinga, orqaga va ko'ndalang yo'nalishga qaratilgan bo'lishi mumkin.



Rasm -1. Avtomobilga ta’sir etuvchi kuchlar va momentlar



Rasm -2. Avtomobilga ta’sir etuvchi umumiy kuchlar

Harakatga qarshilik kuchlariga: g’ildirakning g’ildirashiga qarshilik kuchi - $R_f$ , avtomobilga havoning qarshilik kuchi -$R_w$ , balandlikka chiqishga qarshilik kuchi – $R_i$ , inertsiya kuchi – Rg. Qarshilik kuchlarini yengish uchun avtomobilning dvigateli ishlab chiqargan quvvat sarflanadi. Dvigatelda xosil bo’lgan burovchi moment transmissiya orqali yetakchi g’ildiraklarga uzatiladi. G’ildiraklar aylanib yo’l qoplamasiga ta’sir etuvchi aylanma kuch xosil qiladi. Yo’lning teng aks ta’sir etuvchi kuchi avtomobilni harakatlanishiga olib keladi. Avtomobilga ta’sir etuvchi barcha kuchlarni quyidagi ifoda bilan ko’rsatsh mumkin:

$$R_t = R_f + R_w + R_i + Rg.$$

bunda

$R_t$ – tortish kuchi

$R_f$ - g’ildirashga qarshilik kuchi

$R_i$ - balandlikka chiqishga qarshilik kuchi

$R_w$ - havoning qarshilik kuchi ,

Rg. - inertsiya kuchi

Bu ifoda tortish balansi formulasi yoki kuchlar muvozanati tenglamasi deb nomlanadi va tortish kuchini qanday taqsimlanishini aniqlaydi.

G’ildirakning g’ildirashiga qarshilik kuchi shinaning yo’l qoplamasi bilan ta’siri natijasida xosil bo’ladiva quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

bunda $R_f$ - g’ildirashga qarshilik kuchi
Ga – avtomobilning og’irligi
$f$ - g’ildirakning g’ildirashiga qarshilik koeffitsienti
$\alpha$ - yo’lning bo’ylama qiyaligi, grad.

G’ildirakning g’ildirashiga qarshilik koeffitsienti yo’lning qarshilik kuchiga ta’sir etuvchi barcha omillarni xisobga oladi va quyidagi qiymatlarga teng:

| | |
|---|---|
| yaxshi xolatdagi asfalt | - 0,015-0,018 |
| qoniqarli xolatdagi asfalt | - 0,018-0,020 |
| shag’alli yo’l | - 0,020 – 0,025 |
| tosh terilgan yo’l | - 0, 023– 0, 030 |
| gruntli yo’l | - 0, 025 - 0,030 |
| quruq qumli yo’l | - 0, 100 – 0,300 |
| muz | - 0,018-0,020 |

Balandlikka chiqishga qarshilik kuchi Avtomobil yo’llari gorizontal, nishablik va balandliklardan iborat. Gorizontal yo’llar kam uchraydi. Yo’lning nishabligi uning burchagi $\alpha$ yoki $i$ bilan tavsiflanadi rasm-3.

$$i = \frac{H}{B} = tg\ \alpha$$

bunda H - nishablikning balandligi, m
V - nishablikning uzunligi , m

Kichik nishabliklarda $i = tg\ \alpha = sin\ \alpha$ teng deb olinishi mumkin.

Nishablikka harakatlanayotgan avtomobilning og’irlik kuchi Ga ni 2 ta tashkil etuvchi: nishablikka paralel Ga $sin\ \alpha$ kuchi va nishabilikka perpendikulyar Ga cos $\alpha$ kuchlarga ajratamiz.

Ga $sin\ \alpha$ kuchini Ri ifoda bilan belgilaymiz , bu kuch baland-likka chiqishga qarshilik kuchidir.

Ri = Ga $sin\ \alpha$ = Ga $i$




Rasm-4. Balandlikka chiqishga qarshilik kuchi

bunda $R_f = Ga\ \sin\alpha = Ga\ i$

Avtomobil nishablikka harakatlanganda bu kuch teskari ta’sir etadi.

Zamonaviy avtomobil yo’llarining ko’ndalang profilidagi nishabliklar uzuluksiz o’zgarib borishi mumkin. Balandlikka chiqishga qarshilik kuchi ham o’zgarib boradi.

Havoning qarshilik kuchi. Avtomobilning harakati vaqtida unga xavoning qarshilik kuchi ta’sir etadi. Bu kuch quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$R_w = K\ F V_a^2$$

bunda K- xavo qarshiligini yengish koeffitsienti

F – avtomobilning old yuzasi, $m^2$

$V_a$ – avtomobilning tezligi, m/s

Inertsiya kuchi Avtomobilga harakat vaqtida inertsiya kuchlari ta’sir etadi. Avtomobilning tezligini o’zgarishi inertsiya kuchini xosil qiladi. Inertsiya kuchi avtomobilning massasiga bog’liq.. Inertsiya kuchi quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$Rg = \frac{Ga}{g} j$$

bunda g – erkin tushish tezlanishi, $m/s^2$

j - avtomobilning tezlanishi, $m/s^2$

G’ildirak shinasining yo’l qoplamasi bilan tishlashish kuchi.

Avtomobilning harakatlanishi uchun yetakchi g’ildirak bilan yo’l qoplamasi tishlashishi natijasida tishlashish kuchi paydo bo’ladi.
Tishlashish kuchi avtomobil massasiga, shina va yo’lning xolatiga bog’liq..

$$R_{sts} = Ga\ \varphi$$

bunda $R_{sts}$ - tishlashish kuchi

Ga - avtomobilning og’irligi

$\varphi$ - tishlashish koeffitsienti

Tishlashish koeffitsienti shinaga, yo’l qoplamasiga va ularning xolatiga bog’liq

Nazorat savollari:

1. Avtomobillar qanday tavsiflanadi?
2. Avtomobillar qanday parametrlar bilan tavsiflanadi?
3. Og’irlik, gabarit parametrlari.
4. Tortish dinamikasi. Tormozlash dinamikasi.
5. Avtomobilga ta’sir etuvchi kuchlar
6. Tortish kuchi.
7. G’ildirashga qarshilik kuchi
8. Balandlikka chiqishga qarshilik kuchi
9. Havoning qarshilik kuchi
10. Inertsiya kuchi
11. Tortish balansi formulasi yoki kuchlar muvozanati tenglamasi qanday ifodalanadi?

# 14-MAVZU.

**Avtomobil transportining ekspluatatsion ko'rsatkichlari. Tortish dinamikasi. Tormozlash xususiyatlari. Turg'unlik. Boshqariluvchanlik. O'tuvchanlik. Haydovchining ish joyi.**

Reja:

1. Avtomobilning konstruktiv xavfsizligi to'g'risida tushuncha.
2. Avtomobilning aktiv, passiv avariyadan keyingi va ekologik xavfsizliklari.
3. Tortish-tezlik xususiyatlari. Tormozlash xususiyatlari.
4. Avtomobilning turg'unligi, boshqariluvchanligi va o'tuvchanligi.
5. Haydovchining ish joyining xususiyatlari.

Tayanch iboralar: Tortish –tezlanish, aktiv havfsizlik , passiv xavfsizlik, avariyadan keyingi xavfsizlik, ekologik xavfsizlik, boshqariluvchanlik, o'tuvchanlik, turg'unlik, manevrchanlik, ish o'rnidagi jixozlar.

## Avtomobil transportining ekspluatatsion ko'rsatkichlari

## Avtomobilning konstruktiv xavfsizligi to'g'risida tushuncha

Avtomobilning konstruktiv xavfsizligi deganda, uni ishlatish jarayonida atrof muhitga, harakat qatnashchilariga zarar yetkazmaslik va yo'l-transport hodisalarining oqibatlarini, og'irligini yumshatishga aytiladi.

Bu xususiyat juda murakkab bo'lib, avtomobildan foydalanishni boshqa xususiyatlari bilan bog'liq. Konstruktiv xavfsizlik aktiv, passiv, avariyadan keyingi va ekologik xavfsizliklarga bo'linadi.

Aktiv havfsizlik deb, transport vositasidagi yo'l-transport hodisasining (YTX) vujudga kelish ehtimolini kamaytirish xususiyatiga aytiladi. Bu xususiyatlarga tortish—tezlik, tormozlash xususiyatlari, turg'unlik, boshqariluvchanlik, buriluvchanlik, informativlik, tovush va yoruglik signalizatsiyasi, manevrchanlik va boshqalar kiradi.

Tortish—tezlik xususiyatlari deb, turli ekspluatatsiya sharoitlarida transport vositasining tezlanish intensivligini va tezlik diapazonini o'zgarishini ta'minlanishiga aytiladi. Avtotransport vositalarini tortish—tezlik xususiyatlari quyidagi ko'rsatkichlar bilan baholanadi:

—qattiq. qoplamali tekis gorizontal to'g'ri yo'l qismidagi maksimal tezligi;

—berilgan tezlikka erishish vakti;

—to'xtashgacha o'z inertsiyasi bilan yurgan yo'li;

—turli uzatmalardagi tezlanish xarakteristikasi;

—bo'ylama profilli o'zgaruvchan yo'llarda tezlik xarakteristikasi;

—transport vositasining eng pastki uzatmada doimiy tezlik bilan harakatlanadigan balandlikning eng katta miqdori.

Tortish—tezlik xususiyatlari dvigatel va tranmissiya xarakteristikasi, massasi (og'irlik markazining joylashuvi), aerodinamik xarakteristikasining g'ildiraklar o'lchami avtomobilning g'ildirashga qarshiligi bilan o'lchanadi.

Tormozlash xususiyatlari kerakli intensivlikdagi sekinlashishni amalga oshirish va transport vositasini nishablikda to'xtatib turish bilan aniqlanadi.

Halqaro amaldagi me’yoriy xujjatlarga asosan, transport vositasi quyidagi tormoz tizimlari bilan jihozlanishi kerak.

Ishchi - barcha sharoitlarda foydalanish uchun tezlikni pasaytirishga mo’ljallangan;

Ehtiyot - ishchi tormoz tizimi ishdan chiqqanda, uning vazifasini bajarish uchun mo’ljallangan;

To’xtab turish - transport vositasini qo’zgalmas holatda tutish uchun mo’ljallangan;

Qo’shimcha - nishablikda transport vositasi tezligini doimiy tutib turish uchun mo’ljallangan.

Avtomobilni tormozlash xususiyatlari sekinlashuv, tormozlash jarayonida sarflanadigan vaqt, tormoz yo’li bilan baholanadi.

Avtomobilning turg’unligi - bu surilish va ag’darilishga qarshilik ko’rsata olish xususiyati.

Avtomobilning boshqariluvchanligi - bu haydovchi bergan harakat yo’nalishini saqlash yoki o’zgartirishda eng kam jismoniy va ruxiy energiya sarflash xususiyatidir.

Stabilizatsiya deb, boshqariladigan g’ildiraklarga tashqi kuch ta’siri tugaganda, to’g’ri chiziqli harakat yo’nalishiga mos keladigan neytral holatini saqlash yoki tiklash xususiyatiga aytiladi.

Informativlik — bu boshqariladigan transport vositasida harakatlanish jarayonining harakat qatnashchilari va transport vositalari xaqidagi axborot bilan ta’minlash xususiyatidir.

Tovushli ishora - transport vositasi haydovchisini kerakli tovushli axborot bilan ta’minlash xususiyati.

Yorug’lik ishorasi - transport vositasini boshqa transport vositalariga nisbatan, yo’ldagi holatini belgilaydigan axborotni beruvchi qurilmasi bo’lib, ko’rinuvchanlik esa, ish o’rnida haydovchiga yo’l-transport vaziyatini geometrik ko’rinishlarini ta’minlaydi. Ko’rinuvchanlik oynalar o’lchami, kuzov tirgaklari kengligi va joylashuvi, haydovchini ularga nisbatan joylashuvi, oyna tozalagich o’lchamlari, oyna yuvgich konstruktsiyasi, isitish tizimi va oynaga havo yo’naltirgichni joylashganligi va orqani ko’rsatuvchi ko’zgu o’lchamlari bilan belgilanadi.

Manevrchanlik - transport vositasini eng kichik maydonchada gorizontal tekislikda harakatlanish yo’nalishini o’zgartira olish qobiliyatidir.

Passiv xavfsizlik - bu avtomobilning yo’l-transport hodisasi oqibatlari og’irligini yumshatishni ta’minlash xususiyati. Piyodalar, yo’lovchilar, haydovchi jarohatlanishining oldini oladigan yoki oqibatlarini yumshatadigan xavfsiz avtomobil konstruktsiyasini yaratish bilan passiv xavfsizlikka erishiladi.

Passiv xavfsizlik tashqi va ichkiga bo’linadi. Tashqi passiv xavfsizlik talablari insonlarga tan jaroxati yetkazish ehtimolini oldini olishga qaratilgan. Bunga chiroqlar, ko’zgular, eshik dastalari kiradi. Ichki passiv xavfsizlikka esa, kabina ichida jarohat yetkazish mumkin bo’lgan detallarning bo’lmasligi talablari kiradi.

Ichki passiv xavfsizlikni ta’minlashga uncha qimmat turmaydigan va oddiy hisoblangan xavfsizlik tasmalaridan foydalaniladi. Ular ko’p hollarda haydovchi va yo’lovchilar hayotini YTH sodir etilganda asrab qoladi.

SHuningdek, bolalarning maxsus o'rindiklari, peshoynalarning yangi konstruktsiyalaridan foydalanish, avtomobil asosini, eshik va yon tirgaklarni kuchaytirish, salon ashyolarining elastiklik va zichligini oshirish samarali tadbirlar hisoblanadi.

Avariyadan keyingi xavfsizlik — YTH da odamlarni tezlik bilan transport vositasidan chiqarib olish va xavfsiz joyga ko'chirish hamda ularga birinchi tez tibbiy yordam ko'rsatishni ta'minlanishi bilan belgilanadi. Avtomobil konstruktsiyasida eshik qulflarining blokirovka qilinishi, evakuatsiya qilish qurilmasi, o't o'chirish, yonilg'i bakiga avtomatik ravishda yonishni susaytiradigan moddani purkash, elektr simlarini mahkamlanishi, ularni korroziyaga chidamliligi, salonni qoplash ashyolari va zararli gazlar ajralmasligini ta'minlash kerak.

Ekologik xavfsizlik — transport vositasining atrof-muhitga va odamlar sog'ligiga minimal zarar yetkazish xususiyatidir. Avtomobil atmosferaga zararli modda chiqaradigan manbalarning asosiylaridan biridir. U 15 ming km yo'l yurganda o'zidan 3250 kg karbonat angidrid gazi, 500 kg karbon oksidi gazi, 100 kg zararli uglevodorodlar va 30 kg ga yakin azot oksidi ajratib chiqaradi.

Avtomobillar ishlab chikaradigan gazlar tarkibidagi zararli moddalar tegishli davlat standartlari bilan cheklab qo'yilgan.

Ekologik xavfsizlik avtomobilni tashqi shovqini bilan xarakterlanadi, u davlat standartiga asosan 80—85 dB dan oshmasligi kerak. SHovqinni pasaytirish maqsadida ishlatilgan gazlarni chiqarish tizimida qo'shimcha ovoz so'ndirgich qo'llaniladi, tovushli ishoralarni aholi yashash joylarida qo'llash taqiqlangan.

Ekologik xavfsizlik transport vositasining konstruktsiyasiga va qo'llaniladigan yonilg'i turiga bog'liq

Ekologik muammo avtomobillashtirish va undan kelib chiqadigan zararli oqibatlar bilan bog'liq. Bular orasida eng ko'p sezilarlisi atrof-muhitni dvigatelda ishlatilgan gazlar bilan ifloslantirishdan iborat.

Havo tarkibining sifati, zararli moddalar aralashmasining yo'l qo'yiladigan me'yori bilan belgilanadi. Yo'l qo'yiladigan me'yor esa, tibbiy biologik va ijtimoiy iqtisodiy me'yorlar asosida inson salomatligini saqlash nuktai nazaridan amalga oshiriladi.

Zararli moddalarning yo'l qo'yiladigan me'yori insonni bu muhitda faoliyat ko'rsata olishini hisobga olgan holda belgilanadi.

Avtomobil dvigatellarining ishlab chiqargan gazlar tarkibi quyidagi jadvalda keltirilgan.

| Tarkibi | CHiqindi gazlar % | | Izoh |
|---|---|---|---|
| | | Dizelь | |
| Azot -($N_2$) | 74... 77 | 76...78 | Zararsiz |
| Kislorod ($0_2$) | 0.3...0.8 | 2...18 | Zararsiz |
| Suv bug'i ($N_20$) | 3....5.5 | 0.5...4 | Zararsiz |
| Uglerod ikki oksidi ($S0_2$) | 5...12 | 2....10 | Zararsiz |
| Uglerod oksidi | 0.5....12 | 0.01...0.5 | Zararli |
| Azot oksidi ($N0_2$) | 0.0...0.8 | 0.0002....0.5 | Zararli |
| Uglevodorodlar (SN) | 0.2...3.0 | 0.009....0.5 | Zararli |

| | | | |
|---|---|---|---|
| Alьdegidlar | 0.01...0.2 | 0.001....0.009 | Zararli |
| Qurum (S) | 0.0...0.04 | 0.001....1.1 | Zararli |
| Benzapiren ($S_2N_2$) | 10...20 gacha | 10...15 gacha | Kontserogen |

Karbyuratorli dvigatellarning chiqindi gazlarida jadvalda ko'rsatilganlardan tashqari qo'rgoshin ham bo'ladi. Ishlatiladigan benzin tarkibida 0.24—0.5 g/kilogramm tetra etil qurgoshin (tetra etil svinets) bo'ladi. SHuning uchun oktan soni bir xil bo'lganda etillanmagan benzinlarni ko'prok. qo'llash rivojlanmoqda.

Havoni benzin bug'lari, karterdan chiqarilgan gazlar bilan ifloslanishini ham hisobga olish kerak.

Ishlatilgan gazlar atmosferada havo bilan kimyoviy reaktsiyaga kirishib, organizm uchun umumiy zaxarli moddalarni keltirib chiqaradi.

Asosiy komponentlarning odamga ta'siri turli ko'rinishlarda bo'ladi.

**Uglerod oksidi (SO)** — havoda tez tarqaladigan, havodan yengil, rangsiz va issiz gaz bo'lib, u kislorod yetishmasligiga olib keladi, markaziy asab tizimiga ta'sir ko'rsatadi.

Atmosferada 0.01% hajmdan oshishi zaharlanish alomatlarini keltirib chiqaradi, 0.02% dan oshishi esa, zaharlaydi. Havoda 0.2— 0.25 % kontsentratsiyasi 30 daqiqada odamni hushidan ketkazadi.

**Azot oksidi ($N0_2$)** — chiqindi gazlarda azot oksidlarining ikki xil turi bo'ladi. Azot oksidi $N0_2$, azot ikki oksidi. Azot oksidlari uglerod oksididan ancha kuchli zaharlash qobiliyatiga ega. Organizmda ular suv bilan qo'shilib, organizm to'qimalarini yemiradigan azot kislotasini hosil qiladi. Og'iz, burun va ko'zning shilimshiq qobiqlarini qichitadi.

**Alьdegidlar** — odamda ishlatiladigan gazlar tarkibida formalьdegid (NSNO) va akrolein ($SN_2SNSNO$) formasida namoyon bo'ladi. Har ikkala gaz xam keskin isli shilimshiq qobiqqa ta'sir qiladi. Atmosferadagi 0.02 % akrolinga toqat qilib bo'lmaydi. Formalьdegidning 0.18 % kontsentratsiyasi organizmga kuchli ta'sir etib, qichitadi.

**Uglerod ikki oksidi ($S0_2$)** — rangsiz, issiz, havodan ham og'ir gaz. Havodagi aralashmasi 20—25 % bo'lganda asab tizimini ishdan chiqarishi bilan hayot uchun havfli.

**Uglevodorodlar (SN)** — o'zi zaharli bo'lishidan tashqari, kukun va azon hosil kiladi. Bu esa, burun va ko'zga ta'sir qiladi, o'simliklarga zarar yetkazadi.

**Qurum (S)** — nafas yo'llarini ifloslaydi, o'pka kasalligini paydo qiladi. Kontserogenlar tirik to'qimalarga o'tirib olib, zararli o'smalarni paydo bo'lishiga sabab bo'ladi.

**Qo'rg'oshin (Rb)** — atmosferadan odam organizmiga o'tib, qon tarkibidagi gemoglabinni kamaytiradi va eritrotsitlarni yemiradi. Qo'rg'oshin bilan zaharlanish alomatlari: bosh og'riydi, bosh aylanadi, tezda jahl chiqadi, tez charchash, uyquning yomonligi bilan seziladi. Ayniqsa, qo'rg'oshinning ta'siri yosh bolalar uchun katta. Qo'rg'oshin organizmdan chiqib ketmaydi. Yig'ilaverib juda xavfli kontsentratsiyani hosil qilishi mumkin. U organizmga havo yo'li va teri orqali o'tadi.

Dvigatellarni takomillashtirish, gaz yonilg'ilarini qo'llash havoni ifloslantirishdan saqlashning hozirgi kundagi asosiy yo'li hisoblanadi.

Bundan tashqari, ishlatilgan gazlar tarkibidagi zararli moddalarni neytralizatsiya (zararsizlantirish) qilish, texnik xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash sohasida ham ishlar amalga oshirilmoqda. Zararli moddalarni atmosferaga chiqarish me'yorlari, karbyuratorli dvigatellar ishlab chiqaradigan gazlar tarkibidagi uglerod oksidi miqdori quyidagi jadvalda ko'rsatilganidan oshmasligi kerak.

Karbyuratorli dvigatellar ishlab chiqargan gazlar tarkibidagi uglerod oksidi va uglevodorodlarning yo'l qo'yiladigan mikdori.

| Tirsakli valning aylanish soni | Yo'l qo'yiladigan uglerod oksidining hajmiy ulushi % | Yo'l qo'yiladigan uglevodorodlarning hajmiy ulushi $mln^{-1}$ | |
|---|---|---|---|
| | | Dvigatellardagi tsilindrlar soni | |
| | | 4 ta gacha | 4 tadan kup |
| $n_{min}$ | 1.5 | 1200 | 3000 |
| $n_{max}$ (0,8 $n_{max}$) | 2 | 600 | 1000 |

Dizelь dvigatelli avtomobillar ishlab chiqaradigan gazlarning tutunlilik darajasi jadvalda ko'rsatilganidan oshmasligi kerak.

Dizelь dvigatelli avtomobillar ishlab chiqaradigan gazlarning tutunlilik darajasining yo'l qo'yiladigan me'yorlari.

| Avtomobil modeli | Tutunlilik % | |
|---|---|---|
| | Erkin tezlanish | Valning maksimal aylangan soni |
| KamAZ, MAZ, KrAz va ularning | 40 | 15 |
| 1.07.1976 yilgacha ishlab chiqarilgan MAZ, KrAZ va ularning modifikatsiyalari | 60 | 15 |

Ishlatilgan gazlarning zaharliligini aniqlash. Ishlab chiqarilgan gazlarning zaharliligini statsionar tipdagi OA-2109, GAI-1 va ELKON-105 apparatlari bilan aniqlanadi. Bu apparatlarni ishlashi ulьtra qizil nurni tarqatish usuliga asoslangan.

GAI-2, INFRALIT-2T1 gazoanalizatorlari uglerod oksidi va uglerod ikki oksidi gazlarning miqdorini bir vaqtda o'lchaydi. Bu usul ancha aniq natijalarni olish imkonini beradi. Gazoanalizatorlarning texnik holati yiliga ikki marta tekshiriladi.

Dizelь dvigatellarining tutunligini dimomer yoki sajamerlar bilan nazorat qilinadi. Bulardan birinchisi, ishlatilgan gazlarning tiniqlilik darajasini aniqlash printsipiga asoslangan bo'lsa, ikkinchisi, ular tarkibidagi qurum zarrachalari mikdorini yig'ib o'lchashga asoslangan. Tutunlilik darajasi NDA-106, «Atlas» va SNDA-107 dimomerlari bilan o'lchanadi.

## Avtomobilni tortish dinamikasi

**Tortish kuchi.** *Avtomobilning tekis harakatida yarim o'qlardagi burovchi momentni yetakchi g'ildiraklar radiusiga nisbati tortish kuchi deyiladi.*

$$R_t = M_t / r$$

Avtomobilning tortish kuchini har xil uzatmalarda uning tezligiga bog'-liqlik grafigi, tortish xarakteristi-kasi deyiladi (1-rasm).

Avtomobilning harakat tenglamasi unga ta'sir etayotgan barcha kuchlarni bog'likligini ifodalaydi.

Balandlikka chikayotgan avtomobilga tezlanish vaqtida ta'sir etayotgan kuchlarni ko'rib chiqamiz.




*1--rasm.* Avtomobilni tortish xarakteristikasi

Avtomobilning og'irlik markaziga og'irlik kuchi $G = mg$, tezlanishga qarama-




*--rasm.* Balandlikka chiqayottan avtomobilga tezlanish vaktida ta'sir etayotgan kuchlar.

qarshi hamda ilgarilama harakatlanuvchi, massalar inertsiya kuchi $R_i$ ta'sir etadi.

$$R_i = ta,$$

bu yerda: $t$ —avtomobil massasi (kg), $a$ — avtomobilning tezlanishi (m/s$^2$).

Avtomobilning g'ildiraklariga $M_{kr1}$ $M_{k2}$ g'ildirashga qarshilik momentlari ta'sir qiladi. Yo'l tomonidan normal $P_{z1}$ , $P_{z2}$ va urinma $R_{xl}$, $R_{x2}$ reaktsiyalar ta'sir qiladi. Havoning qarshilik kuchi $R_v$ *ye*lkanlik markazi $h_b$ balandlikda ta'sir qiladi. Bundan tashqari, avtomobildagi tirkamaning harakatiga qarshilik kuchi $R_{pr}$ qo'yilishi mumkin.

Hamma kuchlarni yo'l tekisligiga proektsiyalaymiz:

$$R_{x2} – R_{x1} - R_u - R_n - R_v - R_{pr} = 0,$$

yakka avtomobil uchun

$$R_{x2} – R_{x1} - R_u - R_n - R_v = 0$$

$(R_{z1} + R_{i2})f = R_k$ bo’lganligi uchun umumiy holda avtomobilning harakat tenglamasi quyidagicha yozilishi mumkin:

$$R_T - R_u - R_v - R_g = 0$$

## Tormozlash xususiyati

Avtomobilni tormozlash xususiyatlari deganda, haydovchi xohishi bilan avtomobilni harakatlanish tezligini pasaytirish zarur bo’lganda tezda to’xtatish va nishablik joylarida to’xtatib turish xususiyatiga aytiladi. Tormozlash xususiyatlari bir necha tormoz tizimlari bilan ta’minlanadi.

Ishchi tormoz tizimi avtomobilni harakatlanish vaqtida doimiy foydalanish uchun mo’ljallangan, uning yordamida haydovchi avtomobil tezligini u yoki bu darajada sekinlatishi yoki to’xtatishi mumkin. Barcha turdagi avtomobil va mototsikllar ishchi tormoz tizimi bilan jihozlanadi. Ishchi tormoz tizimining boshqarish organi, odatda, tormoz pedali hisoblanadi. Nogironlarga mo’ljallangan avtomobillarda pedal dasta bilan almashtirilishi mumkin.

Ehtiyot tormoz tizimi, ishchi tormoz tizimi ishdan chiqqanda avtomobilni sekinlatish va to’xtatish uchun mo’ljallangan. KamAZ avtomobillaridagi extiyot tormoz tizimi to’xtab turish tormozi bilan konstruktiv birlashtirilgan.

Yordamchi tormoz tizimi uzoq muddatga kichik tormoz kuchi hosil qilish uchun mo’ljallangan. Bunday tormoz tizimi bilan shaharlararo yo’nalishda qatnashga mo’ljallangan ba’zi bir yuk avtomobillari va avtobuslar jihozlanadi.

Yordamchi tormoz tizimining ish printsipi u ulanganda dvigatelda yonilgi uzatish to’xtatiladi va gazlarni chiqarish quvurlarida tusgich (zaslonka) yopilib, tirsakli valning aylanishiga to’sqinlikni vujudga keltirishga asoslangan. SHunday qilib, bunday holatda dvigatel bilan tormozlash bo’ladi. Odatda, yordamchi tormoz tizimidan surunkali nishabliklarda, ishchi tormoz mexaniz-mining qizishi va yeyilishining oldini olish uchun foydalanadi. Yordamchi tormoz tizimi avtomobilni to’satdan to’xtatish imkonini bermaydi.

To’xtab turish tormoz tizimi, to’xtab turgan avtomobilning o’z-o’zidan yurib ketishini oldini olishga mo’ljallangan. Odatda, bu tizim ishchi tormoz mexanizmlariga ta’sir qiladi va mexanikaviy po’lat arqon (tros) yuritmali yoki prujinali energoakkumulyatorli bo’ladi.

To’xtab turish tormoz tizimi bilan barcha avtomobillar jihozlanadi. Oxirgi paytlarda yon aravachali mototsikllar ham to’xtab turish tormozi bilan jihozlanmokda.

Ayrim hollarda avtomobilni to’xtab turish joylarida to’xtatganda, to’xtab turish tormozi o’rniga past uzatmalardan biri ulab qo’yiladi. Bu yo’llarda harakatlanish qoidalariga ziddir. Istesno tariqasida, boshqa iloj qolmaganda karbyuratorli

avtomobillarda bu usulni qo’llash mumkin, chunki o’t oldirish tizimi o’chirib qo’yilganda, biror sababga ko’ra, harakatga kelgan avtomobil dvigateli o’t olmaydi. Dizel dvigatelli avtomobillarda bunday usulni qo’llash qat’iyan man etiladi. Bundan tashqari, to’xtab turish tormozi bilan birga uzatmani ulab qo’yish dizel dvigatelli avtomobillarda qat’iy taqiqlangan.

Tormozning ikki turi mavjud: xizmat yuzasidan va tasodifan (favkulodda).

Xizmat yuzasidan tormozlash deb, avtomobilning tezligini pasaytirish yoki haydovchi oldindan ko’zlagan joyda to’xtatishiga aytiladi.

Tasodifan tormozlash deb, kutilmaganda qatnov qismida paydo bo’lgan yoki kech aniqlangan to’siqni bosmaslik uchun yuqori intensivlik bilan tormozlashga aytiladi.

Tormozlash xususiyatlari bir necha ko’rsatkichlar bilan baholanadi. Bulardan asosiysi: eng katta sekinlashuv va to’xtash yo’li hisoblanadi.

Tormoz yo’lining qiymati, ayrim hollarda eng katta sekinlashuv qiymati, avtomobilning texnik tavsifnomasida ko’rsatiladi.

Tormoz xususiyatining ko’rsatkichlari, ularni aniqlash sharoitiga bog’liq bo’ladi. Masalan, sirpanchiq yo’lda, quruq asfaltga qaraganda avtomobilning tormoz yo’li ko’p bo’ladi. SHuning uchun avtomobilning texnik tavsifnomasida u yoki bu tormoz xususiyati ko’rsatkichini ko’rsatganda, odatda, uni aniqlagan sharoit ko’rsatiladi. Avtomobilning tormoz yo’li, uning yoqilgi to’la quyilgan, birga yulovchisi bo’lganda qattik qoplamali gorizontal yo’lda soatiga 60 yoki 40 km boshlang’ich tezlikda aniqlanadi. Avtomobilning tormozlashda sekinlashuvini aniqlash uchun maxsus pribor-desslerometr qo’llaniladi.

Tormoz yo’li deb, avtomobilni tormozlashni boshlagandan to u to’la to’xtaguncha bosib o’tgan masofaga aytiladi.

To’xtash yo’li deb, to’sikni ko’rgandan to avtomobil to’xtaguncha, avtomobil bosib o’tgan yo’lga aytiladi.

Tasodifan tormozlash jarayonini ko’rib chiqamiz.

Quyidagi grafikda:

$t_1$ - haydovchi to’siqni ko’rib, tormozlash zarurligi haqida qaror qabul qilguncha ketgan vaqt, ya’ni haydovchining reaktsiya vakti; $t=0,3..\ 1$ s;

$t_2$ - haydovchi oyog’ini drossel pedalidan olib, tormoz pedaliga qo’yishi uchun ketgan vaqt;

$t_3$ - tormoz yuritmasidagi ish suyuqligi (yoki havo) inertsiyasini hamda lyuftlarni yo’qotish uchun ketgan vaqt, gidravlik yuritma uchun $t_3$ =0,2...0,3 s; pnevmatik yuritma uchun $t_3$=0,3...1,3 s; avtopoezd tormozining yuritmasi uchun

$t_3 =2...2,5$ s;




*7-rasm.* Avtomobilning tormozlanish protsessi grafigi.

$t_4$ — tormozlovchi kuchning $R_{Ttax}$ (A nukta) gacha o'sishi uchun zarur bo'lgan vakt $t_4$ = 0,5 s;

$t_T$ — tormozlash uchun ketgan vaqt;

*t* – avtomobil to'xtagandan so'ng sistemada bosim nolgacha kamayishi uchun ketgan vaqt.

Haydovchining reaktsiyasi uning sog'ligiga, asabiga va boshqalarga bog'lik. Ayniqsa, spirtli ichimlik iste'mol qilgan haydovchining reaktsiya vaqti katta qiymatga ega bo'ladi, natijada harakat xavfsizligi ta'minlanmaydi. $t_2$ vaqt ham haydovchining reaktsiyasi bilan bog'lik, bo'lib, ma'lum intervalda o'zgaradi. Tormoz yuritmasidagi lyuftlarni yo'qrtish uchun ketgan vaqt $t_3$ suyuqlik siqilmaganligi va havoning siqilishi mumkinligi sababli gidravlik yuritma uchun kam, pnevmatik yuritma uchun esa katta qiymatga ega. Avtopoezdning umumiy uzunligi katta bo'lganligidan pnevmatik yuritmaning ishlashi uchun ko'p vaqt ketadi. *t* vaqt haydovchi avtomobilni boshqarishining individual uslubi va tormozlash vaqtidagi sharoitga bog'liq. Avtomobilni tormozlashga ketgan vakt $t_T$ g'ildiraklar blokirovka qilingan daqiqadan avtomobil to'xtaguncha o'tgan vaqt bilan o'lchanadi. Blokirovka qilingan g'ildirak yo'lda faqat sirpanib harakatlanadi va shuning uchun ham qora iz kodiradi. $t_T$ vaqtning qiymati tor-mozlanish boshlanmasdan oldingi tezlikning qiymatiga, yo'lning umumiy qarshilik koeffitsienti bilan bog'lik faktorlar (yo'lning tipi, ob-havo sharoiti va h.. k.) ga, avtomobil massasiga va boshqalarga bog'lik. Bundan tashqari, harakat xavfsizligi va samarali tormozlanish masalalarini hal etishda avtomobil butunlay to'xtashi uchun ketgan vakt $T_0$ va masofa $S_o$ kabi parametrlar ishlatiladi. Bunda $T_0$ - haydovchi to'siqni ko'rgandan avtomobilni to'xtatguncha ketgan vaqt, s; $S_0$ - haydovchi to'siqni ko'rgandan avtomobilni to'xtatguncha o'tilgan masofa, m.

Bu qiymatlar quyidagicha ifodalanadi: $T_0 = t_t+t_2+t_3+t_4+t_T$, s

$$S_o = S_1 + S_2 + S_3 + S_4 + S_T,\ \text{m}$$

Bu yerda: $S_1$ $S_2$ $S_3$ $S_4$ $S_T$ - $t_t$ , $t_2$, $t_3$, $t_4$, $t_r$ - vaqtlarda o'tilgan masofalar.

## Avtomobilning turg'unligi

Turg'unlik deganda avtomobilning surilish, sirpanish, ag'darilishga qarshilik ko'rsatish xususiyatlari tushuniladi. Avtomobilning bo'ylama va ko'ndalang turgunliklari bo'ladi. Bo'ylama turgunlikning yo'qolishi avtomobillarda juda kam uchraydi, u juda keskin nishabliklarda sodir etilishi mumkin.

SHuning uchun avtomobil turg'unligi xaqida gan ketganda, odatda, uning ko'ndalang turg'unligi ko'zda tutiladi. Avtomobilning turg'unligi bir necha ko'rsatkichlar bilan baholanadi. Bulardan asosiysi: aylana bo'ylab, harakatlanganda avtomobil surilishiga, (ag'darilishiga) sabab bo'ladigan eng katta tezlik; g'ildirakni ko'ndalang surilishiga sabab bo'ladigan eng katta qiyalik burchak; avtomobilni ag'darilishi boshlanishiga mos keladigan eng katta qiyalik burchak.

Yo'lda harakatlanayotgan avtomobil turg'unligi ko'p hollarda, uning og'irlik markazi balandligi, bazasi, koleyasi, shinalar o'lchami, konstruktsiyasi, holati, yo'lning egrilik radiusi va uning yuzasining holati, harakatlanish tezligiga bog'liq bo'ladi.

Sirpanchiq yo'llarda ag'darilishdan ko'ra, uning surilishi yoki sirpanishi ko'proq sodir bo'ladi. Tishlanish sifatlari yaxshi bo'lgan yo'llarda ag'darilish holatlari ko'proq bo'lishi mumkin. Og'irlik markazi yukori bo'lganligi uchun yengil avtomobillardan ko'ra, yuk avtomobillarining turg'unligi kamroq bo'ladi. Yuk avtomobillari yuklangan sari ularning og'irlik markazi balandga ko'tarilib turg'unligi yomonlashadi. Yuk avtomobili turg'unligining yo'qolishiga mahkamlanmagan yuklar ham sabab bo'lishi mumkin.

Burilishlarda maxkamlanmagan yuk yukxonadan siljib, devorga urilib, avtomobilni ag'darilishiga olib kelishi mumkin. Avtomobil tsisternalari yoki o'zi ag'daruvchi avtomobil suyuq (masalan, suyuq qorishma) yuklarni tashiganda ham shunday bo'lishi mumkin. Egrilik bo'ylab harakatlantanda suyuqlik tashuvchi avtomobillarning yuki bir devordan ikkinchisiga siljib, chayqalib turadi va u avtomobil turg'unligini yo'qolishiga olib keladi.

Avtomobilni ishlatish jarayonida o'zgaradigan ko'p sonli faktorlardan, uning turg'unligiga asosiy ta'sir kiladiganlari shina va tormoz tizimining texnik holatidir. SHina naqshlari yeyilgan sari yo'l bilan tishlanish yomonlasha boradi va tezlikni oshirish yoki tormozlashda yonga surilish ehtimoli oshadi. SHina naqshlari to'la yo'qolgan g'ildirakning tishlanish koeffitsienti, yangisiga qaraganda qariyb ikki barobar kam.

Sirpanchik yo'llarda surilishni oldini olish uchun ilashish mexanizmini ajratmasdan avtomobilni tormozlash yaxshi samara beradi, chunki bunda aylanayotgan yetakchi g'ildiraklarning dvigatel maxovigi bilan bog'langanligi ularni blokirovka bo'lishiga qarshilik ko'rsatadi.

SHibbalangan qorli va sirpanchiq yo'llarda turumlangan shinalardan foydalanish avtomobil turg'unligini ancha oshiradi. Bunday shinalar bilan sinalgan avtomobilning tormoz yo'li 2—2,5 baravar kamaygani aniqlangan. Turumlangan shinalar avtomobilni

barcha g'ildiraklariga yoki yetakchi g'ildiraklariga o'rnatilishi kerak. Oldingi o'qiga o'rnatilganda har bir tormozlashda orqa o'qni yonga surilishi oshib boradi. Yuk avtomobili tirkama yoki yarim tirkama bilan ishlatilganda, turumlangan shinalar birinchi navbatda tirkamaga o'rnatilishi kerak.

Hozirgi zamon pnevmatik shinalarga sirpanishni oldini olish uchun turum o'rnatiladi. U korpus va uzakdan iborat. Korpus po'lat va qo'rg'oshin qorishmasidan tayyorlanadi, korroziyaga chidamli bo'lishi uchun oksidlanadi. Ayrim hollarda plastmassadan yasalishi mumkin. O'zak qattik. qotishmadan aylanishga chidamlik qilib yasaladi. Turumning diametri yengil avtomobillar shinalarida 8—9 mm yuk, avtomobillarning yuk ko'tarish qobiliyatiga qarab 15 mm gacha bo'lishi mumkin. Uzunligi protektor qalinligiga qarab 10-30 mm. yo'l bilan kontaktda bo'lgan shina qismida 8—12 dona turum bo'lishi kerak. Turumning chiqib turgan qismi yengil avtomobillarda 1-1,5 mm yuk, avtomobillarda 3—5 mm bo'lsa, yaxshi foyda beradi.

## Avtomobilning boshqariluvchanligi

Boshqariluvchanlik deganda, avtomobilning haydovchi bergan yo'nalish bo'yicha harakatlanishini ta'minlash xususiyatiga aytiladi. Avtomobilning boshqa foydalanish xususiyatlaridan ko'ra, ko'proq. boshqariluvchanlik haydovchiga bilan bog'liq Boshqariluvchanlikni yaxshi ta'minlash uchun avtomobilning konstruktiv ko'rsatkichlari, haydovchining psixofiziologik tavsifnomasiga mos kelishi kerak.

Avtomobilning boshqariluvchanligi bir necha ko'rsatkichlar bilan baholanadi. Bulardan asosiysi: avtomobilni aylanma harakatlanishida egrilik traektoriyasining chekka qiymati, egrilik traektoriyasi o'zgarishida tezlik qiymatining chekka miqdori, avtomobilni boshqarishda sarflanadigan energiya miqdori, berilgan harakat yo'nalishidan avtomobilni o'z-o'zidan chetga chiqish qiymati mikdoridir.

Boshqariladigan g'ildiraklar yo'l notekisliklari ta'siridan doimiy ravishda o'zining neytral holatidan chetga chiqib turib, boshqariladigan g'ildirakning neytral holatini saqlashi va burilishdan keyin o'z neytral holatiga qaytish qobiliyatiga, boshqariladigan g'ildiraklar stabilizatsiyasi deyiladi. Boshqariladigan g'ildiraklar og'irlik va tezlik stabilizatsiya turlari bilan farqlanadi.

Og'irlik stabilizatsiyasi, oldingi osmaning shkvorenini ko'ndalang qiyaligi bilan ta'minlanadi. G'ildirak burilganda, shkvorenь ko'ndalang qiyaligi sababli avtomobil ko'tariladi, lekin u o'z og'irligi bilan burilgan g'ildirakni avvalgi holatiga qaytishiga harakat qiladi.

Tezlik stabilizatsiyasi momenti, shkvorenning bo'ylama qiyaligi natijasida vujudga keladi. SHkvorenь shunday joylashganki, uning yuqori uchi orqaga, pastki uchi esa oldinga yo'nalgan. SHkvorenь o'qi yo'lni, shina bilan yo'l kontakti oldidan kesib o'tadi. SHuning uchun avtomobil harakatlanish paytida, g'ildirashga qarshilik kuchi, shkvorenь o'qiga nisbatan stabilizatsiya momentini vujudga keltiradi.

## Avtomobilning o'tuvchanlik qobiliyati

Avtomobillarni o'tuvchanligi deganda, yo'lning notekis va o'tish qiyin bo'lgan joylardan kuzovni, pastki qismini tegdirmasdan harakatlana olish xususiyatiga aytiladi. Avtomobilni o'tuvchanlik qobiliyati ikki guruh ko'rsatkichlar bilan baholanadi: o'tuvchanlikni geometrik ko'rsatkichlari va o'tuvchanlik tayanch-tishlanish ko'rsatkichlari. Geometrik ko'rsatkichlar yo'l notekisliklariga avtomobil qismlarining

tegishi bilan baholansa, tayanch tishlanish ko'rsatkichlari o'tishi qiyin yo'l qismlari va yo'lsiz joylarda harakatlana olish xususiyati bilan baholanadi.

O'tuvchanlikda barcha avtomobillarni uch guruhga bo'lish mumkin:

- umumiy ishlarga mo'ljallangan avtomobillar (g'ildirak formulasi 4*2 va 6*4);
- yuqori o'tish qobiliyatli avtomobillar (g'ildirak formulasi 4*4 va 6*6);
- o'ta yuqori o'tish qobiliyatli avtomobillar, ular maxsus komponovka va. konstruktsiyaga ega, ularning barcha g'ildiraklari yetaklovchi ko'p o'qli bo'ladi, gusenitsali yoki yarim gusenitsali, avtomobil - amfibiya va boshqa turdagi yo'lsiz sharoitlarda harakatlanishga mo'ljallangan maxsus avtomobillar.

O'tuvchanlikning geometrik ko'rsatkichlarini ko'rib o'tamiz.

Eng past nuqta P — bu avtomobilning eng past nuqtasi bilan yo'lgacha bo'lgan masofa. Bu ko'rsatkich avtomobilning harakat yo'nalishida joylashgan to'siklarga urilmasdan harakatlanishini belgilaydi.

O'tuvchanlikning bo'ylama $r_{pr}$ va ko'ndalang $r_{pop}$ radiuslari - bu avtomobilning bazasi (koleyasi) ichida joylashgan eng pastki nuqta va g'ildiraklarga tegizib chizilgan aylana radiusidir. Avtomobil yo'lida joylashgan to'siqlar balandligi va qiyofasini belgilaydi. Ular qancha past bo'lsa, avtomobilning pastki nuqtalari ularga tegmasdan o'ta olish qobiliyati shuncha yuqori bo'ladi.

Oldingi va orqadagi osilish burchaklari yo'l yuzasi va oldingi yoki orqa g'ildiraklar va avtomobilning oldi yoki orqasidan osilib turgan qismining eng past nuqtasidan o'tkazilgan urunma orasidagi burchak.

Avtomobil o'ta olishi mumkin bo'lgan ostonaning eng balandligi yetaklanuvchi g'ildiraklar uchun g'ildirakning 0.35—0.65 radiusiga teng. Yetaklovchi g'ildiraklar uchun g'ildiraklar radiusiga teng bo'lishi mumkin, ayrim hollarda, ostonadan o'tolmaslikka avtomobilni tortish imkoniyati yoki yo'l bilan tishlanish sifati sabab bo'lmasdan, balki osilish burchagining kichikligi yoki eng past nuqtaning yo'lga tegishi sabab bo'lishi mumkin. Bu ayniksa, osilish (sves) burchagi kichik bo'lgan shahar va shahar atrofi avtobuslari uchun xarakterli (LiAZ-677, Ikarus-255). O'tish uchun kerak bo'lgan eng kam kenglik avtomobilning kichik radiusda burilishini baholaydi, masalan, karьerlardagi yuklash maydonchalarida shunday bo'lishi mumkin.

Gorizontal tekislikda avtomobilь harakat yo'nalishini o'zgartira olishi, alohida undan foydalanish xususiyati sifatida qaralishi mumkin. Tirkama yoki yarim tirkama bilan harakatlanganda avtomobil harakat yo'nalishini o'zgartirish ko'rsatkichi yomonlashadi, chunki avtopoezd burilishida tirkama burilish markaziga qarab siljiydi. SHuning uchun avtopoezd harakatlanish bo'lagining kengligi yakka avtomobilnikidan katta bo'ladi. O'tuvchanlikning tayanch-tishlanish ko'rsatkichlariga quyidagilar kiradi:



*-rasm.* Avtomobil o’tuvchanligining geometrik ko’rsatkichlari. $\rho_{pr}$ va $\rho_{pop}$ - o’tuvchanlikning bo’ylama va ko’ndalang radiuslari; $\alpha$ va $\beta$ — oldingi va orqadagi osilish burchaklari; $l_p$, $l_3$ — oldingi va orqadagi osilish masofalari; $h$ — avtomobilning eng pastki nuqtasi bilan yo’l oraligi ; $R_u$— yonlama kuch.

Maksimal tortish kuchi, past uzatmada avtomobil hosil qilishi mumkin bo’lgan eng katta tortish kuchi. Tishlashish og’irligi avtomobilni yetaklovchi g’ildiraklariga to’g’ri keladigan og’irlik kuchi. Tishlashish og’irligi qancha ko’p bo’lsa, o’tuvchanlik shuncha yuqori bo’ladi.

Tayanch yuzaga shinaning nisbiy bosimi, shinaga vertikal yukning kontakt yuzasiga nisbati bilan aniqlanadi.

Bu ko’rsatkich avtomobil o’tuvchanligi uchun katta ahamiyatga ega. Nisbiy bosim qancha kam bo’lsa, tuproq shuncha kam yemiriladi, g’ildirak izini chuqurligi shuncha kam bo’ladi, g’ildirash qarshiligi kamayib avtomobilning o’tuvchanligi yuqori bo’ladi.

Izning izga tushish koeffitsienti, oldingi g’ildirak izining orqa g’ildirak iziga nisbati bilan aniqlanadi. Oldingi va orqa g’ildirak izlari to’la moe tushganda, orqa g’ildirak oldingi g’ildirak izidan yurgani uchun dumalash qarshiligi eng kam bo’ladi. Oldingi va orqa g’ildirak izlari mos tushmaganda, oldingi g’ildirak qoldirgan iz devorlarini orqa g’ildirak yemirishi uchun qo’shimcha energiya sarflanadi. SHuning uchun yuqori o’tuvchanlikka ega avtomobillarning orqa o’qiga yakka shina o’rnatiladi va shu bilan g’ildirash qarshiligi kamaytiriladi.

## Haydovchining ish o’rni

Haydovchining ish o’rni kabinaning o’lchamlari, boshqarish jihozlarini ishga tushirishning qulayligi, o’rindikning holati va boshqaruv jihozlarini unga nisbatan joylashuvi, ish o’rnidagi muxitning ergonomik ko’rsatkichlari bilan tasniflanadi. Haydovchining ish o’rni haydovchining antropometrik (odam gavdasining o’lchamlari) va ruxiy fiziologik tasniflaridan kelib chiqqan holda rejalashtirilishi va jixozlanishi kerak. Haydovchini ish o’rnidan foydalanish xususiyatlari maishiy qulaylik (komfortnostь) deb nomlan adi.

O’rindiq - o’rindiq. taxtasi, yostiqcha, suyanchiq. va amortizatsiyalovchi qurilmadan tashkil topgan bo’ladi. O’rindiq taxtasiga uni sozlovchi va tutib turuvchi har xil qurilmalar biriktirilgan bo’ladi (masalan, suyanchiqning qiyalik darajasiini sozlovchi qurilma). Haydovchi o’rindikda qulay joylashib o’tirganida uning tana a’zolari ma’lum burchaklarni egallashi va boshqarish a’zolarini ishlatayotganida ortiqcha kuchanish talab qilmaydigan bo’lishi kerak (-rasm).




-rasm. Haydovchining o’rindiqda joylashuvining optimal holati

Haydovchining o’rindikda to’gri va noto’g’ri o’tirish holatlari pastdagi rasmlarda ko’rsatilgan (-rasm).



a) b) v)

-rasm. Haydovchining o’rindiqda to’g’ri (a) va noto’g’ri (b va v) o’tirgan holatlari.

## Haydovchi ish o’rnidagi boshqaruv jihozlari va ularning joylashuvi

Haydovchi avtomobilni yo’l sharoitidan kelib chiqqan holda boshqarishi kerak. Avtomobilning boshqarish jihozlari barcha hozirgi zamon avtomobillarida bir-biridan deyarli farq qilmaydi. Lekin avtomobilning rusumiga qarab, ularning joylashuvi va ishlash asoslari bir-biridan farq qilishi mumkin. SHuning uchun haydovchi o’ziga notanish bo’lgan avtomobilga o’tirishidan oldin uning boshqaruv jihozlari va joylashuvi bilan har tomonlama tanishib chikishi kerak. Neksiya avtomobilining asboblar taxtasi va boshkaruv jihozlari 5-rasmda ko’rsatilgan.




-rasm. Neksiya avtomobilining boshqaruv jihozlarining joylashuvi: 1. Yon tomonni shamollatish panjarasi; 2. Yon oynaning havo yo’naltirish soplosi; 3. CHiroqning yorug’lik dastalarini yo’naltiruvchi rostlagich; 4. Tumanga qarshi old chiroqlarni ulab-o’zgich; 5. Orqa oyna elektr isitgichining ulab-uzgich; 6. Burilish ko’rsatkichlarini va tashqi yoritish asboblarini boshkarish g’ildiragi; 7. Rul chambaragi; 8. Asboblar paneli; 9. Peshoyna va orka oynalar tozalagichlarini va yuvgichlarini boshqarish pishangi; 10. Avariya ishoralarini ulab-o’zgich; 11. Tumanga qarshi orqa fonarni ulab-uzgich; 12. Oyna tozalagichning ishlash tsikllarining chastotasini rostlagich; 13. Elektron soat; 14. Markaziy shamollatish panjarasi; 15. Narsalar solinadigan yashik; 16. Havo haroratini rostlagich; 17. Havo taqsimlash rostlagichi; 18. Magnitola; 19. Yondirgich-tutatgich; 20. Mayda narsalar uchun tokcha; 21. Kuldon; 22. Xavo konditsionerining ulab-uzgichi*; 23. Ventilyator ishlash rejimini almashlab ulagich; 24. Havo aylantirish rejimini ulab-uzgich; 25. Akselerator pedali; 26. O’t oldirish qulfi; 27. Tormoz pedali; *28.* Ilashma pedali; *29.* Ovoz signal tugmasi; *30.* Elektr saqlagichlar bloki; *31*. Bakning yonilg’i quyish og’zini ochish tugmasi; *32.* Yukxona qopqog’ini ochish tugmasi.

## Haydovchining ish o’rnidagi holati

Haydovchi avtomobilning boshqaruv jihozlari va ularning joylashuvi bilan tanishib chiqqach, avtomobilga o’tirishi mumkin. Buning uchun u avtomobil yoniga

kelib, chap qo’li bilan eshikni ochadi. Yon tomon bilan turib o’rindiqqa o’tiradi va eshikni yopadi.

So’ng o’rindiqqa qulay o’tirganligini baholaydi. Agar o’tirish noqulay bo’lsa, u o’rindikning holatini o’zgartirib optimal holatni tanlaydi. Bunda u chap oyog’i bilan ilashma tepkisini oxirigacha bosa oladigan, o’ng oyog’i esa tormoz tepkisini va gaz bosqichi orasida bemalol harakatlana oladigan bo’lishii kerak. Xavfsizlik kamarini taqqan paytda haydovchining ko’krak qafasi va kamarning tasmasi orasida bir kaft oraliqda tirqish qolishi kerak.

Avtomobilni joyidan qo’zg’atishdan oldin har bir haydovchi orqani ko’rish kuzgularini o’zi egallab turgan holatga mos ravishda sozlab olishi kerak. Kabina ichida joylashgan ko’zguning tekis yoki qavariqligi juda kichik bo’lishi maqsadga muvofiqdir.

Yon tomonga o’rnatilgan ko’zgular shunday sozlangan bo’lishi kerakki, undan haydovchiga ko’zgu o’rnatilgan tarafdagi qanotlarning oz qismi va yondagi kenglik bemalol ko’rina-digan bo’lishi kerak

Qo’llar rul chambaragini shunday ushlab turishi kerakki, haydovchi av-tomobilni bemalol boshqara oladigan va uzok, vakt davomida charchamaydigan bo’lishi kerak (-rasm).

-rasmda ko’rsatilgan qo’llarning holatini vaqti-vaqti bilan o’zgartirib turish kerak.

Qo’llarning holatini -rasmda ko’rsatilgandek o’zgartirib turish haydovchi-ning umurtqa pogonasini qotib yoki qiyshayib qolmasligini va oxiroqibatda haydovchilarda «Kasb kasalligining» paydo bo’lishining oldini oladi.




-rasm. To’g’ri chiziqli harakatda qo’l-larning holati




-rasm Qo’llarni o’zgartirib turish holatlari

Nazorat savollari:

1. Ekspluatatsion ko’rsatkichlarga qanday ko’rsatkichlar kiradi?
2. Tortish kuchi qanday aniqlanadi?
3. Qanday tormoz turlari mavjud?
4. Harakat tenglamasi nimani ifodalaydi?
5. Haydovchining ish joyi qanday jixozlanadi?
6. Aktiv va passiv xavfsizlik TV qanday xususiyatlarini belgilaydi?

## 15-MAVZU.

**Avtotransport korxonalarida harakat xavfsizligini ta'minlash. ATKning raxbari, muxandis–texnik xodimlarining, ekspluatatsiya bo'limi, ishlab chiqarish-texnika bo'limi, xodimlar bo'limlarining, harakat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha vazifalari. ATKning Harakat xavfsizligi xizmati. Harakat xavfsizligi xonasi va uni ishini tashkil etish.**

***Reja:***

1. *Avtotransport korxonalarining harakat xavfsizligini ta'minlashdagi umumiy vazfalari.*
2. *Avtotransport korxonasi texnik xizmat bo'limining harakat xavfsizligini ta'minlashdagi vazifalari.*
3. *Avtotransport korxonasi foydalanish bo'limining harakat xavfsizligini ta'minlashdagi vazifalari.*
4. *Avtotransport korxonasi harakat xavfsizligi xizmatining harakat xavfsizligini ta'minlashdagi vazifalari.*

Tayanch iboralar: ATKlarning xizmat bo'limlari; xizmat bo'limlarining o'zaro bog'liqligi; texnik xizmat; TVlarni saqlash; texnik xizmat turlari; nazorat texnik punktlari; ekologiya pasporti; foydalanish xizmati; dispetcherlik xizmati; haydovchilarning yo'riqnomalari; xodimlar bo'limi; mehnat intizomi; haydovchilarning malakalarini oshirish; xodimlarni tayyorlash va qayta tayyorlash;stajirovka; murabbiylar; tibbiy xizmat; tibbiy profilaktika; reys oldi va reysdan keyingi tibbiy ko'riklar; davriy tibbiy ko'rik; harakat xavfsizligi xizmati; harakat xavfsizligi xonasi; YTHlarini hisobga olish; YTH tahlili; jamoat komissiyalari.

### *Avtotransport korxonalarining harakat xavfsizligini ta'minlashdagi umumiy vazifalari.*

Avtotransport korxonalarida yo'l-transport hodisalarining oldini olish hamda mehnat va transport intizomini mustahkamlash ishlari direktorning bevosita rahbarligida harakat xavfsizligi muhandislari, murabbiy haydovchilar, kolonna boshliqlari, foydalanish, texnika xizmati, xodimlar bo'limi va jamoat tashkilotlarining xodimlari ishtirokida olib boriladi. Avtokorxonada direktorning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- yo'l harakati xavfsizligi bo'yicha hukumat qarorlari hamda korporatsiya, birlashma, kontsernlarning buyruqlarini aniq va o'z vaqtida bajarishni ta'minlash;

- yo’l-transprot hodisalari, transport intizomi buzilish sabablarini sinchiklab o’rganish va tahlil qilish, yo’l harakati xavfsizligi saviyasini yanada oshirish tadbirlari rejasini tasdiqlash;

- ko’p yil davomida avariyasiz ishlayotgan kolonna, brigada va haydovchilarning ilg’or tajribalarini o’rganish va ommalashtirish, bu ishda aholiga o’rnak ko’rsatgan shaxslarni butun choralar bilan rag’batlantirish;

- tasdiqlangan dastur bo’yicha maxsus kurslarda haydovchilar va ta’mirlovchi ishchilarning malakasini doimo oshirib borish, shuningdek, yil sayin yo’l harakati xavfsizligi Qoidalari va Asoslari bo’yicha seminar mashg’ulotlarini tashkil etishni ta’minlash;

- xavfsizlik xonasi ishini tashkil etishni nazorat qilish va lozim bo’lganda uni zamonaviy uskunalar va asboblar, o’quv-ko’rgazma qurollari bilan jihozlashga yordam ko’rsatish;

- har bir yo’l-transport hodisasi sodir etgan haydovchilar ular ishlaydigan korxona rahbari ishtirokida tekshirilishi, uning natijalari zudlik bilan mehnat jamoalarining navbatdan tashqari yig’ilishlarida tahlil qilinishi zarur;

- transport vositalarini haydovchilarning malakasi, ish staji, tajribasiga qat’iy mos keladigan qilib biriktirish kerak, avtobus va taksida ishlash uchun qabul qilishda esa haydovchilarning ahloqi va ishchanligiga alohida e’tibor berishi lozim;

- yo’l-transport hodisalarining oldini olish tadbirlarini o’tkazishda o’z o’rinbosarlari, bosh muhandis, harakat xavfsizligi bo’yicha katta muhandis, shuningdek, avtotransport korxonasi xizmati va bo’limlarining boshliqlari faol ishtirok etishi va ular bu sohasida o’z xizmat burchini og’ishmay bajarishini ta’minlash;

- jamoatchilikni (harakat xavfsizligi bo’yicha jamoat nazoratchilari, jamoat nazorati bo’yicha komissiya, o’rtoqlik sudi, jamoatchilik asosida chiqariladigan matbuot va sh.k) yo’l-transport hodisalari, yo’l-transport va mehnat intizomi buzilishining oldini olish ishlariga faol qatnashtirish;

- kolonnalar va ayrim haydovchilar o’rtasida yo’l-transport hodisalari va harakat xavfsizligi talablari buzilishining oldini olish bo’yicha musobaqa tashkil etish.

### *2. Avtotransport korxonasi texnik xizmat bo’limining harakat xavfsizligini ta’minlashdagi vazifalari*

Avtokorxonaning texnik xizmatiga Nizom bo’yicha direktorning birinchi o’rinbosari hisoblangan bosh muhandis rahbarlik qiladi

Texnik xizmati quyidagilarni bajarishi talab etiladi:

-harakatlanuvchi tarkibga texnik xizmatini ko'rsatish va joriy ta'mirlash jadvalini tuzish hamda uni muntazam va sifatli o'tkazish, yo'l harakati qoidalarining tegishli boblarida ko'rsatilgan nuqsonlarga ega bo'lgan transport vositalarini foydalanishga yo'l qo'ymaslik;

-avtotransport vositalarini yillik texnika ko'rigidan o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish jadvalini tasdiqlash;

-kapital ta'mirlashgacha normativ asosda yo'l yurgan avtomobillarni bundan keyin foydalanish uchun texnikaviy holatini aniqlash va bu haqda dalolatnoma tuzish;

-harakatdagi tarkibning texnikaviy nuqsonlariga ko'ra yo'ldan qaytib kelishini zudlik bilan tekshirib chiqish, buning sabablari, aybdor shaxslarni aniqlash va uni yo'qotish uchun tegishli tadbir belgilash;

-yangi avtomobillarni tuzatish xususiyatlari, ularga texnika xizmati ko'rsatish va ta'mirlash, shuningdek, texnikaviy holatini nazorat qilish uchun xodimlar bo'limi bilan birga haydovchilar va ta'mirlovchi ishchilarning texnikaviy o'qishini tashkil etish.

### *3. Avtotransport korxonasi foydalanish bo'limining harakat xavfsizligini ta'minlashdagi vazifalari*

Korxonaning foydalanish xizmatiga direktorning foydalanish bo'yicha o'rinbosari boshchilik qiladi bunday lavozim yo'q joyda foydalanish bo'limining boshlig'i rahbarlik qiladi. Foydalanish xizmati quyidagilarni bajarishi zarur:

- sharoitni aniq hisobga olgan holda avtomobillar ishini tashkil etish, harakat xavfsizligi xizmati bilan kelishib, avtomobillar harakati va yo'lga chiqish jadvalini tuzish. Harakat tezligi, yo'lovchilar oqimi va harakat tarkibini hamda haydovchilar ish tartibini belgilovchi boshqa ko'rsatkichlarni me'yorlash;

- avtomobillarning yo'lga chiqish va qaytish jadvalini tuzish, texnika xizmati bilan birgalikda transport vositalarini nazorat qilib, o'tkazish joyi tiqilib ketmasligini ko'zda tutish;

-shaharlararo qatnovda haydovchilarga harakat yo'nalishlaridagi dam olish, ovqatlanish, avtotransportga texnik xizmat ko'rsatish joylari va temir yo'lni kesib o'tadigan joylar, yo'llarning holati, ishning xususiyati va harakat xavfsizligini ta'minlashdagi ma'suliyatini tushuntirish;

-haydovchilarga yuk tashishda xavfsizlikni ta'minlash talablari haqida tushuncha berish, yuklarni avtomobilga taxlash, uni mustahkam bog'lash, avtomobilning chidamliligini ta'minlovchi gabarit va harakat vaqtida yuklarning tushib qolmasligiga ayniqsa e'tibor berishni tushuntirish;

-nogabarit yoki xavfli yuklarni, shuningdek, odamlarni tashishda harakat xavfsizligi talablari haqida haydovchilarga tushuncha berish;

### *4. Avtotransport korxonasi harakat xavfsizligi xizmatining harakat xavfsizligini ta'minlashdagi vazifalari*

Avtokorxona yo'l harakati xavfsizligi xizmati uning tuzilish bo'linmasi hisoblanib, korxona rahbariga bo'ysunadi va uning bevosita boshchiligida ishlaydi.

Yo'l harakati xavfsizligi xizmatining asosiy vazifasi haydovchilar va korxonaning turli bo'lim xodimlari tomonidan avtokorxona rahbarining avtomobil transportida yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash masalalari bo'yicha buyruq va ko'rsatmalarining bajarilishini muntazam nazorat qilib borish hamda yo'l-transport hodisalarining oldini olish bo'yicha zarur tadbirlarni ishlab chiqib, uni tadbiq etishdir.

Yo'l harakati xavfsizligi xizmati asosiy vazifalariga ko'ra quyidagilarni bajaradi:

-korxonaning boshqa xizmatlari va jamoat tashkilotlari bilan birga yo'l-transport hodisasining oldini olish tadbirlarini ishlab chiqadi, avtokorxona rahbari tasdiqlaydigan ish rejasini tuzadi;

-avtokorxona haydovchilari tomonidan yo'l qo'yilgan yo'l-transport hodisalari va yo'l harakati qoidalarining buzilishini hisobga oladi, yo'l harakati xavfsizligi bo'yicha hisobot tuzadi;

-belgilangan shaklda har bir haydovchiga shaxsiy varaqa yuritadi;

-korxona xizmatining yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash bo'yicha normativ hujjatlarning bajarilishini nazorat qiladi hamda aniqlangan nuqson va kamchiliklarni yo'qotish bo'yicha rahbariyatga takliflar beradi;

-avtomobillarni garajdan chiqarish va kiritish paytida nazorat punkti ishini vaqti-vaqti bilan tekshiradi, shuningdek, smena almashish paytida haydovchilar avtomobilni topshirish va qabul qilish tartibini saqlashini nazorat qilib boradi;

-korxonaning harakatlanuvchi tarkibi qatnashgan yo'l-transport hodisalari haqidagi ma'lumotlarni davlat avtomobil nazoratining bu to'g'risidagi ma'lumotlariga solishtirib boradi;

-avtokorxona rahbarlari bilan birgalikda xizmat yuzasidan tekshirish va tegishli hujjat tuzish uchun yo'l-transport hodisasi yuz bergan joyga boradi, uni belgilangan muddatda o'zi bo'ysunadigan yuqori tashkilotlarga ma'lum qiladi;

-foydalanish xizmati bilan birgalikda belgilangan muddatda avtomobil yo'llari, temir yo'lni kesib o'tish joylari, qaramog'idagi avtotransport yo'nalishi o'tadigan qiya yo'llarni tekshirib boradi;

-yo'l harakati xavfsizligini ta'minlagan va avariyasiz ishlagan haydovchilarni, yo'l-transport hodisalarining oldini olishda faol qatnashgan jamoatchilarni rag'batlantirish masalalari bo'yicha korxonaning buyrug'i, ko'rsatmasi va boshqa hujjatlari loyihasini ishlab chiqadi yoki ishlab chiqishda qatnashadi;

-jamoaning yo'l harakati xavfsizligi bilan bog'liq bo'lgan respublika va viloyat tadbirlarida qatnashishini tashkil etadi;

-avtokorxona haydovchilarining qoida, yo'riqnoma va boshqa normativ hujjatlarni buzganligi haqidagi materiallarni tekshiruv komissiyasi ishida qatnashadi.

## 16-MAVZU.

## Xavfli yuklarni tashish. Xavfli yuklarni tashishga ruxsat olish. Xavfli yuklarni tasniflanishi. Xavfli yuklarni tashishda harakat xavfsizligini ta'minlashning asosiy tadbirlari.

Reja:

1. Xavfli yuklar va ularning turlari.
2. Xavfli yuklarni tashish talablari.
3. Xavfli yuklarni tashishga tayyorgarlik va talab etiladigan xujjatlar.

TAYaNCH IBORALAR:
Xavfli yuk, portlovchi modda, gazlar, ishqorlar, zaxar, yuqumli, radiatsiya zanch, sertifikat, EUO (XAT) favqulotda xolat, BMT raqamli yo'lanish varag'i, kuzatuvchi.

Xavfli yuk deb –materiallar, moddalar, ulardan tayyorlangan mahsulotlar ishlab chiqarish va boshqa xo'jalik ishlari o'zining xossalari va chiqindilarni aloxida xolatlari bilan ularni tashish (olib yurish) vaqtida insonlar xayotiga va sog'lig'iga, atrof-muxitga zarar yetkazuvchi xamda moddiy boyliklarining buzilishiga yoki umuman yo'q qilinishiga olib keluvchilarga aytiladi.

Xavfli yuklar GOST 19433-88 "Xavfli yuklar"ga asosan ro'yxati belgilanib sinflarga va toifalarga ajratiladi. Mazkur me'yoriy hujjatga asosan ularning to'liq, ro'yxati bo'yicha modda va buyumlarning tashish, yuklash va tushurish , saqlash vaqtlarida portlash, yong'in chiqish yoki transport vositalari omborlar, jixozlari, bino qurilmalarni zararlanishi oqibatida odamlarni va xayvonlarni o'lishiga, shikastlanishiga zararlanishiga, kuyishiga, nurlanishiga, va boshqa kasalliklarga chalinishiga olib kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Ayniqsa xavfli yuklarning ta'siridan atrof- muxit ko'p zararlanishi kuzatiladi.

Transport vositalarida tashilayotgan xavfli yuklar ta'sirida xayvonot olami va o'simliklarga tuzatib bo'lmaydigan xolatda ta'sir bo'lishi mumkin. Xavfli yuklar ta'sirida tabiatda sezilarli muvozanatni buzuvchi xolatlari vujudga kelishi ularga nisbatan e'tirozlarni keltirib chiqaradi. Misol tariqasida suv xavzalariga neft va ximiya maxsulotlari chiqindilarni tushishi xayvonot dunyosiga, o'simliklarni o'sishiga katta zarar yetkazishi mumkin.

Umuman olganda yuklarni fizik, ximik, biologik xossalariga muvofiq odamlarga, texnikaga, qurilmalarga va atrof ofatlarga sabab bo'lishi mumkin bo'ladi.

Xavfli yuklarninng ro'yxati bir necha ming nomlar bilan belgilangan. Xamma xavfli yuklar ro'yxati bo'yicha turlariga ajratilib BMTning maxsus "Oranjevuyu"(qizg'ich) kitobiga kiritilgan. Bu kitobni yozilishidan qutilgan maqsad xar-xil davlatlarda va tillarda o'qishni qiyinchaliklarini bartaraf etish uchundir. Sanoati rivojlangan davlatlarda xavfli yuklarning 60% ortig'ini avtomobil transporti yordamida tashiladi. Xavfsiz tashishni tashkil etishda ilmiy asoslangan xavfli yuklarni tartiblariga rioya qilish judayam zarur bo'ladi. Afsuski, xavfli yuklarni tashish jarayonida yo'l qo'yilgan kamchiliklar ko'pincha insonlarning xayoti bilan va katta moddiy xamda ijtimoiy zaralarga olib kelishi kuzatiladi.

O'zbekistonda avtomobil transporti yordamida neft va neft maxsulotlari, gazlar, zararli moddalar, yengil alanga oluvchi moddalar, maxsulotlar kabilar ko'p miqdorda tashilmoqda. Bularga yana zarar tarqatuvchi moddalarni xam aytib o'tish to'g'ri bo'ladi.

## Xavfli yuklarning turlari

Xavfli yuklar asosan 3 ko'rinishdagi ta'siriga ega, bularga:

1. Fizik va ximyoviy xususiyatlar.
2. Sog'liqqa zarari.
3. Atrof muxitga zarari.

Xavfli yuklarni xavfliligiga asos bo'luvchi xolatlarga muvofiq ular 9 ta turga bo'linadi:

1 turi – portlovchi moddalar
2 turi – gazlar
3 turi – oson alanga oluvchi suyuqliklar
4 turi- yengil alanga oluvchi moddalar (buyumlar, maxsulotlar).
5 turi-ishqorlar
6 turi- zararli va yuqumli moddalar
7 turi-radiatsiya tarqatuvchi moddalar
8 turi-zanglatuvchi moddalar
9 turi-boshqa xavfli modda va maxsulotlar

Xavfli yuklarni tashuvchi transport vositalarini maxsus belgilari bilan belgilash tizimlarini ishlab chiqilgan. Bu belgilarda aloxida ranglar aniq ma'noni anglatilishi ko'rsatib o'tilgan.

***Qizich rang***- portlovchi moddalar to'g'risida axborot bo'ladi.

***Qizil rang***- yengil alanga oluvchi moddalar tashiganda belgilanadi.

***Yashil rang***-yonmaydigan zaxarli bo'lmagan gazlar.

***Xavo rang***- suv bilan reaksiyaga kiruvchi moddalar

***Sariq rang***- ishqorli moddalar

***Oq rang-*** zaxarli moddalar

***Qora-oq rang*** -boshqa xavfli moddalar

Transport vositalarining texnik xolati GOST 25398-75 yuk avtomobillari, gost 3163-76 “Avtomobillarga tirkama va yarim tirkamalar ”da talab etilgan xolatlarda mos ravishda jixozlanishi bilan chiqarish trubalarini radiator oldida o’ng tomonga ag’darilgan xolda o’rnatiladi va bunda u uchqun o’chiruvchi bilan jixozlanadi. Yoqilg’i baklari va ularni qo’shimcha jixozlashga e’tibor berish kerak bo’ladi, ya’ni xar xil urulishlardan saqlovchi g’iloflarni qo’llash. Elektr tizimida xam nosozliklar bo’lishiga imkon bermaslik. Xar bir transport vositasi xavfli yuklarni tashish vaqtida qo’shimcha qo’yidagi jixozlar bilan taminlanishi kerak:

- Ikki dona “harakat taqiqlanadi” yo’l belgiisi bilan.
- Extiyot uskunalari majmuasi.
- O’t o’chirish jixozi 2 dona
- TV si turiga qarab 2 donadan kam bo’lmagan yurib ketishini qaytaruvchi tayanch.
- Miltillab yonuvchi xolatda to’xtash belgisi bilan
- Tibbiyot aptechkasi
- Ko’pgina xolatda maxsus ximoya vositalari bilan
- Ximoya nomasi
- Belkurak va ikki dona xavflilik to’g’risida axborot beruvchi(SIO)chi xavflilik axboroti tizimi.

3. Xavfli yuklarni tashishga tayyorgarlik jarayonlarida transport vositalarini jixozlash bilan yana ularni tashish uchun kulay yo’lanishlarini aniqlash bu yo’lanishlarda xarakat xavfsizligini tashkil etuvchi ma’sul tashkilotlar bilan rejalar tuzish xamda xaydovchilarni xavfli yuklarini tashish ishlarini bajarishga tayyorgarlik ishlarini xam bajarish kerak bo’ladi.

Buning uchun xavfli yuklarni olib yurish uchun belgilangan yo’l yo’lanishlarida axoli yashash joylari, ayniqsa bolalar muassasalari va ommaviy yig’imlar o’tqaziladigan joylardan iloji boricha uzoqroqdan o’tishni taminlash kerak bo’ladi. Yo’lanishda majburiy va extiyoj uchun to’xtash joylari, aloqaga chiqish mumkin bo’lgan yoki birinchi yordamni berishi imkoniyati bo’lgan joy va muassasalar ko’rsatiladi. SHu bilan birga yilda yoqilg’i bilan ta’minlovchi punktlar va ulardan qanday foydalanish tartiblari belgilab o’tiladi. Yo’lanish bo’yiga yo’l bo’laklarida ruxsat etilgan aloqa tezligi belgilab qo’yiladi. Xuddi shunday yo’lanishdagi xavfli yo’l bo’laklarini aloxida qayd etilgan bo’lishi kerak.

Tanlangan yo’lanish ma’sul bilan kelishiladi va quyidagi xujjatlar toyyorlanadi.

1. Xavfli yuk tashuvchi transport vositasi sertifikati uni jixozlanganligi va maxsus yukni tashish uchun tayyorligi to’g’risida.
2. Xavfli yukni tashish uchun belgilangan yo’lanish chizmasi.

3. Xavfli yukni tashuvchi xaydovchining tayyorlanganligi to'g'risida ma'lumot.

Yuqorida qayd etilgan xujjatlar asosida xavfli yuklarni tashish to'g'risidagi yo'lanish chizmasi. Yuk tashishdan 10 sutka oldin kelishilgan bo'lishi kerak. Ba'zi tafsilotlar bo'yicha o'zgarishlar tuzilsa qayta kelishilsa kerak bo'ladi.

Yo'lanish chizmasi DYXXB tomonidan kelishilgan xolda transport vositasining xavfli yuklardan qaysi birini tashish uchun jixozlanganligi xam DYXXBda texnik ko'rikdan o'tkazilib ular tomonidan maxsus nusxadagi sertifikat beriladi.

Xaydovchilarni xavfli yuklariga tashishga tayyorlash ishlari xavfli yuklarni tashuvchi transport korxonasi tomonidan amalga oshirilib xaydovchi sinovlardan o'tgan xolda unga maxsus guvoxnoma beriladi. Guvoxnoma transport korxonasi raxbari tomonidan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Xavfli yuklarni tashuvchi xaydovchining ish tartibi mexnat kodeksida ko'rsatilgan talablarga qat'iy rioya etish so'raladi.

Yo'lanishda transport vositasida nosozliklar paydo bo'lgan yoki xalokatli xolatlar yuzaga kelgan xollarda tezda transport vositasi xavfsiz joyni tanlangan xolda aksincha uni iloji bo'lmasa yo'l bo'lagida tezda transport bo'lagida transport vositasini ximoyalovchi to'siq ya'ni xalokat va yul belgilarini kerakli masofada o'rnatish kerak bo'ladi. Xamda bu xaqida tezda kerakli joylarga xabar yetkazish, xamda nosozlikni bartaraf etish choralarini ko'rish kerak bo'ladi. Transport vositasining old va orqa tomonlarida o'rnatilagn XAT (SIO) belgisida qayd etilgan axborot bo'yicha xavfsizlik choralarini ko'rish talab etiladi.

**Nazorat savollari**

1. BMT ning ro'yxati bo'yicha ko'rsatilgan raqam nimani anglatadi?
2. Favqulotda bajariladigan ishlar tartibi qaerda ko'rsatilgan?
3. SIO (XAT) nima?
4. Xavfli yuk tushunchasi?
5. Xavfli yuk tashuvchi xaydovchi guvoxnomasi kim tomonidan beriladi?
6. Transport vositasida xavfli yukni tashish sertifikati qanday beriladi?
7. Xavfli yuklarning turlari?
8. Yo'lanishlari kelishish tartibi qanday?

## 17-MAVZU.

## YTHda jaroxatlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish.Tibbiy yordam ko'rsatish bosqichlari. Jarohatlanda va qon oqishda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish. Nafas olish va yurak urishi to'xtaganda birinchi yordam ko'rsatish.

**Reja:**

*1. YTH da jarohatlanganlarga 1-tibbiy yordam ko'rsatish.*

*2. Tibbiy yordam ko'rsatish bosqichlari.*

*3. Jarohatlanganda va qon tomirlar shikastlanganda birinchi yordam ko'rsatish.*

*4. Nafas olish va yurak urishi to'xtaganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish.*

***Tayanch iboralar***: Tibbiy yordam; tibbiy yordam ko'rsatish bosqichlari; tibbiy ko'rikdan o'tish muddatlari, jarohat, bemorni ko'tarish, bemorni tashish, qon tomirlar shikastlanishi, sun'iy nafas.

Yo'l-transport hodisalari jarayonida ro'y berayotgan shikastlanishlar katta ijtimoiy muammolarga aylanmoqda. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarning ko'pchiligi avtoavariyalarning epidemiyasiga yo'liqgan bo'lib, undan katta zarar ko'rsatmoqda.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, yo'l-transport hodisalariga uchraganlarga birinchi daqiqalarda tibbiy yordam ko'rsatish ko'p jihatdan ular hayotini saqlab qolishga bog'liq bo'ladi. Yapon mutaxassislarining fikricha, shikastlangan kishi klinik o'lim holatida 3 daqiqagacha bo'lsa, hayotni saqlab qolish ehtimoli 75% tashkil qiladi. Bu vaqt 5 daqiqaga cho'zilsa, hayotni saqlab qolish ehtimoli 25 % gacha kamayadi. Agar 10 daqiqadan ko'p vaqt o'tsa, odamni hayotini saqlab qolib bo'lmaydi.

N.V.Sklifosovskiy nomidagi tez yordam ilmiy tadqiqot institutning ma'lumotlariga ko'ra, yo'l-transport hodisalarida o'lganlarning taxminan 17% ning sababi qon oqish, nafas bug'ilishi va boshqa lozim bo'lgan tibbiy tez yordam ko'rsatilmagan holatlar tufayli ro'y bergan. Yo'l-transport hodisalarida og'ir shikastlanganlarning 60% fojea joyiga, 8 % davolash muassasasi yo'lida o'limi aniqlangan.

Yo'l-transport hodisasiga jabrlanganlarning shikastlanish darajasiga qarab jinoyat ko'rib chiqiladi. YTH oqibatida jabrlangan shaxs o'lganda haydovchiga juda katta javobgarlik yuklatiladi. YTH da o'lganligini aniqlash uchun, xodisadan keyin odam o'lgangacha o'tgan muddat bilan aniqlanadi. Turli mamlakatlarda bu muddat turlicha belgilangan. Masalan: Polsha va Vengriyada bu muddat 2 kun, Avstriyada 3 kun, Frantsiyada 6 kun, Italiya, Rossiya va O'zbekistonda 7 kun deb belgilangan. BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasining belgilashicha, avariyadan keyingi 30 kun orasida o'lganlar, YTH oqibatida o'lganlar hisoblanadi.

Jinoiy javobgarlik kodeksiga asosan og'ir tan jarohati, uncha og'ir bo'lmagan va yengil jarohatlarga bo'linadi. YTH da haydovchining javobgarligi ana shu jarohatlanish darajasi bilan belgilanadi.

Og'ir tan jarohatlariga, hayot uchun xavfli bo'lgan, eshitish, ko'rish gapirish, qo'li, oyog'ini yo'qotgan, sog'ligi izdan chiqgan, mehnat qobiliyatini 35% ga yo'qotganlar hisoblanadi.

Uncha og'ir bo'lmagan tan jarohatlariga hayot uchun uncha xavfli bo'lmagan, tan a'zolari va funktsiyalari yo'qolmagan, sog'ligi 4 xaftadan ko'proq muddatda izdan chiqqan, mehnat qobiliyatini 15-35% gacha yo'qotganlar hisoblanadi.

Engil tan jarohatlariga sog'ligini yo'qotib, 28 kungacha davolangan va mehnat qobiliyatini 15% gacha yo'qotganlar kiradi.

Barcha transport vositalarining haydovchilari O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilangan tartibda tibbiy ko'rikdan o'tishlari shart. Har bir haydovchi haydovchilik guvohnomasi olishdan oldin va 6,1 jadvalda keltirilgan muddatlarda tibbiy ko'rikdan o'tadilar. Transport vositalarining haydovchilarini dastlabki tarzda majburiy va keyinchalik vaqti-vaqti bilan tibbiy ko'riklardan, shu jumladan, yo'lga chiqish oldidan va yo'ldan qaytgandan keyin tibbiy ko'riklarda o'tish «Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risidagi» qonunning 17-moddasida ham keltirilgan.

Agar davlat yo'l harakati xavfsizligi va transport korxonalaridagi mansabdor shaxslarda haydovchining sog'ligiga nisbatan shubha bo'lsa, unga belgilangan

muddatlardan oldin tibbiy ko'rikdan qayta o'tish uchun yo'llanma berilishi mumkin. Haydovchilarni tibbiy ko'rikdan qayta o'tish haqidagi qaror DYHXX boshqarmasiga bo'lim va bo'linmalari boshliqlari va ularning o'rinbosarlari, ular bo'lmaganda esa ichki ishlar bo'limi boshlig'i va ularning o'rinbosarlari tomonidan qabul qilinadi.

| № | Transport vositalarining nomlari va tasniflari | Tibbiy ko'rik muddati |
|---|---|---|
| 1. | Barcha turdagi mototsikl va mopedlar | 3 yilda 1 marta |
| 2. | To'la og'irligi 3500 kg dan oshmaydigan, o'rindiqlari haydovchilarnikidan tashqari 8 dan oshmagan avtomobillar «V» toifasi | 3 yilda 1 marta |
| 3. | Yuk tashiydigan, to'la og'irligi 3500 kg dan oshadigan avtomobillar, «S» toifasi | 3 yilda 1 marta |
| 4. | Yo'lovchilarni tashishga mo'ljallangan va o'rindig'i haydovchilarnikidan tashqari 8 ta bo'lgan avtomobil «D» toifasi | 3 yilda 1 marta |
| 5. | SHatakchi transport vositalari tarkibi V, S yoki D, Ye toifalari | 3 yilda 1 marta |
| 6. | Trolleybus, tramvay | 3 yilda 1 marta |
| 7. | Barcha toifadagi nogironlar | 2 yilda 1 marta |
| 8. | Nogironlar motokolyaskalari | 2 yilda 1 marta |
| 9. | Barcha turdagi haydovchilar: -stajirovkani o'tgan, haydovchi huquqiga ega nogiron<br>-55 yoshga to'lgan erkaklar, 50 yoshga to'lgan ayol haydovchilar, ulug' vatan urushi qatnashchilari | 1 yilda 1 marta<br><br>2 yilda 1 marta |

## 17.1. Jarohat haqida asosiy tushuncha

Odam badani to'qimalarining, biror bir a'zosining yoki butun organizmning shikastlanishiga jarohatlanish deyiladi. Bularga: jarohat, kuyish, sovuq urish, lat yeyish, chiqish, sinish, bosh miyaning lat yeyishi va ichki a'zolarining shikastlanishi kiradi. Teri butunligi buzilishi oqibatida jarohat paydo bo'ladi.

Jarohatlar paydo bo'lish xususiyatiga qarab kesilgan, chopilgan, so'kilgan, ezilgan, yirtilgan, o'q tekkan va tishlangan bo'lishi mumkin. YTH da ko'pincha jarohatlar ezilgan, yirtilgan bo'ladi. Bunday jarohatlar ancha og'ir bo'ladi. Bu jarohatlar atrofida ko'p miqdorda faoliyatsiz to'qimalar bo'ladi. Ular o'z vaqtida olib tashlanmasa iflosligi natijasida hayot uchun xavfli juda og'ir kasalliklar-stolbnyak yoki gangrenaga olib kelishi mumkin. Bu asosan jarohat atrofidagi kirlardan qonga kasallik keltirib chiqaruvchi mikroblarning tushishi natijasida vujudga keladi.

Jarohatdagi mikroblarni yo'qotish yoki kuchsizlantirish tadbiriga antiseptika, mikroblar jarohatga tushishini oldini olishga aseptika deyiladi.

Jarohatga imkoni boricha toza yuvilgan qo'l bilan ishlov beriladi. Agar buni iloji bo'lmasa qo'lni spirt, benzin bilan artib tirnoqlarga yod surtiladi. Jarohat atrofiga yod, spirt yoki etillanmagan benzinni ehtiyotlik bilan surtish kerak. Agar bu vositalar jarohatga tushsa uni kuydirib, bitishini qiyinlashtiradi.

Agar jarohatdan qon oqayotgan bo'lsa avval qon oqishini to'xtatib keyin unga bog'lov qo'yiladi. Buning uchun individual bog'lov paketi, bint paxta, doka va boshqa toza materiallardan foydalanish lozim.

Jarohatni suv, spirt, yod bilan chayish, unga kukun sepish, malham qo'yish mumkin emas.

Jarohatdan ilik, o'pka, ichak chiqib turgan bo'lsa u toza doka yoki mato bilan yopiladi, lekin ichkariga itarish mumkin emas.

Qo'l-oyoqning ko'p qismi shikastlanganda unga bog'lov qo'yilgandan keyin harakatsizlantirish kerak.

Bog'lov yopishtirib qo'yilishi, lekin qismasligi kerak. Bog'lov qo'yishda eng yaxshisi individual bog'lov paketidan foydalanish ma'qul, chunki unda steril bog'lov materiallari bor. Yo'lda birinchi tibbiy yordam ko'rsatishda qo'l ostida bog'lov materiallari bo'lmaganda, qo'l keladigan materiallardan: matolar, yo'l aptechkasi, uy aptechkasi va boshqalardan foydalanish mumkin.

## 17.2. Tibbiy yordam ko'rsatish tartibi va tashkil qilish printsiplari

Yo'l-transport hodisasida shikastlanganlarga tibbiy yordam ko'rsatish 3 bosqichda amalga oshirish ko'zda tutiladi:

**Birinchi** - hodisa joyida. Bu - o'zi o'ziga yordam ko'rsatish va hodisa joyida bo'lgan odamlarning yordami, hamda chaqirilgan tibbiyot xodimlari ko'rsatgan yordamdan iborat.

**Ikkinchisi** - shikastlanganlarni davolash muassasiga olib borishda yo'lda ko'rsatiladigan yordam.

**Uchinchi** - davolash muassasasidagi yordam.

Davolash-profilaktika korxonalarini, avtomobil yo'llarining qismlariga birkitish va bu yo'llarda tibbiy yordam olishni bildiradigan 6.1 va 6.2 yo'l belgilari bilan belgilab qo'yish ko'zda tutilgan. Tibbiyot xodimlari boshqaradigan avtomobillarga o'rnatish uchun taniqlik belgi mavjud. Bunday belgilar yo'l-transport hodisasida shikstlanganlarga malakali yordam ko'rsata oladigan hakimlarning (vrach) avtomobillariga o'zlari xohish bildirgan taqdirda o'rnatiladi. Bunday hakimlar ro'yxatini davolash muassasasining bosh hakimi tuzadi va joylardagi sog'liqni saqlash tashkilotlari tasdiqlaydi. Hakimlar boshqaradigan avtomobillar taniqlik belgisi bilan belgilanganda, ularga guvohnoma va bemorlar yoki shikastlanganlar hayoti xavf ostida qolganda yordam ko'rsatish uchun transport vositalaridan tekin foydalanish huquqini beradigan talon beriladi.

## 17.3. Tibbiy yordam ko'rsatish talabi

Yo'llarda harakatlanish qoidalarining 5.1 bandiga asosan, yo'l-transport hodisasi sodir bo'lganda haydovchi: darhol to'xtashi, transport vositasi majburan to'xtaganini bildiruvchi chiroqni yoqishi yoki belgi o'rnatishi, transport vositasini va hodisaga dahldor buyumlarni kuzgatmasligi, shikastlanganlarga birinchi tibbiy yordam berish uchun zarur choralarni ko'rishi, "tez tibbiy yordam" xizmatini chaqirish, agar buning imkoni bo'lmasa, shikastlanganlarni o'z transportida yoki boshqa yo'lovchi transportida yaqin oradagi davolash muasssasasiga olib borishi, u yerda o'z ismini, transport vositasining davlat raqamini aytishi va voqea sodir bo'lgan joyga qaytib kelishi shart.

Bu qoidalarga rioya qilmagan haydovchilar jinoiy javobgarlikka tortiladilar.

### 17.4. Bemorni mashinadan chiqarish, ko'tarish va tashish

Yo'lda avtomobil fojiasi sodir bo'lganda, mashina ichidagi shikastlangan kishiga birinchi tibbiy yordam berish uchun, avvalo uni mashinadan ehtiyotkorlik bilan olib chiqish va yechintirib, keyin yordam berish kerak. Buning uchun shoshmasdan birinchi navbatda mashina ichida odam ko'p bo'lsa, ularning hammasini ko'rib, qay biri og'ir shikastlanganligini aniqlab va unga birinchi navbatda tezda yordam berish kerak. Tez kelayotgan mashina to'siqqa urilganda ichidagilarning oyoq yoki qo'llari mashina qismlari orasiga qisilib qolishi mumkin. Bunday hollarda iloji boricha bemorga ozor bermasdan olib chiqiladi. Buning uchun temir asboblar, montirovka, lom va boshqalardan o'rinli foydalanish mumkin.

SHikastlangan odamni mashinadan olib chiqishdan oldin uning qaeri jarohatlangan yoki shikastlanganligini aniqlash va shunga qarab yordam berishni tashkil qilish lozim. Agar qon tomirlaridan - arteriyadan qon oqayotgan bo'lsa, uni darhol avval barmoq bilan bosib to'xtatib rezina jgut qo'yiladi. Qo'l yoki oyoq qiyshayib qolgan bo'lsa, albatta shu suyak singan bo'ladi. Gavdaning qiyshayib turishi yoki shikastlangan kishini qiyshayib yotishi uning bexushligini yoki miyasi jarohatlanganligini bildiradi. Bunday hollarda bemor holatini o'zgartirmasdan mashinadan olib chiqishga to'g'ri keladi. Bemorni mashinadan olib chiqishdan avval birinchi tibbiy yordamni berish uchun tayyorgarlik ko'rishni unutmaslik kerak. Qish vaqtida bemorni o'rab-chirmab qo'yish kerak, chunki shikastlangan kishi sovuqqa chidamsiz bo'ladi. Bunday hollarda avval iloji bo'lsa, bemorni yaqin o'rtadagi uyga, yoki avtobusga olib kirib, u yerda unga birinchi tibbiy yordami ko'rsatiladi. Bemorni mashinadan olib chiqishga ikki yoki uch kishi qatnashishi kerak, buning uchun haydovchi va yo'lovchilar yordamlashishi zarur.

### 17.5. Qon tomirlar shikastlanganda birinchi yordam berish

Qon tomirlar shikastlanganda arterial, venoz va parenximatoz qon oqishlar bo'ladi. Agar qon jarohatdan tashqariga oqayotgan bo'lsa, buni tashqi qon oqish deb ataladi. Jarohatlangan tomirdan to'qimaga, ichki organlarga - ko'krak yoki qorin bo'shligiga oqayotgan bo'lsa, buni ichki qon oqish deyiladi.

Qon oqishni to'xtatishning ikkita usuli bor: bulardan biri - vaqtincha bog'lab qo'yish, tomirni suyakka bosib turish va ikkinchi usul - butunlay to'xtatish, bunday qon oqishini jarrohlik yo'li bilan to'xtatiladi. Transportdan shikastlanganda ba'zi hollarda hayot uchun xavfli bo'lgan arterial qon oqishi kuzatiladi, u arteriya zararlanganda sodir bo'ladi. Arterial qon oqishida qon bosim bilan oqib turadi va uning rangi och qizil bo'ladi, agar qon oqishi zudlik bilan to'xtatilmasa, bemor oz vaqt ichida ko'p qon yo'qotib qo'yishi mumkin. Bu hayot uchun xavflidir. Arterial qon oqishishi to'xtatish tibbiy yordam ko'rsatishning eng birinchi chora-tadbiri hisoblanadi. Arterial qon oqishini to'xtatish hammani qo'lidan keladigan oson va tezkor usuli, jarohatlangan joy teparog'idan arteriyani barmoq bilan bosib turishdir. Arteriya suyak yoniga yaqin joydan yoki uning ustidan o'tgan bo'lsa, uni bosib turish juda oson bo'ladi.

Son arteriyasi chov sohasida, chanoqning qov suyagiga musht bilan bosiladi. Boldir yoki oyoq panjasi sohasidagi jarohatdan arterial qon oqqanda arteriya taqim chuqurchasi sohasida bosiladi, buning uchun bosh barmoqlar tizza bo'g'inining oldingi yuzasiga quyiladi, qolgan barmoqlar bilan arteriya sukka bosiladi.

Arteriyalarni barmoq bilan bosish ko'p kuch sarflashni talab etadi va bu tadbirni hatto jismonan kuchli va chiniqqan kishi ham 15-20 daqiqadan ortiq bajara olmaydi. SHunga ko'ra tomirni barmoq bilan bosib, imkon bor joyda zudlik bilan jgut yoki zakrutka solish va sterial bog'lab qo'yish kerak.

Jgut (zakrutka) solish oyoq-qo'lning yirik arterial tomirlari shikastlanganda, qon oqishini vaqtincha to'xtatishning asosiy usulidir. Jgut son, boldir, yelka va bilakka solinadi. Tasmasimon rezina jgut bir uchida metalldan yasalgan ilgagi va ikkinchi uchida zanjirchasi bo'lgan uzunligi 1-1,5 metrlik elastik rezina tasmadan iborat. Uni ilgak va zanjircha bilan mahkamlab bog'lanadi. Naysimon rezina jgut uzunligi 1 metr keladigan elastik naychadan iborat.

Jgut qon oqayotgan joydan yuqoriga, jarohat yaqiniga, terini siqib qo'ymaslik uchun kiyim yoki yumshoq bint ustidan bog'lanadi. Jgutni qonni to'xtata oladigan kuch bilan bog'lanadi. To'qimalar juda qattiq bosilganda oyoq qo'lning nerv stvollari ko'proq shikastlanib qoladi. Jgut yetarlicha qattiq solinmasa bu xolda aretrial qon oqishi kuchayadi, chunki bunda oyoq qo'lning nerv stvollaridan venalarigacha bosilgan bo'ladi.

Jgut solingan kuni, soati va daqiqasi yoziladi, qog'oz jgut ostiga ko'rinib turadigan qilib qistirib qo'yiladi. Jgut bog'langan oyoq, qo'lni, ayniqsa, qishda issik qilib o'rab qo'yiladi, biroq uni grelka bilan isitish mumkin emas. Jgut qo'yilgandan so'ng 2 soat o'tgan hollarda arteriyani barmoq bilan bosish, jgutni asta-sekin, pulsni hisoblab turib 5-10 daqiqaga bo'shatish va uni avvalgi joyining yuqorirog'idan yana solish kerak. Jgutni щu tariqa vaqtincha yechish har soatda zararlangan kishiga jarrohlik yordam ko'rasatishga qadar takrorlanadi va har gal bu haqida yozib boriladi. Naysimon jgut uchida zanjirchasi va ilgagi bo'lmasa uchlari tugun qilib bog'lanadi.

Jarohatdan asta-sekin oqim bilan pulьsatsiya qilmay oqib chiqadigan to'q-qizil rangli qon oqishiga, venadan qon oqishi deyiladi. Venadan qon oqishi bosib turadigan steril bog'lov qo'yish va gavdaning shikastlangan qismini baland ko'tarib qo'yish bilan to'xtatiladi.

Kapillyardan qon oqayotganda jarohatning butun yuzasi qonab turadi va qon tomchilab chiqadi. Kapillyar qon oqishini to'xtatish uchun odatda sterial, aksari, bosib turadigan bog'lov qo'yish kifoya. Bog'lovga qon shimilib qolsa, qo'shimcha bint o'rash zarur.

### 17.6. Nafas olish va yurak faoliyati to'satdan to'xtab qolganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish.

Yo'lda shikastlanish sodir bo'lganda (elektr tokidan zararlanganda, suvga cho'kkanda) nafas va yurak faoliyati birdaniga to'xtab qolishi mumkin.

Nafas–bir me'yorda takrorlanadigan nafas olish va nafas chiqarishdan iborat fiziologik jarayon bo'lib, organizm bilan tashqi muhit o'rtasidagi kislorod almashinuvini ta'minlaydi. Katta yoshdagi sog'lom odam minutiga 16-18 marta nafas oladi. Nafas markaziy asab tizimi tomonidan boshqariladi.

Nafas olish to'xtab qolganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish eng avvalo, o'pkaga havo yuritishdan iborat. Bunda har xil apparatlardan foydalanish sun'iy nafas olishning eng ta'sirchan usuli hisoblanadi. Bunday apparatlar bo'lmaganda og'izdan-og'izga puflash usulida sun'iy nafas oldiriladi. Sun'iy nafas oldirishning boshlanishidan oldin zararlangan kishini chalqanchasiga yotqizib va o'pkaning havo

o’tkazuvchi yo’llarida bemalol o’ta olishga ishonch hosil qilish, buning uchun bemor boshini imkoni boricha orqaga qayrilib turishini ta’minlash kerak.

Agar nafas to’xtashi bilan birga yurak faoliyati ham to’xtasa, bu holda bir vaqtning o’zida ham sun’iy nafas oldiriladi, ham yuragi massaj qilinadi.

## JAROHATLANISHDA VA QON OQISHDA BIRINCHI TIBBIY YoRDAM KO’RSATISH




## NAFAS OLISH VA YuRAK URISHI To’XTAGANDA BIRINCHI YoRDAM KO’RSATISH




H




**Nazorat savollari:**

1. Tibbiy yordam deganda nimani tushunasiz?
2. Tibbiy yordam bosqichlarini aytib bering?
3. Tibbiy ko’rik muddatlarini aytib bering?
4. Qon oqishda birinchi tibbiy yordam qanday ko’rsatiladi?
5. Nafas olish va yurak urishi to’xtaganda birinchi yordam qanday ko’rsatiladi?
6. Tibbiy yordam ko’rsatish talabini aytib bering?
7. Jarohatlanish nima va qanday ko’rinishlarda bo’lishi mumkin?
8. Bemorni mashinadan chiqarish, ko’tarish va tashish qanday amalga oshiriladi?
9. Qon tomirlar shikastlanganda qanday qon oqishlar kuzatiladi?
10. Tibbiy yordam ko’rsatishni tashkil qilishning qanday printsiplari mavjud?

## 18-MAVZU.
## Haydovchi va mansabdor shaxslarning Yo’l harakati qoidalarini buzganda, ularning intizomiy, O’zbekiston Respublikasining administrativ, jinoiy Qonunlari bo’yicha javobgarligi.

### REJA

1.Axloqiy javobgarlik;
2.moddiy javobgarlik;
3.ma’muriy javobgarlik;
4.jinoiy javobgarlik;

TAYaNCH IBORALAR:

Javobgarlik, axloq, moddiy, ma’muriy, jinoiy, ogoxlantirish, xoyfsan, qattiq xayfson, jarima, to’lov, maxsus huquq, boshqa ishga o’tkazish,kam maoshli ish, ishdan bo’shatish;

Huquqiy javobgarlik tushunchasi avtotransportda harakat xavfsizligini ta'minlash muhim va murakkab vazifa bo'lishi bilan birga iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga egadir. Bu vazifani to'g'ri hal qilish haydovchilarga bog'liqdir.

Amaliyotda ko'pgina yo'l-transport hodisalari sodir bo'lishiga haydovchilar o'z vazifalariga va fuqorolik burchlariga e'tiborsizlik bilan qaraganlari va tartibga rioya etmasliklari sabab bo'ladi.

Avtotransport ishtirokida sodir bo'lgan halokatlar oqibati jamiyatga katta ma'naviy va moddiy zarar yetkazadi. Bu holatlar ko'pincha davlat me'yoriy talablarining buzilishi bilan sodir bo'ladi.

Jamiyat manfaatlarini himoya qilish uchun avtotransport harakati qatnashchilariga yo'l qo'ygan qoidabuzarliklari uchun ta'sir etish choralari qo'llaniladi.

Qoidabuzarliklarga yo'l qo'ygan shaxslar qonun bilan belgilab qo'yilgan tartibga muvofiq jazolanadilar.

Haydovchi tomonidan yo'l qo'yilgan qoidabuzarlik tavsiflariga muvofiq to'rtta javobgarlik turi mavjud:

axloqiy;
moddiy;
ma'muriy;
jinoiy.

**Axloqiy javobgarlik**. Haydovchi mehnat shartnomasida ko'rsatilgan vazifani bajarmagan, ichki tartib-qoidalarga rioya qilmagan, xizmat burchini o'tayotgan paytda ATXga ziyon keltirgan bo'lsa, axloqiy javobgarlikka tortiladi. Mehnat intizomini buzganligi uchun ATX ma'muriyati haydovchini 1) ogohlantirishi, 2) hayfsan e'lon qilishi, 3) qattiq hayfsan berishi, 4) maoshi past ishga o'tkazishi, 5) ishdan bo'shatishi mumkin.

**Moddiy javobgarlik**. Haydovchining aybi bilan ATXga ziyon keltirilgan bo'lsa, u bu ziyonni to'lashi lozim. To'lov miqdori haydovchi o'rtacha maoshining uchdan bir qismidan oshmasligi kerak.

**Ma'muriy javobgarlik.** Avtotransportda yo'l qo'yilgan qoidabuzarliklar O'zbekiston Respublikasining ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida belgilangan holatlar bo'yicha javobgarlikka tortiladi.

Avtotransport bilan bog'liq bo'lgan qoidabuzarliklarning turlari 121-131, 133-143, 147 va 148 moddalarda o'z aksini topgan:

### 28-modda. Maxsus huquqdan maxrum qilish

**Muayyan shaxsni unga berilgan maxsus huquqdan (transport vositalarini boshqarish huquqidan, ov qilish huquqidan) maxrum qilish chorasi tuman (shaxar) sudining ma'muriy ishlar bo'yicha sudьiyasi tomonidan uch yilgacha muddatga qo'llaniladi. Bunday huquqdan mahrum qilish muddati o'n beshkundan kam bo'lmasligi kerak.**

Nogironligi sababli transport vositalarini foydalanadigan shaxslarga nisbatan transport vositalarini boshqarish huquqidan maxrum qilish chorasi qo'llanilishi mumkin emas, transport vositalarini alkagolь ichimlikdan, giyoxvandlik vositasi ta'siridan mast bo'lgan xolda yoki o'zgacha tarzda mast bo'lgan yo'l-transport xodisalari sodir etilgan joydan ketib qolish hollari bundan mustasnodir.

Asosiy tirikchilik manbai ovchilik qo'yilgan shaxslarga nisbatan ov qilish huquqidan mahrum etish chorasi qo'llanilishi mumkin emas.

## 31-modda. Ma'muriy javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlar

ma'muriy javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) aybdorning o'z qilmishidan chin ko'ngildan pushaymon bo'lishi;
2) aybdorning huquqbuzarlikninig zarali oqibatlari oldini olish, yetkazilgan ziyonni ixtiyoriy rivishda to'lashi yoki keltirilgan zarani bartaraf etishi;
3) huquqbuzarlikninig kuchli ruxiy hayajon ta'siri ostida yoki majburlov ta'sirida yoxud xizmat yuzasidan, moddiy yoki boshqa jixatdan qaramligi ta'siri ostida sodir etilishi;
4) huquqbuzarlikninig taxdid yoki majburlov ta'sirida yoxud xizmat yuzasidan, moddiy yoki boshqa jixatdan qaramligi ta'siri ostida sodir etilishi;
5) huquqbuzarlikninig voyaga yetmagan shaxs tomonidan sodir etilishi;
6) huquqbuzarlikninig xomilador ayol yoki o'n to'rt yoshgacha bo'lgan bolasini yakka o'zi tarbilayotgan shaxs tomonidan sodir etilishi.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida ishni ko'riyub chiquvchi organ (mansabdor shaxs)boshqa xolatlarni ham javobgarlikni yengillashtiruvchi holat deb topish mumkin.

## 33-modda. Yengilroq ma'muriy jazo chorasining qo'llanilishi

Organ (mansabdor shaxs) ma'muriy jazo chorasini qo'llanayotganda javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlarni va huquqbuzarning moddiyo axvolini inobatga olgan g'olda sababini albatta ko'rsatib turib ushbu Kodeksning Maxsus qismidagi moddalarning jazo belgilash qismida nazarda tutilgan eng kam jazodan ham yengiroq jazo chorasini qo'llanilishi mumkin.

## 36-modda. Ma'muriy jazo qo'llanish muddatlari

Ma'muriy jazo huquqbuzarlik sodir etilgan kundan boshlab, davom etayotgan huquqbuzarliklar uchun esa, huquqbuzarlik anaqlangan kundan boshlab kechiktirmay qo'llanilishi mumkin.

Jinoyat ishini qo'zg'atish rad etilgan yoki jinoyat ishi tutatilgan bo'lsa-yu, lekin huquqbuzarning xarakatlarida ma'muriy jazo chorasi jinoyat ishi qo'zg'atilishi rad etish yoki jinoyat ishini tugatish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan boshlab bir oydan kechiktirmay qo'llanilishi mumkin. (O'zR 30.04.2004. y. 621-11-son qonuni taxriridagi qism.)

Ushbu moddada nazarda tutilgan muddatlar ashyolari bojxanamunosabatlarini tartibga soladigan qonun xujjatlari asosida musodara qilish hallariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

**37-modda.Tugaganidan so'ng shaxs ma'muriy jazoga tortilmagan deb hisoblanadigan muddat**

Basharti ma'muriy jazoga tortilgan shaxs shu jazoni o'tash muddati tugagan kundan boshlab bir yil mobaynida yangi ma'muriy huquqbuzarlik sodir etmagan bo'lsa, mazkur shaxs a'muriy jazoga tortilmagan deb xisoblanadi.

**123-modda. Transport vositalaridan axlat yoki boshqa narsalarni tashlab yuborish**

Poezdlarning vagonlari, avtomobilь va shahar elektr transportidan axlat yoki boshqa narsalarni tashlab yuborish, -eng kam ish haqining o'ndan bir qismidan ikkidan bir qismigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

**124-modda. Transportda yong'in havfsizligi qoidalarini buzish**

Transportda belgilangan yong'in xavfsizligi qoidalarini buzish, fuqorolarga eng kam ish haqqaining ikkidan bir qismida bir baravaricha, mansabdor shaxslarga esa-bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

**125-modda. Transport vositalaridan foydalanish qoidalarini buzish**

Haydovchilar va yo'lovchilarning motoshlemlardan foydalanish qoidalariga rioya etmasligi,- eng kam ish xaqining yigirmadan bir qismi miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Haydovchilarning foydalanish man etiladigan darajada nosozlik bo'lgan transport vositalarin boshqarish ,-eng kam ish haqining uchdan bir qismgacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Haydovchilarning davlat texnika ko'rigidan o'tmagan yoki belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilmagan yoxud tormoz tizimida yoki rulь boshqaruvida yoxud ulovchi qurilmada nosozligi bo'lgan, xuddi shuningdek ishlayotganida tashqariga chiqarayotgan ifloslantiruvchi moddalarning miqdori, shuningdek shovqin darajasi belgalangan normadan ortiq bo'lgan yoxud tegishli ruxsati bo'lmay turib qayta jixozlangan transport vositalarini boshqarish, eng kam ish haqining ikkidan bir qismigacha miqdorda jarima solishga sabob bo'ladi.

Foydalanish belgilangan tartibda man etilgan tiransport vositalarning xuddi shuningdek davlat raqam belgisi o'zboshimchalik bilanechib olinishi yoxud davlat raqam belgisi yasama yoki o'zga usullarida o'zgartirilgan transport vositalarin boshqarish, eng kam ish xaqining uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarimi solishga sabob bo'ladi.

Korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga qarashli transport vositalrini ishdan tashqari vaqtda ulardan foydalanish shartlariga muvofiq keladigan tarzda maxsus jixozlanmagan joyda saqash,-fuqorolarga yeng kam ish xaqining ikkidan bir qismidan bir baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – bir baravaridan ikki baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Ushbu kodeksning 125,126,127,128,129,130,131,133,134,135,136,139,140,141,- moddalarida transport vositalari deyilganda barcha turdagi avtomobillar va traktorlar, shuningdek mototsikllar va boshqa mexanik transport vositalarninitushunmoq kerak.

## 126-modda. Ko'zgusimon va tusi o'zgartirilgan (qoraytirilgan) nostandart oynalar o'rnatilgan transport vositalaridan foydalanish

Ko'zgusimon, shuningdek tegishli davlat standartlarida belgilangan normalarni buzgan holda tayyorlangan tusi o'zgartirilgan (qoraytirilgan) o'ynalir o'rnatilgan transport vositalaridan foydalanish, - eng kam ish haqqinign bir baravari miqdorida jarimi solishga sabab bo'ladi. (O'zR 20.08.1999)y. 832-1 son qonuni tahriridagi qism)

## 127-modda. Transport vositalarining tovush chiqaruvchi va yorituvchi qurilmalaridan foydalanish qoidalarini buzish

Tovush signalini sababsiz berish, transport vositalariga uni ishlab chiqargan korxona nazardatutmagan tovush chaqaruvchi va yorituvchi qurilmalarni o'rnatish,xuddi shuninggdek ularni o'zgartirib o'rnitsh, eng kam ish haqqining bir birivari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.(O'zR 20.08.1999 y. 832-1-son qonuni taxriridagi qism)

Tegishli ruxsat oomiy turib transport vositalariga tovush chiqaruvchi va yorituvchi maxsus qurilmalarni o'rnatish., - ana shu qurilmalarni musodara qilib, fuqorolarga eng kam ish haqining baravaridan besh baravarigacha uch baravarigacha, miqdorga jarima solishga sabab bo'ladi. (O'zR 20.08.1999 y 832-1-son qonuni tahrirdagi sanktsiya)

## 128-modda. Transport vositalari haydovchilarning harakatini tegishli oshirib yuborishi, yo'l belgilari va yo'l harakatining boshqa qoidalari talablariga rioya qilmasligi

Transport vositalari haydovchilarning belgilangan harakat tezligini oshirib yuborishi, svetaforning yoki yo'l xarakatini tartibga soluvchining taqiqlovchi ishoralariga bo'ysunmasligi, piyodalar yo'lkasidan yurgizishi, ustunlik beruvchi, taqiqlovchi va ko'rsatma beruvchi yo'l belgilari talabiga, yo'lning harakat qismidagi harakatda o'tkazib yuborishi ko'rsatuvchi chiziqlarga rioya etmasligi, odam tashish. Transport vositalarini quvib o'tish, jamoat transporti to'xtaydigan bekatlar yoki piyodalar o'tish joylaridan yurish qodalarini, sutkaning qorong'u davrida yoki ko'rish cheklangan

sharoitlardayoritish asboblaridanfoydalanish qoidalarini buzishi shuningdek, yo'lovchilarga loy sachiratishi, eng kam ish haqining ikkidan bir qismidan bir baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Ushbu moddaning birincha qismida ko'rsatilgan huquqbuzarlik uchun ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidankeyin bir yil davomida xuddi shu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan xar qanday huqubuzarliklarnisodir etish, (O'zR 13.12.2002 y. 447 II son qonuni taxriridagi dispozitsiya), (oldingi taxrirga qarang) – eng kam ish xaqining bir baravaridan ikki baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Bir yil mobaynida ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan huquqbuzarliklardan uchtasini sodir etish, xuddi shuningdek to'sqinliksiz xarakat qilish huquqidan foydalanadigan transport vositalarining o'tib ketishiga xalaqit berish yoxud avriya xolati yuzaga kelishi olib borgan, yani yo'l harakatining boshqa qatnashchilari tezlikni, xarakat yulanishi keskin o'zgartirishiga yoki o'z xavfsizliklari yoxud boshqa fuqorolarning xavfsizligini ta'minlash maqsadida o'zga choralarni ko'rishga majbur qiluvchi huquqbuzarliklarni sodir etish –eng kam ish haqining ikki baravaridan uch baravarigacha maqdorida jarima solinga sabab bo'ladi.(O'zR 26.12.1997. y. 549-I son qonuni taxriridagi qism)

Bir yil mobaynida ushbu moddaning birincha qismida nazarda tutilagan huquqbuzarliklardan to'rtasini va undan ko'rog'ini sodir etish – eng kam ish xaqining uch baravari miqdorida jarima solishga yoki transport vositasini boshqarish huquqidan olti oy muddati mag'rum etishga sabab bo'ladi. (O'zR 26.12.1997 y. 549-I- son qonuni tahriridagi qism), (O'zR 13.12.2002 Y. 447-II- son qonuni tag'riridagi sanktsiya), (oldingi taxrirga qarang)

## 128-1- modda. Transport vositasini boshqarish vaqtida haydovchilarning telefondan foydalanishi (O'zR 26,12,2006 y. O'Rq-73- son qonuni tahriridagi modda)

Transport vositasini boshqarish vaqtida xaydovchilarning telefondan foydalanish, -eng kam ish haqining bir baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Xuddi shunday xuquqbuzarlik mv'muriy jazo qo'llanilganda keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa,- eng kam ish haqinng ikki baravaridan uch barvarigacha miqdorda jarima solishga yoki transport vositasini boshqarish huquidan olti oygacha muddatga maxrum etishga saba bo'ladi.

## 130-modda. Transport vositalari haydovchilarning temir yo'lning o'tish joylaridan o'tish qoidalarini buzishi

Transport vositalari xaydovchilarning temir yo'lning o'tish joylaridan o'tish qoidalarini buzishi, -eng kam ish haqining bir baravaridan ikki baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa,- eng kam ishhaqining ikki baravaridan besh

baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki transport vositasini boshqarish huquqidan olti oydan bir yilgacha muddatga maxrum etishga sabab bo’ladi. (O’zR 26.12.1997 y. 549-I-son qonuni taxriridagi qism)

## 131-modda. Transport vositalarini mast xolda boshqarish

Haydovchilarning transport vositalarini alkagolli ichimlikdan, giyoxvand modda ta’sirida yoki o’zgacha tarzda mast xolda boshqarish, - eng kam ish haqining besh baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki transportvositasini boshqarish huquqidan bir yildan ikki yilgacha muddatga maxrum etishga sabab bo’ladi. (O’zR26.12.1997 y.549-I-son qonuni taxriridagi qism)

Xuddi shunday huquqbuzarliq ma’muriy jazo qo’llanilgandan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo’lsa,- transport vositasini boshqarish huquqidan uch yil davomida takror sodir etilgan bo’lsa,- transport vositasini boshqarish xuquqidan uch yil muddatga mahrum etishga sabab bo’ladi.(O’zR 26.12.1997 y. 549-I-son qonuni tahriridagi qism)

O’zR 26.12.1997 y. 549-I-son qonuniga muvofiq ikkinchi qism uchinchi deb hisoblansin

Transport vositalarini boshqarish huquqi bo’lmagan shaxslarning transportt vositalarini alkagolli ichimlikdan, gayoxvandmodda ta’siridan yoki o’zgacha tarzda mast xolda boshqarish,-
Eng kam ish haqining yetti baravarimaqdorida jarima solishgasabab bo’ladi. (O’zR 26.12.1997 y. 549-I-son qonuni tahriridagi qism)

Alkagolli ichimlikdan, giyoxvand modda ta’siridan yoki o’zgacha tarzda mast tarzda mast shaxsga transport vositasini boshqarishni topshirish,-eng eng kam ish haqining besh baravari miqdorda jarima solishga yoki transport vositasini boshqarish huquqidan ikki yildan uch yilgacha muddatga maxrum etishga sabab bo’ladi.

## 133- modda. Transport vositalari haydovchilarning yo’l harakati qoidalarini buzishi jabrlanuvchiga yengil tan jaroxati yoki ancha miqdorda moddiy zarar yetkazilishiga olib kelishi

Transport vositalari haydovchilarning yo’l xarakati qoidalarint buzishi jabrlanuvchiga yengil tan jaroxati yoki ancha miqdorda moddiy zarar yetkazishiga olib kelsa,- lekin ancha miqdorda moddiy zarar yetkazmasi,- eng kam ish haqining uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki transport vositalarini boshqarish huquqidan bir yildan uch yilgacha muddatga maxrum etishga sabab bo’ladi.

Ancha miqdordagi moddiy zarar deganda, eng kam ish haqining besh baravari maqdoridan oshib ketgan zarar tushuniladi.

## 134- modda. Haydovchilarning yo’l harakati qoidalarini buzishi transport vositalarining yoki boshqa mol-mulkning shikastlanishiga olib kelishi

Transport vositalari haydovchilarning yo'l harakati qoidalarini buzish transport vositalari, yoki boshqa mol-mulk shikastlanishiga olib kelsa, lekin ancha miqdorda moddiy zarar yetkazmasa,- eng kam ish haqining bir baravaridan ikki daravarigacha miqdorda jarima solishga yoki transport vositasini boshqarish huquqidan olti oydan bir yilgacha muddatga mahrum etishga sabab bo'ladi.

**135-modda. Boshqarish huquqini beruvchi hujjatlari bo'lmagan shaxslarning transport vositalarini boshqarishi**

Haydovchilik guvoxnomasi yoki uning taloni, ishonchnoma, transport vositasini ro'yxatdan o'tkazganlik haqidagi yoki transport vositasini taalluqli shzga xujjatlar yonida bo'lmagan xaydovchilarni transport vositalarini boshqarishi, xuddi shuningdek ishonchnomalarini, transport vositalarini boshqa shaxsga berish va ijiraga berish shartnomalarini belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazmasdan (hisobga qo'ymasdan) transport vositalarini boshqarish –(O'zR 27.09.2006 y. O'Rq-56 son qonuni taxriridagi barirnchi qismdispozitsiyasi) eng kam ish haqqining beshdan bir qismi miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Transport vositalarini boshqarish huquqi bo'lmagan shaxslarning shu vositalarni boshqarish, xuddi shuningdek boshqarish xuquqi bo'lmagan shaxsga transport vositalarini boshqarilishning topshirilishi, eng kam ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Transport vositalarini boshqarish huquqidan mahrum etilgan shaxslarning bunday vositalarini boshqarish, -eng kam ish haqqining uch baravaridan besh baravarigacha maqdarda jarima solishga saba bo'ladi.

**136-modda. Transport vositalari haydovchilarning mastligi yoki mast emasligini aniqlash uchun tekshiruvdan o'tishdan bo'yin tovlashi**

Transport vositalari haydovchilarning alkagolli ichimlikdan, giyoxvand modda ta'siridan yoki o'zgacha tarzda mastligi yoki mast emasligi belgilangan tartibda aniqlash uchun tekshiruvdan o'tishdan bo'yin tovlashi, -eng kam ish haqining uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki transport vositasini boshqarish huquqidan olti oydan bir yilgacha muddatda maxrum etishga sabab bo'ladi. (O'zR 26.12.1997 y. 549-I son taxriridaga sanktsiya )

Xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo qo'llanigandan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa ,-transport vositasini boshqarish huquqidan bir yildan uch yilgacha muddatda maxrum etishga sabab bo'ladi. (O'zR 26.12.1997. y 549-I son qonuni taxriridagi qism)

O'zR 26.12.1997. y 549-I- son vonuniga muvofiq ikkinchi qism uchinchi deb hisoblansin

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan huquqbuzarlik transport vositasini huquqi bo'lmagan shaxs tomonidan sodir etilgan bo'lsa, - eng kam ish haqining besh baravaridan yetti baravarigacha miqdoarda jarima solishga sabab bo'ladi. (O'zR 26.12.1997 y. –son qonuni tahriridagi qism)

## 137-modda. Yo'l transport xodisasi yuz bergan joydan ketib qolish

Yo'l-transport hadisasi qatnashchilarining belgilangan qoidalarini buzgan holda hodisa yuz bergan jaydan ketib qolishi, eng kam ish haqqaining ikki baravaridan beo' baravarigacha miqdorda jarima solishga transport vositalarini boshqarish huquuidan bir yildan uch transport vositalaridan shaxsiy boylik orttirish maqsadida foydalanishi, eng kam ish haqqining ikki baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sobab bo'ladi.

## 138- modda. Piyodalar va yo'l harakati boshqa ishtirokchilarining harakat qoidalarini buzishi

Piyodalarning yo'l harakatini tartibga soluvchi signallarga bo'ysunmasligi, ularning yo'lning harakat qismini belgilanmagan joylardan kesib o'tishi, shuningdek moped va velosiped haydovchilarning, aravakashlar va yo'ldan foydalanuvchi boshqa shaxslarning yo'l harakatini tartibga soluvchi signallarga bo'ysunmasligi, ustunlik beruvchi, taqiqlovchi yoki ko'rsatma beruvchi yo'l belgilari talablariga rioya etmasligi, -eng kam ish qaqining o'ndan bir qismi miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Haydovchilarga har xil xizmat ko'rsatish maqsadida yo'lning qatnov qimsida fuqorolarning turishi, yo'llarga ajratilgan mintaqa tegrasida mol boqish,-eng kam ish haqining o'ndan bir qismida uchdan bir qismigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Ushbu moddaning birinchi yoki ko'rsitilgan shaxslarning yo'l harakati qoidalarini buzishi avriya xolitini vujudga keltirsa,-eng kam ish haqining uchdan bir qismidan ikkidan bir vismigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

## 139-modda. Nosoz transport vositalarini yo'lga chiqarish va transport vositalarini foydalanish qoidalarini boshqacha tarzda buzish

Nosozligi tufayli foydalanish taqiqlanagan yoki tegishli ruxsat olmay turib qayta jixozlangan yoxud ko'zgusimon, shuningdek belgilangan normalarni buzgna holda tusi o'zgartirilgan yoki belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilmagan yoxud texnika ko'rigidan o'tkazilmagan transport vositalarini yo'lga chiqarish,-transport vositalarining texnik holati va ulardan foydalanish uchun ma'sul mansabdor shaxslarga eng kam ish xaqining ikki baravaridan miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

## 140-modda. Mast holdagi haydovchilarning yoki transport vositalarini boshqarish huquqi bo'lmagan shahslarning transport vositalarini boshqarishga yo'l qo'yish

Alkogolli ichimlikdan giyoxvand modda ta'siridan yoki o'zgacha tarzda mast bo'lgan haydovchilarning yoki transport vositalarini boshqarish huquqi bo'lmagan

shaxslarning transport vositalarini boshqarishga yo'l qo'yish, - mansabdor shaxslarga eng kam ish haqqining uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

### 141-modda. Transport vositalaridan shaxsiy boylik orttirish maqsadida foydalanish

Haydovchilarning korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga qarashli transport vositalarini shaxsiy boylik orttirirsh maqsadida foydalanishi, eng kam ish haqining ikki baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishag sabab bo'ladi.

### 142-modda. Xavfli moddalar va ashyolarni transportda tashish qoidalarini buzish

Temir yo'l, xavo va suv transportida qo'l yuki sifatida yonuvchan, zaharlovch, tez alangalanuvchi, porlovchi hamda zaxarli moddalar va ashyolarni olib yurish qoidalarini buzish,-eng kam ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Yuk saqlash kamerasiga portlovchi, tez alangalanuvchi, zaxarli va bodbo'y moddalar va ao'yolarni topshirish, ana shu moddalar va ashyolarni haqqini to'lash sharti bilan olib qo'yib yoki olib qo'ymay yoxud musodara qilib yoki musodara qilmay, eng kam ish haqqining bir baravaridan ikki baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Trolleybusda, tramvayda, metropolitentda, avtobusda, mashrutkada portlovchi, tez alangalanuvchi, zaharlovchi hamda zaharli moddalar va ashyolarni olib yurish,-eng kam ish haqqining ikkidan bir qismidan bir baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

### 143-modda. Kira haqi to'lamasdan yuk olib yurish

Trolleybusda, tramvayda, shahar ichida va shahar atrofiga qatnaydigan avtobusda, mashrut taksisida kira haqi to'lamasdan yuk tashish yurish.- yuk bir yuk joyi uchun eng kam ish haqqining o'ndan bir qismi miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

### 144-modda Transportda chiptasiz yurish

Yo'lovchining transportida chiptasiz yurishi, - o'n yoshdan shn olti yoshgacha bo'lgan boladarni chiptasiz odib yurish:

a) shaxar atrofiga qatnaydigan poezdlarga.-eng kam ish haqqining beshdan bir qismi miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi;

b) mahalliy va uzoq masofaga qatnaydigan poezdlarda,-eng kam ish haqqining ikki baravari maqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

SHaxar atrofiga qatnaydigan poezdlarda, maxalliy va uzoq masoofaga qatnaydigan poezdlarda besh yoshdan o'n yoshgacha bo'lgan ьolalarni chiptasiz olib yurish,-eng kam ish haqqining beshdan bir qismi miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Yo’lovchilarning samalyotda chiptasiz yurish, - eng kam ish haqining uch baravari miqdorida jarima solishga sibab bo’ladi.

SHaxarlararo qatnaydigan avtobusda chiptasiz yurish,- eng kam ish haqining bir baravari- miqdorida jarima solishga sabab bo’ladi.

Yo’lovchining trolleybusda, tramvayda, shaxar ichida va shaxar atrofiga qatnaydigan avtobusda chiptasiz yurishi,- eng kam ish haqqining o’ndan bir qismi miqdorida jjarima solishga sabab bo’ladi.

## 145-modda. Yo’lovchilarni chiptasiz tashish

Havo, temir yo’l transportida yo’lovchilarni chiptasiz tashish,- eng kam ish xaqqining uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo’ladi.

Suv, avtomobil’ transportida va shahar elektr transportida yo’lovchilarni chiptasiz tashish,- eng kam ish haqqaining ikki baravaridan uch baravarigacha jarima solishga sabab bo’ladi.

## 147-modda. Yo’llarga, yo’l inshoatlariga, yo’l harakatini tartibga solib turuvchi texnik vositalariga shikast yetkazish, ularni saqlash qoidalarini buzish

Yo’llarga, temir yo’ldan o’tish joylariga, yo’l xarakatini tartibga solib turuvchi boshqa inshoatlar yoki texnik vositalarga shikast yetkazish, shuningdek yul xarakatiga qasddan halal berish, shu jumladan yo’l qoplamasini ifloslantirish yo’li bilan halal berish, -eng kam ish haqqining bir baravaridan ikki baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo’ladi.

Yo’l belgilarini o’rnatish , yo’llarni, temir yo’ldan o’tish joylari va boshqa yo’l inshoatlarini harakat uchun xavfsiz xolda saqlash qoidalarini buzish yoki yo’lning ayrim qismlaridan foydalanish xarakat xavfsizligiga taxdid etiladigan paytda ularga harakatni O’z vaqtida taqiqlash yoki cheklash choralarini ko’rmaslik, - mansabdor shaxslarga eng kam ish haqqining ikki baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo’ladi.

## 194-modda. Militsiya xodimining qonuniy talablarini bajarmaslik

Militsiya xodimining huquqbuzarlikning to’xtatish, xujjatlarini tekshirish uchun taqdim etish, militsiyaga borish yoki ko’rsatilgan muddatda militsiyada bo’lishdan iborat qonuniy talablarni bajarmay militsiyaga kelmaslik, transport vositasini to’xtatish, jabrlanuvchiga yordam ko’rsatish haqidagi qonuniy talablarni bajarmaslik yoxud militsiya xodimining qonuniy talablariga boshqacha tarzda bo’ysunmaslik xuddi shuningdek jamoit tartibini saqlash xamda fuqorolarning huquq va erkinliklarini ta’minlash vazifalarini amalga oshirayotgan boshqa shaxslarning qonuniy talablarini bajarmaslik, - eng kam ish haqqining ikkidan bir qismidan ikki baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo’ladi.

Huddi shunday huquqbuzarlik ma’muriy jazo chorasi qo’llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo’lsa,eng kam ish haqqining ikki

baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki besh sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi.

### 286-modda. Ma'muriy yo'l bilan ushlab turish

Ma'muriy yo'l bilan ushlab turish to'g'risida bayonnoma tuzilib, unda: bayonnoma tuzilgan sana va joy, bayonnoma tuzgan shaxsning lavozimi, familiyasi, ismi, otisining ismi; ushlab turilgan shaxs haqidagi ma'lumotlar: uni ushlab turish vaqti, joyi va uning asoslari ko'rsatiladi.

Bayonnoma uni tuzgan mansabdor shaxs va ushlab turilgan shaxs tomonidan imzolanadi. Ushlab turilgan shaxs bayonnomaniimzolashdan bosh tortgan taqtirda, bayonnomaga shu haqda yozib qo'yiladi.

Ushlab turilgan shaxsning iltimosiga ko'ra, u ushlab turilgan joy haqida uning qarindash-urug'lari, advokat, ish yoki o'qish joyidagi ma'muriyat xabardor qilib qo'yiladi. Voyaga yetmagan shaxs ushlab turilgani haqida uning ota-onasi yoki ular o'rnini bosuvchi shaxslar albatta xabardor qilinadi.

### 292-modda. Transport vositasini boshqarishdan chetlatish mastlik holatini aniqlash uchun tekshiruvdan o'tkazish.

Transport vositalarini boshqarayotgan mastlik holatida deb xisoblashga yetarli asoslar bo'lgan shaxs transport vositasini boshqarishda chetlashtirilishiva mastlik holatini aniqlash uchun belgilangan tartibda tekshiruvdano'tkazilishi kerak.
Mazkur shaxsni tekshirishga yuborish va bu tekshiruvni o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi va Adliya vazirligi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

### 293-modda. Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish ta'minlash choralari ustidan shikoyat berish.

Ma'muriy yo'l bilan ushlab turish, shaxsin ko'rikdan o'tkazish, ashyolarini ko'zdan kechirish, transport vositalarini ushlab turish va ko'zdan kechirish, ashyo va hujjatlarni olib qo'yish, transport vositasini boshqarishdan chetlatish ustidan mansabdor shaxs yuqori organga (mansabdor shaxsga), prokurorga yoki sudga shikoyat berishi mumkin. Ma'muriy jazolarning turlari: yo'l qo'ymaslik choralari (vaqtincha transport vositasidan foydalanishni taqiqlash); ma'muriy choralar qo'llash (ogohlantirish, jarimaga tortish, transport vositasini boshqarish huquqidan mahrum etish va boshqalar) kiradi.

**Jinoiy javobgarlik.** Jinoiy javobgarlik deb davlat oldida sodir etgan jinoiy ishi uchun javob berishiga aytiladi.

Jinoyat - biron bir harakat natijasida jamoatchilikka ziyon yetkazish va fuqarolarning qonun bilan belgilangan haq huquqlarni poymol etishdir.

Jinoiy javobgarlik uchun quyidagicha jazo turlari belgilangan: ozodlikdan mahrum etish, ozodlikdan mahrum etilmagan holda ahloq tuzatish ishlari, ba'zi bir

turdagi mehnat faoliyatini cheklash, egallab turgan lavozimidan bo’shatish, jamoat ta’sirini ko’rsatish, jarima solish.

Jinoiy javobgarlikka faqat sud qaroriga muvofiq, qonunda ko’rsatilgan tartibda tortiladi.

Avtotransportdagi jinoiy javobgarliklarga huquqbuzarliklar, og’ir oqibatlarga olib kelgan hollar (insonlar jarohat olganda va halok bo’lganda, katta miqdordagi moddiy zarar yetkazilganda transport vositalarini olib qochganda va boshqalar) kiradi.

**O’zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi**
(ko’chirma)

**266-modda. Transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish**

Transport vositasini boshqaruvchi shaxs tomonidan transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish badanga o’rtacha og’ir yoki og’ir shikast yetkazilishiga sabab bo’lsa eng kam oylik ish haqqining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolashadi. (O’zR 20.08.1999y 832-I-son qonuni tahriridagi sanktsiya)

O’sha qilmish odam o’lishiga sabab bo’lsa,-mauyyan huquqdan mahrum qilib, yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. (O’zR 20.08.1999 y. 832-I son qonuni tahriridagi sanktsiya)

O’sha qilmish:

a) odamlar o’limiga;

b) haloqatga;

v) boshqa og’ir oqibatlarga sabab bo’lsa, -muayyan huquqdan mahrum qilib, o’n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.(O’zR 20.08.1999 y. 832-I-son qonuni axriridagi sanktsiya)

**267-modda. Transport vositasini olib qochish**

Transport vositasini olib qochish –uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanidi.

O’sha harakat: a) takroran yoki xavfli retsidivisit tomonidan;

b) bir gurux shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo’lsa, -besh yildan o’n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. (O’zR 29.08.2001 y. 254 II-son qonuni tahriridagi sanktsiya).

